

NAZAROV A.A.

*EKOLOGIYA VA TABIATNI
MUHOFAZA QILISH*



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

NAZAROV A.A.

**EKOLOGIYA VA TABIATNI
MUHOFAZA QILISH**

O'QUV QO'LLANMA

110 000-Pedagogika ta'lif sohasi yo'nalishlari uchun

Namangan – 2020

**Nazarov A.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – Namangan.
“Namangan” nashriyoti, 2020, 230 bet.**

Mazkur o'quv qo'llanma “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanidan 110000- Pedagogika ta'lif sohasi yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2020 yil 15 yanvardagi yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan (Bayonnomma № 6).

Ushbu o'quv qo'llanmada ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fani predmeti tarixi, ekologik ta'limning maqsadi va vazifalari, inson va tabiat munosabatlari, tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik va ularning amaldagi faoliyati, muhit tushunchasi, ekologik omillar, biotik munosabatlar, biologik maromlar, populyatsiya, ekosistemalar, biosfera haqida ta'limot, noosfera tushunchasi, tabiiy resurslar, atmosfera tarkibi, tuzilishi, ahamiyati, ifloslanish manbalari, suv resurslari va ularni muhofaza qilish, alohida muhofaza qilinadigan xududlar haqidagi mavzular keng yoritib berilgan.

MA'SUL MUHARRIR:

Soliyev E.A.– geografiya fanlari nomzodi, dotsent

TAQRIZCHILAR:

Tog'ayev I. - biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Jumaxanov Sh. -geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

© Nazarov A.A.

© “Namangan” nashryoti, 2020 y.

KIRISH

Globallashuv jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bir davrda tabiiy muvozanatni, ya’ni ekologik holatni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish dunyo miqyosiga ega bo’lgan muammo bo’lib qolmoqda. Inson tabiatning bir bo’lagi. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan rejali va samarali foydalanish insonlarning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bundan ko’rinadiki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni kishilar baxt-saodati uchun xizmat qildirish muhim ilmiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammo bo’lib, uni hal etishda, ya’ni tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda inson hayoti uchun va kelajak avlod manfaatlarini ko’zlab optimallashtirishda tabiiy fanlarning ahamiyati kattadir. Tabiiy boyliklarning xo’jalik muomalasiga kiritish va ulardan inson ehtiyojiga ko’proq sarf qilish kuchaygan sari ming yillar davomida barqaror bo’lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o’rtasidagi munosabat murakkablashib, joylarda ekologik holat keskinlashib bormoqda.

Respublikadagi ekologik muammolar, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni rejalashtirish jarayonida uning salbiy oqibatlari natijasida keladigan noxushliklarni oldindan ko’rmaslik oqibatida kelib chiqdi. Sug’oriladigan yerlarda eng yuqori miqdorda turli zaharli kimyoviy moddalardan foydalanish, almashlab ekishni bo’g’ib qo’yish, paxta yakkahokimligiga keng yo’l ochish, yerlarning meliorativ sharoitiga e’tibor bermaslik, chorvalar mahsulorligini oshirish to’g’risida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirmsaslik — joylarning tabiiy ekologik muhitlariga qarab turli mahalliy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo’ldi.

Yuqorida takidlangan ekologik muammolarni bartaraf etish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida soha vakillari oldiga - “atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e’tiborni kuchaytirishimiz kerak”¹-degan vazifani qatiy belgilab berdi.

Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi Ekologik ta’limni rivojlantirish kontseptsiyasida ta’kidlanganidek, - “Ekologik muammolarning tobora global

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 24 yanvar.

ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'limg-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ekologik ta'limgning dolzarbligi mamlakatimiz tabiatni, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi”².

Shuning uchun bugungi kunda ta'limg tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'limg dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtiriish masalasi muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi ko'rsatmalarga mivofiqtayyorlangan «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish» o'quv qo'llnamasi hozirgi davr ekologiyasining asosiy vazifalari, turli ekologik muammolar haqida to'la ma'lumot olish va ularni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'quv qo'llanmada hozirga qadar chop etilgan ekologiya va tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi bir qator darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda ko'plab matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanib tayyorlandi.

Qo'llanmani tayyorlash va nashr etishda o'zlarining qimmatli maslahatlarini bergen Namangan davlat universitetining ekologiya kafedrasini professor-o'qituvchilariga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi. Shuningdek, muallif qo'llanma to'g'risida bildirilgan fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

² O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limgni rivojlantirish kontseptsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydag'i 434-son qarori.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr № 723 - XII).
- O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni (1992 yil 9 dekabr № 754- XII).
- O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni (1993 yil 6 may № 837-XII).
- O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni (1996 yil 27 dekabr № 353-1).
- O'zbekiston Respublikasining «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonuni (1997 yil 26 dekabr № 543-1).
- O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonuni (1997 yil 26 dekabr № 545-1).
- O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (1998 yil 30 aprel № 599-1).
- O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida»gi qonuni (1999 yil 15 aprel № 770-1).
- O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni (1999 yil 20 avgust № 824-1).
- O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 25 may №73-11).
- O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 31 avgust № 116 - II).
- O'zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 31 avgust № 120 - II).
- O'zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to'g'risida»gi qonuni (2002 yil 5 aprel № 362 - II).
- O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonuni (yangi taxrirda 2002 yil 13 dekabr № 444 - II).
- O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonuni (2004 yil 3 dekabr № 710 - II).
- O'zbekiston Respublikasining «Ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Montreal protokoliga kiritilgan tuzatishni ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi qonuni (2006 yil 7 sentyabr № O'RQ-44).
- O'zbekiston Respublikasining «Ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Montreal protokoliga kiritilgan tuzatishni ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi qonuni (2006 yil 7 sentyabr № O'RQ-45).



1-§. Kirish. Ekologiya kursi, vazifasi, maqsadi, tuzilmasi va tarixi, fanni o'rganish usullari

Mavzu rejasi


- Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tarixi;*
- Ekologiya fanini rivojlanish bosqichlari;*
- Ekologik tadqiqotlarning amaliy ahamiyati;*
- Hozirgi zamон ekologiya fani tuzilmasi;*
- Tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar.*

Ma'lumki, so'nggi yillarda «Ekologiya» so'zi juda ommaviylashib ketdi. Ko'pincha atrof-muhitning nomaqbul holati haqida gapirganda bu so'z tez-tez tilga olinadi. Ekologiya - biologiya fanlari turkumiga mansub bo'lib, hozirgi vaqtda mustaqil fan sifatida shakllandi.

«Ekologiya»-yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi.

Ekologiya atamasini fanga birinchi marta 1866 yilda nemis biologi Ernest Gekkel kiritgan. «Ekologiya» so'zi (yunoncha *oykos-uy*, yashash joyi, maskan, *logos-fan*) o'z mazmuniga ko'ra, «uy haqidagi, o'zining yashash joy haqidagi fan» degan ma'noni anglatadi. Yanada umumiyoq ma'noda ekologiya-bu organizmlarning ularni o'rab turgan yashash muhiti bilan o'zaro munosabatini o'rjanuvchi fandir.

Tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum. Antik davrda yashagan faylasuflarning asarlarida hayvonlarning turli instinctlari, baliqlar va qushlarning migratsiyalari, o'simliklarni tashqi qiyofasi tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirildi. Uyg'onish davridagi ishlarda o'simlik va hayvonlarning tuzilishi yashash sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganildi.




E. Gekkel


XVII – XVIII asrlardagi ekologik ma'lumotlar tirk organizmlarning ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgan edi. J. Byuffon [1707-1778] hayvonlar tuzilishida tashqi muhit ta'sirini ko'rsatdi. J.B.Lamark [1774-1829] evolyutsion ta'limotni o'rtaqa tashlab, hayvon va o'simliklar evolyutsion o'zgarishlarida eng muhim omil bo'lgan tashqi muhit ekanligini aytdi. Ch. Darwin "Turlarning kelib chiqishi" [1859] asarida "Tabiatdagi yashash uchun kurash, ya'ni tur bilan muhit o'rtaсидаги har qanday qarama –qarshiliklarning ko'rinishlari tabiiy tanlanishga olib keladi va evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchidir " deb qaraydi.




J. Byuffon



J.B.Lamark



A.N. Beketov



Ch. Darwin

XIX asrning ikkinchi yarmida A.N. Beketov [1825-1902] o'simlik va hayvon tuzilishi xusisiyatlari ularning geografik tuzilishi bilan bog'liqligi Middendorf A.F.[1870] hayvonlar hayotida buni o'rganadi. K. Myobius [1977] biotsenozlar mohiyatini ochib berdi.

O'simliklar jamoasi haqida G.F.Morozov va Sukachev asos soldi. Rus olimlari Keller B.A., Alyoxin B.B., Raminskiy B.G., Shennikov A.P. va chet ellik olimlar Klementes F., Raukiyer, T.Dyu Rie, B Raun - Blanke I. va boshqalarning

fitotsenologik ishlari biogetsenologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Umumiyligi rivojlanishida Ya.N. Kashkarov "Muhit va jamoa" asari birinchi darslik bo'lib qoldi.

Tensli A [1935] ekosistema, Sukachev [1942] tomonidan biogeotsenozi haqidagi ta'limotlarni yaratilishi 1950 yillarning boshida G.Odum, Yu.Odum, R.Untekker, R.Margallef va boshqalar biologik mahsuldarlikning nazariy asoslarini yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda ekologiyaning ijtimoiy roli ortib bormoqda va u tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning nazariy asosi hisoblanadi.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan **Muhammad Muso al-Xorazmiy**, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

O'rta Osiyoni o'rgangan olimlardan I.A.Severstov, A.N.Krasnov, D.N. Kashkarov, E.R.Korovin maktablarini shakllanishida ekologik yo'naliш muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

P.A.Baranov, I.A.Raykova, R.I.Abolin, M.V.Kul'tiasov, I.I.Granitovlarning ekologo-fitostenologik qarashlari ham ular chop ettirgan bir qancha asarlarda yoritildi.

Kashkarov D.N, Zoxidov T.Z, Meklenburtssov R.N. biostenozlarni ekologik nuqtai-nazardan tasvirlashdi.

Xalqimiz qadimdan ekologik madaniy merosga ega bo'lib kelgan. Shuningdek o'tgan buyuk allomalarimizning ham tabiat, tirik organizmlar va ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalariga doir masalalarga to'xtalib o'tganligining guvohi bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi FA Botanika, Zoologiya institutlari olimlari va hayvonlar ekologiyasiga bag'shlangan ishlarni olib borganlar va bormoqdalar.

O'zbekiston o'simliklar dunyosini ekologik, floragenetik va fitostenologik yo'naliшlarda M.S.Popov, E.P.Korovin, K.Z.Zokirov, A.Muzaffarov, I.I. Granitov, S.S.Saxobiddinov, M.M.Nabihev, A.Butkov va b.q. hisoblanadi.

O'zbekistonda ekologik yo'naliшdagi ishlarning asoschilari D.N.Kashkarov,

va E.P.Korovin hisoblanadi. Ularning 1930 yillarda chop etilgan “Muhit va jamoa”, “O’rta Osiyo va Qozog’ston cho’llarining turlari va ulardan xo’jalikda foydalanish istiqbollari”, “Cho’ldagi hayot” asarlarining yaratilishi bo’ldi.

O’zbekistonda hayvonot olamini o’rganish D.N.Kashkarov faoliyati bilan bog’liq. U 1928 yilda AQSh ga bordi va bu erda ekologiya o’sha vaqtida ancha rivojlangan edi. U 7 oy yirik ekologlarning Adams, Shelvord, Chepman, Grinell, Elli, Teyler, Forxis va boshqalarning ishlarini o’rgandi va 12 ta universitet, muzey va qo’riqxonalar bilan tanishdi.

Uning davomchilari akademiklar T.Z.Zoxidov, A.M.Muhammadiyev, O’zFAsining muxbir a’zolari V.V.Yaxontov, M.A.Sultonov, R.O.Olimjonov hayvonot olamining tadqiq qilishda ekologik yo’nalishda izlanishlar olib borganlar. Bu borada E.Gan, O.G.Davletshina, M.Qodirova, X.S.Solixboyev, O.P.Bogdanov, G.I.Ishunin va b.q. ishlari ham taxsinga sazovor.

Bugungi kunda O’zFA zoologiya institutining O’zFA muxbir a’zosi, prof. D.A.Azimov boshchiligidagi olimlarning olib borayotgan ishlari mustaqil vatanimizda hayvonot olami ekologiyasining dolzarb muammolariga bag’ishlangan.

Hozirgi zamon ekologiya fani tuzilmasi. Ekologiya fanining nazariy asosi populyatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera kabi tushunchalar hisoblanadi. Shuning uchun ham ko’pincha umumiyligi ekologiya to’rt bo’limga bo’lib o’rganiladi, ya’ni autekologiya, populyatsion ekologiya, sinekologiya va biosfera haqidagi ta’limotlardir.

1.Autekologiya («autos»—yunoncha so’z bo’lib, «o’zi» degan ma’noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan munosabatlarini, turlarning qanday muhitga ko’proq va uzviy moslashganlini yoritadi.

2.Populyatsion ekologiya («populyason»— frantsuzcha so’z bo’lib, «aholi» degan ma’noni bildiradi) populyatsiyalar dinamikasi, ma’lum sharoitlarda turli organizmlar sonining o’zgarishi (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3.Sinekologiya («sin»— yunoncha so’z bo’lib, uning ma’nosini «birgalikda» demakdir) biogeotsenozlarning tuzilishi va xossalari, ayrim o’simlik va hayvon



turlarining o'zaro aloqalarini hamda ularning tashqi muhit bilan bo'lgan munosabatlarini o'rGANADI.

4. Ekosistemalarni tadqiq qilishning rivojlanishi ekologiyaning yangi bir bo'limini, ya'ni biosfera (yunoncha «bios»—«hayot», «sfera»—«shar») haqidagi ta'lilotni vujudga keltirdi. Ushbu ta'limotning asoschisi V. I. Vernadskiy hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya'ni yer qobig'idagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi.

Umumiy ekologiya fani bir nechta tarmoqlarga ajratiladi. 1. Dinamik ekologiya. 2. Kosmik ekologiya. 3. «Katta» global megaekologiya. 4. Analitik ekologiya. 5. Amaliy ekologiya. 6. Sanoat, muhandislik va qishloq xo'jalik ekologiyasi. 7. Tibbiyot ekologiyasi «noozogeografiya». 8. Bioekologiya. 9. Landshaftlar ekologiyasi. 10. Inson ekologiyasi (1921yil Borjee va Park). 11. Evolyutsion ekologiya. 12. Demoekologiya. 13. Ijtimoiy ekologiya. 14. Shaharlar ekologiyasi. Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy

bog'lanishlarini ifoda etar ekan, u shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishning ajralmas qismi hamdir.



Savol va topshiriqlar

1. Ekologiya fani nimani o'rghanadi?
2. Ekologiya fanining tarixi haqida so'zlab bering.
3. Ekologiya va tabiatdan foydalanishga oid dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergen O'rta Osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Ekologiya qanday qismlarga bo'linadi?



2-§. Tabiat va jamiyat o'rta sidagi munosabatlar

Mavzu rejasi

1. *Tabiat va inson o'rta sidagi munosabatlar;*
2. *Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tabiatga salbiy ta'siri;*
3. *Ekologik inqirozning kelib chiqishi va turlari;*
4. *O'zbekistonidagi ekologik ahvol;*
5. *Inson sog'ligi va ekologiya.*

Inson – tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgizuvchi individ. Inson tarixiy jamoa jarayoni subekti bo'lib, u yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdag'i tirik mavjudotlar bilan ginetik bog'langan holda, lekin ularidan ongini yuqoriligi, mehnat qurollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi hamda axloqiy, ma'naviy va ruhiy o'z – o'zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Tabiat – keng ma'noda butun borliq olam va uning xilma – xil shakllari; tor ma'noda kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof tabiiy muhit.

Jamiyat – keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatları majmui yoki tor ma'noda ijtimoiy munosabatlarning konkret tipidir.

Inson o'zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o'rabi

turuvchi va uning ta'siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanish mumkin. Shu tariqa insoniyat tarixida jamiyat bilan tabiat o'rtasida to'xtovsiz va xilma – xil o'zaro ta'sirlar ro'y bergan. Jamiyat va tabiat, inson va yashab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi insoniyatning abadiy muammolaridan biridir. Falsafiy tafakkurning butun tarixi davomida u turlicha hal qilib kelingan. XVIII asrda Frantsiya sotsiologgi Montesk'e o'sha davr uchun xos bo'lgan fikrlarni olg'a suradi. U «Qonunlar ruhi to'g'risida nomli asarida jamiyat tabiatga to'la ravishda qaramligi to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, «Iqlimning hukmronligi barcha kuchlardan ustunroqdir», degan shiorni olg'a suradi.

Kishilar jamiyatini tabiatga qarshi qo'yadigan, kishilar bilan tabiat o'rtasidagi aloqani istisno qiladigan idealistik qarashlarga qarshi o'larоq tabiat bilan inson o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni asoslash va ko'rsatish muhim ahamiyatga molikdir. Tarixga ikki tomondan qarash mumkin, uni tabiat tarixi va insonlar tarixiga bo'lish mumkin. Biroq har ikki tomon chambarchas bog'liqdir. Insoniyat jamiyati mavjud ekan, tabiat tarixi va insonlar tarixi bir-birini o'zaro quvvatlab turadilar.

Jamiyat va tabiat birligini ta'kidlar ekanmiz, biz uning timsolida ularning moddiy jihatdan birligini tushunamiz, ya'ni ular moddiyidirlar, bir xil kimyoviy muddalardan iboratdirlar, nazariyada dialektik deb ataluvchi ba'zi bir ob'ektiv (xolis) qonunlarga garchi o'ziga xos bo'lsa ham bo'ysunadilar. Jamiyatda ijtimoiy qonunlar bilan birga fizika, kimyo va biologiya qonunlari ham amal qiladi. Bunda inson, jamiyat tabiatning bir qismi sifatida tavsiflanadi. Insonning jismoniy va ma'naviy hayoti tabiat bilan chambarchas bog'langandir. Bu tabiat o'z-o'zi bilan chambarchas bog'liq demakdir, zero inson tabiatning bir qismidir, uning farzandi, rivojining gultojidir. Mazkur holatda avvalambor tabiat inson va jamiyat paydo bo'lishining yetakchi omili ekanligi ko'rindi.

Tabiat rivojining majmui bo'lishi insoniyat tabiatga tobora ko'p o'z ta'sirini ko'rsatadi, inson faqat har xil o'simlik va hayvonot turlari o'rnini o'zgartiribgina qolmay, binobarin ularni shu darajada o'zgartirdiki, uning faoliyati natijasida yer shari umumiyl o'limga mahkum bo'lgandagina u bilan birga yo'q bo'lib ketishi

mumkin. Shunday qilib, inson nafaqat tabiatni o'rganib biladi, balki o'zini o'rabi turgan dunyoni o'zgartiradi, «ijod» qiladi ham. Biroq landshaft (tabiat manzarasi)ni g'oyat o'zgartirib yuborgan va koinotgacha chiqa olgan insoniyat hech qachon tabiatdan uzilib keta olmaydi, u hamma vaqt uning bag'rida yashaydi.

Insonning ijodiy imkoniyatlari, uning tabiati va o'zgartirish qobiliyatlariga kelganda, ular chek-chegarasizdir. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarsiz ishlab chiqarishning o'zi ham, inson hayoti moddiy sharoitlari ham bo'lmaydi, demakki jamiyat ham bo'lmaydi. Jamiyat bu odamlarning birqalikda harakati, o'zaro ta'sirining mahsulidir, bu odamlarning ijtimoiy munosabatlaridagi insonning o'zidir.

Jamiyat inson hayot faoliyatining tarixiy shakli sifatida hech qachon odamdarning oddiy birlashmasi bo'lgan emas va bo'lmaydi ham. Jamiyat odamlar, ishlab chiqarish, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy tashkilotlar o'zaro ta'siri murakkab sistemasidan iboratdir. Jamiyat bu muttasil rivojda bo'lgan a'zo (organizm)dir, u ayrim ijtimoiy elementlarning o'z boshimcha ishlariga yo'l qo'yuvchi g'ayri-ixtiyoriy birikma emas. Tabiat esa bu moddiy jismlar, realliklar majmuidan iborat bo'lib, ular jamiyat negizini tashkil etadi va uni qurshab turadi.

Tabiat rivojining oliy bosqichi bo'lismi jamiyat faqat tabiiy omil negizidagina yashaydi, rivojiana oladi va uning tabiiy omil bilan doimiy o'zaro ta'sirida bo'lismi shartidir. Kelib chiqishi jihatdan tabiat bilan bog'liq bo'lgan jamiyat har holda tabiatning alohida qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi.

Inson o'zining tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirining oqibatlarini sezgach va bilgach, tabiatdan oqilonan, rejali, tejab-tergab foydalanish va uni muhofaza qilish zarurligi haqida o'ylay boshladi.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Mahalliy, mintaqaviy va umumsayyoraviy ekologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar, sanoat markazlari, alohida tumanlarda mahalliy, Orolbo'yi, Chernobilda mintaqaviy ekologik teng vaziyatlar vujudga kelgan. Ozon tuynuklari muammosi, kislotali yomg'irlar, cho'llanish, dunyo okeanining

ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy ekologik muammolar hisoblanadi. Yer yuzida ekologik inqiroz xavfining real ekanligini ko'rsatadi.

Insonning tabiatga bevosita va bilvosita, ijobiy va salbiy ta'sir shakllari ajraladi. O'rmonlarning kesilishi, hayvonlarni ovlash, yangi yerlarni o'zlashtirish, konlarni qazish natijasida inson tabiatga bilvosita ta'siri bevosita ta'sirining salbiy oqibatlari sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, yangi yerlarning o'zlashtirilishi ham o'simliklar va hayvonlarning qirilishiga olib keladi. Tashlandiq yerlarni, o'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, o'simlik va hayvonlarni ko'paytirish insonning tabiatga ijobiy ta'siriga kiradi. Har qanday ijobiy ta'sirning ham salbiy bo'lishi mumkin. Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati xilma-xil bo'lib, ularni umumlashtirib quyidagi iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish-gigiena, tarbiyaviy, estetik yo'nalishlarga ajratish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish bir necha ming yillik tarixga ega. Lekin ushbu muammoga alohida e'tibor XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. 1864 yili AQSH da J.Mershning "Inson va tabiat" kitobi bosilib chiqdi. Unda tabiatni muhofaza qilishning zarurligi haqida dastlabki fikrlar berildi. 1910 yili Shvetsariyada Yevropadagi birinchi tabiatni muhofaza qilish jamiyatni tuzildi. 1913 yili Bernda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi xalqaro kengash chaqirildi. 1948 yili Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tuzildi. Tabiatni muhofaza qilish harakatlari XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa kuchaydi. O'zbekistonda tabiatni ilmiy asosda muhofaza qilish amalda 1920 yildan boshlangan.

Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga qator misollar keltirish mumkin.

Tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muammosi abadiy muammolardan biridir. Tabiat jamiyatni yashash muhiti, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai hisoblanadi. Jamiyat tabiat rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, alohida sotsial mazmunga ega. Tabiat va jamiyat o'zaro uzviy bog'langan, bir butun materianing ikki qismi, o'ziga xos sotsioekosistema hisoblanadi. Tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorlik tizimida inson

markaziy o’rin egallaydi. Inson bir vaqtning o’zida ham tabiat, ham jamiyatning ajralmas qismi bo’lib, biosotsial mohiyatga ega. Modda va energiya almashinuvি tabiat mavjudligining asosidir. Materia harakatining yuqori shakli bo’lgan jamiyat tabiatning alohida «insoniylashgan» qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi.

Adabiyotlarda jamiyat va tabiatning o’zaro ta’sirini davrlarga bo’lish xususida turli fikrlar mavjud. Muammolarning bir toifasi beshta davrni, boshqalari to’rtta, uchinchilari uchta davrni tilga oladilar. Adabiyotlarda shuningdek jamiyat va tabiatning o’zaro ta’siri tarixini to’rt davrga bo’lish keng o’rin olgan. Ya’ni 1) o’ziniki qilib olish; 2) agrar; 3) industrial; 4) noosfera davrlari.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida uning tabiatga bo’lgan munosabati ham o’zgarib borgan. Ba’zi bir tadqiqotchilar tabiat va jamiyatning o’zaro munosabatlaridagi asosiy tarixiy bosqichlarni 4 davrga bo’lishadi.

A) Ibtidoiy jamoa tuzumi davri. Ibtidoiy jamoa tuzumida insoniyat tabiatga sezilarli ta’sir o’tkazmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kishilar o’zi foydalanadigan tabiiy resurslarning holatiga ma’lum darajada e’tibor berib, iste’mol qiladigan o’simliklarni va ov qiladigan hayvonlarni himoyaga ola boshlaganlar. Chunki bu davrga kelib aholi soni ko’payib, ishlab chiqarish qurollari ancha takomillashib, o’q-yoy murakkabroq baliq ovlash asboblari yaratildi. Bular o’z navbatda ibtidoiy jamoa kishilarining yashashi uchun zarur bo’lgan tabiiy resurslarni va muqaddas hisoblangan joylarni himoya qilish yuzasidan ba’zi bir choralarmi ko’rishga undagan edi. Hatto ma’lum hududlarda hayvonlarni ovlash, foydali o’simlik urug’larini ko’plab terib olish man etila boshlandi. Foydali hayvonlarni ko’plab qirib tashlagan kishilar ibtidoiy jamoa tuzumida o’lim jazosiga hukm qilingan.

Noyob va qimmatli o’simlik hamda hayvonlar mavjud bo’lgan yerlar «muqaddas joy» deb e’lon qilingan va u yerlarda ov qilish, o’simliklarni mevasi va urug’ini terish man etilgan. Bu tadbir-choralar esa tabiatni muhofaza qilish tarixinining boshlanishi bo’lgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ibtidoiy odam o’zi uchun kerakli narsani tabiatdan olar ekan, buning oqibati to’g’risida o’ylab o’tirmas edi. CHunki ibtidoiy

odamlar soni jihatidan juda oz bo'lib, tabiatga deyarli qaram bo'lgan.

B) Quldarlik jamiyat – xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyat bo'lib, insonning tabiatga ko'rsatgan ta'siri ancha kuchaygan. Quldarlik tuzumida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi tabiatga ta'sirning keskin kuchayishiga sabab bo'lgan. Yirik quldarlar qullar kuchidan foydalanib katta hududlarni haydab, tabiiy o'simlik va hayvonlarni yo'q qilib, ekin dalalariga aylantirganlar. Bunga O'rta Osiyoda, Misrda, Mesopotamiyada, Xitoyda va Hindistonda yerlarni haydab, sug'orib dehqonchilik qilgan quldorchilik davlatlari misol bo'ladi. Quldarlik tuzumida yerlardan foydalanish to'g'risida o'ylamaslik sababli, tuproqning tabiiy holati yomonlashib borgan.

Quldarlik faoliyati davrida ba'zi davlatlarda yog'och-taxtalarga talab juda ko'p edi. Shu sababli, o'rmonlardan to'g'ri foydalanish va ularni qo'riqlash sohasida choralar ko'rila boshlangan. Bunga misol tariqasida Vavilon davlatining bundan 4 ming yil oldin o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida choralar ko'rilganligi, bu choralarни buzgan kishilar qattiq jazolanganligi va hatto o'limga mahkum qilinganini aytib o'tish mumkin. Hatto Misrda quldarlik jamiyatida «O'liklar daftari» tashkil etilgan. Bu daftarda tabiat muhofazasi sohasida juda qiziqarli savollar yozilgan. Unda o'lgan kishiga oxiratda quyidagi savol-javoblar berilishi yozilgan: «Men ularning yaylovlaridagi hayvonlarni o'ldirganim yo'q, hayvonlarni tangri yerlaridan haydab chiqarganim yo'q. Men baliq tutganim yo'q». Bundan ko'rinish turibdiki, Qadimgi Misrda hayvonlarni o'ldirish, o'simliklardan noto'g'ri foydalanish, me'yordan ortiqcha baliq tutish zararli va gunoh hisoblangan.

Feodalizm tuzumida mehnat vositalarining takomillashuvi, aholi sonini ortib borishi natijasida insonning ta'sir doirasi va surati o'sib borgan. Feodalizm davriga kelganda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi, natijada, juda katta territoriyalarda o'tloq va o'rmonlar yo'q qilinib, dehqonchilik uchun foydalaniladi. Ayniqsa, rivojlangan G'arbiy Yevropadagi davlatlar dengizda suzish, yangi yerlarni zabt etish uchun ko'plab kemalar qurdi va ma'danlarni eritish uchun ko'plab o'rmonlarni kesishgan. O'sha davrda bir kemani qurish uchun 400 ta tup

dub daraxti kesilgan. Istoniyaning «Yengilmas Armada» harbiy kemasini qurish uchun yarim million dub kesilgan. Natijada Ispaniyada hanuzgacha o'sha o'rmonlar tiklangani yo'q.

Feodalizm davrida ko'plab o'rmonlarning qirqilishi oqibatida tuproq eroziyasi kuchaygan, daryo suv rejimi o'zgargan, qimmatli hayvonlar (shimol bug'usi, **tur**, sayg'oq kabi hayvonlar) kamayib keta boshlagan. Xullas, bu davrga kelganda Yer kurrasi tabiatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berib, tabiatda buzilish yuz bera boshlagan.

Yuqorida qayd qilingan va tabiatda ro'y bergan salbiy o'zgarishlar bilan birga feodalizm davrida ham tabiatni muhofaza qilish choralari ko'rilgan. Bunga O'rta Osiyoda o'sha davrda tashkil etilgan qo'riqxonalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bundan 1000 yil oldin Buxoro yaqinida atrofi baland devorlar bilan o'ralgan Shamsobod qo'riqxonasi tashkil etilgan bo'lib, uning ichida bug'u, kiyik, tulki, ayiq kabi yovvoyi hayvonlar yashaganligini tarixchi geograf Narshaxiy yozib qoldirgan edi. Bulardan tashqari Bobur zamonida Samarkand yaqinida Bedana ko'rig'i (bedana ovlangan) mavjud bo'lган. Bunday ishlar Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilgan edi. Biroq bu qo'riqxonalar podsho, qirol va amaldorlarning ov qilib, dam oladigan manzilgoh yerlariga aylangan edi.

Jamiyatning tabiatga ta'sir jihatidan bu davr ikkinchisidan kam farq qiladi. Ikkinci davr bilan uchinchi davr o'rtasida jiddiy farq shundaki, qulchilik shakllarining krepostnoy qaramlik bilan almashishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, tabiatni bilish va o'zgartirish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi.

Kapitalizm davrida jamiyat bilan tabiiy muhit orasidagi ta'sir juda ham kuchayib ketdi. Kapitalistik iqtisodiy tuzum qaror topishi bilan fan va texnika rivoji, sanoat, transportning vujudga kelishi, tabiiy boyliklarning tezkor o'zlashtirilishi tabiatga ta'sirning yuqori darajaga yetkazdi. Chunki ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchilikka asoslangan, o'zaro raqobatlar mavjud bo'lgan, xo'jaligi notekis rivojlanayotgan kapitalistik jamiyatda tabiiy resurslardan rejasiz vahshiylarcha foydalanildi. Natijada tabiiy resurslarning tabiiy xususiyatlarida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda ko'plab yog'och-taxta tayyorlash

oqibatida Yevropada va Shimoliy Amerikadagi katta-katta territoriyalarda o'rmonlar kesilib, shamol va suv eroziyasi kuchayib, hosildor yerlar qishloq xo'jalik oborotiga yaroqsiz bo'lib qoldi. AQSHda o'rmonlarni ko'plab kesish, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish tufayli hududining 48% qismida eroziya jarayoni tezlashib ketgan.

Kapitalizm jamiyatida ko'plab zavod-fabrikalarning yoqilg'iga asoslangan transport turlarining kuchayishi, atom va yadro qurollarini sinash, yangi shaharlarni vujudga kelishi va boshqalar natijasida, tabiatga ko'plab zaharli gazlar, iflos suvlar, qattiq zarrachalar va axlatlarni chiqarib tashlash oqibatida atmosfera, suv va tuproq ifloslanib ketmoqda.

Atrof muhitni zararli chiqindilar bilan ifloslanishi muammosi kelib chiqdi. Tabiat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos antropogen modda va energiya almashinushi vujudga keldi. Antropogen modda almashinushi, ya'ni xom ashylarni tabiatdan oshig'i bilan olinishi va zararli chiqindi holiga atrof muhitga tashlanishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi azaliy muvozanatni buzilishiga olib keldi. Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishiga biogen, antropogen va texnogen (noogen) bosqichlar ajratiladi.

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida inson bilan tabiiy muhit o'rtasidagi munosabat turlicha bo'lган. Kishilik jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida neolitda inson bilan tabiatning o'zaro munosabati ibtidoiy ahvolda bo'lган. Kishilar bu davrda tabiatni emas, balki tabiat kishilarni o'ziga bo'ysundirgan. Ikkinci bosqichida ya'ni quldorlik jamiyatida xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyat bo'lib, insonning tabiatga ko'rsatgan ta'siri ancha kuchaygan. Uchinchi bosqichda feodalizm davriga kelganda ishlab chiqarish kuchlari rivojlangan va insonning tabiatga ta'siri yanada kuchaygan. To'rtinchi bosqich kapitalizm davrida jamiyat bilan tabiiy muhit orasidagi ta'sir juda ham kuchayib ketdi. Natijada, XX asr boshlariga kelib, Yer kurrasidagi suv havzalari, atmosfera havosi, tuproqlar, sanoat, transport, maishiy-kommunal, qishloq xo'jaligi chiqindilari va boshqa chiqindilari bilan ifloslanishi juda ham kuchayib ketdi. Bular o'z navbatida sayyoramiz biologik resurslarining holatiga va ayniqsa kishilar salomatligiga ziyon

yetkazmoqda. Shu sababli jahon mamlakatlarida ham tabiiy muhitni toza saqlash uni muhofaza qilish masalalari bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar qilinmoqda.

XX asrning taxminan 50-yillaridan boshlab, ishlab chiqarish kuchlarining "Fan-texnika revolyutsiyasi" deb nom olgan sakrab o'sishi munosabati bilan inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir misli ko'rilmagan masshtabga yetdi va ko'p jihatdan yangi shakllarga ega bo'ldi.

Fan-texnika inqilobi tufayli sanoat va transportning gurkirab o'sishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ximiyalashtirish – bu omillarning hammasi tabiiy resurslardan foydalanishni nihoyatda jadallashtirib yubordi. Tabiiyki, bu omillarning atrof-muhitga o'simlik va hayvonot dunyosiga, foydali qazilmalar zahirasiga, tuproqlar holatiga, atmosfera havosi va suv havzalari sifatiga bo'lgan salbiy ta'siri ham kuchaymoqda. Fan-texnika taraqqiyoti atmosferada, dengiz va okeanlarda, ichki suv havzalarida va yer osti suvli qatlamlarida sodir bo'ladigan suvning aylanma harakatiga, ya'ni sayyoraning gidrologik rejimiga muhim o'zgarishlar kiritmoqda.

XX asr odami qudratli texnika tufayli geografik qobiqdagi modda va energiya almashinuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatib, ko'p joylar tabiatidagi muvozanatni buzishgacha borib yetdi. Inson faoliyatining bu ta'siri tez ortib bormoqda. Binobarin, fan-texnika taraqqiyoti natijasida, antropogen omil yuqorida aytib o'tganimizdek, sayyoraviy masshtabdagi tabiiy geografik va geologik omilga tenglashib qoldi. Inson faoliyatining ayrim sohalari (tog' jinslaridan foydalanish, yer osti boyliklarini qazib olish, kanallar o'tkazish, daryo suvlarini tartibga solish, suv omborlari qurish va hokazolar) geologik jarayonlar masshtabidan oshib ketmoqda. Granit qoyalarining yemirilishi ilgari (denudatsiyasi) 6 ming yilda 1 m tezlik bilan bordi. Inson portlatishlar va zamonaviy texnikalar yordami bilan rel'efni o'zgartirish, kanal o'zanlari qazish, yo'llarni o'tkazish, tog' yonbag'irlarini terassalashtirish va qurilish maydonlarini tekislash orqali bu kabi geologik-geomorfologik jarayonni bir necha ming baravar tezlashtirdi. Faqat bir yil davomida dalalarni haydash, qurilish va kon ishlarida 4 ming km³ tuproq va grunt ko'chiriladi.

Shunday qilib, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida tabiiy muhitda chinakamiga ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyotining tabiatga ta'sir etish yo'llari va shakllari nihoyatda ko'p. Bu ta'sir natijasida tabiatda miqdor o'zgarishlarigina emas, balki sifat o'zgarishlari ham sodir bo'lmoqda. Fan-texnika inqilobining tabiatga ta'sir etishining eng muhim asosiy an'analari quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy resurslarni iste'mol qilish hajmining ortishi hamda atrof-muhitning ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari bilan ifloslanishi kuchaydi;

2. XX asr ikkinchi yarmida fan-texnika inqilobi munosabati bilan jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, takror ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish zaruratlari uchun tabiiy resurslardan intensiv foydalanish imkoniyatlari benihoya kengaydi.

Xususan, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining keskin yuksalishi tabiiy resurslarni iste'mol qilishni keskin ortishiga olib kelmoqda. Jon boshiga iste'mol qilinadigan materiallar 1913 y. – 4,9 t., 1940 y. – 7,4 t., 1960 y. – 14,3 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib 38-42 tonnani tashkil etdi. Hozirgi vaqtida insoniyat xo'jalik-maishiy ehtiyojlarini uchun yiliga daryolar oqimining taxminan 13% idan foydalanadi. Buning 5,6% i qaytmas suvlardir.

Yiliga yer bag'ridan 100 mlrd. t. ortiq yoqilg'i, foydali qazilmalar va qurilish materiallari qazib olinadi, 800 mln. t. har xil metallar eritiladi. Yer sharida yiliga taxminan 3,5 mlrd t. neft, 5,0 mlrd t. ko'mir sarflanadi, 100 millionlab avtomobil, samolyot, traktor dvigatellari ishlaydi. Dunyo bo'yicha hozirgi vaqtida iste'mol qilinadigan yog'och-taxta 3 mlrd m^3 dan oshib ketdi, har yilgi ovlanadigan baliq, qisqichbaqa va mollyuskalar 110-120 mln. tonnaga tengdir.

Hozirgi vaqtida dunyo bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlari bilan quruqlikning 13 % i, o'tloq va yaylovlari bilan 17,5% i band. Aholining o'sishi sanoat, qurilish va savdo rivojlangan shaharlarda ortib bormoqda. Qurilishlar band qilgan yerlar maydoni 1990 yilda 150 mln. getkardan, 2000 yilda esa 300 mln. getkardan oshib ketdi.

Hozirgi vaqtida inson bir qarashda juda unumsiz ko'ringan sovuq sahrolarni,

dengiz chuqurliklarini, qutb yoki hududlarini ishga solmoqda, eng oddiy organizmlar va bakteriyalardan foydalanmoqda, yer bag'ridan 5 kilometrgacha bo'lgan va undan ham chuqurdan xilma-xil foydali qazilmalarni qazib olmoqda.

Tabiiy resurslardan foydalanish hajmining doimo ortib borishi, ulardan foydalanishning istiqboli va muddati, ularning tamom bo'lish xavfi va bu bilan bog'liq bo'lgan ko'plab iqtisodiy muammolarni kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yemoqda. Keyingi vaqtarda ko'pgina eng muhim tabiiy resurslarning cheklanganligi haqidagi to'g'ri tushuncha jamoatchilik ongiga tobora chuqurroq singib bormoqda. Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynovchi qator tabiiy resurslarning butunlay tugab ketishining oldini olish, ulardan rejali va ilmiy asosda foydalanish zarurati chuqur his qilinmoqda.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash kerakki, fan-texnika inqilobi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha insoniyat uchun juda katta imkoniyat tug'dirdi. Biroq, ayni vaqtda u ko'pincha tabiiy muhitning ancha ifloslanishiga va tabiiy sharoitning yomonlashuviga ham olib keldi. Atrof-muhitning ifloslanishi bu tabiatga zararli moddalar va birikmalarining chiqarib tashlanishidan iborat bo'lib, bu hodisa havo, tuproq-grunt va suvning fizik, ximik va biologik xususiyatlarining ko'ngilsiz o'zgarishlariga olib keladi. Bu hol tabiiyki, keljakda o'simliklar, hayvonlar va odam hayotiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, tabiiy resurslarning holatiga tobora ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Atrof-muhitning texnogen ifloslanishi o'zining kelib chiqishi va xususiyatlariga ko'ra, nihoyatda xilma-xil. Uning eng ko'p tarqalgan ko'rinishlaridai biri — sanoat chiqindilaridir. Fan-texnikaning katta muvaffaqiyatlariga qaramay, ishlab chiqarish jarayonida xom ashyoning katta bir qismi chiqindi bo'lib chiqadi. Bu hol ayniqsa, keyingi 10-15 yilda juda kuchayib, tabiiy muhitning global ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, so'nggi yillarda sanoat va maishiy xizmatda ifloslangan oqar suvlarning hajmi daryo oqimining 16% iga teng bo'lib qoldi. Yoqilg'ilarni yoqish har yili atmosferaga bir milliard tonnadan ortiq qorakuya, qurum, tutun, tsement changlari va zararli aerozollarni

chiqarib tashlaydi. Shaharlarda kuniga millionlab tonna har xil chiqindilar to'planadi. Ularni yo'q qilish yoki ulardan foydalanish juda qiyindir.

Tabiiy muhitning ifloslanishi muammosi rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida tobora murakkab tus olmoqda. AQSH aholisi dunyo aholisining 5% idan oshmasada, bu mamlakat dunyo tabiiy resurslarining 30% ini iste'mol qiladi va dunyodagi ifloslanishning 40% i shu davlat hissasiga to'g'ri keladi.

Atrof-muhitning ifloslanishi jamiyatga ham moddiy, ham ma'naviy zasar keltiryapti. Hatto, suv va tuproqdagi iflos moddalar ta'siri ostida metall konstruktsiyalar, qurilish materiallari, to'qimalar, teri, rezina, bo'yoqlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar tezlik bilan yemiriladi. Asosiy fondlarning eskirishi (to'zishi) tezlashadi, qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligining va boshqalarning mahsuldarligi pasayadi. Lekin eng yomoni shuki, aholi sog'lig'iga katta zasar yetkaziladi.

Tabiiy muhitning turli chiqindilar bilan ifloslanish ko'lami shu qadar kattaki, bu salbiy omil dunyoning qator rayonlarida hatto, insonning biologik jihatdan yashashiga ham xavf tug'dirmoqda. Tabiiy muhitning bunday ifloslanishi rivojlangan va ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda "ekologik inqiroz" tushunchasining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Atrof-muhitning ifloslanishi rivojlangan mamlakatlarda haqiqiy ofat bo'lib qoldi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH, Afrika va Osiyo mamlakatlarida chuchuk suv tanqisligi



allaqachon muhim iqtisodiy muammoga aylanib qolgan. Shahar va shaharchalar

havosi deyarli zaharlangan. Ko'pgina ko'l va daryolarda biologik hayot so'na bormoqda. Ko'plab shaharlar behisob chiqindi uyumlari bilan to'lib-toshib ketgan. Shunday qilib, hozirgi vaqtda tabiatni ifloslanishdan muhofaza qilish undan oqilona foydalanishni tashkil qilish eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Fan-texnika taraqqiyotining asosi, so'zsiz energetikadir. Olimlarning energiyadan foydalanishning sur'atlari va ko'lami haqidagi hisobi shuni ko'rsatadiki, odam olovdan foydalanishni endigina o'rgangan tosh asrida o'rtacha sutkasiga jon boshiga energiya iste'mol qilish 5 kkal ga teng edi. O'rta asrlarda sutkasiga jon boshiga energiya iste'mol qilish 12 ming kkal ga yetdi. Yoqilg'i sifatida toshko'mir qo'llanilgandan keyin esa, 26 ming kkal ni tashkil etdi. Angliyada sanoat o'zgarishi davrida bu ko'rsatkich 77 kkal gacha ko'tarildi. Hozirgi vaqtda sanoati rivojlangan mamlakatlarda jon boshiga sarflanadigan energiya 200 ming kkal dan oshib ketdi.

Demak, fan-texnika inqilobi sharoitida iste'mol qilinadigan tabiiy resurslar hajmining ko'payishi sanoat ishlab chiqarishining intensivlashuvi va insoniyatning energiya bilan qurollanishining o'sishi bilan ta'minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti jadallashgan sari insonning atrof-muhitga bo'lган munosabatlari ham borgan sari faollahshib, u tabiiy boyliklarni ishlab chiqarishga bugun kechagidan, ertaga esa bugungidan ko'proq hajmda jalb qilish harakatida mehnat qiladi. Tabiatdan boyliklarni tortib olish va ulardan insoniyat ehtiyojiga ko'proq sarf qilish kuchaygan sari ming yillar davomida barqaror bo'lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat murakkablashib, tabiiy holat falokat yoqasiga kelib qoldi.

Tabiatdagi barcha narsalar, hodisalar o'lchamli, tabiatning komponentlari bir-birlari bilan o'zaro muvozanatda bo'lганliklari tufayli Yerning qobiqlari o'zaro harakat, aloqadorlik va bir-birlarini taqozo qilish qonuviyatlari asosida, ming yillar davomida bir maromda barqaror holda rivojlanib kelgan. Xuddi shu tamoyil asosida Yerning tabiiy majmualari ham o'zaro bir-birlariga bog'liq tarzda rivojlanadi. Ushbu bir-birlariga nisbatan mavjud bo'lган tadrijiy bog'liqlik ma'lum me'yorda bo'lганligi sababli tashqaridan bo'ladigan inson ta'siri ularning

barqarorligiga vaqt mobaynida uzlusiz ta'sir ko'rsatib boradi. Ta'sir kuchayib bargin sari tabiiy majmualarning barqarorligi ham sustlasha boradi va ma'lum muddatdan so'ng shunday keskin «uzilish» vujudga keladiki, buning oqibatida avvalgi tabiiy bog'liqlik o'zgarish bosqichiga, ularning boyliklari, mahsuldarligi esa keskin kamayish yo'nalishiga o'tadi. Natijada tabiatning avvalgi holiga qaytishi nihoyatda murakkablashib, insonning yordamiga muhtoj bo'lib qoladi. O'z vaqtida, zudlik bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tabiat «kasalligi»ning oldini olishga imkon berishi mumkin, aks holda ushbu nomatlub ahvol inson uchun fojeali tugashi ehtimoldan xoli emas.

Odamlar tabiat qonunlarini qancha chuqur bilsalar, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, bu qonunlar inson manfaatlari uchun shuncha ko'p xizmat qilishi va tabiiy resurslardan shuncha keng foydalanish mumkin bo'ladi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlangan sari xo'jalik faoliyatiga jalg qilinadigan moddalar massasi ko'payadi, natijada insoniyatning (jamiyatning) o'zi yashayotgan sharoitga ta'siri to'xtovsiz orta boradi. Bu jarayon tabiatda tobora chuqur o'zgarishlarga olib keladi, binobarin, uni o'rganish zarurdir. So'nggi yillarda tabiiy resurslarni iste'mol qilish hajmi va sur'atining o'sa borishi bilan bog'liq holda insoniyatning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri ham tobora kuchaymoqda.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda inson bilan tabiat o'rtasidagi modda va energiya almashinushi asosan texnika vositalari yordamida amalga oshiriladi. Binobarin, fantexnika inqilobi insonning tabiatga bo'lgan ta'sirining orta borishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu ta'sirning kuchayishi tabiatdagi ayrim komponentlar muvozanatinigina emas, balki butun bir landshaftlar muvozanatining buzilishini kuchaytirmoqda. Tabiatdagi bu keskin o'zgarishlar esa, ko'pincha insonning hayot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tabiiy resurslarni iste'mol qilishning juda tezlik bilan o'sib borishi bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Dunyoning ko'pgina rayonlarida tabiiy resurslardan foydalanish sur'atlari tabiatning o'rmini to'ldirish, ya'ni tabiatning unga yetkazilgan zararini bartaraf etish imkoniyatlaridan bir necha

baravar ortib ketdi.

Aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari va dunyo iqtisodiyotini rivojlanadirish tobora katta miqdordagi tabiiy resurslarni talab qiladi. Faqat tiklanadigan emas, balki bir qator tiklanmaydigan tabiiy resurslarning ham real tugallanishi xavfi vujudga keldi. Tiklanadigan resurslar to'liq iste'mol qilingach, tabiiyki, ularning o'z-o'zini tiklash imkoniyati yo'qoladi. Binobarin, xom ashyo manbalari kamaymasligiga erishish uchun, bu resurslarning kengaytirilgan qayta tiklanishini ta'minlash lozim. Kengaytirilgan qayta tiklash tabiatni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tabiiy sharoitning inson ta'siridagi, ya'ni antropogen o'zgarishi kishilik jamiyatining tabiatga ham ekologik jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan bog'liqligi shakllarini kengaytiradi. Fan- texnika inqilobi sharoitida tabiat sifat jihatidan juda tez o'zgaradi va shunga muvofiq ko'pgina geografik rayonlar xo'jalik faoliyatini qayta qurishga to'g'ri keladi. Masalan, atmosfera havosi sifatining antropogen omil ta'sirida keskin o'zgarishi faqat ekologik oqibatlarga emas, balki iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Yaqin vaqtlarga qadar atmosfera havosining sifati muammosi faqat ayrim sanoat markazlari va shaharlargagina tegishli bo'lib, havoning ekologik qulay xususiyatlarini saqlab turish uchun cheklangan tadbirlari kifoya qilar edi. Endilikda esa, ekologik jarayonning kuchayishi yuzlab shaharlarda, yirik sanoat markazlarida texnologik jarayonlarni takomillashtirish va qayta qurishni, qimmatbaho tozalash inshootlarini barpo qilishni taqozo etmoqda. Bir qancha nodir metallar, elektron va optik apparaturalar, antibiotiklar hamda ximiyaviy moddalarni havo bilan suv nihoyatda toza bo'lgan sharoitdagina ishlab chiqarish mumkin. Havoning salgina ifloslanishi ham jiddiy texnologik qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Hozirgi zamon korxonalarini joylashtirishda borgan sari tabiiy komplekslar (landshaftlar) holati va sifatini sinchiklab hisobga olishga to'g'ri kelmoqda.

Halqaro hamkorlik. *Halqaro ekologik hamkorlik (XEH)* deyilganda - yer yuzidagi barcha mamlakat (xalq)lar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konventsiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab

chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi tushuniladi. XEH quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

-sayyoramizdagi har bir inson sog'lom ekologik sharoitlarda yashash huquqiga ega ekanligi;

-har bir mamlakat atrof-muhit va tabiiy resurslardan o'z fuqarolari manfaatlari yo'lida foydalanish huquqiga ega ekanligi;

-bir davlatning ekologik muvaffaqiyati boshqa davlatlar hisobiga bo'lmasligi yoki ularning manfaatlariga zid bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

-har bir davlat hududidagi ishlab chiqarish faoliyati shu davlatdagi va undan tashqaridagi tabiiy muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlash;

-ekologik oqibatlarni bashorat qilib bo'lmaydigan qar qanday xo'jalik va boshqa turdag'i faoliyatlarni amalgaga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik;

-tan olingan xalqaro me'yorlar va andozalar asosida atrof-muhit, tabiiy resurslar va ulardag'i o'zgarishlar ustidan nazorat o'rnatish;

-atrof-muxit muhofazasi bo'yicha erkin, keng ko'lamli xalqaro ilmiy-texnik axborotlar almashish va tabiatni asraydigan ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

-sayyoramizning biror-bir hududida favqulodda ekologik holat ro'y berganda davlatlar bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatish;

- atrof-muhit muammolari bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etish.

Hozirgi paytda XEH asosan ikki xil shaklda namoyon bo'lmoqda: 1. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ikki yoki ko'p tomonlama davlatlararo bitim, shartnoma va konvensiyalar tuzish. 2. Turli xalqaro tabiatni muhofaza qiluvchi uyushma, komissiya va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish. XEH umumbashariy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida so'nggi yuz yildan ko'proq vaqtadan beri shakllanib, takomillashib bormoqda. Uning dastlabki ko'rinishlari XIX asr oxirlaridan boshlab hayvonotlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan davlatlararo

harakat tarzida namoyon bo'la boshladи.

Tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat strategiyasi bilan belgilanadi va uning muhim tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- teng huquqlik va o'zaro foyda, o'zga davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik;
- hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni saqlash;
- tashqi aloqalarni ikki tomonlama va ko'p tomonlama rivojlantirishga kelishish.

Milliy siyosatning shakllanishi va xalqaro hamkorlikning asosiy yo'naliishlari mamlakat ekologik salohiyatini saqlashga asoslanadi.

Ekologik muammolarning ko'lami va murakkabligi, tabiiy resurslarning qo'llanilishi va ulardan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim masaladir. SHu sababli bu sohalarni moliyalashtirish resurslardan hamkorona foydalanish va mavjud ekologik muammolarni hamkorlikda yechishni taqozo etadi. SHunga bog'liq tarzda O'zbekiston xalqaro ekologik makonda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik asosida integratsiya jarayoniga qo'shilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil BMTga a'zo bo'ldi. 1993-2001 yillar mobaynida quyidagi xalqaro tashkilotlar bilan ishga aloqador bog'lanishlar o'rnatildi: BMT, YUNEP, TASIS, BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti, KUROON, YUNIDO, YUNESKO, VOZ, VMO, Yer Kengashi, Konventsiya Kotibiyati, Butun Jahon banki, GEF. 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi KUROONGa a'zolikka saylandi.

1992 yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanishga bag'ishlangan konferentsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro aloqalar yangi pog'onaga ko'tarilishiga turki bo'ldi.

O'zbekiston Rio Deklaratsiyasini ratifikatsiya qilgani holda, 1993 yilda BMTning iqlim o'zgarishlari konventsiyasiga, 1995 yilda Biologik xilma-xillik

konvensiyasiga qo'shildi.

O'zbekiston atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha ko'plab xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan.

O'zbekiston 1998 yildan BMTning Yer Xartiyasi loyiha hujjatidagi Yer Kengashi ishida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston biologik yo'nalishdagi barcha konvensiyalarning amaldagi to'liq huquqli a'zosidir.

O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha olgan majburiyatlarini bajarish ishini davom ettirib, ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya, chegaralararo tashiladigan xavfli chiqindilar va ularni yo'qotishni nazarat qilish to'g'risidagi Bazel konvensiyasi, ozon qavatini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi va ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Montreal bayonnomasi, Yovvoyi fauna va floraning yo'qolib borayotgan turlari xalqaro savdosi bo'yicha konvensiyada faol ishtirok etmoqda.

Bulardan tashqari O'zbekiston Yevropa hamkorligi doirasida «Evropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha tashkilot, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), NATO kabi xalqaro tuzilmalar bilan faol aloqa bog'lagan.

O'zbekiston Yevropa uchun Iqtisodiy komissiya bilan hamkorlik o'rnatib, uning «Evropa uchun atrof-muhit» jarayonida ishtirok etmoqda.

Atrof-muhit muhofazasi sohasida Osiyo regionidagi xalqaro tashkilotlar, xususan BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, EKO va boshqa qator mamlakatlar bilan uzviy aloqa bog'lagan. SHuningdek, soha bo'yicha AQSH, Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ham aloqa mavjud.

YUNEP tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda Hududiy ekologik markaz tashkil etilib, har bir respublikada uning milliy ofislari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning tashabbusi bilan 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan Xalqaro seminar o'tkazildi. Unda 20 ta Xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etdilar.

1995 yilda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi. Insoniyat boshiga ko'lanka solib turgan ekologik falokatlarning oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik ma'lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yanada izchil faollashtirish zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlari yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma'nodagi keng ko'lamli, ta'sirchan, xolis, yagona xalqaro tizim vujudga kelgani yo'q. Ko'rinish turibdiki, XEH takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zaruratlardan biri bo'lib qolaveradi.



Savol va topshiriqlar

1. Inson, jamiyat va tabiat munsabatlari qachondan boshlangan va qanday davom etgan?
2. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning tarixi qanday bosqichlarga ajratilgan?
3. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar evolyutsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning maqsad va vazifalari haqida gapiring?



3-§.Tabaitni muhofaza qilishning ilmiy nazariy asoslari

Mavzu rejasi

1. *Muhit tushunchasi, muhit turlari;*
2. *Ekologik omillar klassifikatsiyasi;*
3. *Adaptatsiya;*
4. *Ekologik valaentlik va ekologik nisha;*
5. *Biomaromlar.*

Muhit ekologik tushuncha bo'lib, u tabiiy komponentlar majmuasidan va voqealardan tashkil topgan. Shu muhitda tirik organizmlar ular bilan bevosita va

bilvosita munosabatda bo'ladi.

Muhit – tirik organizmlarni o'rab turgan jamiki tabiiy ekologik omillardir (havo, yorug'lik, tuproq va b.).

Organizmlardan biri qandaydir foyda ko'rib bu hol ikkinchi organizm uchun uncha zarar keltirmasa **kommensalizm** turidagi aloqa kelib chiqadi.

Muhit elementlari organizmlar holatiga, o'sish, rivojlanish, tarqalishiga to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa ikklamchi omil sifatida ta'sir qiladilar. Bundan tashqari yashash sharoiti degan tushuncha ham bo'lib,

u tirik organizmlar uchun zarur bo'lgan muhit omillarining yig'indisidir. Ularsiz tirik organizmlar bir joyda yashay olmaydilar. Shuning uchun yashash sharoitida organizmlar muhit omillari bilan doimo birlikda bo'lib, ular bilan doimiy muloqatda yashaydilar.

Tirik organizmlarni individual rivojlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan muhit elementlariga ekologik omillar deyiladi. Tashqi muhit ko'pgina ekologik omillardan iborat. Bu omillar odatda uch guruhga bo'lib o'r ganiladi: abiotik (yoki o'lik omil), biotik (tirik omil) va antropogen (yoki inson omili). Odatda ekologik omillar barcha tirik organizmlarga bir vaqtda kompleks ravishda bevosita yoki vositali ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu omillarning har birining ta'sirini aniqroq, yaxshiroq tasavvur etish uchun ular alohida-alohida olib o'r ganiladi. Organizmning tevarak atrofini o'rab olgan va vositali hamda vositasiz ta'sir etuvchi bu omillar yig'indisi shu organizmning yashash muhitini tashkil etadi. Demak, muhit ekologik tushuncha bo'lib, ko'proq geografiya fanlarida qo'llaniladi. Ekologik omil tushunchasi tashqi muhit tushunchasiga nisbatan birmuncha torroq ma'noga ega bo'lib, muhitning ayrim unsuri hisoblanadi, Ekologik omil xillari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (1-jadvalga qarang).

Muhitning ayrim ekologik omillari har biri birgalikda yashayotgan organizmlarning barchasi uchun yoki har xil turlar uchun turlicha ta'sir etishi mumkin va turlicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, tuproqdagi tuzlar miqdori va tarkibi o'simliklarning oziqlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, hayvonlar uchun uning ahamiyati uncha katta emas. Yoki qishki kuchli shamollar ochiq havoda yashovchi yirik hayvonlarga salbiy ta'sir ko'rsatsa, inida yoki qor ostida

1- jadval**Ekologik omil xillari**

Abiotik omillar	Biotik omillar	Antropogen omillar
<p>1. Iqlim omillarya (yorug' lik, harorat, namlik, shamol, atmosferadagi gazlar bosimi, SO_2).</p> <p>2. Edafik-tuproq omili (tuproqning tabiiy, kimyoviy hamda boshqa xususiyatlari).</p> <p>3. Rel'ef-orografik omil (dengiz sathidagi balandligi, ekspozitsiya kabilar).</p> <p>4. Geologik yoki tarixiy omil (yer qimirlashi, vulqonlar otilishi, emirilish, muzliklarning siljishi va boshqalar).</p> <p>5. Gidrologik (suvda yashovchi organizmlar uchun tiniqligi, yorug'lik tushish darajasi, bosimning o'zgarishi).</p> <p>6. Yong'in</p>	<p>1. Fitogen (o'simliklar olamining ta'siri).</p> <p>2. Zoogen (hayvonot olamining ta'siri</p> <p>3. Mikogen (zamburug'lar olamining ta'siri).</p> <p>4. Mikrobiogen (mikroorganizmlar, viruslar olamining ta'siri).</p>	Inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday ta'sirlar.


yashovchi kichik hayvonlarga deyarli ta'sir etmaydi va hokazo. Ammo shuni aytish kerakki, ekologik omillarning organizmga ta'sir etish xarakteri qanchalik xilma-xil bo'lmasin ularning barchasi uchun quyidagi bir necha umumiyl qonuniyatlarni ko'rsatish mumkin.

Ekologik omillar organizmga haddan tashqari kuchli (maksimum) yoki kuchsiz (minimum), yoki o'rtacha (optimum) darajada ta'sir etishi mumkin. Omillarning qulay ta'sir etuvchi kuchi optimum zona deb qaraladi va undan qanchalik uzoqlashgan sari ushbu omillarning noqulay ta'sir etishi ortib boradi. Shunday qilib, har bir omilning optimum, minimum va maksimum ta'siri bo'ladi. Omilning minimum va maksimum ta'sir etishi kritik nuqta deb qaraladi. Kritik

nuqtalardan ortiq kuchdagi ta'sir organizmning nobud bo'lishiga olib keladi. Organizmning omilga nisbatan kritik nuqtalar orasidagi chidamlilik chegarasi uning ekologik valentligi deyiladi. 1840 yili Yu.Libix izohlaganidek ayrim mineral tuproqda “**minimum**” holda bo'lishi mumkinligini, keyinchalik, 1905 yili F.Bekman ekologiyada **chegaralovchi omil** tushunchasi bilan almashtirib ishlatdi. Organizmning hayot faoliyati ekologik omillarning minimal mohiyati ta'sirlangandagina chegaralanmay, balki u yoki bu omilning ortiqcha holati ham ta'sir etishi aniqlandi. Tabiiy muhitda chegaralovchi omillarning maksimal mohiyatini 1913 yili amerikalik zoolog V.SHelford aniqlab, unga “**tolerantlik qonuni**” ifodasini beradi, bu qonun bo'yicha turning yashashi, qator ekologik omillarning ozligi va ko'pligi, ularning organizmni chidamlilik chegarasi darajasi bilan belgilanadi. Hammma ekologik omillarni chidamlilik chegarasiga yaqinligi yoki undan ortib ketishi va turning yashashiga salbiy ta'sir qiladigan muhit elementlariga **chegaralovchi omillar** deyiladi. Muhitning biror omiliga keng doirada moslashgan turlari «evri» old qo'shimchasini qo'shish yoki tor doirada moslashgan turlari «steno» qo'shimchasini qo'shish bilan nomlanadi. Masalan, evriterm, stenoterm (haroratga nisbatan), evrigal, stenogal (sho'rланishga nisbatan), evribat, stennobat (bosimga nisbatan) va hokazo.

Abiotik omillar

Yorug'lik. Yer yuzasiga yetib keladigan quyosh radiatsiyasi assoiy energiya mabai bo'lib, planetada issiqlik balansini, organizmlarda suv, gaz va moddalar almashinushi, o'sish va ko'payish, avtotrof organizmlar tomonidan organik moddalar hosil qilish va organizmlarning hayot faoliyatining to'la o'tishi uchun yashash muhitini vujudga keltiradi. Yorug'lik o'simlikning fiziologik funktsiyasiga, ichki va tashqi tuzilishiga, o'sish va rivojlanish tezligiga normal (optimal), kuchli (maksimal) va kuchsiz (minimum) ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi, yorug'lik ta'sirida deyarli barcha suv o'tlar, yuksak sporali o'simliklar va



ochiq hamda yopiq urug’li o’simliklarda fotosintez jarayoni sodir bo’ladi.

Yer yuziga quyoshdan energiya keladi. Quyoshdan Yerga yetib keladigan turli nurlar oqimining to’lqinlar uzunligi mingdan kichik angstrom ($1\text{A}^\circ=10^{-8}$ sm) dan minglab metrlargacha o’lchanadi. Quyosh radiatsiyasining murakkab oqimlari atmosfera qatlamlaridan o’tib, Yer yuziga ko’rinuvchi nurlar ($3900—7700\text{ A}^\circ$) sifatida yetib keladi, bu quyoshdan chiqayotgan nurning taxminan 50% ini tashkil qiladi. Atmosferaning ozon qatlamida ultrabinafsha (UBN) nurlarning bir qismi yutiladi, shu qatlamda uzun to’lqinli nurlarning 2950 A° , infraqizil nurlarning o’rtacha $2,4 \cdot 10^4\text{ A}^\circ$ va radioto’lqinli nurlarning 10 A° dan yuqorisi yutiladi.

Atmosferadan o’tib kelayotgan quyosh nuri doimiy bo’lib, bir minutda 1,98 dan 2 kal/sm^2 ni yoki bir yilda $5 \cdot 10^{20}$ kkal ni tashkil etadi. Yerning qorong’u qismiga yetib keladigan quyosh nuri 1 min $8,3\text{ j/sm}^2$ ga teng; quyoshning yorug’lik energiyasi ($2 \cdot 10^{-9}$) 150 mln. km masofani bosib o’tib Yer yuziga yetib keladi. Bu taxminiy ko’rsatkichga doimiy quyoshli (S_0) deb nom berilgan. Planetaga yil davomida $5628 \cdot 10^{21}$ quyosh energiyasi yetib keladi. Yerning issiqlik balansi o’rtacha $3024 \cdot 10 - 3318 \cdot 10^2 (\text{j/sm}^2 \text{ yil})$, quruqlik uchun esa $2058 \cdot 10^2 (\text{j/sm}^2 \text{ yil})$ ni tashkil etadi. Bu issiqlik bug’lanishiga va fotosintez jarayoni (23%) uchun sarflanadi. Yer yuziga yoki o’simliklar ustiga tushadigan nurlar qisqa to’lqinli $A=0,3-4,0\text{ mkm}$ va uzun to’lqinli $X > 4,0\text{ mkm}$ radiatsiyalarga bo’linadi. Tirik organizmlarning hayot faoliyati uchun qisqa to’lqinli quyosh radiatsiyasi katta ahamiyatga ega. Qisqa to’lqinli nurlar o’z navbatida ultrabinafsha ($A < 4,0\text{ mkm}$), ko’rinuvchi ($A = 0,39-0,76\text{ mkm}$) va infraqizil nurlarga yaqin ($A = 0,76-4,0\text{ mkm}$) radiatsiyalarga bo’linadi. Inson ko’zi bilan qabul qilinadigan (ko’rinuvchi radiatsiya) elektromagnit to’lqinlarning diapazoni fiziologik radiatsiya ($A = 0,35-0,75\text{ mkm}$) mohiyatiga to’g’ri keladi va ekologik spektor doirasida ($A = 0,35-0,75\text{ mkm}$) o’simliklarda o’tadigan va butun tirik organizmlar uchun katta ahamiyatlari bo’lgan fotobiologik jarayonni yuzaga keltiradi. Quyoshdan ajralayotgan radiatsiyaning (99,9%) taxminan 19%i atmosferadan o’tish vaqtida yutilib ketadi, faqat 47% igina to’g’ri va sochilgan nurlar sifatida Yer yuziga yetib keladi.

Fotosintez jarayoni natijasida quyoshdan yutilayotgan yorug’lik energiyasi

bog'langan kimyoviy energiyaga aylanadi. O'simliklarni yorug'likka bo'lgan munosabatiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yorug'sevlar (geliofit) o'simliklar. Ular yorug'lik yetarli bo'lgandagina normal o'sishi va rivojlanishi mumkin. Bunday o'simliklarga dasht, cho'l zonalaridagi o'simliklar, o'tloqzorlardagi qo'ng'irboshdoshlar va boshqa ba'zi turlar, o'rmon o'simliklar jamoasining birinchi qatlamini tashkil etuvchi baland bo'yli daraxtlar, O'rta Osiyo sharoitidagi qisqa vegetatsiya qiluvchi ko'p yillik o't o'simliklarining efemeroit tipidagi hayot shakllari va boshqalar kiradi.

2. Soyasevar (stsiofit) o'simliklar. Ular kuchsiz yorug'lik tushayotgan joylarda o'suvchi o'simliklardir. Bularga o'simliklar qoplaming pastki qatlamlarida o'suvchi turlar, moxlar, plaunlar, paprotniklar, yong'oqzorlar ostida o'suvchi yovvoyi xina, tog' gunafsha kabilarni ko'rsatish mumkin. Yorug'sevlar va soyasevar o'simliklar morfologik, anatomik va fiziologik xususiyatlari bilan bir-birlaridan farqlanadi.

3. Soyaga chidamli yoki fakultativ geliofit o'simliklar. Ularning ko'pchiligi yorug'sevlar hisoblansada, yorug'lik uncha yetarli bo'limgan taqdirda ham, ortiqcha yorug'likda ham normal o'sib rivojlanadigan turlardir. Ularga qo'ng'irbosh, oq so'xta qulupnay, arg'uvon, shumrut, qoraqarag'ay va boshqalarni kiritish mumkin.

Turli geografik zonalarda kun bilan tunning almashinishi xarakteri bir xil emas. Ekvator atrofida kun va tunning farqi sezilmaydi. Ammo o'rtacha (mo''tadil) va sovuq iqlimli zonalarda yoz faslida kun uzun, tun qisqa, qishda esa aksincha bo'ladi. Bu esa o'z navbatida organizmlarning uzun va qisqa kunga (fotoperiodga) moslanishnga olib keladi. Shimol o'simliklaridan bug'doy, javdar, ismaloq, sebarga, mingyaproq, sachratqi, gulsapsar kabilar uzun kunda, marjumak (grechixa), qashqargul, tariq, kungaboqar, mavrak, tamaki, zig'ir va boshqalar qisqa kunda normal rivojlanadi.

Yorug'lik hayvonlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Chunonchi: a) yorug'lik ko'pchilik hayvonlar uchun fazoda mo'ljal olishda yordam beradi. Masalan, asalarilar asalshira ko'p bo'lgan joyni bildirish uchun iniga qaytgach, uzoq muddat

davomida gir aylanib Quyosh bilan ozuqa joylashishiga nisbatan ma'lum burchak hosil qilgan holda to'xtaydi. Qushlar esa uzoq joylarga uchib ketayotganida quyoshga qarab mo'ljal oladi; b) dengiz va okean suvlari tagida yashaydigan jonivorlar, quruqlikda yashaydigan ba'zi qo'ng'izlar o'z tanasidan nur chiqarish xususiyatiga ega. Bu hodisa biolyuminestsentsiya deb ataladi. Bunday xususiyat sodda hayvonlardan tortib baliqlargacha xosdir. Bakteriyalar, zamburug'lar va ayrim tuban o'simliklar ham shunday xususiyatga egadir. Biolyuminestsentsiya hayvonlar hayotida signal vazifasini o'taydi. Signal tufayli ular turli hayot jarayonlari (jinsiy marosim, dushmanidan himoyalanish, dushmanni chalg'itish, o'ljaga tashlanish kabilalar)ni bajaradi: v) yorug'lik organizmlarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'rmon suvsariga qish mavsumida qo'shimcha yorug'lik ta'sir etilganda uning homiladorligi tezlashib, muddatidan oldinroq bolalagan. Uzoq muddatda yorug'lik ta'sir ettirilganda hasharotlar va sut emizuvchi hayvonlarda jinsiy balog'atga yetish tezlashgan; suv tagida yashaydigan karakatitsa o'zini dushmanidan himoya qilish uchun svn yoritib yuboradigan suyuqlik chiqaradi; suv betida yashaydigan ba'zi hayvonlar esa qora suyuqlik chiqarib dushmanidan himoyalanadi. Ba'zi hasharotlar kunlar qisqarishi natijasida ko'payish jarayonini to'xtatadi, kunlar uzayishi bilan esa ko'payish qayta tiklanadi. Buning sababi shuki, uzun kun bosh miyadagi gipofiz beziga ta'sir etib ichki sekretsiya bezlari ishini kuchaytiradi va jinsiy bezlarga ham signal beradi. Amaliyotda kun uzunligini sun'iy ravishda o'zgartib o'simlik va hayvonlarning hosildorligi va naslini ko'paytirish yoki qisqartish mumkin. Harakatda bo'ladigan hayvonlar o'ziga joy tanlashda yoritilish darajasini ham hisobga oladi. Kecha - kunduz davomidagi faollik uchun ma'lum darajada yorug'lik talab etiladi. Hayvonlar kunduzgi, tungi va g'ira shirada faol hayot kechiruvchi turlarga ham ajratiladi. Ularning faolligi yilning mavsumi, iqlim sharoitlari va yorug'likning o'zgarishiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Masalan, chala cho'l zonalarida yumronqoziqlar jazirama issiq kunlari ertalab va kech paytlari aktiv faoliyatda bo'lib, kunduzgi vaqt ni uyalarida o'tkazadilar. Ular havo bulut bo'lgandagina kunduzi uyalaridan chiqishlari mumkin. Xuddi shuningdek, cho'ldagi qushlar ham

yozning issiq kunlari boshqa joylarga uchib ketadilar. Ularning o'ta aktiv (maksimum) faoliyati bahor, kuz va qish fasllarining kunduzgi soatlariga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, hayvonlar ham yorug'likka bo'lgan munosabatiga ko'ra bir necha guruhga, chunonchi, yorug'sevlar, soyasevar hayvonlarga va yorug'likning o'zgarishiga keng yoki tor (qisqa) doirada moslashgan guruhlarga bo'linadi. Hayvonlar yorug'lik yordamida atrofdagi mavjudotlarni ko'radi va yon atrofga qarab mo'ljal oladi. Turli hayvonlarning ko'rish organlari ularning rivojlanish pog'onasiga ko'ra turli darajada taraqqiy etgan va yashash sharoitlari bilan bog'liq holda rivojlangan. Masalan, ba'zi chirqildoq ilonlar infraqizil nurlarni ko'ra olganligi sababli o'ljasini qorong'ida ham ovlaydi. Asalarilar esa ultrabinafsha nurlarni ajrata oladi, ammo infra qizil nurlarni ajrata olmaydi.

Harorat. Yer yuzida organizmlarni o'sishi, ko'payishi, rivojlanishi va tarqalishi asosiy ekologik omillardan biri bo'lmish haroratga, uning issiqlik mikdoriga hamda turli tabiiy zonalarda vaqt bo'yicha o'zgarib turishiga bog'liqdir. Koinotda harorat juda katta darajada o'zgarib turadi. Masalan, Antarktikaning muzli cho'llarida harorat -88°C ga pasaysa, Yer yuzining suvsiz cho'llarida yoz faslida soyada 58°C ga ko'tariladi. Hattoki Markaziy Yevropaning ixotazorlari o'rtalarida yozning issiq kunlari kun o'rtasida harorat 40°C gacha ko'tarilsa, O'rta Osiyoda soyada $40-44^{\circ}\text{C}$, uning janubiy rayonlarida $+50-54^{\circ}\text{C}(60^{\circ})$ ga yetadi. Bir yashash sharoitida qishki va yozgi harorat o'rtasidagi ekstremal harorat 80°C ni tashkil qilishi mumkin. O'rta Osiyoda Sahroi Kabir cho'lida haroratning kunlik tebranishi 50°C ga boradi. Ekvator chizig'idagi Galapagos orollarida har qanday oyning o'rtacha harorati 27°C ga teng.

Yer sharidagi organizmlarning tarqalishi, ko'payishi va boshqa hayot jarayonlarini belgilaydigan omillardan biri harorat hisoblanadi. Ekvatorda harorat yil davomida va bir sutka davomida uncha keskin o'zgarmaydi. Ammo ekvatoridan shimolga yoki janubga yo'nalgan sari teqislik joylarda har 100 km ga harorat $0,5-0,6^{\circ}\text{C}$ ga o'zgara boradi. Bunday o'zgarishlar Yer sharining tog'li qismida ham har 100 metr balandlikka ko'tarilganda yuz beradi. Demak, barcha o'simlik va

hayvonlarning hayot jarayonlari shu xildagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'tadi. Ayniqsa, o'simliklarning tarqalishida bunday o'zgarishlar alohida rol o'ynaydi. Shu sababli ham Yer sharining tekislik qismida uchraydigan o'simliklar va ular hosil qiladigan qoplam o'rganilganda bir necha iqlim zonasiga, chunonchi; Shimoliy qutb, tundra, o'rmon, dasht, cho'l, subtropik va tropik kabi geografik zonalarga bo'lib o'rganiladi.

O'simliklar past yoki yuqori harorat ta'sirida yashashi va unga moslanishiga ko'ra ikkita katta ekologik guruhga bo'lib o'rganiladi. Bu haqda keyin batafsilroq gapiriladi. Harorat odatda Yer sharining quruqlik qismida birmuncha tez o'zgarib turadi. Suv muhitida esa bunday o'zgarishlar, ayniqsa, bir sutka davomida juda sekin o'zgaradi. Umuman olganda, ko'pchilik tirik organizmlar hayoti O° bilan 50°S o'rtasida o'tadi. Harorat 0° dan past yoki 50°Cdan yuqori bo'lganda barcha hayot jarayonlari mutlaqo to'xtaydi yoki keskin darajada sekinlashib qoladi. Demak, tirik organizmlar hayotiga harorat optimum, minimum va maksimum darajada ta'sir etadi. Ayrim suvo'tlar va umurtqasiz hayvonlarning hayoti O°Cdan past bo'lgan harorat ta'sirida normal o'tadi. Ba'zi bakteriyalar va zamburug'larning sporalari hamda ba'zi umurtqasiz hayvonlar (kolovratka, tixoxodka va ne'matodlar (hasharotlar) tanasi suvsizlantirilgach, ularga -190°-273°C li past harorat ta'sir ettirilganda ham hayotchanligi saqlanib qolgan. Yoki ko'k-yashil, diatom va yashil suv o'tlar ayrim vakillarining -73° -93°C li qaynar buloqlarda normal o'sishi aniqlangan. Shimoliy qutbda suvning harorati 0°Cga teng bo'lganda ham ko'pgina suv hayvonlari normal yashab suvo'tlar bilan ovqatlanadi. Shimol bug'usi, oq ayiq, tyulen va pingvinlar hayoti ham past haroratda normal kechadi. Shunday qilib o'simliklar hayoti uchun yilning eng issiq va eng sovuq oylaridagi o'rtacha haroratning umumiy miqdori, yillik haroratning o'rtacha miqdori muhim rol o'ynaydi. Bunday yillik harorat yig'indisi (miqdori) Yer sharining turli nuqtalarida turlichadir. Masalan, Malay arxipelagida -9500°C, Toshkentda — 5000°C, Astraxanda -4000°C, Odessada -3500°C, Sankt-Petrburgda -2000°C, Yangi Yer orolida -400°C ni tashkil etadi. Shunga ko'ra har qanday o'simlik turi (yovvoyi holdagisimi, madaniy holdagisimi) hamma joyda ham

uchrayvermaydi. Demak, har qanday o'simlik turi o'z hayot jarayonini to'liq o'tib nasl qoldirishi uchun yil davomidagi foydali harorat miqdoriga muhtojdir. Shundagina, u normal o'sib rivojlanadi va urug' meva hosil qilib bir yillik hayotini tugallaydi.

Yer sharining biror joyidan ikkinchi bir joyiga qandaydir madaniy o'simlikni olib kelish, uni o'stirib ko'rish va undan hosil olish uchun shu o'simlikning yillik foydali harorat miqdori necha daraja ekanligi hisobga olinishi kerak bo'ladi. O'zbekistonda o'stirilayotgan g'o'za o'simligi vegetatsiyasi uchun mavsum davomida 3500°C harorat zarur ekanligini hisobga olganda uni Moskva yoki Sankt-Peterburg viloyatlari sharoitida ekish va undan hosil olish mumkin emasligi ayon bo'ladi. Hayvonlar hayotida ham harorat muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik hayvonlar o'zining doimiy tana haroratiga ega. Bunday hayvonlar **gomoyoterm** hayvonlar deyiladi. Tashqi muhitning ta'siriga ko'ra tana haroratini o'zgartiruvchi hayvonlar yoki boshqacha aytganda, doimiy qat'iy tana haroratiga ega bo'lмаган hayvonlar **poykiloterm** hayvonlar deyiladi. Oraliq guruhga kiruvchi hayvonlarning tanasi aktiv harakatda bo'lganda gomoyterm hisoblanadi. Uyquga ketgan vaqtida esa ularning tana harorati pasayadi va tanani termik idora qilish qobiliyati yo'qoladi. Bunday hayvonlarga yumronqoziqlar, tipratikanlar, ko'rshapalaklar, kolibrilar, olmaxonlar hamda shunga o'xshash boshqalar kiradi.

O'simliklarda boradigan hayotiy jarayonlar haroratning minimal, optimal va maksimal ko'rsatkichlariga bog'liq. Masalan, fotosintez jarayoni harorat har 10°C ko'tarilganda ikki marta ortadi. Optimal harorat esa $30\text{---}35^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Xuddi shuningdek, nafas olish ham o'zgaradi. Harorat o'simlikning ildiz orqali oziqlatsishiga ta'sir etadi. O'simlikning barcha rivojlanish bosqichlari ham ma'lum darajadagi harorat omili bilan bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, barcha o'simliklarni haroratga bo'lgan munosabatiga ko'ra ikkita ekologik guruhga ajratish mumkin: yuqori harorat ta'sirida yaxshi o'sib rivojlanadigan termofil o'simliklar va past harorat ta'sirida yashovchi psixrofil o'simliklar. Har ikki guruhga mansub o'simlik turlari o'ziga xos moslanish xususiyatlariga ega.

Termofil o'simliklar hujayrasi issiqlikka chidamliligi, organlar yuzasining kichrayishi, tuklarning yaxshi rivojlanganligi, efir moylariga ega bo'lishi, o'zidan ortiqcha tuzlarni ajratib chiqarishi, uzoq muddat davomida tinim davrini o'tkazishi va boshqa xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Psixrofil o'simliklar sovuq sharoitni har xil holatlarda (ya'ni tinim yoki vegetatsiya davrida) anatomo-morfologik moslanish orqali o'tkazadi. Bunday, moslanishlarga poyasining yer bag'irlab o'sishi, novdaning yotiq yo'nalishi, tuplanish bo'g'imi va ildiz bo'yning yer ostida joylanishi, xazonrezgilik, po'kak I qavatning yaxshi rivojlanishi, oq tanaga ega bo'lish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Namlik. Namlikning asosiy manbai atmoferadan tushadigan (yomg'ir, qor, do'l, tuman) bo'lib, uning ko'p qismi tropik zonaga xosdir. Masalan, Amazonka vodiysi, Afrikaning ayrim joylariga bir yilda 2000 mm namlik tushadi. Tropik zonaning ayrim hududlarlari qurg'oq rayonlar hisoblanadi, jumladan Sahroi Kabir, Chilining shimoliy qismlari; hattoki Afrikaning ba'zi rayonlariga 10 yillar davomida 1,8 mm namlik tushadi, xolos. Lekin, tog'lik rayonlar — Alp, Pireney, Skandinaviya tog'lari, Himolay, Pomir, Tyan-Shan tog' tizmalar, And, Ural, Sayan, Kavkaz tog'lari bunday holdan xoli bo'lib, ular namlikka boy tog'lar hisoblanadi. Masalan, Britaniya va Skandinaviya tog'lariga yil davomida 2500 mm, hattoki ayrim hollarda 4000 mm dan ortiq namlik tushadi. Osiyoda, Kaspiy dengizidan Sharqiy Xitoy, hamda Shimoliy Amerika va Osiyo o'rtaligidagi yerlarga bir yilda hammasi bo'lib o'rtacha 250 mm namlik tushadi. Lekin Osioning turli rayonlariga turlicha namlik tushadi. Masalan, Sahroi Kabir cho'liga yil davomida 100 mm dan kam tushsa, Janubiy va Janubiy-SHraqiy Osiyo yerlari yil davomida 2000—4000 mm, 1300 m balandlikdagi SHillong platosi esa 12000 mm dan ortiq namlik qabul qiladi. Osioning janubiy va janubi-sharqiy rayonlariga yozda yillik namning 95% i tushadi. Osiyo namlikning tushishi va uning taqsimlanishi bo'yicha juda kontrastli mintaqqa bo'lib, uning qurg'oq joylariga namlik ko'p tushadigan rayonga nisbatan 220 marta kam nam tushadi. Cho'l, dasht va juda qurg'oq rayonlarda namlik 50% dan kam bo'ladi. Yil davomidagi quruq kunlar Valensiya uchun 7 kun bo'lsa, El-Kantara uchun — 206, Shimoliy

Afrikaning notekis rayonlarida 100 dan 300 kungacha bo'lsa, Sahroi Kabirga 300 quruq kun to'g'ri keladi. Bunday holat Turonni Qizilqum, Qoraqum cho'llariga ham to'g'ri keladi. Tog'li rayonlardagi namlikning asosiy manbai qor bo'lib, u o'ziga xos ekologik omildir. Qor tuproqni va undagi organizmlarni (hayvonlar, o'simliklar ildizini) muzlab qolishdan saqlaydi. Qishda 1 m li qor tagida harorat — 0,6°C, qorning ustida esa — 33,7°C. Undan tashqari, qor erib tuproq namligini oshiradi. SHunday qilib, namlik (suv) tirik materiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va organizmlar namlikning manbai va taqsimlanishiga qarab tabiatda ekologik moslashadilar va geografik nuqtai nazardan zonalar bo'yicha tarqaladilar. Yer yuzidagi organizmlar uchun suv asosiy ekologik omillardan biri hisoblanadi. Har yili Yer yuzida uchraydigan o'simliklar olamining vakillari 600—700 trillion t. suvni suv bug'lari holida atmosferaga chiqaradi; 1 m³ havoda 1 g dan 25 g gacha suv bug'lari bo'ladi. SHu bug'lar hisobiga har yili 40 dan 100 mm gacha namlik to'planadi.

O'simlik tanasidagi moddalarning 0-98% ini suv tashkil etadi. Hujayralarda boradigan barcha biokimyoviy reaktsiyalar suv ishtirokida bo'ladi. Suvda yashaydigan organizmlar uchun suv muhit bo'lib ham hisoblanadi. Yer yuzida yog'ingarchilik ko'p tushadigan joylarda sutkalik yog'ingarchilik eng ko'p miqdorda 1000 mm ga borsa (Cherapundji), Sinay cho'lida esa atigi 10—15 mm ga teng. Peruan va Asuan cho'llarida yog'ingarchilik kuzatilmaydi. Namlikning yetishmasligi quruqlikdagi hayotning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Kserofil o'simlik va hayvonlar qurg'oqchil muhitdagi ekologik guruhni tashkil etadi. O'rtacha namlik sharoitida mezofil, ortiqcha namlikda esa gidrofil organizmlar yashaydi. Barcha o'simliklar suv bilan ta'minlanishi yoki namlik sharoitiga moslanishiga ko'ra 5 ta ekologik guruhga ajratiladi: **gidatofitlar, gidrofitlar, gigrofitlar, mezofitlar, kserofitlar.**

Gidatofitlar — hayoti doimo suvda o'suvchi bu guruhga asosan suvo'tlar kiradi. Ularning tanasi to'la yoki ko'p qismi suv ichida bo'ladi.

Gidrofitlar — esa tanasining bir qismi suvdan tashqarida, qolgan qismi suv qatlamida joylashgan o'simliklardir. Bu guruhga suv nilufarlari, g'ichchak,

nayzabarg (sagittariya), suv ayiqtovoni, o'qbarg va boshqa suvda o'suvchi gulli o'simliklar kiradi. Ular yashash sharoitiga ko'ra suzib yuruvchi yuzasining katta bo'lisi, vegetativ organlarining shilimshiq parda bilan qoplanishi, mexanik to'qimaning kuchsiz rivojlanganligi, hujayraning havo bo'shliqlariga ega bo'lisi, qoplag'ich to'qimaning yaxshi rivojlanmaganligi, suv qatlamida yashaydigan turlarda og'izchalarining bo'lmasligi yoki ularning suzuvchi barglarning faqat ustki tomonidagina bo'lisi, barg et qismining ustunsimon va bulutsimon to'qimalarga ajralmasligi, ildiz tizimining kuchsiz taraqqiy etganligi kabi qator moslanishlarga ega bo'ladi.

Gigrofitlar — tuproqda ortiqcha miqdorda namlik yoki suv bo'lgan sharoitda yashovchi o'simliklardir. Ular daryo va ko'l bo'ylari, botqoqliklarda, sernam o'rmonlar va tog'li rayonlarda ko'p uchratiladi. Gigrofitlar ham ortiqcha namlik sharoitiga moslashgan gidrofitlar kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Mezofitlar- o'rtacha namlik sharoitida yashovchi o'simliklar hisoblanadi. Bu ekologik guruhga ko'pchilik madaniy va yovvoyi holdagi o'simliklar kiradi. Mezofit o'simliklarning ildiz tizimi odatda yaxshi rivojlangan, barglari ko'pincha yirik, yassi, yumshoq, etsiz, to'qimalari o'rtacha rivojlangan bo'ladi. Bargining eti ikki xil to'qimaga ajralgan. Barglar ko'pincha tuksiz, og'izchalar odatda bargaining ostki tomonida joylashgan. Suv sarfi og'izchalar orqali boshqariladi., Hujayra shirasining osmotik bosimi $2-10^{\circ}$ — $2,5-10^{\circ}$ ga.

Kserofitlar- qurg'oqchil sharoitda yashashga moslashgan o'simliklardir. Ular dasht, cho'l va chala cho'l zonalarida keng tarqalgan. Kserofitlar o'z navbatida ikki guruhga ajraladi: sklerofitlar va sukkulentlar. Sklerofitlar qurg'oqchilikka chidamli, ko'p yillik, dag'al, ko'pincha barglari reduktsiyalashgan yoki tikanlarga, tangachalarga aylangan, qalin kutikula qavatiga ega va yaxshi rivojlangan mexanik to'qima bo'ladi. Ularga saksovullar, yantoq, chalov, shuvoq, betaga va boshqalar kiradi. O'rta Osiyoning qumli cho'llarida o'suvchi turlar o'z tanasidagi umumi suv miqdorini 50% gacha kamaytirishi mumkin. Bu xususiyat tsitoplazmaning kolloid kimyoviy xossalariiga bog'liq ravishda tushuntiriladi. Hujayra shirasining osmotik bosimi yuqori — $4-10^6$ — $6-10^5$ Pa. Ildiz tizimi xilma-

xil, yer ustki organlari yer ostki organlariga nisbatan bir necha marta kichik (masalan, yantoqda 30 : 1), poyalari yog'ochlashgan. Suvni nihoyatda tejab sarflaydi hamda ba'zi bir turlar yozgi tinim davrini o'tkazgan holda noqulay sharoitga moslashgan. Suk-kulentlar — tanasi sersuv, etli, ko'p yillik o'simliklardir. Ular bargida yoki poyasida suvni jamg'arishi mumkin. Har ikki holatda ham ularda quyidagi moslanish belgilarini ko'rish mumkin: barg va poyalari odatda tuksiz, epiderma, kutikula va mum qavatlari qalin, ildiz tizimi tuprog'ining yuzasida joylashadi, osmotik bosimi past ($3\cdot10^5$ — $8\cdot Yu^5$ Pa), suvni nihoyatda tejab sarflaydi, o'ziga xos modda almashinish tipiga ega, bargning et qismi ikki xil to'qimaga ajralgan va suv jamg'aruvchi parenxima hujayralar bilan o'ralgan. Ba'zi bir kaktuslar tanasida 1-3 tonnagacha suv saqlashi mumkin.

Hayvonlar hayotida ham namlik yoki suv muhim rol o'ynaydi. Umuman hayvonlar suvga bo'lган talabini uch xil yo'l bilan qondiradi: 1. Bevosita suv ichish orqali. 2. O'simliklar bilan ovqatlanish orqali. 3. Metabolizm hodisasi, ya'ni tanasidagi moylar, oqsillar va karbon suvlarining parchalanishi orqali. Suvni bug'lantirish esa asosan nafas olish, terlash va siydirik yo'li orqali bajariladi. Issiq kunlari ayrim sute Mizuvchilar suvni haddan tashqari ko'p sarflashlari mumkin. Masalan, kishilar yoz oylarida bir kunda 10 litrgacha suvni terlash orqali sarflashi mumkin. Antilopalar, yo'lbarslar, jayronlar, fillar, sherlar, gienalar har kuni suv izlab uzoq masofali yo'l bosadilar. Ular uchun ovqat tarkibidagi suv yetarli bo'lmaydi. Ba'zi hayvonlar esa shu ozuqa tarkibidagi suv bilan qonoatlanishga moslashgan. Bunday moslanishlar ham odatda uch xil bo'ladi: yurish-turish harakati orqali, morfologik va fiziologik moslanish. ***Yurish-turish*** orqali moslanishda hayvonlar albatta suvni izlab topish, yashaydigan joyni tanlash, in qazib, unda yashash orqali moslashadilar. ***Morfologik*** moslanish tanasining ustida chig'anoqlar,sovutlar, qalqon va tangachalar hamda kutikulalar hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Masalan, shiliqqurt, toshbaqa, kaltakesak, qo'ng'izlar ana shunday moslashadi. ***Fiziologik*** moslanish esa metabolistik suv hosil qilish orqali amalga oshadi. Masalan, odamlar tanasidan vazniga nisbatan 10% gacha suv yo'qotishi mumkin. Undan ortiq suv yo'qotilsa organizm halok bo'ladi. Bu

ko'rsatkichlar turli hayvonlarda turlicha, masalan, tuyalarda -27%, qo'yлarda - 23%, itlarda - 17%, agar bundan oshsa halokat yuz beradi. SHuning uchun ham quruqlikda yashovchi ayrim hayvonlarda bir qator fiziologik moslanishlarni ko'ramiz. Masalan, ayrim uy hayvonlari ichagida suv so'rildi, ovqat qoldiqlari tezak holida tashqariga chiqariladi. Ayrim hasharotlarda (qo'ng'iz, xonqizi, chumolilarda) chiqaruv organi (malpigi naylari)ning bir uchi ichakning orqa devoriga tutashgan bo'lib, undagi suv so'riliishi orqali organizm tomonidan qayta sarflanadi, ya'ni reabsorbsiya hodisasi yuz beradi. Suyuq ozuqa bilan oziqlanuvchi asalari, kapalak va pashshalarda esa reabsorbsiya hodisasi kuzatilmaydi. Ular siyidik orqali tashqariga har xil ortiqcha tuzlar va mochevina chiqaradi. Natijada suv tanada birmuncha tejab qolinadi. Sudralib yuruvchilar, toshbaqalar, qushlar va ko'pgina hasharotlar o'zlaridan yaxshi erimagan siyidik kislotasini, o'rgimchaklar esa guanin moddasini chiqazadi. Buning uchun esa uncha suv ko'p sarflanmaydi.

Havo - atmosferadagi gazlarning aralashmasi hisoblanib, balandlikning o'zgarishiga qarab uning tarkibi ham o'zgarib boradi. Havo organizmlar uchun yashash muhitigina bo'lmasdan, balki ekologik omil sifatida ham ahamiyatlidir. O'simlikning deyarli 50% quruq vazni havodan o'zlashtirilgan uglerodga to'g'ri keladi. Atmosferadagi toza va quruq havoda 78,1% azot, 21% kislorod, 0,9% argon, 0,03% SO₂ bo'ladi. Bulardan tashqari oz miqdorda neon, geliy, kripton, ksenon, ammiak, vodorod, radiy hamda toriy kabi radioaktiv moddalar qoldig'i, shuningdek, har xil azot oksidlari, xlor va boshqa elementlar uchratiladi. Havoda har doim suv bug'lari (0,01—4% gacha) bo'ladi. Havoning quyi qatlamlarida gazsimon tabiiy zarrachalardan tashqari tabiiy aralashmalar ham uchraydi. Ular chang va tutunlar, qurum, ba'zan dengiz tuzlarining kristallari, har xil organik zarrachalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Havo tarkibidagi kislorod o'simlik va hayvonlarning nafas olishi uchun zarur bo'lgan elementdir. Uning miqdori havoda yetarli darajada bo'ladi. Agarda bu ko'rsatkich 5% ga kamaysa organizmlarning nafas olishi qiyinlashadi. Karbonat angidrid gazi deyarli doimiy bo'lib, faqatgina yirik shaharlarda uning miqdori ortiq bo'lishi mumkin. Ma'lumki, karbonat angidrid gazi yashil o'simliklar uchun oziqlanishda muhim ahamiyatga ega. Azot

elementi havoning tarkibida ko'p miqdorda bo'lishiga qaramay, uni organizmlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtira olmaydi. Organizmlar uni faqatgina birikma holdagini o'zlashtirishi mumkin. Azot tugunak bakteriyalar, azotobakteriyalar, aktinomitsetlar va ko'k-yashil suvo'tlari uchun ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi. Havodagi azot miqdorining o'zgarishi inson faoliyati yoki o'simliklar qoplaming tabiatiga bog'liqdir. Havoning tarkibidagi sulfit angidrid, azot oksidlari, galogenvodorodlar, ammiak va boshqalar zararli moddalar hisoblanib, uning ifloslanishiga sababchi bo'lmoqda. Ular o'simliklarning havo orqali oziqlanishida, yog'ingarchilik, tuman vaqtida o'simlik tanasiga kirib boradi. Havodagi ana shunday zaharli moddalarni yutgan o'simlik barglari, hujayralari o'la boshlaydi. Daraxtlarning suv shimanish mexanizmi ishdan chiqadi va barglari to'kiladi. Uchki shoxlari esa quriydi.

O'simliklarning havodagi turli zaharli moddalarga nisbatan sezgirligi turlichadir. Masalan, sebarga sulfit antidridga, lola va gladioluslar — vodorod ftoridga, doim yashil daraxtlarning barglari sulfit angidridga, mox, lishayniklar va ba'zi zamburug'lar SO_2 , NG', NS1 larga nihoyatda sezgirdir. Shubhasiz, o'simliklar havoni ma'lum darajada tozalaydilar. Shuning uchun ham yashil o'simliklarning ekologik roli nihoyatda kattadir. Havo haqida gapirganda uning ko'zga yaqqol tashlanadigan bir ko'rinishi — shamol tushunchasi bilan bog'liqdir. SHamol barcha tirik organizmlarga ekologik omil sifatida turli xil ta'sir ko'rsatadi. Masalan, shamol ta'sirida o'simliklarda quyidagi jarayonlar sodir bo'ladi: 1. O'zidan suvni bug'lantiradi. 2. Havoda gazlar oqimi, shu jumladan karbonat angidrid oqimi vujudga keladi. 3. Ko'pchilik o'simliklarda changlanish jarayoni sodir bo'ladi. 4. O'simliklarning sporalari, urug' va mevalari yon atrofga tarqaladi.

Tuproq - tuproq deyilganda yerning g'ovak, unumdor yuza qavati tushuniladi. Tuproqda o'simliklar, mikroorganizmlar va ba'zi umurtqasiz hayvonlar yashaydi. Masalan, 1 m^2 tuproq qatlamida 100 milliardlab sodda hayvonlar hujayrasi, millionlab nematodlar, yuzlab yomg'ir chuvalchanglari, 100 minglab zamburug'larning gifa-mitselliylari, bakteriyalar va suvo'tlar yashaydi. Demak, tuproqda uchrovchi barcha tirik organizmlar yashash jarayonlarida bir-

biriga nisbatan turli xil munosabatda bo'lib ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar natijasida tuproqda gumus va mineral moddalar to'planadi.

Tuproqning ekologik omil sifatida o'simliklarga ta'siri haqida gapirganda avvalo shuni aytish kerakki, tuproq o'simlikni o'zida biriktiradi va uni ozuqa bilan ta'minlaydi, ya'ni o'simlik tuproqdan suv va unda erigan mineral moddalarni oladi. O'simlikka tuproqning xususiyatlari va kimyoviy tarkibi hamda mikroflorasi juda katta ta'sir qiladi. Tuproqning kimyoviy xossalardan biri uning kislotaliligi bo'lib, bu vodorod ionlari kontsentratsiyasi bilan ifodalanadi. Tuproqning kimyoviy tabiatiga (rNga) qarab, *atsedofil* (*kislotali*), *neytrophil* (*neytral*), *bazofil* (*ishqoriy*) o'simlik turlari yoki jamoalari ajratiladi. Tuproqdagagi o'simliklar uchun zarur bo'lgan kimyoviy elementlardan azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy, oltingugurt, temir kabi makroelementlar va mis, bor, rux, molibden kabi mikroelementlar muhim ekologik ahamiyatga ega.

O'simliklarning tuproqda bo'ladigan turli tuzlarga munosabati ham har xil. Ba'zi o'simliklar karbonat tuzlari ko'p tuproqlarda yaxshi o'sadi va ular *kaltsefillar* deyiladi. Ularga beda, Sibir tilog'ochi, qoraqayin, shumtollar, vetrenitsa, chalov, tubulg'i va boshqalar kiradi. Ba'zi botqoqlik yoki kislotali muhitga ega bo'lgan tuproqda o'suvchi o'simliklar kaltsiy tuzlarini «yoqtirmaydi» va ular *kaltsefoblar* deb ataladi. Torf moxlari, otquloq, kashtan, choy kabilar kaltsefob turlar hisoblanadi. Oson eruvchi tuzlarga boy bo'lgan tuproqlarda o'suvchi o'simliklar *galofitlar* deyiladi. Cho'l va chala cho'l zonalaridagi ko'pgina maydonlar sho'rangan tuproqlar hisoblanadi. Bunday joylarda qorasho'ra, qizil quyonjun, boyalish, oqboyalish, to'rg'aycho'p, qumboq, baliqko'z, sho'rbo'ta, keyreuk va boshqa o'simlik turlari o'sadi. Ular uchun poya yoki bargning etli bo'lishi, suv jamg'aruvchi to'qimaning yaxshi rivojlanganligi, tsitoplazmaning yuqori kontsentratsiyaga chidamliligi, yuqori osmotik bosim hosil qilishi, ortiqcha tuzlarni maxsus bezlar yordamida tashqariga chiqarib yuborish kabi moslanish xususiyatlari xosdir. Qumli tuproqlarda *psammofitlar* deb atalgan o'simliklarning ekologik guruhi tarqalgan. Psammofit o'simliklarning barglari ensiz, qattiq yoki

odatda reduktsiyalashgan, meva va urug'lari qumda o'rmalab yoki shamol yordamida tarqaladi va sharsimon ko'rinishda bo'ladi. Tuproqning ma'lum kimyoviy elementlarga boyligini ko'rsatuvchi o'simliklar ***indikator*** turlar deyiladi. Masalan, plauts alyuminiyga boy tuproqlarda, astragal selenli, itqo'noq ruxli, shuvoq, oddiy qarag'ay va makkajo'xorilar oltinga boy bo'lgan tuproqlarda o'sadi.

Tuproqda bakteriyalar, zamburug'lardan tashqari sodda hayvonlar, chuvalchanglar va bo'g'im oyoqlilar keng tarqalgan. Masalan, ishlov beriladigan tuproqlarda gektariga taxminan 350 kg yomg'ir chuvalchanglari to'g'ri keladi. Yuqori agrotexnika qoidalariga amal qilingan yerlarda esa ularning miqdori bir tonnagacha boradi. Ularning bir yil davomida ovqat hazm qilish tizimidan o'tkazgan tuprog'i gektariga 12 tonnadan 100 tonnagacha yoki 7 mm qalinlikdagi tuproqni tashkil etadi. Tuproq zarrachalarining donadorligi ham hayvonlar uchun ekologik ahamiyatga ega. Ba'zi hayvonlar tuproqni kovlab hayot kechiradi. Hasharotlarning lichinkalari toshloqli tuproqlarda yashay olmaydi. Kovlash xususiyatiga ega bo'lgan pardaganotlilar tuxumlarini yer ostki bo'shliqlarga, ko'pchilik chigirkalar ham tuxumini g'ovak tuproqqa qo'yishga moslashgan.

Tuproq ostida yashovchi hayvonlar uchun yorug'likning ahamiyati uncha katta emas. Tuproqning chuqur qatlamlarida harorat ham o'zgarmaydi. Kislorodning miqdori esa kamayib, SO_2 ortib boradi. Tuproq namligi o'simliklar uchungina ahamiyatga ega emas, balki hayvonlar orasida ham tuproq qurg'oqchiligiga chidamsiz turlar uchratiladi. Ularga yomg'ir chuvalchanglari va termitlarni ko'rsatish mumkin. Qumli tuproqlarda yashovchi hayvonlar qumning ostiga tezda kirib ketish xususiyatiga ega bo'ladi. Psammofil hayvonlarning panjalarida har xil o'simtalar, tuklar yoki muguz pardalar bo'lib, ularning yuzasini oshiradi. SHu bilan birga tuproq qatlamida harakat qilishga, uya qurishga ham yordam beradi. Ilonlar, kaltakesaklar, ba'zi hasharotlar qum ostida anchagini masofalarga ko'chib yurishi mumkin.

Biotik omillar

Biotik munosabatlar yoki biotik omillar deyilganda barcha tirik organizmlarning yashash jarayonida o'zaro bir-biriga nisbatan ma'lum

munosabatda bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Bu organizmlar o'z hayot jarayonlari davomida normal yashash, hayot kechirish, urchish, tarqalish uchun tashqi muhit bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi. Natijada organizm o'sadi, rivojlanadi, nasl qoldiradi va hayotining so'nggi bosqichida halok bo'ladi. Shunday qilib, biotik omillar quyidagi hollarda: 1) o'simliklarning o'simliklarga; 2) o'simliklarning hayvonlarga; 3) hayvonlarning o'simliklarga; 4) hayvonlarning hayvonlarga; 5) mikroorganizmlarning o'simlik va hayvonlarga; 6) o'simlik, hayvon va mikroorganizmlarning o'zaro bir-biriga ta'sirida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xildagi ta'sirlar bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

O'simliklarning o'simliklarga ta'siri deyilganda bir turning ikkinchi turga ta'siri yoki bir turga kiruvchi individlarning, populyatsiyalarning bir-biriga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi. Bunday ta'sir natijasida ular o'sadi, rivojlanadi, urug'meva (yoki spora) hosil qilib, kengroq tarqaladi. Demak, avvalo har bir o'simlik yashash uchun kurashadi. Bunday kurash jarayonida o'simliklar hayotida parazitlik (tekinxo'rlik), simbiozlik (o'zaro hamkorlik), neytrallik kabi munosabatlar vujudga keladi.

O'simliklarning hayvonlarga ta'siri ba'zi zaharli o'simliklar va hasharotxo'r o'simliklar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Tarkibida zaharli moddalar mavjud bo'lgan o'simliklar (zaharli ayiqtovon, kampirchopon, qirqbo'g'im, kakra, bangidevona, mingdevona va hokazolar) hamda 500 ga yaqin o'simliklar (rosyanka, aldrovanda, venerin pashshatutari, nepentes, puzirchatka, sapratseniya)ning hayvonlar bilan oziqlanishi fanga ma'lum. Bunday o'simliklar hasharotxo'r o'simliklar deb ataladi. Ular asosan botqoqli yerlarda o'suvchi o'simliklardir. Botqoqli yerlarda azotli moddalar juda kam bo'lganligi uchun hasharotxo'r o'simliklar shu moddalarga bo'lgan ehtiyojini ana shu yerlarda yashovchi hasharotlar bilan oziqlanish orqali qondiradi. Albatta buning uchun hasharotxo'r o'simliklar uzoq evolyutsiya davomida maxsus moslanishlarga (hasharotlarni tutib hazm qiluvchi) egadir. Ularning tuklaridan fermentlar (suyuqlik) ajraladi va bu suyuqliklar hasharotlarni parchalab, hazm bo'lishiga imkon beradi. Shuningdek, ayrim hayvonlar (kanalar, termitlar, pashshalar, arilar

va hokazo) uchun o'simliklar ijara (in qurish) uchun ham muhim rol o'ynaydi. Hayvonlarning o'simliklarga ta'siri odatda quyidagi hollarda namoyon bo'ladi. Masalan, ko'pgina xayvonlar o'simliklar bilan oziqlanganda (tuproq nematodlari, mikrofitofaglar, makrofitofaglar) o'simliklarning spora, urug' va mevalarining tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi zararkunandalarning o'simliklar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'pchilikka ma'lum. Masalan, karam kapalagi, g'o'za qurti, meva, sabzavot ekinlari, o'rmon daraxtlari, donli ekinlar zararkunandalari bunga yaqqol misoldir.

Hayvonlarning hayvonlarga ta'sirini yirtqich va o'lja o'rtasidagi munosabatda aniq ko'rish mumkin. Shu o'rinda o'ljaning dushmanidan himoyalanishiga intilishlarini aytish joizdir. Bunday himoya aktiv yoki passiv ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Mikroorganizmlarning o'simlik va hayvonlarga ta'siri ba'zi kasallik tug'diruvchi mikroblarning (patogen bakteriyalar, viruslar va parazit zamburug'lar) o'simlik va hayvonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishida ko'rindi. O'simlik, hayvon va mikroorganizmlarning o'zaro ta'siri avvalo ularning tuproqda birgalikda yashashida seziladi. Natijada ular o'zaro murakkab munosabatlarda bo'ladilar. Bunday munosabat ozuqa zanjiridagi biotik munosabatlarda yaqqol ko'rindi.

Tirik organizmlar birgalikda yashar ekan ularning o'zaro turlicha biotik aloqalarda bo'lishi ham tabiiydir. Bunday aloqalar natijasiga ko'ra u yoki bu organizm uchun ularning foydali yoki zararli ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Agarda aloqalar ikki organizmdan biriga foydali bo'lsa qo'shuv belgisi bilan, aksincha, zararli bo'lsa ayiruv belgisi bilan, har ikki organizm uchun befarq bo'lsa nol bilan belgilanib biotik aloqalarni quyidagicha turkumlash mumkin (2-jadval). Jadvaldan ko'rini turibdiki, organizmlar o'rtasidagi aloqalar har ikki organizm uchun foyda keltirsa ***mutualistik*** munosabatlar kelib chiqadi. Har ikki organizm uchun foydali hisoblangan bunday o'zaro munosabatlar simbiotik munosabatlar deb qaraladi. Bunday aloqa turlariga lishayniklar tanasidagi suvo'tlar bilan zamburug'larni, dukkakli o'simliklar ildizida yashovchi tuginak bakteriyalarni, gulli o'simliklar bilan zamburug' gifalarining birgalikdagi hayoti

kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2- jadval

Biotik aloqalarning turlari

Biotik aloqalarning turlari	A organizmga ta'sir natijasi	B organizmga ta'sir natijasi
Mutalizm	+	+
Kommensalizm	+	0
Yirtqichlik	+	—
Parazitizm	+	—
Neytralizm	0	0
Antibioz	0	—
Raqobat		

Hayvonot olamida esa mollyuska chig'anog'i ichiga kirib yashovchi qisqichbaqa bilan aktiniyni, chumolilar iniga kirib yashovchi ba'zi qo'ng'izlarni, chumolilar bilan o'simlik bitlarini, timsoh bilan troxilus deb atalgan qush kabilar o'rtaсидаги aloqalarni misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Hayvonlar bilan o'simliklar o'rtaсида mutualistik aloqaga hayvonlarning o'simliklarni changlatishda ishtirok etishi va meva hamda urug'larni tarqatishi kabilar kiradi.

Organizmlardan biri qandaydir foyda ko'rib bu hol ikkinchi organizm uchun uncha zarar keltirmasa **kommensalizm** turidagi aloqa kelib chiqadi.

O'simliklarning epifit hayot kechirishi, yirik sut emizuvchi hayvonlar tomonidan maxsus ilashuvchi o'simtalarga ega bo'lgan meva va urug'larning tarqalishi, akulalar terisiga yopishib olib undan qolgan ozuqa qoldiqlari bilan oziqlanib hayot kechiruvchi prilipala balig'i, xuddi shuningdek baliqlar terisiga yopishib yashovchi gidroid poliplar va ko'pchilik hayvon turlari o'rtaсида munosabatlar kommunalsizmning ko'rinishlaridir. Organizmlar o'rtaсида keng tarqalgan biotik munosabatlarning muhim turi yirtqichlik hisoblanadi. Yirtqichlik faqat hayvonlar o'rtaсида kuzatilib qolmay, balki o'simliklarda ham sodir bo'ladi. Bu hasharotxo'r o'simliklardan nepentes, aldrovanda, rosyanka va boshqalarning hasharotlarga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'rindi. Bir tur (parazit) ikkinchi organizmdagi (xo'jayin) ozuqa moddalar yoki

uning to'qimalari hisobiga hayot kechiradi. Parazitning tashqi muhit bilan bo'lган aloqasi asosan xo'jayin orqali amalga oshadi. Parazit tur xo'jayin organizmning maxsus muhitida yashaydi. Shuning uchun ham u, bir tomondan, ekologik foydali bo'lsa, ikkinchi tomondan, taraqqiyot davrini o'tkazishda qiyinchilik tug'diradi. Parazitlar uchun qulaylik uning doimo mo'l ozuqa bilan ta'minlanganligidadir. Bu o'z navbatida tez o'sishga va ko'payishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari parazit tur tashqi muhitning har qanday noqulay ta'sirlaridan himoyalanadi. Parazit uchun ekologik noqulaylik sifatida yashash joyning cheklanganligi, kislorod bilan ta'minlanishning murakkabligi, bir xo'jayindan ikkinchisiga tarqalishning qiyinligi hamda xo'jayin organizmning parazitdan himoyalanuvchi javob reaktsiyalarini berishi kabilarni sanab o'tish mumkin.

O'simliklar orasida to'liq va chala parazitlar ajratiladi. Chirmovuq va shumg'iylar to'liq parazitlar hisoblansa, omela, pogremok, ochankalar chala parazit, ya'ni o'zi mustaqil holda fotosintez qila oladi, ammo suv va mineral moddalarni xo'jayin o'simlikdan oladi. Parazitlar o'ziga xos va o'ziga xos bo'lмаган guruhlarga ham ajratiladi. Birinchisi bitta xo'jayinga ega bo'ladi. Ikkinchisi esa ko'pgina turlarni zararlashi mumkin. Odam askaridasi va shoxkuya zamburug'lari o'ziga xos parazitlarga misol bo'lsa, iksodiy kanasi va un shudring zamburug'i o'ziga xos bo'lмаган parazitlar hisoblanadi. Parazitlar bir, ikki va ko'p xo'jayinli bo'ladi. Masalan, zang zamburug'i, bezgakni qo'zg'atuvchi plazmodiylar ikki xo'jayinli parazitlardir.

Antibioz hodisasi deyilganda bir organizm ajratgan zaharli moddaning ikkinchi organizmga ta'sir etishi tushuniladi. Bunga misol qilib bakteriyalar, zamburug'lar va aktinomitsetlarning turli xil antibiotiklarni, gulli o'simliklarning esa gazsimon va suyuq holdagi (kolin) antibiotik moddalarni ajratishini ko'rsatish mumkin. Bu moddalar ta'sirida o'sish to'xtaydi. Bakteriyalarni qiradigan bunday moddalar *fitontsidlar* deb ataladi. Antibiotik moddalar o'rgimchakning iplarida, baliqlar ikrasining qobiqlarida ko'p bo'ladi. Neytral ikki organizmning birgalikda yashashidan ularning har biri na foyda yoki na zarar ko'radi. Masalan, o'rmonda yashovchi quyonlar bilan loslarning bir-birlariga hech qanday foydali yoki zararli

tomonlari yo'q raqobat ozuqa, yashash joyi yaqin bo'lgan turlar o'rtasidagi munosabatdir. Bunday munosabatlar har ikki turning zarar ko'rishiga olib keladi. Raqobat turlar ichida va turlararo bo'lishi mumkin. Tur ichidagi kurash kuchli bo'lib, uning asosida tabiiy tanlash va tur hosil bo'lish kabi jarayonlar yotadi.

Antropogen omillar

Antropogen omillar hozirgi vaqtida tabiatdagi eng kuchli omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Inson tirik organizmlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib yoki yashash sharoitini o'zgartirib uning tarqalishiga yoki qirilib yo'q bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Inson kamida 70 million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o'n yilda o'zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlarga salbiy ta'siri natijasida Yer yuzida ko'plab o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketdi. Ovchilik bilan shug'ullanish dastlab ozuqaga bo'lgan talabni qondirish maqsadida olib borilgan bo'lsa, keyinchalik kiyim kechak va har xil qimmatli materiallar olish uchun avj olib ketdi. Bu o'z navbatida ko'pchilik hayvonlarni yo'q qilib yubordi. Masalan, dengiz sigiri 26 yil davomida butunlay qirilib ketdi. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin.

Qo'riqxona va milliy bog'larda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish natijasida ham bir qancha turlarning yo'qolish xavfi bartaraf etildi. Insonning ongli yoki ongsiz ravishda o'simlik va hayvon turlarini Yer sharining bir joyidan ikkinchi joyiga olib borishi ba'zan flora va fauna tarkibini birmuncha o'zgartirib yubordi. Inson ta'siri natijasida uyda yashovchi hayvonlar, uy sichqonlari, kalamushlar, pashshalar, suvaraklar, o'simliklardan qoqio't, gumay, machin, ituzum, jag'-jag', oq sho'ra va boshqalar juda keng tarqalgan.

Inson tomonidan o'simlik va hayvonlarning yashash sharoitlari o'zgartirildi. Natijada muayyan joyda yashayotgan o'simlik va hayvonlar jamoalari yo'q bo'lib yoki ularning sharoiti keskin o'zgarib ketdi. Masalan, tog' o'rmonlarida daraxtlarni kesib tashlash, shubhasiz ularning ostida yashayotgan soyasevar o'simliklarni yashash imkonidan mahrum qildi. Bundan tashqari hayoti daraxtlar bilan bog'langan (oziqlanuvchi, uya qurban) qushlarning yo'qolishiga ham olib keldi. Xuddi shuningdek yashash sharoitlarining keskin o'zgarishi (yerlarni haydash,

foyDALI qazilmalarni kovlab olish, chiqindilarni tashlab qo'yish, o'tloqzorlarni o'rib tashlash, u yerlarda uy hayvonlarini surunkasiga boqish kabilar) ushbu hududlar organik dunyosining tarkibini o'zgartirib, ba'zi turlar uchun qulay sharoit vujudga keltirsa, ikkinchi bir turlar uchun yashash imkoniyatidan mahrum bo'lishga olib keldi. Biz hozirgi vaqtida inson tomonidan keskin o'zgartirib yuborilgan sayyorada yashamoqdamiz. Yildan-yilga tabiiy holdagi landshaftlar va jamoalar egallagan maydonlar qisqarib ketmoqda va ularning o'mini inson ta'siridagi landshaftlar va jamoalar egallamoqda.

Ekologik nisha. Biogeotsenozdagi barcha tur populyatsiyalari organik moddalarni hosil qiluvchi, iste'mol qiluvchi va to'plovchilar sifatida faollik ko'rsatadi. Biogeotsenoza turlarning bunday faollik ko'rsatishi ekonisha deb ataladi. Ch. Eltonning ta'rifiga ko'ra, ekonisha turning tirik organizmlar orasida tutgan o'rni, uning ozuqa va dushmanlarga bo'lgan munosabatidan iborat. Ekonisha hududiy ma'noda qaralmay, balki biotsenoza organizmlarning funktional holatini ifodalaydi. Biror tur (populyatsiya) ning u yoki bu ekonishaga mansub ekanligi avvalo ushbu organizmning oziqlanish xarakteri, ozuqani topishi kabilarga bog'liq. Masalan, har qanday yashil o'simlik biogeotsenoza bir necha ekonishalarning hosil bo'lishida ishtirok etadi. Ular orasida ildiz, barglarning to'qimalari bilan oziqlanuvchi yoki gullari, mevalari, ildizdan ajralib chiqadigan moddalar bilan oziqlanuvchi turlar bo'lishi mumkin. Har bir ekonisha turlar tarkibi xilma-xil bo'lgan organizmlar guruhini birlashtiradi. Masalan, ildiz bilan oziqlanuvchilarga nematodlar, ba'zi bir qo'ng'izlarning lichinkalari kirsa, o'simlik shirasini so'rvuchi ekonishaga esa o'simlik bitlari va qandalalar kiradi. Yuqoridagi ekonishalar ham o'z navbatida mayda birliklarga bo'linib ketishi mumkin.

Dashtlardagi biotsenozlarda ko'pchilik hayvonlar o't o'simliklar bilan oziqlanadi. Bular tuyoqlilar (otlar, qo'ylar, antilopalar, sayg'oqlar), kemiruvchilar, sug'urlar, yumronqoziqlar va ko'pchilik sichqonsimonlardir. Ularning hammasi o'txo'r hayvonlar bo'lsada, doimo o't o'simliklar qoplaming turli qismlarini iste'mol qiladi. Masalan, to'yoqlilar bo'yi baland to'yimli o'tlarni tanlab oladi, shu yerning o'zida yashovchi sug'urlar tuyoqlilar iste'mol qilmagan o'tlar bilan

oziqlanadi. Yumronqoziq kabi bir oz kichikroq hayvonlar esa o't o'simliklar qoplami ancha ezilgan va tuyoqlilar, sug'urlardan qolgan o'tlarni yig'adi. SHunday qilib, jamoadagi ushbu uch guruhdagi o'txo'r hayvonlar o'rtasida o't o'simliklar biomassasidan foydalanish tartibi va chegarasi kelishib olingan desak bo'ladi. Bu yerda bir ekonisha ikkinchisini to'ldiradi, natijada biomassadan to'liq foydalanish kuzatiladi. Tabiatda ba'zan turlarning bir ekonishadan ikkinchisiga ko'chib o'tishi kuzatiladi. Bu hodisa biogeotsenozdagi sharoitning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, moslanish xarakteriga egadir.

Biologik maromlar va ularning tabiatdagi ahamiyati

Vaqt bilan bir davrda va teng holda organizm ayrim holatining o'zgarib turishiga biologik maromlar (ritmlar) deyiladi. Biologik maromlar organizmlarning ichki mexanizmlari bilan aniqlanadi va kun, fasl hamda yilning vaqtiga qarab, organizmlar o'zlarining holatlarini o'zgartiradi (biologik soatlar). Biologik soatlar organizmlarni boshqaradi. Demak, biologik marom deb organizmlar hayotining yil davomida qat'iy ravishda boshqarib turilishiga aytildi. SHuningdek, ma'lum vaqt oralig'ida qandaydir bir jarayon yoki hodisaning takrorlanishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi hamda qayta tiklanishi tushuniladi.

Biologik maromlar: ichki (endogen va fiziologik) va tashqi (ekzogen) maromlarga bo'linadi.

Ichki—endogen maromlar — organizmlarning fiziologik ritmlaridan iboratdir. Jumladan, organizmlar tanasida biron bir fiziologik jarayon doimiy emas. Ya'ni, tirik organizmlardagi hujayra, to'qima, organlar va sistemasi vaqt o'zgarishi bilan hattoki yaxlit organizmlarning o'zi ham o'zgaradi, uning fiziologik holati kunduz aktiv bo'lsa, kechasi fiziologik aktivlik (nafas olish, yurak urishi, muskullar harakati va bosh.) pasayadi, organizmning holati tinchlanadi. Bu holatlar 3 ta geofizik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ya'ni, 1) Yerning Quyosh atrofida aylanishida Oy va yulduzlarga nisbatan joylashib turishi; 2) Oyning kecha-kunduzi (sutkasi 24,8 soat); 3) Yulduzlar sutkasi (23,9 soat) organizmlar holatiga bevosita ta'sir qiladi va organizmlar shu omillarni 24 soatga yaqin ritmikasi sifatida qabul qiladi. Yorug'lik va qorong'ulik to'g'ri almashinuvida har xil turlarning ritmik

holati 24 soatga to'g'ri keladi. Organizmning hamma fiziologik jarayonlari maromlardir (ritmlikdir). Jumladan, DNK, RNK, oqsil, fermentlar sintezi, hujayraning bo'linishi, muskullarning qisqarishi, yurak urishi, nafas olish, ya'ni hamma hujayralarning, organlarning ishi maromlidir, ularni o'zgartirib bo'lmaydi.

Tashqi ekzogen maromlar. Ko'pchilik hayvonlarda kun davomidagi davriylik, ulardagi fiziologik funktsiyalarning og'ib turishiga to'g'ri kelmaydi. Jumladan, hayvonlarga sutka davomidagi davriylik kunduzgi, g'ira-shira va tunda yashaydigan hayvonlarga xosdir.

Organizmlarning kun davomida davriylik holatlarida o'zgarishi ekzogen maromlarning (ritmlarning) yorqin ko'rinishi hisoblanadi. Tashqi maromlar asosan geofizik xarakterga ega bo'lib, Yerning aylanishi bilan bog'liq va shuning natijasida ekologik omillarning (yorug'lik, harorat, namlik va bosh.) o'zgarishi, ularning tirik organizmlarga ta'sir etish qonunidan kelib chiqadi. Geofizik o'zgarishlar — quyosh radiatsiyasining aktivligi tirik tabiatga (har 11 yilda) va undagi tirik jonzotlar holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Biologik soatlar. Tirik organizmlarning biologik maromlari tanada hujayra bo'linishi, qon aylanishi, nafas olish, moddalar aylanishi kabi jarayonlarni ta'minlab turadi. Hamma tirik organizmlarda sutkalik (kunlik) maromlar kuzatiladi. Biologik maromlar oddiy va murakkab tuzilishga ega bo'lgan organizmlarda bo'ladi. Har bir hujayra, har bir organizm o'zining «ish maromiga (ritmiga)» ega. Taxminan 24 soat vaqtida (tsirkad ritm) kunlik ritmlar asosida organizmning ish maromlari bir-birlari bilan bog'lanadi. Tirik organizmlardagi sutkalik (tsirkad) ritmlar juda keng diapazonda kuzatiladi. Sutkalik ritmlar nafas olish va tana harorati o'zgarishida, yurak faoliyati va qon aylanishida oshqozonichak va ortiqcha moddalarning tanadan chiqarish jarayonlarida kuzatiladi. Inson organizmida kunu tun davomida og'riqni sezish, qon oqish, ko'rish darajasi, eslab qolish, hid va ta'm sezish, shovqin, qo'rqish kabi davriy o'zgarishlar bo'ladi. Qadimda o'tgan buyuk Gippokrat, Aristotel, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar tomonidan ham bioritmlarning borligi va mohiyati, ularning kelib chiqishi Quyosh va Oyning davrlar bilan o'zgarishiga bog'liq ekanligini qayd qilgan.

Tirik organizmlarning biologik ritmlari davrida odam ish qilmoqdamni yoki o'rinni-to'shakda yotgan holdamini, tanadagi harorat soatiga $\pm 0,5^{\circ}\text{C}$ ga o'zgaradi. Inson tanasidagi teri haroratining yuqorigi ko'rsatkichi soat 18 lar atrofida bo'lsa, eng past ko'rsatkich tungi soat 1 dan ertalabki 5 lar orasida bo'ladi. Maymunlarni kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ular tunda uqlab, kunduzi aktiv harakatda bo'ladilar. Tana harorati tunda $36,5^{\circ}\text{C}$, kunduzi esa $38,5^{\circ}\text{C}$ atrofida. Yirtqich sutemizuvchilarda esa hammasi bo'lib, $0,3—0,4^{\circ}\text{C}$, kemiruvchilarda bundan ham past, tuyoqlilarda farq bo'lmaydi. Odamning peshona terisi va qo'llari uchidagi haroratning farqi ertalab 3°C , kechroq $2,9^{\circ}\text{C}$, tunda esa $1,7^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qiladi. Odam tanasi ustida doimiy harorat peshona terisida bo'ladi. Lekin, tana issiqligining asosiy manbai qo'l-oyoq uchlarda hisoblanadi. Yorug'lik va harorat eng kuchli tashqi ta'sir hisoblanadi. Ular ta'sirida issiq qonli hayvonlarda qat'iy 24 soatlik tana haroratining o'zgarish ritmi bo'lib turadi. Lekin, ayrim tungi hayvonlarda, masalan, ukkilarda tananing maksimal harorati va gaz almashinish darajasi kunduz, yorug'likda emas, balki tunda kuzatiladi. Chunki, ukkilar tunda harakat qiluvchi hayvonlar guruhiba kiradi. Sutkalik ritmlar asosida yotgan shartli reflekslar odam va hayvon tanasida turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Masalan, ishga tushish yoki ishdan chiqish signallari ishchilarning sutkalik ritm chizig'ini o'zgartiradi. Ya'ni, temir yo'l dispatcherining tunda ishga chiqish signali tana haroratini pasaytiradi. Odam tanasida yurak urish va qon aylanish organizm faoliyatiga bog'liqdir. Masalan, tana tinch turgan holatiga yurakdan aorta tomiriga minutiga 4—6 litr, muskullar bir oz harakat qilganda esa 20—25 litrga qadar qon haydaladi. Musqul sistemasi bo'shagan, tinch vaqtida yurak urish ham pasayadi ($40—50$ —1 minutda), og'ir harakat qilgan sportchilarda yurak urishi 1 min. da 260 ga ko'tariladi. Yurak urish kechroq soat 18 larda ortadi va shu vaqtida maksimal va minimal qon bosimi kuzatiladi. Yurak urishining eng kami ertalabga yaqin soat 4 da, qon bosimining pasayishi esa ertalabki soat 9 da kuzatiladi. Ko'zning ichki bosimi ertalab ko'tarilib, kechroq pasayadi. Tunda insonda miya biopotentsial aktivligi, ayniqsa tungi soat 2—4 larda eslash qobiliyati pasayadi, ishslash aktivligi sekinlashadi, kishi kuchsizlanadi, mushak kuchlari kamayadi.

Yillik maromlar. Ular organizmlarning umumiy xususiyatlaridan bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, respublikamiz viloyatlarida yillik harorat maromiga ko'ra organizmlarning rivojlanishi uchun qulay davrlar olti oy davom etadi. Shu davr ichida tirik organizmlarda asosiy fenologik hodisalar ro'y beradi. Yer yuzasidan qorlar erib, bahor nafasi sezila boshlaydi. Bodom, shaftoli, o'rik va tollar barg yozmasdanoq gullay boshlaydi. Tuproq yuzasi yashil o'tlar, o'simliklar bilan qoplanadi, uchib ketgan qushlar qaytib keladi, qishlab chiqqan hasharotlar hayoti faollashadi, yoz o'rtalarida harorat qulay bo'ladi, daraxtlar va boshqa ko'pchilik o'simliklarning o'sishi sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi, qushlarning ko'payish davri tugaydi. Yozning ikkinchi yarmidan boshlab erta kuzda ko'pchilik o'simliklarning meva va urug'lari pishadi, to'qimalarida ozuqa moddalar to'planadi. Shunday qilib, qishga tayyorgarlik boshlanadi. Daraxtlarning qishlaydigan kurtaklari shakllanadi va novdalari qotib yog'ochlashadi. Qushlar galalashib uzoq tropik mamlakatlarga uchishga hozirlana boshlaydi. O'simliklarda xazonrezgilik kuzatilib, qushlar uchib ketadi. Hasharotlar va umurtqasiz hayvonlar uchramay qoladi.

Sovuq boshlanishdan avval tana haroratini idora eta olmaydigan organizmlar tinim holatiga o'tadi. Umurtqali hayvonlar, qushlar va sut emizuvchilarining qish mavsumiga moslashishi kuzatiladi. Ular kuzda tullaydi, qalin va uzun, hatto oq rangdagi yunglar va tivist hosil qiladi. Qushlar patlar chiqaradi. Qishda yetarli ozuqa topa olmaydigan hayvonlar, ko'rshapalaklar, kemiruvchilarining ko'pchilik vakillari, bo'rsiqlar, ayiqlar uyquga ketadi. Suvda suzadigan hasharotxo'r parrandalar qishda ozuqa topib yeya olmaydilar, shuning uchun ular mavsumiy migratsiya qilishga majbur. Bularning hammasi muhitning kunlik, oylik va yillik maromlariga organizmlarning bergan javobi hisoblanadi. Har bir turning yillik maromi tabiiy tanlanish natijasida kelib chiqadi. Jadal o'sish va rivojlanish davri ko'payib, qishga tayyorgarlik va qishlash davrlarining muayyan tartib va muddati yillik maromni tashkil etadi. Yillik maromlar ko'pchilik turlarda endogen xarakterga ega va ular tsirkan maromlar deyiladi.

Organizmlarning hayotiy shakllari

O'simlik va hayvonlarning tashqi muhitning asosiy omillariga nisbatan morfologik moslanishlari va hayot kechirish tarzi organizmlarning hayot shakllari deyiladi. Organizmlarning uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida ular yashab turgan tashqi muhitga mos ravishda har xil morfologik va biologik moslanish xususiyatlari kelib chiqqan. Bu o'z navbatida organizmlarda ma'lum tashqi qiyofani vujudga keltirgan. O'simliklarning hayot shakli deyilganda (I.G.Serebryakov,1962) ma'lum tashqi muhit sharoitida o'simliklar guruhlarining o'sish va rivojlanish natijasida kelib chiqadigan umumiyo ko'rinishi (qiyofasi) tushuniladi. O'simliklarning hayot shakliga doir turli tasniflar va tarixlar mavjud bo'lib, bunday tasniflash Teofrast davridan boshlanadi. Daniyalik botanik K.Raunkier tomonidan taklif qilingan tasniflash o'simliklarning yangilanib turadigan organlarining, ayniqsa, kurtakning joylashishiga va ularning qishning noqulay sharoitida qishlashiga yoki qurg'oqchilikdan himoyalanishiga asoslanadi. Ana shu belgiga asosan Yer yuzidagi barcha gulli o'simliklarning hayot shakllari yetti turga bo'lib o'rganiladi:

1.**Fanerofitlar** (faneros — yaqqol ko'riniib turuvchi) daraxt va butalar hisoblanib, ularning qishlab yangilanuvchi kurtaklari Yer yuzidan ancha balandda joylashgan va qishda novdalari saqlanib qoladigan o'simliklar.

2.**Xamefitlar** (xame — past, yer bag'irlovchi) mayda butachalar, chala butachalar hisoblanib, ularning yangilanish kurtaklari Yer yuzasidan uncha baland emas, ammo tangachalar bilan qoplangan, qishda qor bilan qoplanadi, novdalari saqlanib qoladi.

3.**Gemikriptofitlar** (gemi — yarim, kriptos — yashirin) ko'p yillik o'tsimon o'simliklar hisoblanib, ularning yer ustki massasi qishda qurib ketadi, yangilanuvchi kurtaklari Yer sathi bilan barobar joylashgan hamda qurigan novdalar bilan himoyalangan bo'ladi.

4.**Kriptofitlar** ko'p yillik o't o'simliklar hisoblanib, ularning yer ustki organlari qishda butunlay quriydi, yangilanuvchi kurtaklari esa yer osti organlari tuginaklar, ildizpoyalar va piyozboshlarda saqlanib qoladi.

5.**Terofitlar** bir yillik o'simliklar bo'lib, ularning yer ustki va yer ostki

organlari qishda qurib qoladi, faqatgina urug'larigina qishlab chiqadi.

6. **Gelofitlar** botqoqlik o'simliklari bo'lib, ularning kurtaklari suv ostida joylashgan, vegetativ organlari suvdan ko'tarilib turadi.

7. **Gidrofitlar** gulli o'simliklar bo'lib, kurtaklari suv ostida, vegetativ novdalari esa suvda joylashgan. K. Raunkier tasnifida hayot shakllarining iqlim bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirishga harakat qiladi va Yer sharining turli zona va rayonlari uchun biologik spektr tuzib chiqadi. Biologik spektr ma'lum bir hududdagi o'rganilayotgan o'simliklar jamoalaridagi hayot shakllarining foiz nisbatlaridir.

O'simliklarning hayot shakllarini tasniflashda Raunkier usulidan tashqari ekologo-morfologik tasniflash ham hozirgi kunda keng tarqalgan.

Ekologomorfologik tasniflash mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ Daraxtsimon o'simliklar; ular daraxtlar, butalar va butachalarga bo'linadi.
- ✓ O'tsimon o'simliklar; ko'p yillik, ikki yillik,
- ✓ Bir yillik o'tlarga ajraladi.
- ✓ Chala daraxtsimon o'simliklar, ya'ni oraliq guruhni tashkil etib, bunga chala buta va chala butachalar kiradi.

Yuqoridagi mezonlarning keyingi bo'linishi o'simliklarning har xil belgilariga asoslangan. Masalan, novdaning o'sish xarakteriga va yo'nalishiga ko'ra (tik o'suvchi, yoyilib o'suvchi, o'rmalab o'suvchi, daraxtlar, butalar va o't o'simliklar: daraxtsimon va o'tsimon lianalar), oziqlanish usuliga ko'ra (avtotrof, simbiotrof va chala parazit, parazit, hasharotxo'r o'simliklar, yer ostki organlariga qarab ildizpoyali, tugunakli, piyozboshli, kaudeksli, ko'p yillik o't o'simliklar, butachalar kabilar).

Hayvonot dunyosida hayot shakllarini tasniflashda tashqi muhitning umumiy xususiyatlaridan tashqari ayni shu muhitdagi harakatlanish imkoniyatlari hamda ozuqaning xarakteri muhim ahamiyatga ega. Ekolog olim D. N. Kashkarov tasniflashga ko'ra hayvonlarning quyidagi hayot shakllarini ajratadi:

I. Sovuqqonli (poykiloterm) hayvonlar — yil bo'yli faol, qisman faolligini to'xtatadigan, yozgi uyquga ketadigan va qishki uyquni o'tkazadigan hayvonlar.

II.Issiq qonli (gomoyoterm) hayvonlar—1) o'troq hayat kechiruvchilar: yil bo'yi faol, qisman faolligi to'xtaydigan, yozgi uyquga ketadigan, qishki uyquga ketadigan; 2) mavsumiy hayat kechiruvchilar: uya quruvchilar, qishlovchilar, yozgilar, ko'chib yuruvchilar.

Turli muhitlarda harakatlanish xususiyatlari ko'ra quyidagicha hayat shakllari ajratiladi:

I. Suzuvchi hayvonlar: 1. Suvda yashovchilar: nektonlar, planktonlar, bentoslar; 2. Suvda va quruqlikda yashovchilar: sho'ng'ib yuruvchilar, sho'ng'imaydiganlar, faqat suvdan ozuqa topadiganlar.

II. Kovlovchilar: butunlay yer kovlovchilar (hayoti tuproq ostida o'tadiganlar), nisbatan yer kovlovchilar, (hayotida tuproq yuzasiga chiqadiganlar).

III.Quruqlikda yashovchi hayvonlar:

- 1) uya qurmaydiganlar: yuguruvchilar, sakrovchilar, o'rmalovchilar (sudraluvchilar);
- 2) uya quradiganlar: yuguruvchilar, sakrovchilar;
- 3) o'rmalovchilar (sudraluvchilar);
- 4) qoyalarda hayat kechiruvchi hayvonlar.

IV. Daraxtlarga tirmashib chiquvchilar: daraxtlar bilan chiqishmaydiganlar, faqat daraxtga tirmashib chiquvchilar.

V.Havo muhitidagi shakllar; havoda ozuqa topuvchilar, havoda kuzatib turib ozuqa topadiganlar.

Tuproqda yashovchi mayda hayvonlarning hayat shakllarini ajratishda tuproq qatlamining tabiiy-kimyoviy xususiyatlari katta rol o'ynaydi. CHigirtkasimonlar orasida daraxt va butalarda yashovchi **tamnobiontlar**, o't o'simliklar yarusida yashovchi **xortobiontlar**, tuproqdagи organik qoldiqlarda yashovchi **gerpetobiontlar**, tosh-shag'alli joylarda yashovchi petrobiontlar, ochiq joylarda yashovchi **eremobiontlar**, qumlarda yashovchi **psammobiontlar** kabi hayat shakllari ajratiladi



Savol va topshiriqlar

1. Muhit deb nimaga aytildi ?
2. Ekologik omil deganda nimani tushunasiz ?
3. Ekolgik omillarni tasniflab bering.
4. Suv va tuproq muhit sifatida qanday ahamiyatga ega?
5. Biologik maromlar va ularning tabiatdagi ahamiyati haqida gapiring!
6. Organizmlarning hayotiy shakllarini guruxlashtiring.



4-§ Populyatsiyalar va ekotizmlar ekologiyasi

Mavzu rejasi

1. *Populyatsiyalar haqida tushuncha;*
2. *Populyatsiyaning xususiyatlari va tuzilmalari;*
3. *Populyatsiya gomeostazi, zichlik;*
4. *Biotsenoz, biogeotsenoz, ekotizmlar va ularning tarkibi;*
5. *Ekotizmlarda modda energiya aylanishi.*

Populyatsiya (lotincha *populis* — so'zidan olingan bo'lib, xalq, aholi degan ma'nolarni bildiradi) atamasi XVIII asrning oxirlaridan boshlab to 40—50-yillarga qadar biologiya fanida har qanday individlar yig'indisi sifatida qo'llanilib kelindi.

Ekologik nuqtai nazardan esa ***populyatsiya*** deb uzoq muddat davomida muayyan bir joyda yashaydigan (yoki o'sadigan) va bir turga mansub bo'lgan individlar yig'indisiga aytildi.

Ular ma'lum joyda uchraydi va ko'p hayotiy belgilarga ega bo'ladi va shu belgilar butun guruhning doimiy funktsiyalarini aks ettiradi. Populyatsiya a'zolarining hayotiy belgilariga: tur

vakillarining soni, zichligi, tug'ilishi, o'lishi, yosh bo'yicha taqsimlanishi, tarqalishi va o'sishi kiradi. Populyatsiya genetik xususiyatlarga ham ega bo'lib, bu holat organizmning ekologik moslanishiga, qayta ko'payishiga olib keladi. Populyatsiya biologik va guruhlik xususiyatiga ega bo'ladi. Biologik xususiyatlariga: populyatsiya a'zolarining hayot tsikli, uning o'sish qobiliyati, farqlanishi va o'zining son sifati ushlab turish va biologik tug'ilish xususiyatlari

kirib, ular populyatsiyani hosil qiluvchi organizmlarga taalluqlidir. Populyatsyaning guruhlik xususiyatlariga, uni tashkil qiluvchi organizmlarning tug'ilishi, o'lishi, yoshiga qarab tuzilishi va genetik moslanishi kiradi. Populyatsiya ichida tur vakillari tug'iladi va o'ladi, katta yoki kichik yoshga ega bo'ladi, lekin bu holatlarni tur vakillari hosil qilgan guruhga nisbatan aytib bo'lmaydi. Chunki populyatsiya ichidagi bir vakil tug'ilishi yoki o'lishi mumkin, lekin, bir vaqtda guruh vakillari birdan tug'ilib yoki birdan o'lmaydi.

Populyatsiya belgilarini ikkiga bo'lish mumkin: 1) populyatsyaning belgilari ularning tuzilishi va sonlari nisbati bilan bog'liq; 2) populyatsyaning belgilari umumiy genetik xususiyatlari bilan xarakterlanadi.



Populyatsiya - bu tur vakillarini guruhlik uyushmalari, birlashmalari bo'lib, ular o'ziga xos spetsifik xususiyatlarga egaki, bunday xislatlar ayrim vakillarga taalluqli emasdir. Populyatsyaning guruhlik xossalari quyidagilardan iborat: ya'ni 1) tur

vakillarining ma'lum territoriyadagi umumiy soni; 2) ma'lum maydonda tur vakillarining o'rtacha soni populyatsiya zichligi yoki ma'lum hajmda va makonda populyatsiya a'zolarining massasi; 3) tug'ilish — ma'lum vaqt ichida tur vakillaridan hosil bo'lgan yangi vakillar soni; 4) o'lish — ma'lum vaqtida populyatsiya ichida o'lgan a'zolar soni; 5) populyatsyaning o'sishi — tug'ilish va o'lish o'rtasidagi farq bo'lib, bu farq salbiy yoki ijobjiy bo'lishi mumkin; 6) o'sish tezligi — ma'lum vaqt ichida populyatsiya a'zolari sonining o'rtacha o'sish tezligi.

Turning populyatsion tuzilmasi. Har qanday tur populyatsiyalar tizimidan tarkib topadi. Uning tuzilmasini esa individlarning harakatlanishi yoki ma'lum hududga bog'liqlik darajasi, tabiiy to'siqlarni yengib o'ta olishi kabi biologik

xususiyatlari belgilab beradi. U doimiy emas. Organizmning o'sishi, tug'ilish, o'lish va boshqa ko'pgina sabablarga ko'ra, ya'ni tashqi muhitning o'zgarishi, dushmanlar sonining o'zgarishi kabi qator omillarga bog'liq holda populyatsiyalar ichida o'zgarish vujudga keladi.

Populyatsyaning jins tuzilmasi. Populyatsyaning jins tuzilmasi turli yoshdagi guruhlardagi erkak va urg'ochi individlarning son jihatdan nisbatidir. Populyatsiyadagi jinslar nisbati, birinchidan, jinsiy xromosomalarning qo'shilishi bilan, ya'ni genetik qonuniyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ma'lum darajada tashqi muhitga ham ta'sir etishi mumkin. Populyatsyaning evolyutsiyasi uchun urg'ochi organizmlarning soni muhim ahamiyatga ega. Masalan, odamlar populyatsiyasining potentsial o'sishi o'smir va qariyalarga nisbatan 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan ayollar hisobiga to'g'ri keladi. Populyatsiyadagi individlarning nobud bo'lishi, jinslar nisbati amaliy ahamiyatga ega. Bu hol ko'proq sute Mizuvchi hayvonlar uchun tegishlidir.

Populyatsyaning yosh tuzilmasi. Populyatsyaning yosh tuzilmasi qayta tiklanishning jadalligi, nobud bo'lish darajasi va nasllar gallanishining tezligi kabi muhim jarayonlarni ifodalaydi. U aniq sharoitga qarab har bir populyatsiya uchun turning genetik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Yosh tuzilmasi har xil usullarda ifodalanadi.

O'simliklar populyatsiyasining yosh tuzilmasi. Fitotsenozdagi muayyan turlarning, har xil holatlardagi individlarning yig'indisi tsenopopulyatsiya tuproqda (yoki uning yuzasida) o'z hayotchanligini yo'qotmagan urug'lar, nihollar va har xil yoshdagi individlar kiradi.

Senopopulyatsyaning tarkibiga ba'zan o't o'simliklarning ikkilamchi tinim holatdagi yer ostki organlari — ildizpoya, piyozbosh, tugunak kabilar ham kiradi. Shunday qilib, jamoaning turlar tarkibi — tsenopopulyatsiyalar yig'indisidir. Turlarning o'zi esa populyatsiyalar tizimidan iboratdir. Jamoada har bir turning tsenopopulyatsiyasi maydon birligiga to'g'ri keladigan soni va yoshlarning nisbatlari bilan farqlanishi mumkin. T. A. Rabotnov o'simliklar jamoasidagi o'simliklarning hayotini quyidagi asosiy yosh davrlariga ajratadi:

a) Latent davri. Bunda o'simlik spora, urug' yoki mevalar holida tinim davrida uchraydi. Tinim davri har xil o'simliklarda turlicha davom etadi. Masalan, terakning urug'i hayotchanligini 3—4 kundan to 3 haftagacha saqlay oladi, ba'zi bir begona o't o'simliklar esa urug'ining hayotchanligini bir necha o'n yillab saqlay oladi. Tuproqda turli o'simliklarning ko'p sondagi urug'larini topish mumkin. Ular qulay sharoit vujudga kelganda unib chiqish xususiyatlariga egadir. SHu bilan birga har yili yangi urug'lar tuproqqa tushib turadi.

b) Virgil davri. Bu davr o'z navbatida nihol, yosh o'simlik va voyaga yetgan holatlarda ko'rinish, nihollar yosh o'simliklardan urug', palla barglarining bo'lishi bilan farqlanadi.

v) Generativ davr. O'simlik hayotida sporalar yoki urug'lar bilan ko'payishning boshlanishi bilan tavsiflanadi.

g) Senil (qarilik) davri. O'simlikning yoshi ulg'ayishi bilan generativ ko'payish xususiyatini yo'qtadi, ana shunda senil davri boshlanadi.

Normal turdag'i o'simliklar populyatsiyasi jamoada taraqqiyot davrining barcha bosqichlarini to'liq o'tkazuvchi o'simliklardir. Ular spora yoki urug'lardan tortib to voyaga yetgan o'simliklar ko'rinishida uchraydi. Senotik nuqtai nazardan ular o'simliklar jamoasining asosiy populyatsiyasi hisoblanadi.

Populyatsiyaning yosh tuzilmasi o'simlik va hayvonlarda ham bir necha omillarga bog'liq. Birinchi navbatda balog'atga, voyaga yetish vaqt, umr ko'rish muddati, ko'payish davri muddati, avlodlarning davomiyligi, ota-onasidan bir vaqtda tug'iladigan individlarning bunyodga kelish muddati, har xil jins va yoshdagi individlarning nobud bo'lish xarakteri, populyatsiyaning son jihatdan o'zgarib turish dinamikasi kabilarga bog'liq. Ikkinchidan, yuqoridagi omillarning tur ichidagi har xil populyatsiyalarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishidir. Bunda populyatsiyaning yosh tuzilmasi beqarorligi bilan tavsiflanadi. O'simlik va hayvonlarda populyatsiyaning yosh tuzilmasiga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Ammo biz populyatsiyaning yosh tuzilmasini yaxshiroq tasavvur qilish uchun odamlardagi yosh davrlariga oid ma'lumotlar bilan cheklanamiz.

Hayvonlar populyatsiyasining etologik (xulqiy) xatti harakat tuzilmasi.

Etologiya (grekcha «ethos»- xarakter) hayvonlarning xatti-harakatlari (xulqi)ning biologik asoslari haqidagi fandir. U ekologiya fani bilan chambarchas bog'langan. Etologiya fanining natijalaridan qishloq xo'jaligi, hayvonot olamini muhofaza qilish vazifalarini hal etishda foydalanish mumkin. Hayvonlarning xulqi ularning hayot kechirish tarzi bilan bog'liq. Odatda hayvonlar yolg'iz va birgalikda hayot kechiradilar. Hayvonlarning birgalikda yashashining bir necha shakllari ma'lum. Tabiatda hayoti davomida butunlay yolg'iz hayot kechiruvchi organizmni uchratib bo'lmaydi. Yolg'iz hayot kechirish nisbiy ma'noda tushuniladi. Individlarning jinsiy moyilligi va ota-onalar bilan yangi avlod o'rtaсидagi bog'lanishlar, hududiy umumiylig, nasl uchun qayg'urish natijasida oila deb atalgan hayvonlarning birgalikda yashash shakli kelib chiqadi. Ota-onalar jufti qisqa yoki uzoq vaqtgacha, ba'zi turlarda esa umrining oxirigacha birga bo'lishi mumkin. Hayvonlarda o'z juftini topish o'ziga xos murakkab ko'rinishlarda o'tadi. Bu narsa o'rgimchaksimonlarda erkaklarining har xil harakatlar orqali urg'ochisiga yaqinlashishi, qushlar va sutevizuvchilarda «ko'nglini ovlash», hatto erkaklari o'rtaсидagi o'zaro kuchli kurash yo'llari orqali boradi.

Hayvonlarning ancha yirik birlashmalari podalar, galalar va koloniylar hisoblanib, ularning shakllanishida populyatsiyalardagi xulqiy munosabatlar yanada murakkablashadi. Koloniylar o'troq hayot kechiruvchi, hayvonlarning birgalikdagi yashashidir. Ular uzoq vaqt yoki ko'payish oldidan birga yashashi mumkin. Koloniyani tashkil etuvchi individlar o'rtaсидagi o'zaro munosabatlar nihoyatda xilma-xildir. Eng oddiy ko'rinishlardan biri xemotaksis asosidagi to'planishdan iborat bo'lsa, murakkabroq shakldagisi esa bir-birlari kelishib (xabar berib) biror-bir hayotiy funktsiyani bajarishidir. Bunday funktsiyalarga dushmanidan saqlanish uchun zarur bo'lgan ogohlantiruvchi signallarni ko'rsatish mumkin. Sutemizuvchilar orasida koloniya bo'lib hayot kechirish oilaviy guruhlarning kengayishi hisobiga kelib chiqadi va dastlabki oila bilan bog'lanish saqlanib qoladi. Hasharotlarda (termitlar, chumolilar, arilar) kuzatiladigan koloniylar ham murakkab hisoblanib, ularning asosida ham oilalarning kengayib ajralib chiqishi yotadi. Bunday koloniylar birgalikda ko'payish, himoya, yosh

avlodni va o'zini boqish, qurilish ishlarini bajarish kabi funktsiyalarni bajaradilar. Mehnat taqsimoti ayrim individlar orasida yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan holda berilgan bo'ladi. Chumolilarning birgalikda yashashida turli xildagi signallar tizimidan foydalanish katta rol o'ynaydi.

Galalar bir turga kiruvchi ba'zi guruh hayvonlarning biron-bir biologik jihatdan foydali harakatni amalga oshirish uchun vaqtinchalik birlashishi hisoblanadi. Galalar dushmandan saqlanish, ozuqa topish, migratsiyalar kabi funktsiyalarni bajarishni yengillashtiradi. Gala bo'lib yashash baliqlar, qushlarda va sutevizuvchilardan itsimonlarda uchraydi. Baliqlar galasi dushmandan saqlanishda, qushlarniki mavsumiy migratsiya vaqtida shakllanadi. O'troq holda yashovchi qushlar o'rtasida doimo tovush chiqarib turish, ko'rish bilan bog'liq signallar mavjud. Bo'rilar galasi qishda birgalikda ov qilish uchun tashkil topadi. Podalar galalarga nisbatan hayvonlardagi ancha uzoq muddat davomida doimiy birlashish shaklidir. Podalar odatda tur uchun xos bo'lgan barcha funktsiyalarni, ya'ni ozuqa topish, yirtqichdan saqlanish, migratsiya, ko'payish va bolalarni tarbiyalash kabilarni amalga oshiradi. Podalardagi hayvonlarning guruhli xulqiy xatti-harakatlari «hukmdor» va «itoatkor» asosidagi o'zaro munosabatlardan tashkil topadi. Podalar tashkil bo'lishining bir ko'rinishi vaqtinchalik yoki doimiy biron-bir rahbar yoki boshliq (lider)ning xatti-harakatlariga qarab boshqa individlarning o'z faoliyatini amalga oshirishida ko'rindi. Podadagi har bir individ rahbarga itoat qilgan holda bir jon bir tan bo'lib harakat qiladi. Buning uchun u ancha tajribali, tadbirkor, odil va kuchli bo'lishi kerak. Rahbarning biologik ahamiyati shundan iboratki, uning individual tajribasi qolgan barcha individlar uchun foydali bo'lsin. Podada bir-birlariga bo'ysunuvchi, ya'ni yetakchi individlar bo'lsa, ularda xulqiy munosabatlar yanada ham murakkab bo'ladi. Yetakchi individlar o'ta tajribali va tadbirkor podaga faol boshchilik qilishi bilan rahbarlardan ajralib turadi. Masalan, otlar podasidagi yetakchilar harakatni boshqaradilar, yirtqichlardan ximoya qiladilar, janjallarni tinchitadilar, kasal yoki yosh individlarga g'amxo'rlik qiladilar. Populyatsiyaning dinamikasi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni biz odamlar misolida ko'rib chiqamiz.

Populyatsiyaning dinamikasi

Tug'ilish va o'lish miqdori. Odam populyatsiyasi sonining ortishini uning biologik xususiyatlaridan qidirish kerak. Bunday omillardan biri va eng muhimi tug'ilish va o'lishdir. Har ikki ko'rsatkich ham potentsial yoki real koeffitsientlar bilan aniqlanishi mumkin. Agarda tug'ilish jarayonini olsak ayrim tur yoki uning barcha individlari qulay sharoitda eng yuqori mahsuldorlikka erishishi mumkin bo'lgan sharoit hisobga olinadi va u potentsial (imkonibor bo'lgan) tug'ilish miqdori deb qaraladi. Real tug'ilish esa bir turning barcha individumlarining haqiqiy tug'ilish miqdori hisoblanadi.

Odamlar populyatsiyasidagi 100 individumdan 15 ta bola tug'ilsa, real tug'ilish miqdori 15%ga teng bo'ladi. Agarda jinslar nisbati 1:1 bo'lsa, real tug'ilish miqdorining koeffitsienti 30% ni tashkil etadi. Real tug'ilish miqdori koeffitsienti odatda bola tug'a oladigan yoshdagi ayollar sonini hisobga oladi. Real tug'ilish miqdori koeffitsientidan real o'lish miqdori olib tashlansa, aholining o'sish koeffitsientini aniqlash mumkin. Aholi sonining o'sish koeffitsienti Yevropada 2,5%, AQSHda 10% ni tashkil etadi. Aholi sonining o'sish koeffitsientiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Masalan, sarhisobchilar tomonidan e'tiborga olinmaydigan, ammo muhim hisoblangan jamiyatning hayot darajasi va din kabilar ham hisobga olinishi kerak. Shuning uchun yuqoridagi misolimizda Yevropada aholi sonining real o'sish koeffitsienti 1,25%, AQSHda esa 5% ni tashkil etadi.

Populyatsiyaning o'sishi.

Hayvonlar populyatsiyasining o'sish tezligi tashqi muhitning ta'siriga bog'liq ravishda o'zgaradi. Organizmlar uchun bir necha davrlarni ajratish qabul qilingan.

Latent davrida populyatsiya tarkibi



son jihatidan bir xil darajada o'zgarmay ushlab turiladi. Latent davridan so'ng eksponentsiyal o'sish davri boshlanadi. Bu vaqtida populyatsiya tez o'sadi va

barqarorlashadi. Son jihatidan bir oz tebranib turuvchi barqarorlik muvozanat davri deb ataladi. Odamlar bir necha asrlar davomida tabiatning iqlim omillari va yuqumli kasalliklar ta'sirida yashab kelmoqda. Olovning kashf etilishi, keyinchalik ish qurollari va harbiy qurollar yaratish tufayli insonning hayoti asta-sekin o'zgardi.



Populyatsiyaning gomeostazi.

Populyatsiyaning son jihatdan bir me'yorda saqlanib turilishi gomeostaz (grekcha «gomeo» - o'xshash, statis - holat) deyiladi. Populyatsiyaning ushbu xususiyati asosida har bir individning, populyatsiyaning boshqa a'zolari ortishi yoki kamayib ketishiga nisbagani fiziologik xususiyatlari (o'sishi, xulq-atvorining o'zgarishi) yotadi. Populyatsiya gomeostazining mexanizmlari turning ekologik xususiyatlari, uning harakatchanligi, yirtqich va parazitlar hamda omillarning ta'sir etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Populyatsiyaning zichligini boshqarish o'simliklarda hududni hisobga olgan holda vegetativ quvvatni oshirishda namoyon bo'lsa, hayvonlarda esa ozuqa zahiralari cheklangan holatda ro'y beradi. Ko'pchilik turlar populyatsiyasining o'sishini sekinlashtiruvchi mexanizmlardan biri individlarning o'zaro kimyoviy ta'sir etishidir. Populyatsiyani son jihatidan cheklashning ikkinchi ko'rinishi zichlik ortishi bilan fiziologik va xulqiy holatlarning o'zgarishidir. Bu o'z navbatida yalpi ko'chib ketish instinctlarini keltirib chiqaradi. Natijada o'troq hayot kechirayotgan populyatsiyaning ko'pchilik qismi ushbu hududdan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Hayvonlardagi hudud bilan bog'liq xatti-harakatlar instinctlar tizimi sifatida kelib chiqqan bo'lib, u populyatsiyaning ayni bir maydonda son jihatidan o'sishini boshqarishning samarali mexanizmlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Populyatsiya zichligining ortishi individning tug'ilish va o'lish miqdorining pasayishi yoki ortishi kabi fiziologik o'zgarishlar bilan birga borishi mumkin. Sutemizuvchi hayvonlardagi stress (qo'zg'alish) holati ham dastlab odamlar uchun qo'llanilib, keyinchalik u

hayvonlar uchun taalluqli ekanligi aniqlandi. Stress tashqi muhitning har qanday salbiy ta'siriga javob tariqasida hamda populyatsiyaning o'rtacha zichligining o'zgarishidan kelib chiqadi.

Sayyoradagi barcha o'simlik va hayvonlar odatda jamoa holida yashaydi. Jamoa deyilganda rivojlanishning turli pog'onasida bo'lgan bir guruh tirik organizmlarning muayyan sharoitda birgalikda yashashi tushuniladi. Bunda ular o'zaro munosabatda bo'ladilar. Muayyan tuproq sharoitida o'simliklar, hayvonlar, ayrim zamburug'lar va mikroorganizmlarning birgalikda yashashiga biogeotsenoz deyiladi. Faqat bir necha tur o'simlik birgalikda qavm bo'lib yashasa fitotsenoz (o'simliklar jamoasi) deyiladi. Xuddi shu singari faqat bir necha tur hayvonlarning birgalikda qavm bo'lib yashashiga zootsenoz (hayvonlar jamoasi) deyiladi.


Tirik organizmlarning bir-birlariga o'zaro ta'siri muhitning biotik omillari deb qaralsa, ularning atrofini o'rab olgan barcha tirik organizmlar biotsenotik muhitni tashkil etadi. Har bir tur normal hayot kechirishi uchun u yakka holda yashay olmaydi, balki atrofidagi boshqa tirik organizmlar bilan birgalikda hayot kechiradi.

Biotsenoz (lotincha «*bios*» - hayot. «*tsenoz*» - umumiy) deyilganda bir xil muhitga moslashib olgan va bir joyning o'zida birga yashaydigan barcha organizmlar tushuniladi.

Biotsenozning katta-kichikligi har xil bo'lishi mumkin. Bunga oddiy lishaynik do'ngligidan tortib to o'rmon, dasht, cho'l va shunga o'xshash yirik landshaftlarni misol qilib ko'rsatish

mumkin. Kichik o'lchamdagи biotsenozlar (daraxt tanasi yoki bargidagi, botqoqlikdagi moxlardan iborat do'ngliklar, chumolilar uyasi va boshqalar) uchun mikrojamoa biotsenotik guruhlар kabi atamalar ishlataladi. Yer sharida turlicha yashash sharoitlari mavjud bo'lib, ular ma'lum darajada ajratib olingan holda turlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda qo'l keladi. Ana shunday yashash sharoitlari biotop deb ataladi.

Biotsenozning eng muhim xususiyatlaridan biri uning turlar tarkibidir. Ayni bir biotsenoz uchun xos bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining umumiy soni deyarli doimiy bo'lib, har xil turdag'i biotsenozlarda u keskin o'zgarib turadi. Nam tropik o'rmonlardagi biotsenozlar turlarga boy hisoblansa, qurg'oqchil va sovuq hududlardagi biotsenozlarda turlar kam uchraydi. Maydon birligiga to'g'ri keladigan turlar soni biotsenozning turlarga to'yinganligi deb ataladi. U ham turli biotsenozlarda turlar tarkibi kabi o'zgarib turadi. Har qanday biotsenoz ma'lum tarkibdagi hukmronlik qiluvchi hayot shakllariga ega bo'ladi. Masalan, o'rmon biotsenozlarida fanerofitlar hukmronlik qilsa, o't o'simliklardan tashkil topgan biotsenozlarda gemikiriptofitlar, arid (qurg'oqchil) viloyatlarda esa xamefitlar va terofitlar hukmronlik qiladi. Biotsenoz, odatda fitotsenoz, zootsenoz, mikotsenoz va mikrobiotsenozlardan tashkil topadi. Biotsenoz va u bilan bog'langan biotopning chegaralari birinchi navbatda o'simlik qoplami o'zgarishi bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham biz quyida biotsenozning muhim tarkibiy qismi hisoblangan fitotsenoz va uning ba'zi bir xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz. Fitotsenoz yoki o'simliklar jamoasi deyilganda Yer yuzining bir xildagi muayyan uchastkalarida qavm (guruh) bo'lib yashayotgan tuban va yuksak o'simliklar yig'indisi tushuniladi. Ular o'zaro bir-birlari bilan hamda yashash sharoitlari bilan aloqada bo'lib, natijada o'ziga xos maxsus muhitni hosil qiladi. Har qanday o'simlik jamoasi (fitotsenoz) ham turlar tarkibi, turlar o'rtasidagi o'zaro miqdor va sifat munosabatlari, qavatlik (yarus) gorizontal tuzilish, tashqi qiyofasi, davriyligi, hayot shakllarining xilma-xilligi, yashash joyining xarakteri va shunga o'xshash bir necha xususiyatlari bilan tavsiflanadi va bir-biridan farqlanadi. Fitotsenozni hosil qilishda o'simliklar orasida son jihatidan ko'pchilikni tashkil etuvchi yoki ko'zga yaqqol tashlanuvchi tur ajratiladi va bu tur odatda hukmron



(yoki dominant) tur deyiladi. Demak, dominantlar yoki hukmron bo'lib hisoblangan turlar miqdor jihatdan ko'p uchraydi va boshqa turlar orasida yaqqol ko'rinish turadi. Ular asosan organik massa to'plovchi hamda fitotsenozning fonini (ko'rinishini) va xarakterini belgilaydi. Dominant turlarga misol qilib qarag'ayzor o'rmonlaridagi oddiy qarag'ayni, qoraqarag'ayzorlardagi qoraqarag'ayni, O'rta Osiyo tog'larining archazorlarida o'suvchi archaning bir necha turlarini, saksovulli cho'llarda esa saksovulni ko'rsatish mumkin. Jamoada har qanday dominant turlar biotsenozga ta'sir etavermaydi. Ular orasida edifikator turlar ajratilib, jamoaning maxsus muhitini hosil qiladi. Ular jamoaning quruvchilari bo'lib, fitotsenozning xususiyatlarini belgilab beradi. Masalan, O'zbekistondagi qumli cho'llarda daraxt ko'rinishidagi edifikator tur oq saksovuldir. Dashtlarda chim hosil qiluvchi chalov va betagalar, o'rmonlarda esa oddiy qarag'ay, qoraqarag'ay, eman kabi daraxtlar edifikatorlar hisoblanadi. Ba'zi hollarda hayvon turlari ham edifikator hisoblanishi mumkin. Masalan, katta maydonda tarqalgan, yer kovlovchi xususiyatga ega bo'lgan sug'urlar koloniyasi o'simliklarning o'sish sharoitiga, mikroiqlimga va asosan landshaft xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi. Dominant turlarga nisbatan ozroq miqdorda uchraydigan, ammo fitotsenozda ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan turlar subdominant (ikkinchi hukmron) turlar deb ataladi. Dominant va subdominant turlardan tashqari jamoa tarkibida kamroq sonda uchraydigan turlar ham mavjud. Ular komponentlar deyiladi. Kam sondagi va noyob turlar ham biotsenozning hayotida muhim rol o'ynaydi. Biotsenozdagi har bir turning rolini aniqlashda ularning mo'lligi, uchrovchanligi va hukmronlik darajasi kabi miqdor ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi. Fitotsenozlarda mo'llik og'irlik, ball va o'simliklar soni bilan ifodalanadi. Masalan, Toshkent atrofidagi efemerli cho'llarda 1 m^2 maydonda 5000 nusxadan ortiq o'simlik ro'yxatga olingan bo'lib, 47 turdan iborat ekanligi aniqlangan. Og'irlik usuli amaliy maqsadlar uchun foydalilanadi. Tabiiy pichanzorlar va yaylovlarning hosildorligi shunday usul bilan aniqlanadi. Uchrovchanlik darajasi biotsenozda turlarning tekis yoki notekis tarqalganligini ifodalaydi. U umumiylarni namuna maydonchalar sonini tur uchragan maydonchalar soniga nisbatan hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Dominantlik darajasi ayni bir tur

individlar sonining ushbu guruhdagi umumiyligi soniga nisbatini bildiradi. Masalan, ma'lum maydonda 200 ta qush ro'yxatga olingan bo'lsa, shulardan 80 tasi sayroqi qushlarni tashkil etadi. Demak, sayroqi qushlarning dominantlik darajasi 40% ga tengdir.

Biotsenozlarda bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar ham uchraydi. Shunday qilib, biotsenozdagi turlarni miqdor va sifat jihatdan xarakterlash natijasida uning turlar tarkibi haqida ma'lum bir xulosaga kelish mumkin. Biotsenozning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tuzilish birliklaridan tashqari uning funksional tuzilish birligi, ya'ni konsortsiyalar xarakterlidir. Biotsenozlarning hosil bo'lishi va yashashi asosida muayyan (bironta) joydagi organizmlarning o'zaro munosabati, ular o'rtasidagi aloqa yotadi. B.N.Beklemishev bunday munosabatlarni vositali va vositasiz turlararo munosabatlarga bo'lib ko'rsatadi. Jamoada har bir turning o'zaro aloqasi, tashqi muhitga bo'lgan talabi va ta'siri shu turning ekologik o'rni yoki ekologik nishasi deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, organizmning tabiatda egallagan o'rni deyilganda uning hayot tarzi, oziqlanish usuli tushuniladi. V.N.Beklemishev tasnifotiga ko'ra bunday ekologik o'rinni (ekonisha) to'rt toifaga bo'linadi: ***trofik, topik, forik va fabrik***.

Trofik aloqa bir turning ikkinchi tur bilan oziqlanishida namoyon bo'ladi. Bunda o'lja o'lik yoki tirik holda yemish bo'lishi mumkin. Masalan, buni ninachi uchun hasharotlarning yemish bo'lishi, go'ng qo'ng'izning tuyoqli hayvonlar tezagi bilan oziqlanishi, asalarining asalshira bilan oziqlanishi kabi misollarda tushuntirish mumkin.

Topik aloqa bir tur tomonidan ikkinchi turning yashash sharoiti o'zgartirilishida namoyon bo'ladi. Daraxtlar tanasida lishayniklarning yashashi, o'rmondagи daraxtlar tomonidan shu yerlarda o'suvchi o'tlar hayotiga ko'rsatiladigan ta'sirlarda bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Forik aloqa bir turning tarqalishiga ikkinchi turning ta'sir etishida ko'rindi. Ko'pgina hayvonlar tomonidan o'simlik urug' va mevalarining tarqalishi bunga misoldir. SHunday tarqalish aktiv yoki passiv tarzda o'tishi mumkin. Bir turning o'ziga in qurishi uchun boshqa turning qoldiqlaridan foydalanishida ***fabrik*** aloqa

namoyon bo'ladi. Masalan, qushlar in qurish uchun daraxtlarning bargi, shoxchalarini tashib keladi, hayvonlarning jun va patlaridan foydalanib in quradi.

Ekosistemalar. Yashash sharoiti o'xshash va o'zaro munosabati natijasida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi har xil turga mansub bo'lgan birgalikda yashovchi organizmlar yig'indisiga ekologik sistema deyiladi. O'rmon, cho'l, o'tloq, suv havzasi va boshqalar ekosistemaga misol bo'la oladi. Ma'lumki, har xil turdag'i organizmlar bir-birlariga va tevarak-atrofidagi jonsiz tabiatga har tomonlama moslashganlar; bunday uzviy bog'lanishlar biotsenozlarni tashkil etadi. Biotsenoz umumiyy tabiiy kompleks biogeotsenozning bir qismidir. Ekosistema tushunchasi fanga 1935 yili ingliz ekologi A. Tensli tomonidan kiritilgan.



A. Tensli

Biogeotsenoz – Yer yuzasining ma'lum masofadagi bir – biriga o'xshash tabiiy hodisalar (atmosfera, tog' jinslari, o'simliklar, hayvonot olami va mikroorganizmlar) majmuidir. Bu majmuada doimiy modda va energiya almashinuvining bo'lishi xarakterlidir.

Biogeotsenoz («bios»— hayot, «geo»— yer, «tsenoz»— umumiyy yoki jamoa) tushunchasini esa rus botanik olimi, akad. V. N. Sukachev (1942) taklif etgan. Uning organik dunyosi (o'simliklar, hayvonlar,

zamburug'lar, mikroorganizmlar) biotsenoz deb atalib, muhit esa ekotop deyiladi. Ekotop o'z navbatida klimatop (atmosfera) va edafotop (tuproq) degan tarkibiy qismlardan iborat. Biogeotsenozlar har xil o'lchamda, ya'ni kichik va katta maydonda bo'lishi mumkin. Botqoqlikdagi do'nglik, o'rmondagi to'nka, biror hayvon uyasi (in) atrofi, akvarium kabilalar kichik biogeotsenozlarga misol bo'lsa, o'rmon, dasht, cho'l, o'tloqzor va boshqa maydonlar yirik biogeotsenozlardir. Shunday qilib, biogeotsenoz (yoki ekosistema) deyilganda o'zaro ichki qarama-qarshiliklar birligi asosida doimo harakatda va rivojlanishda bo'lgan, o'ziga xos modda va energiya almashinuvi hamda tabiatning boshqa hodisalari bilan Yer yuzining muayyan qismida bir xil tabiiy hodisalarning bir-birlari bilan o'ziga xos tarzda ta'sir etuvchi birikmalar yig'indisi tushuniladi. Ko'pincha ekosistema va

biogeotsenozi tushunchalari bir-birining sinonimi sifatida qo'llaniladi va deyarli bir xil ma'noni bildiradi. Ammo ba'zi tomonlari bilan ular farqlanadi (3-jadvalga qarang).

A. Tensli ta'rifiqa ko'ra ekosistema ichki va tashqi doiralarda moddalar va energiya almashinuviga ega bo'lgan tirik va jonsiz komponentlarning cheksiz barqaror sistemasidir. Shunday qilib, ekosistema mikroorganizmlarga ega bo'lgan bir tomchi suv, o'rmon, tuvakdagi o'simlik, kosmik kema va boshqalardir. Ekosistemalar biogeotsenoza nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Har qanday biogeotsenoz o'z navbatida ekosistema bo'la oladi, ammo har qanday ekosistemani biogeotsenoz deb bo'lmaydi.


A.G.Isachenko (1991) ekosistema va geosistema haqida fikr yuritib, bu ikki taksonomik birlikni o'xshashliklari va farqlarini ajratib beradi. U ekosistemaga ta'rif berganda tabiiy komponentlar bir –biri bilan o'zaro aloqada bo'lganda

3- jadval

Biogeotsenoz va ekosistemalarning ba'zi bir farqlari

Biogeotsenoz	Ekosistema
<ul style="list-style-type: none"> - Tabiiy hodisa hisoblanadi - Ma'lum tabiiy chegaraga ega bo'lgan fazoviy birlik; u qo'shni biogeotsenozlardan fitotsenozi bilan ajralib turadi. - Biogeotsenoz o'simliklar bilan chegaralanganligi uchun faqat quruqlikda mavjud bo'ladi 	<ul style="list-style-type: none"> - Tabiiy yoki butunlay sun'iy hodisa bo'lishi mumkin - Funktsional birlik bo'lgani uchun qo'shni ekosistemalardan ajralib turishi shart emas. - Yirik ekosistemalar odatda odam ta'sirda bo'ladi

“biota” (tirik organizm) markazda bo'ladi, ya'ni tabiiy komponentlar faqat “biota” orqali bir –biri bilan bog'lanishini aytadi. Geosistemada esa tabiiy komponentlar bir –biri o'zaro teng aloqadorlikda bo'ladi. Bunda “biota” ya'ni, tirik organizmni ham notirik tabiat komponentlari bilan teng aloqadorligi ta'minlanadi. Buni quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



1-chizma. Ekosistema va geosistemaning o'xshashliklari va farqlari


A-chizmada ekosistema, B-chizmada esa geosistema modeli tasvirlangan.

Geosistemadagi **A₁, A₂, A₃** abiotik omillar, **B**- biota yoki tirik organizm.

Ekosistemada moddalar aylanishini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda kerak bo'ladigan anorganik moddalar zahirasi va bajarayotgan ishi jihatidan uch xil ekologik guruhni tashkil etuvchi organizmlar bo'lishi zarur. Birinchi guruhga yashil o'simliklar kiradi. Ular quruqlikdagi har qanday biotsenozning asosiy tarkibi va energiya manbai sifatida xizmat qiladi. Bunday avtotrof organizmlar **produtsentlar** deb ataladi. **Produtsentlar** — assimilyatsiya jarayonida to'plangan energiyasini boshqa organizmlarga beruvchilardir. Ikkinci guruhga hayvonlar kiradi. Ular o'simliklar tomonidan to'plangan organik moddani iste'mol qiluvchilar bo'lib hisoblanadi va **konsumentlar** deb ataladi.

Zamburug'lar va bakteriyalar biotsenoza turlicha rol o'ynaydi. Ular orasida o'simlik va hayvonlarda tekinxo'r holda yashovchi va ko'pchiligi organik moddalarni mineral moddalarga parchalovchilar bo'lib, ular **redutsentlar** deyiladi. Ammo shu bilan birga ko'pchilik zamburug'larning meva tanalari jamoadagi hayvonlar uchun sevimli ozuqa bo'lishi ham mumkin. Bunda ular konsumentlar hisoblanadi. Bakteriyalar birinchi navbatda redutsentlar hisoblanib, ular organik moddalarni mineral moddalarga parchalab beradi. Demak, yuqorida sanab o'tilgan organizmlar guruhi o'rtasiga keskin chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki konsumentlar (hayvonlar, zamburug'lar, tekinxo'r o'simliklar) ayni vaqtda redutsentlar vazifasini ham bajarishi mumkin. Epifitlar asosan produtsentlar hisoblansa ham oziqlanish vaqtida daraxt tanasi po'stlog'idagi parchalangan o'simlik qoldiqlaridan foydalanadi, ya'ni bir vaqtda redutsentlar vazifasini ham bajaradi.

Energiya oqimi. Ekosistemalardagi organizmlarning hayot faoliyati va moddalarning aylanishi uchun energiya talab etiladi. Yashil o'simliklar hayot uchun zarur bo'lgan kimyoviy moddalarni olib, fotosintez jarayonida organik birikmalar to'playdi va Quyosh energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi. Ular hayvonlarga ozuqa beradigan tirik moddaning asosiy qismini tashkil etadi. Havo tarkibidagi kislород va karbonat angidrid gazlarining miqdorini tiklaydi va suvning aylanish jarayonida qatnashadi. O'simlik chirindilari tuproqda fosfor, kaliy, kaltsiy, marganets kabi elementlarning bir me'yorda tarqalishiga yordam beradi. Bunday organizmlar **avtotroflar** deb ataladi. O'simliklar va boshqa jonivorlar bilan oziqlanib yashovchi geterotroflar esa oziqlanish jarayonida organik moddalarni karbonat angidrid, suv va mineral tuzlarga aylantiradi. Ular organik moddalarni o'simlik takror foydalanishi uchun yaroqli bo'lgan darajagacha parchalaydi. Shunday qilib biogen moddalar tabiatda uzluksiz aylanib turadi. Moddalarning bunday davriy aylanishi hayot uchun zarur sharoit bo'lib, bu uzoq evolyutsiya jarayonida vujudga kelgandir.



Geterotroflar, ya'ni hayvonlar, zamburug'lar va bakteriyalar ikki guruhga bo'linadi. Bulardan birinchisi iste'mol qiluvchilar, ya'ni konsumentlar ozuqa sifatida tirik organizmlardan foydalanib, organik moddalarni o'zgartiruvchi, qisman parchalovchi geterotroflardir. Ammo bu organizmlarning biron turi ham o'simliklardagi organik moddalarni oxirigacha parchalay olmaydi. Har bir tur organik moddani muayyan darajada parchalay oladi, xolos. Bunday turlardan qolgan chiqindilar esa boshqa geterotrof organizmlarga yem bo'ladi.

Ekosistemalarning biologik mahsuldorligi. Jamoaning hayot faoliyati natijasida organik moddalar to'planadi va sarf bo'lib turadi. Demak, har bir ekosistema ma'lum darajada mahsuldorlikka ega. Biomassaning hosil bo'lish tezligi biologik mahsuldorlik deb ataladi, u ayrim turlar, butun ekologik sistema

hayot faoliyati energiyasining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Ekosistema deb birgalikda yashovchi har xil turdag'i organizmlar va ular yashashining shart-sharoitlaridir, ular bir-biri bilan va o'zlar o'rabi turgan tabiiy muhit bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Ekosistemaning asosiy yoki birlamchi mahsuldorligi yashil o'simliklar tomonidan fotosintez jarayoni natijasida vaqt birligida to'plangan mahsulot hisoblanadi. Masalan,

fotosintez natijasida o'rmondagi o'simliklar 1 ga maydonda 5 t organik modda hosil qilsa, bu umumi yoki yalpi birlamchi mahsuldorlik deb qaraladi. Ammo o'simlikning hayoti uchun ham hosil bo'lgan moddalar sarf bo'ladi. Shuning uchun vaqt va maydon birligiga to'g'ri keluvchi biomassa bir oz kam bo'ladi.

Ekosistemada to'plangan barcha mahsulot (nafas olishga sarf bo'lgandan tashqari) jamoaning haqiqiy birlamchi mahsuldorligini tashkil etadi. Haqiqiy birlamchi mahsuldorlikni hosil qiluvchi organik moddalar geterotrof organizmlar uchun o'zlashtirilishi mumkin.

Biomassa deyilganda jamoadagi barcha tirik organizmlar umumi og'irligining yig'indisi tushuniladi. Konsumentlar ham haqiqiy birlamchi mahsulot hisobiga organik modda to'playdi. Ular hosil qilgan mahsuldorlik ikkilamchi hisoblanadi. Hisoblashlarning ko'rsatishicha, 1 ga o'rmon jamoasi yiliga o'rtacha Quyosh nurining $2,1 \cdot 10^9$ kJ energiyasini o'zlashtiradi. Agarda shu yerdagi o'simliklar yoqib yuborilsa atigi $1D \cdot 10^6$ kJ yoki to'plangan energiyaning 0,5% ni tashkil etadi. Demak, produtsentlar tomonidan to'planadigan birlamchi mahsuldorlik juda kam ekan.

Ikkilamchi esa bundan ham kam miqdorda bo'ladi. Ozuqa zanjirining bir bo'g'inidan ikkinchisiga o'tishi vaqtida 80—99% energiya sarf bo'ladi. 1 m² maydondagi o'simliklar bir sutkada hosil qilgan moddalar ekvivalenti taxminan 84 kJ ni tashkil etsa, birlamchi konsumentlar hosil qilgani 8,4 kJ, ikkilamchi konsumentlarniki 0,8 kJ dan oshmaydi. 1 kg mol



go'shti hosil bo'lishi uchun 90 kg ko'k o't massasi zarur bo'ladi.

Emanzor (dubzor) o'rmonlarda yillik to'plangan organik moddalarda 9 milliard kkal potentsial energiya yig'iladi. To'plangan organik moddalarning deyarlk yarmi o'simliklarning nafas olishi uchun ketadi. O'simliklarning yer ustki qismlaridagi organik modda yiliga gektariga 5-6 t (quruq vaznda), yer ostki qismlarida esa 3-4 t ko'payadi, jami to'plangan yillik birlamchi biomassa 10 tonnani tashkil etadi. Bu massaning 4 tonnasi barglar, gul, meva va shunga o'xshashlarga to'g'ri keladi. O'rmonda o'simliklarni iste'mol qiladigan hayvon turlari ularga ozuqa bo'ladigan o'simlik turlariga nisbatan ancha ko'p bo'ladi, hayvonlarning biomassasining yig'indisi nihoyatda kam. Masalan, tuyoqlilar (bug'u, kiyik, yovvoyi cho'chqa) biomassasi gektariga 2 kg, kemiruvchilar va sutemizuvchilar hamda mayda hayvonlarniki 5 kg, qushlar biomassasi esa 1-3 kg.

Yuqorida energiyaning avtotrof organizmlar organik moddalari kimyoviy bog'larida to'planishi, keyinchalik geterotrof organizmlarga yem bo'lishi, hayvon tomonidan o'zlashtirilgan energiyaning ko'p qismi uning hayot faoliyati uchun sarflanishi, ozuqadagi energiyaning faqat 5-20%igina hayvonning o'sishi uchun sarflanishi to'g'risida fikr yuritildi. O'txo'r hayvonning yirtqich tomonidan iste'mol qilinishida ozuqadagi energiyaning yana kattaroq bir qismi yo'qoladi. Foydali energiyaning shunday ko'p sarf bo'lgani uchun ham ozuqa zanjirlari uzun bo'lmaydi.

Ozuqa zanjirlarining keyingi halqalarida massa tobora kamayib boradi. Masalan, 1 t o'simlikdan o'rta hisobda 10 kg o'txo'r hayvon gavdasi massasi hosil bo'lishi mumkin. Ozuqa zanjirining asosi hisoblangan o'simlik massasi o'txo'r hayvonlarning umumiy massasidan hamisha bir necha barobar ko'p bo'ladi. Shunday qilib, tabiatda ekologik piramida hosil bo'ladi.



Dastlab ekologik piramida Ch. Elton tomonidan tuzilib, u sonlar piramidasiga

deb atalgan. Piramidalar har bir ozuqa zanjiridagi biomassa va uning ekvivalenti hisoblangan energiya nisbatlarini yaxshi ifodalaydi va amaliy maqsadlarda undan foydalilaniladi.

Quruqlikdagi ekosistemalarda biomaosa piramidalar qoidasi qo'llaniladi. Barcha ekosistemalar uchun esa birlamchi va ikkilamchi mahsuldorlikning nisbatlari, ya'ni mahsulotlar piramidasi qoidasi xarakterlidir. Sonlar, biomassalar va mahsulotlar piramidalari grafik tarzida yaxshi ifodalanishi mumkin. Unda har bir trofik darajadagi vaqt birligida to'plangan biomassa keyingisidan ko'p bo'ladi.

Turli ekosistemalarning mahsuldorligi bir xil emas. Mahsuldorlik bir necha omillarga bog'liq bo'lib, birinchi navbatda iqlim omillariga bog'liqdir. Eng mahsuldor ekosistemalar qirg'oqlar bo'yи, sayoz limanlar, suv bosib turuvchi o'tloqzorlar hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Populyatsiyalar ekologiyasi fanining predmeti vazifalarini tushuntiring.
2. Populyatsiyaning yosh va jinsiy tarkibini tushuntiring.
3. Populyatsiya gomeostazi deganda nimani tushunasiz?
4. Biotsenozlar nima?
5. Ekosistemalar va biogeotsenozalarni ta'riflab bering?
6. Ekologik nishani tushuntirib bering?




5-§. Biosfera

Mavzu rejasi

1. **Biosfera tushunchasi.**
2. **V.I.Vernadskiy ta'limoti.**
3. **Biosfera chegaralari.**
4. **Noosfera muammolari.**
5. **Biosfera tuzilmasi, moddalar va ularni funktsiyalari.**

Yevropaning katta tabiatshunos olimi J.B. Lamark (1744— 1829) birinchi marta «Biosfera» atamasini fanga kiritib, uning asl ma’nosи hayot tarqalgan joyi va Yer yuzasida bo’layotgan jarayonlarga tirik organizmlarning ta’siridan iborat ekanligini ko’rsatadi. Avstriyalik geolog olim E. Zyuss 1875 yili Lamarkdan keyin «Biosfera» terminini ikkinchi bora fanga kiritadi va Yerda tiriklikning maxsus qobig’i deb izoh beradi. Yerda hayot paydo bo’lgandan boshlab uzoq tarixiy davlar davomida u rivojlanib kelmoqda. Yerning tirik organizmlar va biogen cho’kindi tog’ jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik V. I. Vernadskiy biosfera (grekcha «bios»-hayot, «sfera»-shar) deb nomlagan.



E. Zyuss


Biosfera sayyoramizdagi «hayot qobig’i» hisoblanib, tirik organizmlarning o’zaro chambarchas aloqa, munosabatlardan iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi.

V. I. Vernadskiy tushunchasiga ko’ra, biosferaga hozirgi vaqtda faqatgina yerning qobig’ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay, balki uning tarkibiga qadimgi davrlarda

organizmlar ishtirokida hosil bo’lgan litosferaning qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosferaning neobiosfera va paleobiosfera kabi tarkibiy qismlari ajratiladi. Biosfera o’z ichiga atmosferaning quyi qatlamlari, ya’ni troposferani (10-15 km balandlikkacha faol; hayot mavjud bo’lgan, ba’zan 20 km balandlikdagi stratosfera qatlamida tinim holidagi organizmlarning chang donachalari, urug’lari, sporalari va boshqalar uchrashi mumkin) hamda suv qobig’i gidrosferani oladi. Yerning yuzasi qattiq qobiq litosferadan iborat bo’lib, uning qalinligi odatda 30-60, ba’zan 100-200 m va undan ham ortishi mumkin. Hayot belgilarining ushbu chuqurliklardan pastda uchrashiga tasodifiy holat deb qarash mumkin. Keyingi yillarda 4500 m dan ortiq chuqurlikdagi neftni haydovchi suvlarda mikroorganizmlar uchragan. Tikka qatlam bo’yicha, ya’ni atmosfera qatlamini qo’shib hisoblaganda hayot chegaralari 25-40 km ni tashkil etadi. (Biosferaning ostida qalinligi 5-6 km gacha boradigan cho’kindi tog’ jinslaridan iborat stratosfera qatlami yotadi. Uning hosil bo’lishida tirik organizmlarning roli katta. Cho’kindi

tog' jinslari gidrosferada hosil bo'lib, uning kelib chiqishida ham tirik organizmlar, suv, shamol muhim omillardan hisoblanadi.

Biosferada organizmlarning faol holatda hayot kechirishi ham bir xil emas. Sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini V. I. Vernadskiy tirik modda deb atagan. Tirik moddalar bir tekis tarqalgan joylar, suv qatlami - litosfera va troposferalar chegarasi, ya'ni tuproq va uning qatlamidagi o'simlik ildizlari, zamburug'lar, mikroorganizmlar, tuproqda hayot kechiruvchi boshqa hayvonlar, shuningdek troposferaning tuproq yuzasidagi qismi, o'simliklarning yer ustki organlari qismi joylashgan qatlam hisoblanadi. Bu yerda o'simliklarning sporalari, chang donachalari va urug'larining asosiy massasi ham uchib yuradi. Ushbu qatlam fitosfera deb atalib, biosferada energiyani to'plovchi organizmlar asosan o'simliklar hisoblanadi. Biosfera uchun faqat tirik moddaning bo'lishi xarakterli bo'lib qolmay, balki u quyidagi xususiyatlarga ham ega bo'ladi: ma'lum miqdorda suyuq holdagi suvning bo'lishi; biosferaga juda ko'p miqdordagi Quyosh nurlari oqimining tushishi; biosfera moddalarning agregat holatida bo'lgan chegarada, ya'ni qattiq suyuq va gazsimon fazalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham biosfera uchun uzluksiz holdagi moddalar va energiya aylanishi xarakterlidir. Bunda tirik organizmlar faol ishtirok etadi.



V. I. Vernadskiy

Yerda boradigan har qanday jarayonlarning manbai va boshlanishi Quyosh nuri energiyasi hisoblanadi. Yorug'lik ta'sirida boradigan yashil o'simliklardagi fotosintez jarayoni natijasida organik modda to'planadi. Fotosintezening foydali ish koeffitsienti nihoyatda past. Yer yuziga tushadigan Quyosh nurlarining atigi 1% dan foydalaniladi. Foydali qazilmalarda (toshko'mir, neft, torf va boshqalar) Quyosh energiyasi konservalangan holda uzoq vaqtlar saqlanib kelmoqda. Ba'zi bir organizmlar organik modda hosil qilishi uchun moddalarning oksidlanishi natijasida ajralib chiqadigan energiyadan foydalanadi. Bu jarayon xemosintez deb ataladi. Energiyaning aylanishi moddalarning aylanishi bilan chambarchas bog'liq. Moddalarning kichik doirada (biologik) va katta (geologik) doirada aylanishlari

ajratiladi. Biologik doirada aylanish organizmlar o’rtasida, quruqlikda tuproq bilan organizm o’rtasida, gidrosferada esa organizm bilan suv o’rtasida sodir bo’ladi. Moddalarning katta doirada aylanishi quruqlik bilan Dunyo okeanlari o’rtasida boradigan jarayondir.

Biosferada tirik moddalarning funktsiyalari. Biosferadagi jamiki kimyoviy o’zgarishlarni tirik moddalar boshqarib turadi. Planetadagi tirik moddalarning 5 ta asosiy funktsiyalari bo’lib, ular quyidagilardir:

1. Energetik funktsiya, bu biosferaning boshqa sayyoralar bilan bog’langanligidir, ya’ni o’simliklarning quyosh nurini qabul qilib, fotosintez jarayonini o’tib, quyosh energiyasini to’plab, organik moddalar hosil qilib va ularning biosfera komponentlari o’rtasida taqsimlanishi; ikkinchi tomondan qushlar va boshqa hayvonlarning Oy va yulduzlarga mo’ljal qilib, migratsiya jarayonining o’tishidir.

2. Gazli funktsiya, bunda gazlarning mifatsiyasi va ularning almashinishi natijasida biosferaning gaz tarkibi ta’milanadi. Tirik moddalarning funktsiya qilishida azot, kislorod, S₀₂, serovodorod, metan va boshqa gazlar hosil bo’ladi.

3. Kontsentratsiya — to’planish funktsiyasida tirik organizmlar atrof-muhitdan biogen va mineral elementlarni oladi va o’z tanalarida to’playdi. Shu sababli azot, kaltsiy, kaliy, natriy, magniy, alyuminiy va boshqa elementlarning miqdori muhitga qaraganda organizmlar tanasida yuqori bo’lganligi sababli biosferaning kimyoviy tarkibi bir xil emasdir.

4. Oksidlanish va tiklanish funktsiyasi. Oksidlanish jarayonida moddalar kimyoviy o’zgaradi, ularning atomlari o’zgaradi va ko’pchilik kimyoviy birikmalar oksidlanadi, bir formadan **ikkinchi** ko’rinishga o’tishda biogen moddalarning oksidlanishi va tiklanishi ko’proq kuzatiladi.

5. Destruktsiya funktsiyasi, bu tirik moddalarning (organizmlarning) o’lgandan keyin chirish, parchalanish va organik moddalarning mineralizatsiyalanishidan iboratdir, ya’ni tirik moddalardan biosferaning biogen va biokos moddalarini hosil bo’ladi.

Suvning tabiatda aylanishi. Suv biosferaning barcha tarkibiy qismlarida


uchraydi. U suv havzalaridan tashqari tuproqda, havoda va barcha tirik organizmlarning 80-90% biomassasini tashkil etadi. Suvning tabiatda aylanishi quyidagicha boradi. Suv Yer yuzasiga atmosfera yog'lnlari tarzida tushib, atmosferaga asosan o'simliklarning suv bug'latishi va dengizlar yuzasining bug'lanishi hisobiga bug' holatda qaytadi. Uning bir qismi yana bevosita yoki bilvosita yo'llar bilan o'simlik va hayvonlar ta'sirida bug'lanadi, qolgan bir qismi yer osti suvlariga qo'shilib ketadi. Nihoyat yana bir qismi daryo oqimi bilan birga dengizlarga quyiladi va u yerdan bug'lanib ketadi.



Tabiiy suv zahiralari nihoyatda cheklangan. Shuning uchun undan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Hozirgi kunda suv zahiralarini qanday qilib ko'paytirish haqida o'ylash zarur. Bular haqida mutaxassislar katta ish olib bormoqdalar. Yangi texnologiyani qo'llash bilan sanoat va qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan talabi qondirilmoqda, sho'r suvlarni chuchuk suvlarga aylantirish uslublari takomillashtirilmoqda, shuningdek oqova suvlarni tozalovchi qurilmalar yaratilmoqda, kelajakda tozalangan suvdan qayta foydalanish imkoniyatlari izlanmoqda.

Uglerod elementining tabiatda aylanishi. Biosferaning eng muhim jarayonlari uglerod elementining aylanishi bilan bog'liqdir. Biosferadagi murakkab birikmalar tarkibidagi uglerod yetakchi rol o'ynab, uning birikmalari doimo sintezlanib, o'zgarib, parchalanib turadi. Bunda uglerodning bir qismi aylanishdan chiqib ham ketadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, organik kelib chiqishga ega bo'lgan foydali qazilmalarda uglerod konservalangan holda to'plangan. Organik moddalarning anorganik moddalardan sintezlanishi va unda qatnashadigan organizmlar fitoavtotroflar deb ataladi. Organik moddalarning to'planishida qisman ulardagi kimyoviy reaksiyalar vaqtida ajralgan energiyadan foydalanuvchi xemotroflar ham hisobga olinadi. Tirik organizmlar to'qimalarida boradigan oksidlanish jarayoni natijasida karbonat angidrid ajralib chiqadi va bu hodisa nafas

olish deb ataladi. O'simlik va hayvon qoldiqlaridagi organik moddalarning parchalanishi ham karbonat angidridning manbai hisoblanadi. Har xil tartiblardagi konsumentlarning faoliyati tufayli ozuqa tarkibiga kirgan organik moddalar qayta o'zgarishida va pirovardida nafas olish jarayonida karbonat angidrid holida ajralib chiqadi. Organik moddalarning parchalanishi natijasida hayvon ekskrementlari va siydigida ham karbonat angidrid ajralib chiqadi. Karbonat kislotaning zahiralari o'simlik va hayvon qoldiqlarining chirishi hisobiga to'ldirib turiladi. Uglerod elementi okeanlarda o'ziga xos tarzda aylanadi. Fitoplanktonlar tomonidan to'plangan organik moddalar okeandagi zooplanktonlar, zoobentoslar va nektonlar tomonidan o'zlashtiriladi. Ularning nafas olishi va qoldiqlarining parchalanishi natijasida karbonat angidrid ajralib chiqadi va suvda erib ketadi. Uglerodning bir qismi cho'kindi jinslar tarkibiga kirib, aylanishdan chiqib ketadi. Okean bilan atmosfera o'rtasida shamol va havoning harakati tufayli karbonat kislotaning almashinishi kuzatiladi. Inson faoliyati uglerodning biosferada aylanishida katta rol o'yndaydi. Har yili odamlar tomonidan nafas chiqarilganda $1,08 \cdot 10^9$ t karbonat ang'idrid ajralib chiqadi. Sanoat korxonalarida esa yiliga $1,254 \cdot 10^9$ t karbonat angidrid ajralib chiqadi. Inson har yili qazilma holdagi uglerodning $5,640^9$ t sidan har xil maqsadlarda foydalanadi.




Keyingi yillarda havoning tarkibidagi yonish jarayoni natijasida karbonat angidridning miqdori ortib ketdi. Atmosferada karbonat angidrid miqdorining ortib ketishi, Yer yuzasi haroratining ortishi, natijada muzliklarning erib, okeanlarning sathi ko'tarilishiga hamda bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun insoniyat oldida yangi energiya manbalarini va texnologik jarayonlarni topish muammosi turibdi. O'rmonlarni kesib tashlash ham, yerlardan yo'l va qurilish maqsadlarida foydalanish kabilar ham Yer yuzasidagi o'simlik qoplami maydonining qisqarishiga, natijada assimilyatsiya jadalligining susayishiga olib keladi.

Azot elementining tabiatda aylanishi. Azot elementining tabiatda aylanishi

ancha murakkabdir. Atmosferadagi erkin holdagi azotning miqdori 70 % dan ortiq bo'lsa ham undan foydalanish uchun birikma holga o'tkazish kerak. Birikma holga o'tishning turli yo'llari mavjud bo'lib, ulardan tabiatda kuzatiladigan momaqaldiroq vaqtida chaqmoq chaqishi va ionlanish jarayonlari, meteoritlarning kuyib ketishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Ammo erkin azotni birikma holga o'tkazishda tirik organizmlarning roli kattadir. Bakteriyalar faoliyati natijasida 1 ga maydonda 2-3 kg dan 5-6 kg gacha azot birikma holga o'tkaziladi. Dukkakli o'simliklarning ildizida yashovchi tugunak bakteriyalar esa yiliga 350 kg/ga azot birikmasini to'playdi. Azotni birikma holga o'tkazish uchun ma'lum energiya talab etiladi. Tuproqda nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar tomonidan ammoniy nitrit va nitratlargacha oksidlanadi hamda denitrifikatsiyalovchi bakteriyalar tomonidan esa ular gaz holidagi azot va yoki azot oksidi tarzida qaytariladi. Ammoniy ionlarining nitrit va nitratlargacha oksidlanishi energiya ajralishi bilan boradi. Denitrifikatsiyalovchi bakteriyalar nitrit va nitratlardan nafas olish uchun kislorod manbai sifatida foydalaniladi. Ammoniy birikmalari, nitrit va nitratlar eritmalar tarzida organizm tomonidan o'zlashtiriladi. Keyinchalik ulardan organik moddalar, birinchi navbatda, aminokislotalar va ulardan murakkab oqsillar sintezlanadi. Hosil bo'lgan oqsillar o'simlikni iste'mol qiladigan konsumentlarda qayta ishlanadi. Modda almashinishing mahsulotlari, o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari sifatida tuproqqa o'tgan organik moddalar mineral moddalarga parchalanadi. Bunda ammonifikatsiyalovchi bakteriyalar guruhi organik moddalardagi azotni ammoniy tuzlariga aylantiradi. Azot birikmalarining bir qismi daryolarga borib tushadi va undan dengizlarga quyiladi. Okean va dengizlarda azot ammoniy tuzlari shaklida uchraydi. Suvning yuza qatlamlarida azot miqdori quruqlikdan kelib qo'shilgan azot miqdori hisobiga bir oz ko'proq bo'ladi. Shuningdek,

atmosferadagi ammiakning erib tushishi okeandagi o'simlik va hayvon qoldiqlarining parchalanishi hisobiga ortadi.

Yer yuzidagi barcha jarayonlar bir-birlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, keng



(global) doiradagi moddalar aylanishini vujudga keltiradi. Biologik doirada moddalarning aylanishi hajm va tezlik kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Har qanday landshaftlar uchun biologik doiradagi aylanish tezligini biomassaning yillik mutlaq va nisbiy o'sishlari hamda o'simliklarning mutlaq qoldiqlarini hisobga olish usuli bilan aniqlash mumkin. Quruqlikda biologik doirada aylanish tezligi bir necha yil va o'n yillarga teng bo'lsa, suvdagi ekosistemalar uchun bir necha kun va haftalarga teng.

Har bir kimyoviy element uchun katta va kichik doiralarda ko'chib yurish tezligi xarakterli. Atmosferada mavjud bo'lgan kislorod tirik moddalar orqali 2000 yilda, karbonat angidrid 300 yilda o'tadi. Biosferaning barqarorlik holati birinchi navbatda tirik moddalarning Quyosh energiyasini ma'lum tezlikda qabul qilishi va atomlarning biogen ko'chib yurishiga bog'liq. Hozirgi davrda inson bilan tabiat o'rtaсидаги munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari Biosferaning inson hayoti uchun zarur bo'lgan barcha komponentlariga nihoyatda hushyorlik bilan qarash va hozirgi bosqichda insonning ularga bo'lgan ta'siri qanday darajada namoyon bo'layotganligini e'tiborga olib ish ko'rish nihoyatda dolzarb masaladir. Ushbu masalani chuqurroq tushunib olish uchun biosferaning inson hayoti uchun zarur bo'lgan tiklanadigan va tiklanmaydigan eng muhim tabiiy resurslarini ko'rib chiqamiz. Avvalo, biosferadagi tabiiy resurslar deyilganda qazilma boyliklar, iqlim, suv, tuproq, o'simlik, hayvonlar, shuningdek kosmik va atom resurslari va hokazolarni tushunmoq zarur.



Savol va topshiriqlar

1. Biosferaning tarkibiy tuzilishini aytib bering.
2. Biosfera chegaralarini asoslab bering.
3. Suvning tabiatda aylanishi tasniflab bering.
4. Uglerod va azot elementlaring tabiatda aylanishi tushuntirib bering.
5. Biologik maromlarlar tabiatda qanday ahamiyatga ega?
6. Tashqi maromlarlarga nimalar kiradi?

2-MODUL. TABIATNI MUHOFAZA QILISH



6-§. Tabiiy resurslar, ulardan oqilona foydalanish va atmosfera muhofazasi

Mavzu rejasি

- 1. O'zbekiston tabiiy resurslari, ularning holati va foydalanish;*
- 2. Tabiiy resurslar tasnifi va ulardan to'g'ri foydalanish;*
- 3. Yer osti boyliklaridan to'g'ri foydalanish.*

Inson butun mehnat faoliyati davomida tabiat bag'rida yashab, unga ta'sir etadi va o'zi uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlarni — oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurilish materiallari, energiya va mineral ashyolar va boshqalarni o'z mehnat faoliyati natijasida tabiatdan oladi va sarflaydi.

Fan-texnika sohasida yuz bergan inqilobiy o'zgarishlar, sanoat va transportning tez o'sishi, aholining ko'payib borishi, urbanizatsiya hodisasi, shaharlarning kengaya borishi, shaharlar ta'sirining orta

borishi, qishloq xo'jaligida kimyolashtirishning kuchli ta'siri va boshqa qator hollar, bir tomonidan, tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelsa, ikkinchi tomonidan, atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini ortishiga olib keldi. Natijada tabiiy resurslar miqdori va holatiga putur yeta boshladi. Bunday mutanosiblikni bartaraf etish hozirgi kunda ekologiya fani oldiga qo'yilgan birdan-bir dolzarb muammodir. Bu muhim masalani hal etishning amaliy va ilmiy asosi — tabiatni muhofaza qilishdir.


Masalan, hozir dunyo bo'yicha har xil yoqilg'ilar ishlatalishi tufayli 10,1 milliard tonna kislород sarflanadi, qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan tuproqning 70%, o'rmonlarning 50%, chuchuk daryo suvlarining 20%, biologik resurslarning 70% i kishilar tomonidan o'zlashtirilib foydalanilmoxda. Yer yuzida har yili 4,0 milliard tonnadan ortiq neft va gaz, 2,0 milliard tonnadan ortiq ko'mir yoqilib, 20,0 milliard tonna har xil ma'danlar qazib olinadi, uning chang-to'zonlari, zaharli gazlari, tutun qurumlari atrofga chiqib, uni ifloslantirmoqda. Bularning hammasi

insonning tabiatga ko'rsatgan ta'sirining natijasidir, albatta. Shunday ekan, tabiatdan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlari bilan hisoblashish va unga rioya qilish shartdir. Aks holda inson qator salbiy oqibatlarga duch keladi. Bugungi kunda biz shunday salbiy oqibatlar bilan duch kelmoqdamiz ham. Masalan, bundan 3 ming yil ilgari Yer sharidagi quruqlik yuzasi umumiy maydonining 47% ini o'rmonlar qoplagan edi. Insonning bunday o'rmonlardan rejasiz ravishda foydalanishi natijasida hozir uning miqdori 27% ga tushib qoldi. Bu esa 2 milliard hektar unumdar yerning eroziyaga uchrashiga sabab bo'ldi. Bu ko'rsatkich butun quruqlik maydonining 15% ini tashkil etadi. Kishilarning salbiy xo'jalik faoliyati tufayli hozir qayta sho'rangan va botqoqlikka aylangan, qayta qum bosgan, karyerlardan chiqqan jinslar qoplab olgan yerlarning umumiy maydoni 4,5 million kv. km ga yetdi. Bu ko'rsatkich quruqlik maydonining 3% ini tashkil etadi. Hozir Yer yuzidagi maydonlarning 30 mln. kv. km cho'lga aylangan bo'lib, bu ko'rsatkich quruqlik maydonining 20% ini tashkil etadi. Ana shu qisqa ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, sayyoramizdagi noqulay muhitni inson farovonligi uchun yaxshilashimiz kerak bo'ladi, ya'ni tabiatning barcha unsurlarini, chunonchi: tog' jinslari, rel'ef, tuproq, o'simlik va hayvonat olami, suv va havo hamda boshqa xil boyliklarimiz holatining buzilishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri juda xilma-xildir. Ulardan asosiyлari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: dehqonchilik, yaylovda mol boqish, sanoat, ishlab chiqarishini jadallashtirish, yangi kimyoviy moddalarni yaratish va ularni qo'llash, o'rmon xo'jaligini yuritish, har xil qurilishlarni amalga oshirish, tabiiy resurslardan foydalanish, ularni iste'mol qilish, tabiatdan rekreatsion (dam olish yoki sog'lomlashtirish maqsadida) foydalanish va boshqalar. Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati ham xilma-xildir. Ulardan iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish ozodalik, tarbiyaviy, estetik kabi xillarini ko'rsatish mumkin.

Tabiiy resurslar tasnifi va ulardan foydalanish tamoyillari. Inson hayoti mobaynida o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy narsalarning barchasini tabiatdan oladi. Ya'ni u tabiat bilan ma'lum munosabatda, o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tarixiy jihatdan o'rganish ularni munosabatlari mazmunini to'g'ri tushunishga va kelajakdagi o'zgarishlarni aniqroq bashoratlashga imkon beradi. Ta'kidlash joizki, bugungi davr fan va texnika taraqqiyotining jadallahuvi davri sifatida tavsiflanadi. SHu bilan birga aynan shu davr insoniyat oldiga yangi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydiki, ular tarkibida eng asosiysi sifatida tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarning jiddiylashuvi namoyon bo'ladi. Avvallari hali fan va texnika yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmagan davrlarda inson o'zining ehtiyojiga yarasha, zarur bo'lgan miqdorda turli boyliklarni tabiatdan olgan binobarin bu bilan tabiatdagi ekologik muvozanat deyarli buzilmagan.

Ishlab chiqarishning rivojlanib borishi, birinchi navbatda mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida insonning tabiatga bo'lgan ta'siri kuchayib borgan. Kishilik jamiyatining har bir bosqichida insonning tabiatga ta'sir etish imkoniyati va uni qayta o'zgartirish darajasi ko'p hollarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik holati bilan aniqlanadi (2-chizma).



2-chizma. Inson mehnat faoliyatining tabiatga ta'sir omillari va shakllari

Keltirilgan chizmaning mantiqiy tahlilidan ko'rinish turibdiki, kishilik jamiyatining taraqqiyotining bugungi bosqichi o'zining sifat va miqdor jihatidan mutlaqo yangi hisoblangan «Noosfera» bosqichiga o'tgan bir davrda tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash dolzarb

muammoga aylandi. Chunki insoniyat bugungi kunda tabiiy boyliklar bitmas-tuganmas degan tushunchaning asossiz ekanligini tushunib yetdi. Zotan har bir hududda tabiat boyliklari o'lchog'li ekan, ulardan me'yorida, ehtiyojiga yarasha foydalanish zarur. Bu borada ularni turli xususiyatlarini alohida hisob-kitob qilgan holda muomalaga kirishish lozim. Ehtiyojga yarasha me'yorda foydalanish deganda tabiat resurslaridan ishlab chiqarish quvvatiga teng keladigan hajmda olish tushuniladi. Ma'lumki, tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Shu boisdan ham avvalo tabiiy resurs nima? Uning qanday xususiyatlari va turlari mavjud ekanligini aniqlash lozimdir. Tabiiy resurslar ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilib kelingan. Masalan: akademik I.P.Gerasimov hamda D.L.Armand: «Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xil vositalardir - deya ta'riflaydilar.

Yu.G.Saushkin elektr-energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xom-ashyoni tabiiy resurslarga kiritadi.

Umuman, resurs so'zi frantsuzcha bo'lib «yashash vositasi» degan ma'noni bildiradi. Shu boisdan ham tabiiy resurslar deganda - ovqatga ishlatiladigan yovvoyi o'simliklar va hayvonlar, kishilar ichadigan va boshqa ko'p mahsulotlarda foydalaniladigan suvlar, metallar olinadigan rudalar, uylar quriladigan yog'och-taxtalar, energiya va yoqilg'i manbalari bo'lgan ko'mir, neft, tabiiy gazlar va boshqalar tushuniladi.


Tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun ularni klassifikatsiya (tasnif)lash lozim. Tasniflashning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ularda tabiiy resurslarning u yoki bu xususiyatlari inobatga olingan. Masalan, iqtisodiy geograf A.A.Mints tabiiy resurslarni foydalanish shakllari va yo'nalishlariga ko'ra iqtisodiy jihatdan tasniflashni ilgari suradi. Bu tasniflashda tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarishning asosiy sektorlarida va ishlab chiqarishdan tashkari sferada foydalanishiga qarab guruhlarga ajratadi. Ya'ni, unga ko'ra tabiiy resurslar: A - moddiy ishlab chiqarish resurslari (sanoatda - yoqilg'i,

metallar, suvlar, yog'och-taxta, baliq; qishloq xo'jaligida - suv (sug'orish uchun), ovlanadigan hayvonlar);

B - nomoddiy soha resurslari (ichimlik - suvi, daraxtzorlar, kishilarni davolash uchun iqlim resurslari va x.k.).

Ayni paytda resurslar foydalanish xususiyatiga ko'ra elementar va kompleks resurslarga, foydalanish darajasiga ko'ra esa real hamda potentsial resurslarga ajratiladi. Real tabiiy resurslar deganda bugungi kunda xo'jalik faoliyatida foydalanib kelinayotgan resurslar tushunilsa, potentsial resurslar - foydalanish yo'nalishi, undan keladigan iqtisodiy samaradorlik ilmiy jihatdan asoslangan, hozirda amaliyotda foydalanilmayotgan yoki foydalanish ko'lami past bo'lgan salohiyatli istiqbol resurslaridir.

Ilmiy manbalarda keng tarqalgan, amaliyotda asos vazifasini o'tab kelayotgan tasniflashga ko'ra tabiiy resurslar quyidagi ikki turga ajratiladi: tugaydigan va tugamaydigan resurslar (3-chizma).



3-chizma. Tabiiy resurslar tasnifi

Mazkur tasniflashda asosiy tamoyil sifatida tabiiy resurslarning miqdoriy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Chunki, har bir hududda tabiat boyliklari ma'lum miqdorda mavjud bo'lib, ba'zilari (o'simlik, hayvonot, rudali ma'danlar va boshqalar) nooqilona foydalanish oqibatida tugab qolishi, qayta tiklanmasligi mumkin. Ammo, shunday resurslar ham borki, ular muayyan shart-sharoitlarda yana qayta tiklanishi mumkin. Shu boisdan ham, 3-chizmada aks ettirilganidek, tugaydigan tabiiy resurslar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: tiklanadigan resurslar va tiklanmaydigan resurslar.

Tiklanmaydigan tabiiy resurslar yoki foydalanilayotgan darajadagidan yuz marta va million marta sekin tiklanadigan tabiiy resurslar birinchi rypyhga kiradi. Butunlay yo'q bo'lib ketadigan va juda kamayib ketadigan yer osti boyliklari foydali qazilmalar shular jumlasidandir. Demak, bunday resurslarni tiklab bo'lmas ekan, ularni tejab tergab ishlatish va muhofaza qilish zarur.

Tiklanadigan tabiiy resurslar - butunlay yo'q bo'lib ketmaydi va qaytadan tiklanadi. Tirik mavjudotlar, o'simlik va hayvonlar, shuningdek tuproq ana shunday resurslardandir. Tuproq yo'q bo'lib ketmaydi, lekin asosiy xossasi bo'lgan unumdorligini yo'qotadi. Bunday resurslardan foydalanayotganda shuni esda tutish kerakki muayyan tabiiy sharoitning buzilishi ularning qayta tiklanishiga xalaqit berishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda butunlay qirib yuborilgan ko'pgina hayvon va o'simlik turlari, shuningdek eroziya natijasida butunlay buzilgan tuproqlar qayta tiklanmaydi. Bunda tiklanadigan tabiiy resurslarning paydo bo'lish jarayoni muayyan tezlikka ega bo'lishini ham unutmaslik lozim. Masalan, otib tashlangan hayvonlarning qaytadan paydo bo'lishi uchun 1 yil yoki bir necha yil kerak. Daraxti kesib tashlangan o'rmon kamida 60 yildan keyin qayta tiklanadi. Tarkibi buzilgan tuproq yaxshilanishi uchun 1 necha ming yil kerak.

Tugamaydigan resurslar ham o'z navbatida oqilona munosabatni talab etadi. Bunday resurslar sirasiga suv, havo (iqlim) hamda kosmik resurslar kiritiladi. Suv hamda havo tugamaydigan resurslar bo'lsalarda, nooqilona foydalanish, ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida ular ham aynan tuproq singari o'zlarining sifatini butunlay yo'qotishi va inson hayoti uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin. Demak, tabiiy resurslardan foydalanganda ularning miqdor hamda sifat ko'rsatkichlari uyg'unligini to'la inobatga olish ijobiy natija beradi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishida tabiiy resurslardan foydalanish.

Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir vaqt va makonda turlichay bo'lib kelgan. Ushbu ta'sirning joylardagi ko'lami har xil bo'lganligi tufayli tabiatda ma'lum darajada o'zgarishlar sodir bo'lgan. Mazkur o'zgarishlarni diqqat bilan tadqiq etish natijasida tabiat bilan jamiyat o'rtasida yuz berib kelgan o'zaro ta'sirning qanchalik maqsadga muvofiq yoki inson ta'siri ko'p-kam bo'lganligini

bilish mumkin. Birlamchi davrlarda, ya’ni kishilik jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarda tabiiy omil inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lib, qadimgi odamlarni tabiatga qaramligi katta bo’lgan. Lekin, vaqt o’tishi bilan inson o’zini aqliy va jismoniy qobiliyatini, moddiy madaniyatini takomillashtirib, tabiatga o’z ta’sirini o’tkaza boshlaydi. Dastlab oddiy tosh quollar va keyinchalik olovni ixtiro qilinishi (bundan 300-400 ming yil burun) tufayli insonning tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyati kengaydi. Hozirgi zamon odami-neantropning shakllanishi va rivojlanishi hamda dastlabki ijtimoiy jamiyat-ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelishi uchun bir necha yuz ming yillar zarur bo’lgan. Mazkur jamiyatning rivojlanish davri (3 mln. yildan ko’proq) paleolit (qadimgi tosh asri) bilan tugaydi. Bu davrda odam tabiatdagi tayyor boyliklardan foydalanib hayot kechirgan.

Yangi tosh asrida (Neolit, bundan 10 ming yil avval) aholini soni orta borgan. SHimoliy yarim sharda materik muzlanish davrining boshlanishi bilan iqlimning sovib ketishi oqibatida ibtidoiy odamlarning chorvachilik va dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi guruhlari O’rta Yer dengizi, Old, Janubiy va O’rta Osiyoda tarkib topdi. Yevrosiyoning o’rmon mintaqasida ko’proq chorvachilik taraqqiy qila boshladi. Dehqonchilik va chorvachilikni taraqqiy qilishi tufayli insonning atrof-muhitga ta’siri sezilarli bo’la boshladi. Avvalo, o’rmonlarning qisqarishi hisobiga (g’arbiy Yevropa) qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning maydoni kengayib bordi. Professor A.A.Rafiqov ma’lumotlariga ko’ra (1997 yil) Sharqiy Yevropada dashtlarni haydash bundan 2 ming yil burun boshlangan edi. O’zbekistonda eramizdan avvalgi III minginchi yillarda rudadan mis eritib olinib, undan turli mehnat qurollari yasala boshlangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekish, liman usulida sug’orish (Nurota tizmasining shimoliy yonbag’ir etaklarida), uy hayvonlarini boqish va ko’paytirish bilan (Janubiy Orol bo’yida) shug’ullanila boshlagan.



Eramizdan avvalgi II minginchi yillarda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo etaklarida taqirlar liman usulida sug'orila boshlangan, dastlabki uncha katta bo'limgan oddiy sug'orish ariqlari qazilgan. Bunday hududlarga quyi Zarafshon etaklaridagi Zamonbobo ko'li atroflarini, quyi Amudaryodagi Suyargan, Jonbosqal'a va boshqalarni keltirish mumkin. Eramizdan avvalgi I minginchi yillarda tog'li hududlarda temir rudasi eritilib, undan ilk bor temir oliga boshlangan. Mis, bronza, temir va boshqa metallarni quyish avvallari yog'och, ko'mir asosida amalga oshirilgan, keyinchalik qo'ng'ir ko'mirdan foydalanishga o'tilgan. Sug'orish tizimi rivojlangan. Ko'pgina hozirgi yirik sug'orish kanallari kushonlar davrida (I-IV asrlar) qurilgan. Masalan, Toshkent vohasida Bo'zsuv, Salor, Samarqand vohasidagi Eski Angor, Eski Tuyatortar, Buxoro vohasidagi Shohrud, Romitanrud, Xorazm vohasidagi qirqqiz va boshqalar. Tog' etaklari va yonbag'irlari ibridoiy, keyinchalik urug'-qabila va feodal tuzumlarida mevalar va yem-xashak yig'ish, qurilish uchun yog'och, yoqilg'i uchun o'tin, metall eritish uchun «pista ko'mir» tayyorlash, ovchilik uchun makon bo'lib xizmat qilgan. O'rmonlarnnng katta qismi yog'och ko'mir tayyorlash uchun ishlatilgan. Bu maqsadda, ayniqsa, pista daraxti ko'plab ishlatilgani uchun yog'och ko'mir «**pista ko'mir**» deb atalgan. O'rta Osiyo tog'larida odatda 500-600 metrdan 1200 metr balandlik orasida o'sgan pista daraxti endilikda nihoyatda siyraklashgan, faqat Bobotog' tizmasi, Samarqand atrofidagi tog'larda va boshqa joylarda kichik maydonlarda saqlanib qolgan.

Keyingi bosqichlarda, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishiga monand tarzda tabiiy resurslardan foydalanish ko'lami kengayib, chuqurlashib bordi. U ayniqsa, fan-texnika inqilobi davriga kelib jiddiy tus oldi. Chunki, fan va texnika taraqqiyoti chuqur sifatiy o'zgarishlar jarayonidan iborat bo'lib, jamiyat hayotiniig turli sohalariga tez suratlarda ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda fan va texnika tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligini muhim elementi, tabiiy boyliklardan foydalanishning asosiy vositasidir, fan va texnika tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosida, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish yo'llari va usullarini izlaydi hamda amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa

insonning tabiiy muhitga bo'lган та'sirini yanada sezilarli darajaga olib chiqadi va tabiiy muhitni ayrim ko'zda tutilgan hamda tutilmagan o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Masalan, Shimoliy Amerika, yevropaliklar kelgunga qadar quyuq o'rmon bilan qoplangan edi, ammo istilochilar tomonidan ushbu o'rmonlar qisqa muddatda qirqib yuborilgan. Hozirda ham o'rmonlar kesish suratlari pasayganicha yo'q. Endilikda u yoqilg'i sifatida, mebel sanoati, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun yangi yerlarni ochish, qurilish, transport va boshqa maqsadlarda kesib olinmoqda, faqatgina tropik mintaqada yiliga 11 mln.gektardan ortiq maydonda o'rmonlar kesilmoqda.

Tosh asrida birorta ham hayvon turi inson tomonidan tur sifatida yo'q qilinmagan bo'lsa, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida ularni turi kamayib ketdi. Keyingi 300 yil moboynida sayyoramizda 120 hayvon turi butunlay yo'qoldi, istiqboldagi 30 yil mobaynida yana 100 turi yo'qolishi taxmin qilinmoqda. Agarda XX asrning 50-yillarida Afrikada fil suyagi bilan savdo qilish yiliga 100 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, asr oxiriga kelib 700 tonnadan oshdi. Bu ahvolda kelajakda Afrikadagi fillarni faqat qo'riqxonalarda uchratish mumkin bo'ladi. Qazilma boyliklarini qazib olish jarayonida 1970-yillarning oxirlarida yiliga 100 mlrd t. tog' jinslari bir joydan boshqa joylarga ko'chirilgan edi, asr oxiriga kelib bu miqdor 6 barobarga ortdi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, vaqt o'tishi bilan insonning atrof-muhitga ta'siri ortib bormoqda, ya'ni u tabiat boyliklarini tobora qo'proq o'zlashtirmoqda, xalq xo'jaligiga ko'plab moddiy resurslar kiritilmoqda, bu hol aholi sonining ortib borishi, ishlab chiqarish kuchlarining to'xtovsiz taraqqiyoti, xususan mehnat vositalarining muttasil takomillashishi bilan bog'liq. Inson zamonaviy fan yutuqlari bilan ta'minlanganligi tufayli uni tabiatga ta'siri endilikda ayrim hudud doirasida yoki ma'lum bir materik (okean) chegarasidagina sodir bo'lmay, balki, Yer shari hamda uning barcha sferalari doirasida yuz bermoqda. Inson tabiatni o'zgartirishda asosiy kuchga aylandi.

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash. Inson omilining atrof muhitga bo'lган та'siri tobora kuchayib borayotganligini e'tiborga olib, tabiiy resurslarni

iqtisodiy baholash imkoniyatini beruvchi maxsus kuzatish tizimini tashkil qilish zarurati paydo bo'ldi. Mazkur kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlar tabiiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlarni baholash va tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shunga yo'naltirilgan monitoring tizimini tashkil qilish taklifi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1972 yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan tabiiy muhit muhofazasiga bag'ishlangan konferentsiyasi arafasida o'rta ga tashlandi. U «SKOPE» (atrof-muhit muammolari bo'yicha ilmiy qo'mita) tomonidan ishlab chiqilgan. «Monitoring» inglizcha so'z bo'lib, kuzatish, nazorat ma'nosini bildiradi. Akademik I.P.Gerasimovning fikricha, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: Monitoring - kuzatish, nazorat qilish va atrof muhit holatini boshqarish demakdir. Albatta, ushbu atama o'z navbatida tabiiy muhitning holatini bashoratlashtirish va bashorat funktsiyasini ham o'z ichiga oladi (Rafiqov, 1997).

Demak, monitoring - bu ko'p maqsadli axborotli tizim, uning asosiy maqsadi tabiiy muhitning (yoki alohida olingan tabiiy resursning) inson ta'sirida o'zgarishini kuzatish, olingan ma'lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv apparatini ishga solishdir. Maqsadni amalga oshirishning asosiy vazifasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) tabiiy muhitning inson ta'sirida o'zgarishini keng miqyosda kuzatishni tashkil etish;
- 2) ta'sir manbalarini aniqlash hamda o'zgarishning sabablarini belgilash;
- 3) kuzatilayotgan o'zgarishlarni baholash, ta'sirining samaradorligini aniqlash;
- 4) atrof muhit o'zgarishining bashoratini ishlab chiqish hamda o'zgarish yo'nalishilarini belgilash;
- 5) tabiatda vujudga kelgan xatarli o'zgarishlarning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Monitoring ishlarining muntazam hamda murakkabligini e'tiborga olib, uni O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va boshqa nufuzli tashkilotlar amalga oshiradilar. Monitoring asosida atmosfera havosi, suv

havzalari, yer osti suvlari, tuproq, o'simlik qoplamlarining turli chiqindilar, zararli kimyoviy ashyolar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Atrof-muhitning ifloslanishini baholashda avval ifloslanishdan oldingi tabiiy sharoit qanday bo'lganligi yoki butun hudud qanday xususiyatga egaligi aniqlanadi. Bunday kuzatish ishlari insonning qanday ekologik sharoitlarda yashashini aniqlashga, ishlab chiqarishning istiqboldagi taraqqiyot yo'naliishlarini ilmiy asoslash maqsadida olib boriladi. Monitoringning quyidagi uch turi ajratiladi: bioekologik (sanitariya-gigiena), geoekologik (geotizimli) hamda biosferali.

XX asrning 60-70 yillaridan e'tiboran yirik xo'jalik korxonalarini qurishda, tabiiy resurs saloxiyatini atroflicha baholashga hamda korxonaning atrof-muhitga ta'siri masalalarini oldindan atroflicha o'rganish va baholashga alohida ahamiyat berila boshlandi. Bu jarayon umumiy ma'noda ekspertiza deb ataladi. «Ekspert» lotin tilida tajribali degan ma'noni bildiradi. U biror sohada ekspertiza o'tkazuvchi mutaxassisidir. Ekspertiza asosan loyihalanayotgan korxona (ob'ekt)ning atrof muhitga ta'sirini baholash yuzasidan o'tkaziladi. Geografik ekspertiza deganda loyixalanayotgan korxonaning yoki tadbirning atrof-muhit talablariga mos kelishkelmasligini aniqlash yoki iqtisodiy taraqqiyot rejali asosida tabiat muhofazasi dasturlarining tabiiy muhitni asrashni ta'minlash maqsadida muvofiqlashtirish tushuniladi. Ekologik ekspertiza - bu geografik muhitning biologik qismiga ta'sirini baholashdir. Ekspertiza turli darajalarda amalga oshiriladi: davlat ekspertizasi, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasi, vazirliklar ekspertizasi, Davlat fan va texnika qo'mitasi ekspertizasi va boshqalar. Jamiyat manfaatini ko'zlagan holda rejali iqtisodiy ishlarni amalga oshirishda va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishda iqtisodiy hisob alohida o'rinn tutadi. Iqtisodiy hisobni amalga oshirishda tabiat boyliklarini turlari to'g'risida aniq ma'lumot talab etiladi. Bunday ma'lumotda resurs, ya'ni boylikning qanchaligi yoki hajmi, soni va sifati, joylashishi, o'zlashtirishga qulayligi va boshqalar bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiy hisobga tabiiy resurslarni soni, sifatini faqatgina natural, fizik ma'lumotlari kirmasdan, unga resurslarning bahosi ham kiradi. Ayni paytda tabiatdan va uning

resurslardan foydalanishda atrof-muhitni ifloslanishi, zararini yo'qotishga ketgan mablag'lar ham iqtisodiy mexanizm tarkibida bo'ladi.

Tabiatning inson faoliyat ta'sirida o'zgarishi har doim ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. Ma'lumki, tabiiy muhitning o'zgarishi asosan biror komponent, chunonchi, o'simlik, tuproq, hayvonot dunyosi, qazilma boylik va boshqalardan me'yоридан оshirib foydalanish natijasida yuz beradi. Bu hol tabiat komponentlari orasidagi avvalgi turg'un ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Masalan, yaylov chorvachiligining hudud o'simlik qoplamiga ta'siri, daraxt va butalarning turli maqsadlarda tartibsiz kesib olinishi hudud tabiiy sharoitida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Tabiiy muhitda aniq bir o'zgarishning yuz berishi yaylovlar, tuproq mahsulorligining pasayishiga, suvning ifloslanishiga, ma'lum tur hayvonlarning ushbu joylarni tark etishiga, ular o'rнida boshqa turlarining keng tarqalishiga, inson salomatligining yomonlashuviga, relef o'zgarishlariga, oqibatda turli tabiiy ofatlarni tez-tez qaytarilib turishiga sabab bo'ladi. Tabiat o'zgarishlarining ijtimoiy jihat shundaki, tog' yonbag'irlarida sel, qor ko'chkisi, surilma tog' qulashining qisqa muddatlarda qaytarilib turishi aholi tinchligini buzadi, ularni boshqa joylarga ko'chirish, qo'shimcha uy-joy kurilishi muammosini keltirib chiqaradi. Ta'kidlab o'tganimizdek, tabiatda barcha narsa, shu jumladan, tabiiy boyliklar, resurslar hisobsiz emas. Shunday ekan, ulardan ehtiyojga qarab, oqilona foydalanish ayniqlsa bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda tabiiy muhit tuproq, daryolar suvining ifloslanishi, atmosfera havosining sanoat korxonalari va avtotransport chiqindilari ta'sirida bulg'anishi, vohalarda tuproqning sho'rланishiga, zaharli kimyoviy ashyolar va mineral o'g'itlar bilan boyishi, eroziyaga berilishi, yaylovlarning shamol va eroziya ta'sirida degradatsiyaga uchrashi natijasida aziyat chekadi. Sanoat korxonalari, fermalar, maishiy xo'jalik korxonalarining oqavalari, kollektor-zovurlarning zakhsh suvlari oqar suvlarni ifloslab kelmoqda, sho'rligini oshirmoqda. Eng muhim vazifa oqava va zovur suvlarini ruxsat etilgan ko'rsatkichga qadar texnologik jihatdan tozalash va sho'rsizlantirishdan iboratdir. Bu esa O'zbekistonda 25 kub km.gacha suvni tejash imkoniyatini beradi, daryolar suvi

tozalanadi, tuproqning sho'rlanishi birmuncha kamayadi. Shu bilan birga sug'oriladigan yerlarda suvdan, yerdan foydalanish koeffitsientini eng yuqori darajada bo'lislighini ta'minlash, sug'orish tarmoqlari, kollektor-zovur tizimlarining foydali ish koeffitsienti 85-90%ni tashkil qilishiga erishish zarur bo'ladi. Ekinlarga ularning suvga bo'lgan biologik talabiga ko'ra suv berilishini amalda qo'llash lozim. Ixota daraxtzorlarini har gektar maydonda tegishli zichlikda tashkil qilish ekinzorlarni shamol, garmsellardan saqlashda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, tabiiy muhit xususiyatlariga qarab barcha resurslardan oqilona foydalanylгandagina va tadbirkorlik bilan xo'jalikni boshqarishga erishilgandagina, mo'ljallangan miqdor va sifat ko'rsatkichiga erishiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Tabiatni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiatdan foydalani tushunchasini ta'riflab bering .
3. Tabiiy resurslarni tasniflab bering.
4. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashda nimalarga e'tibor beriladi?



7-§. Atmosfera muhofazasi

Mavzu rejasi

1. *Atmosferaning tabiatdagи ahamiyati va uning tirik organizmlarga ta'siri;*
2. *Atmosfera tarkibi, uni ifloslantiruvchi manbalar;*
3. *Ozon tuynigi muammosi;*
4. *Issiqxona effekti mexanizmi, kislotali yomg'irlar;*
5. *Atmosfera ifloslanishiga qarshi kurash yo'llari;*
6. *Radioaktivlikni biosferaga ta'siri.*


Atmosfera havosining tabiatdagи ahamiyati va tuzilishi. Atmosfera - Yerning gazsimon qobig'i bo'lib, hayot uchun zarur bo'lgan birlikdir. Atmosfera yer po'stiga fizikaviy, kimyoviy, biologik ta'sir etadi va yer yuzasida issiqlik, namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera yerning himoya qobig'idir, chunki u tirik

organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va kosmosdan tushadigan meteoritlarning zararli ta'siridan himoya qiladi. Atmosfera bo'limganda edi, Yer yuzasida Oydag'i kabi hayot bo'lmas edi. Yer yuzasi kunduzi 100 gradus qizib, kechasi esa -100 gradus sovigan bo'lar edi. Quyosh va shamol energiyasi, atmosfera havosi va yog'in-sochin iqlim resurslari bo'lib, insoniyat jamiyatida katta ahamiyatga ega. Quyoshdan fazoga juda katta miqdorda issiklik energiyasi tarqalib turadi. Yer yuzasining har bir kvadrat kilometr maydoniga 2500000 ot kuchiga teng energiya tushadi. Quyosh energiyasi atmosferaning yuqori qatlamlarida yutilib, yer yuzasiga juda oz miqdorda yetib keladi. Insoniyat quyosh energiyasidan o'z ehtiyoji uchun qadimda foydalanib kelgan. Keyingi vaqtarda quyosh energiyasidan AQSH, Yaponiya, Frantsiya kabi xorijiy davlatlar yaxshigina foydalanmoqdalar. MDH davlatlaridan Turkmaniston, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Moldaviya, Ukraina larning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari arzon quyosh energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish yo'llarini topmoqdalar.

Insoniyat qadimdan tugamaydigan resurslardan biri bo'lgan shamol energiyasidan foydalanib kelgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Daniya davlatlarida turli quvvatlarga ega bo'lgan kuchli shamol elektr stantsiyalari qurilgan. O'zbekiston shamol energiyasiga boy, ammo bu arzon energiya turidan kam foydalanilmoqda. Yerdagi hayotni havosiz tasavvur etish kiyin, shuning uchun ham toza havo muammosi hozirgi kunda dolzarb bo'lib qoldi. Atmosfera havosi har doim aralashib turgani uchun, uning kimyoviy tarkibi sayyoramizning hamma joyida asosan bir xildir.

Havo qobig'i asosan azot (78,09%) - N₂, kislorod (20,95%) - O₂ dan iborat bo'lib, ular atmosfera gaz tarkibining 99% ini tashkil etadi, qolgan 1% i esa boshqa (argon (A₂) - 0,93%, karbonat angidrid (SO₂) - 0,03%, neon, vodorod, geliy, kripton, ksenon va boshqalar) gazlardir. Gazlarning biri ko'payib, ikkinchisi kamayib ketishi tirik mavjudot hayotini muvozanatdan chiqarib yuboradi va halokatga olib borishi mumkin. Atmosferadagi azot asosan Yerdagi mikroorganizmlar faoliyati natijasida yuzaga kelib, biologik jarayonlarda unchalik rol o'ynamaydi. Yerdagi tog' jinslarida mujassamlashgan azot atmosferadagi

azotga qaraganda 50 baravar ko'pdır. Atmosferada erkin holatda uchraydigan kislorod – yashil o'simliklar mahsuloti bo'lib, tirik organizmlarning ajralmas qismi va hayot manbai hisoblanadi. Inson hayoti uchun ko'p energiya, ko'p energiya olish uchun esa kislorod zarur. Inson kuniga o'rta hisobga 9 kg havo bilan nafas oladi. Inson o'rtacha umr (75 yosh) davomida 700000 kub metr havoni oladi. Atmosferada ozon (O_3) va suv bug'larining bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Atmosferadagi suv bulut va tumanlarda, mayda tomchi va suv kristallchalari holida uchraydi. Suv bug'lari asosan 10 km gacha bo'lgan balandliklarda uchraydi. Atmosferaning quyi qismida uchraydigan karbonat angidrid (SO_2) o'simliklarning fotosintez jarayonida faol qatnashadi. Karbonat angidrid vulqonlar otilishi, yoqilg'ilalar yonishi, organik moddalarning chirishi va organizmlarning nafas olishi natijasida paydo bo'ladi. SO_2 nisbatan og'ir bo'lib, chuqur yerlarda (eski quduq, shaxta va boshqa joylarda) uchraydi.



Atmosferaning gaz tarkibi

Atmosfera changlari havo qobig'inining ajralmas qismidir. Juda mayda zarrachalar organik va noorganik jarayonlar natijasida hamda jinslari va tuproq qatlaming yemirilishi (nurashi), vulqon hodisalari, o'rmon, dasht va torf yog'linlari, dengiz suvining bug'lanishi oqibatida paydo bo'lgandir. Atmosferada juda ko'p miqdorda kosmik changlar bo'lib, yer yuzasiga yiliga 2-5 mln. tonna kosmik chang tushadi. Atmosferadagi turli chang yadrolari Yer landshaft qobig'ini o'zgartirishda katta axamiyatga egadir. Chunki gaz holidagi suv bug'lari yadro atrofiga yig'ilib, suv tomchilarini hosil etadi. Changlar quyosh radiatsiyasini yutish qobiliyatiga ega va yer yuzasini nurlanishidan saqlaydi. Atmosferadagi changlar

yer yuzasining relef xususiyati, tuzilishi va balandligiga qarab turli miqdorda uchraydi. Masalan, shahar ustidagi 1 kub.sm. hajmdagi havoda 100000 dona chang zarrasi bo'lsa, okean ustidagi 1 kub.sm. hajmdagi havoda 100 dona chang zarrasi bo'ladi. Insonning xo'jalik faoliyati atmosfera tarkibini o'zgartirib yubormoqda: atmosferaning quyi qismiga ko'plab qo'shilayotgan karbonat angidrid, is gazi, turli zaharli gazlar, radioaktiv moddalar va chang zarrachalari havo qobig'i tarkibini o'zgartirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Atmosfera havosini ifloslovchi asosiy manbalar. Turli mamlakatlar hududida atmosferaning tabiiy va sun'iy yo'l bilan ifloslanib turishini hisobga olsak, bunday ifloslanish ko'rsatkichlari turli mamlakatlarda turlichadir. Hozir Yer sharida 400 milliondan ortiq avtomobil atmosferaga yiliga 300 million tonna har xil zaharli gazlar, chang va boshqalarni chiqarib ifloslamoqda. Shundan 200 million tonnasi uglerod oksidiga, 50 million tonnasi uglevodorodga, million tonnasi azot oksidiga to'g'ri keladi. Faqat Toshkent shahrida har kuni 200 mingdan ortiq avtomobil harakatda bo'lib atmosferani zaharlaydi. Bir yilda ular atmosferaga 400 ming tonnadan ortiq zaharli gaz chiqaradi. O'zbekiston bo'yicha bu ko'rsatkich yiliga 1.337 ming tonnadan oshadi. Ayniqsa, Toshkent, Andijon, Qo'qon, Farg'ona va boshqa shaharlarning havosi o'ta kuchli zaharlangandir. Atmosfera havosining ifloslanishi tabiiy holda o'suvchi o'simliklar va qishloq xo'jalik ekinlari hayotiga salbiy ta'sir etmoqda. Havoga chiqayotgan chang, qurum, tutun va oltingugurt gazi; xlor, uglevodorod birikmalari, mishyak (marginush), surma, ftor va boshqalar yana yerga qaytib tushgach o'simlik barglariga, tuproq va suv orqali o'simlik ildiziga o'tmoqda. Natijada modda (otosintez) almashinushi buziladi, o'simliklar kasallanadi, ularning hosildorligi kamayadi, o'simliklarning havoni kislorodga boyitish qobiliyatini pasaytiradi. Bu esa o'z navbatida insonlar salomatligiga katta putur yetkazadi.

Atmosferaning ifloslanishi Yerning havo qobig'iga ta'sir etibgina qolmasdan, balki inson hayoti va tevarak-atrofidagi muhitni xavf ostiga qo'yadi. Atmosfera havosidagi har xil gazlar, suv bug'lari, qattiq va suyuq zarrachalari, radioaktiv changlar havo sifatini buzadi, tabiiy muhitga turli salbiy oqibatlar olib keladi.

Ilgarilari havo sanoat ob'ektlari ustidagina ifloslangan bo'lsa, hozir sanoat, transport, energetika va boshqalardan chiqqan chiqindi katta-katta rayonlar, bir necha minglab kilometr masofalardagi hududlar havosining ifloslanishiga sababchi bo'lmoqda. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, Yer yuzida bir yilda havoga chiqarilgan oltingugurt gazi, is gazi (SO), kul va karbonat angidridning miqdori taxminan 500 mln. tonnaga yetmoqda (4-jadval).

BMT ma'lumotlariga ko'ra, (Atrof muhit muhofazasiga doir dastur YUNEP) atmosferaga har yili o'rtacha 25 mlrd. tonna chiqindi chiqariladi, shundan

1. Oltingurgut oksidi va chang zarralari-200 mln. t.
2. Azot oksidlari (Nx Oy) – 60 mln.t.
3. Uglerod oksidari (SO va SO₂)- 8000 mln.t.
- 4.Uglevodorodlar (SxNu) - 80 mln.t.

4-jadval

Havoning asosiy ifloslovchi moddalar

Moddalar	Ximiyaviy tarkibi	Asosiy ifloslovchi
Uglerod oksidalri – 50 %	SO ₂	Vulkanlar, geyzerlar. O'rmon yong'inlari.Turli yoqilg'ilarni yonishi
	SO	Vulkanlar, o'rmon yong'inlari, yoqilg'ilarni to'la yonmasligi.
Oltingurgut oksidalari	SO ₂ , SO ₃	Vulkanlar, yoqilg'ilarni yonishi, o'rmon yong'inlari. Bakteriyalar
Azot oksidlari – 14%	NO, NO ₂ , N ₂ O	Vulkanlar, yoqilg'ilarni yonishi, o'rmon yong'inlari. Bakteriyalar
Bakteriyalar	SN ₄ , S _n N _m , ...	Vulkanlar, bakteriyalar, o'simliklar, yoqilg'ilarni yonishi.
Jumladan, uchuvchi organik birikmalar	SN ₂ O, SNSI, S-SI ₂ va boshqalar	Ximiya sanoati. Chiqindilar va yoqilg'ilarni yonishi
Aerozollar- 5%	Qurum, chang, tuzlar	Metallurgiya. Vulkanlar Yoqilg'ilarni yonishi. O'rmon yong'inlari.
Radionuklidlar – 0,01% kam	Xe, Ss, Ra, Ri va boshqa.	Yadro sanoati va AES. Katostrofa CHAES. Granitlar.

Oltingurgut oksidlari. Bu zararli moddalar atmosferaga issiqlik elektr stantsiyalarida qung'ir ko'mir va mazut yoqilishidan kelib chiqadi. Oltingugurt oksidlarni suvda erishdan kislotali yomg'irlar hosil bo'ladi: $N_2O + SO_4 - H_2SO_4$. Kislotali yomg'irlar o'simliklarni nobud qiladi, tuproqni ifloslaydi.

Azot oksidlari. Tabiatda azot oksidlari o'rmon yong'inlaridan, IESdan chiqayotgan chiqndilardan hosil bo'ladi. Bundan tashqari ular fotoximik smog hosil bo'lishda ishtirok etadi.

Uglerod oksidilar. Shahar havosini ifloslanishida asosiy o'rinn tutadi. Urangsiz, hidsiz, ta'msiz bo'lib bizning sezgi organlarimiz sezmaydi.

Shahar havosiga bu zarali moddani chiqaradigan asosiy manba bu – avtotransportdir. Katta shaharlarda 90% dan ortiq miqdorda avtovtransport dvigetildagi yonilg'ilarni to'la yonmasligidan kelib chiqadi. $2S + O_2 = 2SO$. Yonlilg'ini to'la yonishidan esa karbonot angidrid gazi hosil bo'ladi. Karbonot angidrid gazi quyosh nurlari tarkibidagi infraqizil nurlarini ushlab qolish xususiyatiga ega. Infraqizil nurlari yer yuziga issiqlik olib keladi. Karbonat angidirid gazi miqdori antropogen omil natijasida qanchalik ko'p chiqarilsa shunchalik ko'p infraqil nurlari ushlanib qoladi. Bunday holat uzoq vaqt davom etishi natijasida yer yuzi atmosfera haroratini ko'tarilishiga ta'sir etadi (5-jadval).

J.Detri atmosferaning ifloslanish sabablarini 4 guruhg'a bo'lishni taklif etadi:

1. Tabiiy yo'l bilan ifloslanish (mineral, o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar ta'sirida).
2. Sanoat tarmoqlari, transport va turar joylarni isitishda foydalaniladigan yoqilg'ilar orqali ifloslanish.
3. Sanoat chiqindilari orqali ifloslanish.
4. Sanoat chiqindilari va maishiy-xo'jalik chiqindilarini yoqish orqali ifloslanish.

Tabiiy yo'l bilan ifloslanish atmosfera tarkibida me'yordan ortiq bo'lsa, katta halokat ro'y berishi mumkin. Ammo transport, sanoat va boshqalarning chiqindilari tabiiy yo'l bilan ifloslanishga qaraganda anchagina xavflidir.

5-jadval

Zamonaviy yashash joylarini ifloslanishi va uning oqibatlari

Moddalar	Manba	Kasalliklar va boshqa oqibatlari
Is gazi SO	Pechlar, isitgichlar	0,2% yuqori miqdori o'limga olib keladi. Bosh og'rig'i, nafas organlarini shikastlanishi
Metan	Gaz asboblari	Portlashlar, yong'inlar. Zaharlanish
Azot oksidlari	Pechlar, plitalar, yonib turgan olovlar	O'pkaning shikastlanishi, bosh og'rig'i. Bolalar kasalligi
Tutun	Sigareta chekish	O'pka raki, o'pkaning va miyaning shikastlanishi
Benzopirin	Papiroslar, pechlar	O'pka raki
Metilenxloridalar	Turli bo'yoqlar	Asab tizimi kasalliklari, diabet
Trixloretan	Aerozol ballonlar	Nafas yo'llarini va miyaning shikastlanishi
Tetraxloretan	Kiyimlarni ximiyaviy usulda tozalash	Rak. Asab tizimi, buyrak va jigarlarni shikastlanishi
Formaldegid	Mebellar va boshqa predmetlar	Ko'z, miya va asab tizimini shikastlanishi
Asbest	Suv quvurlarini izolyatsiyasi	O'pkaning shikastlanishi
Bakteriyalar, viruslar va zamburug'lar	Odamlar va hayvonlar	Gripp va boshqa infektsion kasalliklar
Shovqin	Barcha baland tovushlar	Nevroz va eshitish organlarini shikastlanishi

Texnik taraqqiyot natijasida yonilg'i resurslari Yer va okeanni sayoz yerlaridan ko'plab olinmoqda va ishlatilmoqda. Oqibatda turli yoqilg'i mahsulotlarining qoldiqlari havoga qo'shilib uni buzmoqda (1 tonna benzin yonishi natijasida 60 kg is gazi (SO) havoga ko'tariladi va aralashadi).

Sanoat ob'ektlari va issiqlik elektr stantsiyalarida yoqilg'ining to'liq yonmasligi oqibatida turli miqdorda zaharli gazlar havoga chikib, ba'zilari esa yer

yuzasiga tushganda, boshqalari atmosfera qatlamlarida uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin. Neft bilan ishlaydigan issiqlik elektr stantsiyalari havoga kul chiqarmaydi. Ammo ko'mir ishlataladigan stantsiyaga qaraganda 3 barobar ko'p sulfat angidrid gazi ajratib chiqaradi. Sanoat tarmoqlari havoga turli zaharli modda va gazlar chiqarishi bilan bir qatorda atmosferadan juda katta miqdorda kislorod yutadi. Masalan, 1 tonna cho'yanni rudadan ajratib olish uchun 150 m^3 , 1 tonna po'lat olish uchun $35-70\text{ m}^3$, 1 tonna ammiak olish uchun 500 m^3 va 1 tonna atsetelin olish uchun 3600 m^3 kislorod ketadi. Po'lat eritib olish uchun kislorodga bo'lган talab keyingi yillarda 2,6 marta, domna pechlarida 4,2 marta oshdi. Kishi sog'ligi uchun chang, qurum, kul va boshqalar zararlidir. Yoqilg'i to'la yonmasligi, sifatining pastligi va tutunni tutib qoladigan uskunalarning sust ishlashi natijasida havodagi turli birikmalar sekin-asta yer yuziga tushadi. 1952 yili Londonda 1 hafta davom etgan iflos tuman natijasida 4000 kishi, keyinchalik (3 oy mobaynida) yana bir necha ming kishi nobud bo'lган. 1962 yil dekabr oyida bu shaharda qurumdan 750 kishi o'lган. Cement zavodlari atmosferani ko'plab ifloslaydi. Cement changlari uzoq-uzoq joylarga havosini ko'plab ifloslamoqda. Hozirgi vaqtda zavodlarga chang zarrachalarini tutib qoladigan uskunalar o'rnatilib, millionlab tonna qurilish materiallarini tejab qolinmoqda. Keyingi vaqtarda kimyo sanoatining qoldiqlari atmosfera havosini ko'plab ifloslamoqda. Kimyo sanoat tarmoqlaridan chiqqan zaharli gaz va birikmalar havoga aralashib, zaharli gazlar miqdorini oshirib yubormoqda. Oqibatda kimyo zavodlari va kombinatlariga yaqin bo'lган yerdarda fauna, floralar zarar ko'rmoqda va ba'zi o'simliklar butunlay nobud bo'lmoqda. Natijada bunday joylarda tabiiy landshaft o'z xususiyatini yo'qotib, o'zgacha tus olmoqda. Havo tarkibidagi karbonat angidrid, is gazi, azot, xlor, fosfor, fenol, ftor va boshqalarning ko'p miqdorda bo'lishi inson salomatligiga ta'sir etmay qolmaydi. Natijada, ko'pgina kishilar astma, rak kabi kasalliklarga duchor bo'lleshadi. Bioximik olim Eyri Geygan-Smit 1950 yili atmosferada ozonning turli azotli birikmasi nihoyatda xavfli ekanligini aniqladi. Ozon kimyoviy reaktsiyaga juda tez kirishib o'simlik barglaridagi xlorofil turlarini buzadi, rezina va ip gazlamalarini yemiradi. Azotli birikmalar esa ko'z, o'pka

kasalliklariga olib keladi va havoda ko'lansa hid tarqatadi. Kimyoviy birikma va qurumlar tarixiy va arxitektura yodgorliklarini ham buzmoqda. Venetsiya, Sankt-Peterburg, Kyoln, Milan, London va boshqalar kabi qadimiy shaharlar ko'chalaridagi nodir yodgorliklar va haykallar yemirilmoqda yoki korroziyaga uchramoqda.

Atmosferaning ifloslanishida transport vositalarining roli katta, avtomashina, samolyot va boshqalar katta miqdorda kislorod ishlataladi. Masalan, Amerika-Evropa orasida uchadigan birgina super reaktiv layner 8 soat ichida 50 tonna kislorod sarf qiladi. Shuncha miqdordagi kislorodni 25-50 ming hektar yerdagagi o'rmon 8 soatda yetkazib beradi. Transport turlari inson salomatligi uchun zararli bo'lgan karbonat angidrid, is gazidan tashqari turli birikmalar ham chiqaradi. Avtotransportdan chiqadigan mayda zarralar, jumladan, avtomobil pokrishkasidan chiqadigan rezina zarralari nafas olish uchun, umuman hayot uchun xavflidir (birgina avtomobil pokrishkasi yemirilishi natijasida 1 yilda 10 kg changsimon rezina zarrasini havoga aralashtiradi). Atmosfera va tabiiy muhitning ifloslanishida radioaktiv moddalarining ta'siri juda xavflidir. Radioaktiv moddalarni sun'iy ravishda yer yuzasida tarqalishi asosan ikkinchi jahon urushidan keyin boshlandi. Atmosferada, suv osti va quruqlikda turli kuchga ega bo'lgan ko'plab atom, vodorod, neytron bombalari portlatib sinab ko'rildi. Oqibatda atmosferaga radioaktiv moddalar tarqaldi. Birgina atom bombasini portlatish natijasida 200 dan ortiq turli radioativ moddalar paydo bo'ladi, ba'zilari esa radioaktiv zanjirlarni hosil etib, bir elementdan ikkinchisiga o'tadi. Portlatish natijasida atmosferaga ko'tarilgan radioaktiv moddalarining yirik zarralari quruq chang holatida yoki yog'in sochinga qo'shilib bir necha soat mobaynida yerga qaytib tushishi mumkin. Ularning radioaktiv ta'siri juda kuchli. Juda mayda radioaktiv moddalar esa atmosferaning yuqori qatlamlarigacha ko'tarilib, bir necha minglab kilometr masofani ifloslashi mumkin. Hozirgi vaqtida bunday zaharli moddalarni baland tog'larda, Antarktida muzliklarida ham uchratish mumkin. Shunday qilib, atmosferaning ifloslanishi xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

A) Atmosferaning ifloslanishi tufayli materiallar yemiriladi va korroziyaga uchraydi.

B) Shaharlarda, ayniqsa sanoatlashgan joylardagi iflos havo korxona asbob-uskunalarining foydalanish muddatining 1,5 barobar kamaytiradi.

V) Atmosferaning ifloslanishi natijasida ko'pgina kasalliklar vujudga kelmoqda (kishilar jismoniy va ruhiy kasalliklarga uchramoqda).



G) Havo ifloslanishi qishloq xo'jalik madaniylariga katta zarar ko'rsatmoqda.

D) Havo ifloslanishidan achchiq tutundan transportlarnpng harakati qiyinlashib, ko'p xalokatlar (samolyot) ro'y bermoqda.

E) Atmosferaning ifloslanishi yarim o'tkazgichlar, aniq asboblar, vaktsina va antibiotiklarni ishlab chiqarishni qiyinlashtirib yubormoqda.

J) Zavod va fabrikalardan qimmatbaho moddalar bekorga atmosferaga chiqib ketmoqda.

Z) Atmosferaning ifloslanishi natijasida geografik qobiqning tabiiy holatida o'zgarish yuz bermoqda.

Shaharlar havosini ifloslanishi. Insonning xo'jalik faoliyati tufayli atmosfera havosi tarkibida gaz, chang, qurum, qattiq zarrachalar shaharlarda qishloq tumanlariga nisbatan ko'p. Eramizning I asridayoq Rim faylasufi Seneka yozadi: "Rimni achchiq, sassiq havosini tark etishim bilan o'zimda yengil ruhiy tetiklik his etaman". Haqiqatdan ham yer yuzasining qayeriga joylashmasin shahar havosi og'ir. Keyingi vaqtda har tomonlama taraqqiyot jarayoni, insoniyat o'ziga turli qulayliklarni (komfort) ta'minlash oqibatida atrofida tabiat noqulayliklarini keltirib chiqardi. Yer yuzida urbanizatsiya jarayoni juda tezlik bilan o'sib borishi oqibatida yangi-yangi shaharlar paydo bo'lmoqda. Dunyodagi shaharlarning umumiy maydoni 0,5 mln.km kv ni, yer kurrasi maydonining 0-3%ni tashkil etadi. Dunyo aholisining 45% aholisi 100 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarda yashaydi.

Shahar aholisi shimoliy Amerikada butun aholining 74%ni, Yevropada 69%ni, Buyuk Britaniyada 80%ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi egallagan maydon O'rta Osiyon 1/3 qismini, butun aholisini 60%ni va shahar aholisining 62% O'zbekistonda mujassamlashgan. O'zbekiston Respublikasining aksariyati qishloq joylarida istiqomat qiladiki, shahar aholisi 41.9% ni tashkil etadi. Bu Rossiyaga nisbatan 37,7%, Estoniyaga nisbatan 30% kamdir.

Yer yuzida aholi zich joylashgan, sanoat va transport rivojlangan yirik shaharlar ko'p. Shahar, qishloq va suv havzalarn havosidagi changlar yer yuzasining rel'yef xususiyati, tuzilishi, balandligi, xatto uning geografik o'rniga qarab turli miqdorda uchraydi. Keyingi yuz yil ichida dunyodagi yirik shaharlar meterologik stantsiyalar, teleminoralarda, baland uylar tomidak kundalik kuzatishlar va sun'iy yo'ldoshlardan olingan maxsus fotoaxborotlar asosida kuzatiladi. Ma'lum bo'lishicha, katta-kichik shaharlarda havo haroratini atrofqa qaraganda baland bo'lishligi va o'ziga xos "issiqlik" oroli vujudga kelganligi hamda shahar ustida (300-500 metr qalinlikda) harorat invertsiyasi kuzatiladi.

Radiatsiya balansi shahar ustidagi ifloslangan havoda shahar atrofiga qaraganda ancha farq qiladi. Masalan, Markaziy Yevropaning bir necha shaharlarida quyosh radiatsiyasining shaharga tushishi shahar atrofiga qaraganda 29-36% kam. Shahar havosi tarkibidagi har xil zaharli gazlar, ayniqsa antropogen changlar transportlardan, sanoatdan, isitish inshootlaridan, qurilishlardan chiqadi. Shaharlarda havo aylanishining (tsirkulyatsiya) sustligi tufayli diametri 4-10 mikron changlar 1 km balandlikkacha ko'tarilib, radiusi 10 km bo'lган maydonga tarqaladi. Diametri kattaroq (10 mikrondan katta) bo'lган changlar uncha yuqoriga ko'tarilmay atrofqa yoyilib, 300-500 metr balandliklarda uchib yuradi va so'ngra shaharga chang, qurum sifatida qaytib tushadi. Shahar havosining ifloslanib, chang miqdorining ko'payib ultrabinafsha nurlarning o'tishini kamaytiradi, bu esa havoda kasal tarqatuvchi bakteriyalarning ko'payishiga sharoit yaratadi.

Sanoatlashgan katta shaharlarda ba'zan shamol esmasligi oqibatida iflos havoning bir necha kun turib qolishi natijasida "smog", ya'ni zaharli gaz va changlardan vujudga kelgan achchiq tuman vujudga keladi. Nam dengiz iqlimi

mavjud bo'lgan London shahri ustida iqlimning namligi tufayli atmosferadagi antropogen chang va gazlar kimyoviy reaktsiyaga kirishib, o'ta zaharlashadi va sarg'ish achchiq tuman (smog) vujudga keladi. Kam bulutli, shamol kam, ochiq va quruq ob-havo hukm surgan Los-Anjeles shahrida achchiq yoki fotokimyoviy achchiq tuman hosil bo'ladi. Chunki, havo ochiq va shamol kam bo'lganligi sababli zaharli gaz, tutun va changlar quyosh nuri ta'sirida fotoqimyoviy reaktsiyaga kirishadi, natijada achchiq Los-Anjeles tipli tuman vujudga keladi. SHaharda yiliga achchiq tutun (smog)li kunlar 100 dan 270 kungacha bo'lib, kishilar salomatligiga juda yomon ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasining katta shaharlarida havoning tozaligi doimo kuzatib turiladi. Lekin shaharlar havosini toza saqlash ustidan nazorat inspeksiyalarining amalga oshirayotgan ishlariga qaramay, ba'zi korxonalarda tozalovchi inshootlarning yo'qligi tufayli atmosferaga chang, qurum va zaharli gazlarni chiqarib yuborish holati ro'y bermoqda.

Ozon qobig'i va uning ahamiyati

Ozon to'g'risida biz nimani bilamiz? Ozon- gazsimon o'ziga xos hidli modda bo'lib, uning molekulasi 3 ta kislorod atomidan iborat. Ozon momaqaldiroq bo'lib, chaqmoq chaqnaganda, laboratoriya sharoitida past elektr razryadlanishida yoki ultrabinafsha nurlarining kislorodga ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Ozon - tez parchalanuvchi moddadir. Uning molekulasi atomlarga oson bo'linadi. Kislorod atomi yoki kislorodning erkin radikali turli kimyoviy reaktsiyalarda faol oksidlovchi moddadir. Turmushda undan suv va havoni tozalashda, kirmi oqartirishda foydalaniladi. Ozon kichik miqdorda (toksiklikdan 50 barobar kam) antioksidantdir, shu xususiyati tufayli u mikroblar, zamburug'lar va viruslarni yo'q qila oladi, tibbiyat va kosmetologiyada ishlatiladi. Ozon diabet, virusli gepatit, gerpes, xlamidioz va boshqa kasalliklarni ozonoterapiya usulida davolashda qo'llaniladi. Ozon hayvonlar va odamlar sog'lig'i uchun xavfli bo'lib, is gaziga nisbatan zaharliroq hisoblanadi. U odamlarda yo'tal paydo qiladi, bosh og'rig'iga sabab bo'ladi, ko'zga zarar yetkazadi, nafas olishni buzadi. Sayyoramizning havo qobig'idagi kislorod havosidan doimiy ravishda ozon paydo bo'lib turadi. Atmosferaning yuqori qatlamlari ozon paydo bo'lishi uchun tabiiy makon

hisoblanadi. Shu yerda o'tkir ultrabinafsha nurlanishi ta'sirida ikki atomli kislorod molekulasi parchalanadi va ajralgan atomlar uch atomli molekulasini hosil qiladi. Bu molekula noyob xususiyatga egadir. U atrof-muhit va tirik organizmlar uchun zararli bo'lган quyoshning ultrabinafsha nurlarini yutadi. Ozon molekulalari hosil bo'lishi bilan birga ularning dissotsiatsiyasi, ya'ni molekulalarning yemirilishi kuzatiladi. Bu jarayon Quyosh nurlari ta'siri natijasida bo'lishi mumkin, lekin o'ziga xos «ozon qotillari» ham mavjudki, ular haqida keyinroq so'z yuritamiz.

Eng ko'p ozon stratosferada to'planib, u ozon qatlami deb ataladi. Shu yerda ozonning paydo bo'lishi va uning yemirilish tezligi tenglashadi. Inson faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni e'tiborga olmasak, odatdag'i tabiiy hodisalar natijasida bu joyda ozon kotsentratsiyasi deyarli o'zgarmaydi. Ozon kontsentratsiyasi (ya'ni 1 kub santimetrda mavjud bo'lган molekulalar miqdori) Dobson birligi deb atalgan maxsus kontsentratsiya birligi orqali o'lchanadi. Bir Dobson birligi mavjud bo'lган ozon molekulalari santimetrning yuzdan biri (yoki santimetrning mingdan biri) qalinlik qatlamini hosil qiladi. O'rta hisobda ozon qatlami qalinligi 200-300 Dobson birligini tashkil etadi. Kenglik va mavsumiy o'zgarishlar ham (120 dan - 760 gacha Dobson birligi) mavjud. Sayoramizning shimoliy yarim sharida ozonning eng katta miqdori qishning oxiri yozning boshida (fevral-mart oylarida), eng kichik miqdori kuzda 1 sentyabr-oktyabr oylarida) kuzatiladi. Sayoramizning janubiy yarim sharida esa aksincha holat sodir bo'ladi.

Atmosfera ozoni. Atmosferada mavjud bo'lган ozon miqdori uch milliard tonnadan iborat bo'lib u havoning milliondan uch foizini tashkil etadi. Bu esa mavjud bo'lган ozon kontsentratsiyasining nihoyatda kamligini bildiradi. Agar ko'plab kilometrga cho'zilgan atmosfera qatlamini «siqib qo'ysak», paydo bo'lган ozon qatlami qalinligi o'rta hisobda faqat uch millimetrga teng bo'ladi. Atmosferada joylashgan o'rniga qarab, ozon o'ziga xos fizikaviy xususiyatlarga ega. Yer atmosferasi bir jinsli bo'lib ko'rinsa ham, aslida ko'p qatlamlidir. Yer atmosferasining eng pastki qatlami troposfera deb nomlanadi, uning balandligi 15 kilometrgacha cho'zilgan. Bu yerdagi ozon inson sog'ligi uchun zararli bo'lib, u sanoat chiqindilari mahsulidir.

Troposfera zonasi eng baland tog'lar ustida joylashgan, shu zonaga ko'tarilishimiz bilan birga havo zichligi va harorat pasayadi. Ozon kontsentratsiyasi asta-sekin oshib boradi, chunki u yerda ozon ko'p miqdorda paydo bo'la boshlaydi. 15 kilometr balandlikda mavjud bo'lgan azot va kislородning (havoning asosiy tarkibiy qismlari) million dona molekulasiga ozonning faqat bitta molekulasi to'g'ri keladi. Stratosferada havo umumiyligining pasayishi natijasida havo harorati asta-sekin ko'tariladi, ozon kontsentratsiyasi (balandligi taxminan 15-50 kilometrni tashkil qiladi) oshib borishi kuzatiladi. Havo qatlami yaxshi isiydi, chunki Quyosh nurlari ta'sirida bo'layotgan ozon parchalanishi issiqlik chiqishi bilan birga kechadi. Natijada Yer yuzida hayotni himoya qilish uchun eng asosiy jarayon yuz beradi, o'tkir ultrabinafsha nurlanishining bir qismi (to'lqin uzunligi 200-320 nmni tashkil etuvchi ultrabinafsha-V) yutiladi.



Atmosfera ozoniga ta'sir etuvchi manbalar

Ultrabinafsha nurlanishining ikkinchi qismi (ultrabinafsha-A deb ataladi, to'lqin uzunligi 320-400 nmni tashkil qiladi) atmosferadan o'tib, Yer yuzigacha yetib boradi. Biologik tizimlar ushbu ultrabinafsha nurlariga moslashganlar. Yerning uchinchi havo qobig'i dengiz sathidan 50 kmdan 80 kilometrgacha

balandlikda joylashgan va u mezosfera deb nomlanadi. Bu qatlama havo siyraklashganligi sababli, ozon molekulalarning soni juda kam, chunki amalda, havo tarkibiga kirayotgan boshqa gazlar kabi, kislorod ham atom shaklida mavjud. Havo harorati pasaygan sari fotokimyoviy reaktsiyalar ham sekinlashadi.

Ozon tuynugi. Ozon qatlami turli sabablarga ko'ra siyraklashishi mumkin. Masalan, vulqon otilishi tabiiy sabablardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, vulqon bilan birga tarkibida oltingugurt birikmali bo'lgan gazlar ham otilib chiqadi. Oltingugurt havoda bo'lgan boshqa gazlar bilan aralashadi va shu jarayonlar natijasida ozon qatlamini yemiruvchi sul'fatlar hosil bo'ladi. 1991 yilda Pinatubo nomli vulqon otilishi stratosferaning pastki qatamlarida tarqalgan sulfatlar miqdorining ko'payiishiga olib kelgan. Natijada, ozon yo'qolishiga olib keladigan fotokimyoviy reaktsiyalarning tezligi oshgan. Faqat 1994 yildagina Global ozon qatlamining tiklanishi qayd qilingan va o'sha vaqtda havoda vulqon zarralari miqdori kamaygan. Mana siz bu hodisalarning o'zaro bog'liqligi, ya'ni vulqon otilishining ozon kontsentratsiyasiga ta'sir qilishi to'g'risida xabardor bo'ldingiz. Lekin stratosferada mavjud bo'lgan ozon miqdorining kamayishi ko'pincha zarar keltiruvchi antropogen (inson faoliyat) ta'sirga bog'liq.

Bu faoliyatning xilma-xilligi barchaga ma'lum. Xo'jalik faoliyatida XFU (xlorftoruglerodlar), bromli metil, galonlar, erituvchilar kabi birikmalarning ishlatilishi ham ozon qatlamining siyraklashishiga olib keladi. Keyingi paytda aviatsiya, kosmik raketalar ta'siri ham e'tiborga oliga boshlandi. Tovushdan tez uchadigan samolyotdan azot oksidi otilib chiqishi stratosfera ozoniga ta'sir ko'rsatadi. Ozonning siyraklashgan kontsentratsiyasi quyoshning ultrabinafsha nurlarini yaxshi yuta olmaydi. Bu nurlar Yer yuziga yetib kelib, hayvon va o'simliklarda kechadigan hayotiy jarayonlarga aks ta'sir ko'rsatadi. Ozon kontsentratsiyasining pasayishi «ozon tuynuklari» paydo bo'lishiga olib keldi va hozirda ular haqida ko'plab ma'lumotlar berilmoqda.

Eng katta «ozon tuynuklari» Yerning janubiy va shimoliy qutblarida qayd etilgan. 1957 yildan boshlab mutaxassislar shu «tuynukni» Xalli qo'ltig'ida, Antarktika, Britaniya antarktik stantsiyasida kuzatdilar. Ozonning solishtirma

zichligi kamayishining birinchi alomatlari saksoninchi yillarda qayd etildi. Yil sayin yoz paytida ikki oy (sentyabr - oktyabr) davomida Antarktika hududining ko'p qismida ozon solishtirma zichligining keskin kamayishi (hozirda 60 foizgacha) natijasida «ozon tuynugi» sayyoramizning janubiy yarim sharida shakllanadi. Arktika ustida «ozon tuynugi» ning paydo bo'lishi yangi hodisadir. Arktikada qish mavsumi oxiri bahor mavsumining boshida stratosferada ozon hajmining 10-15 foizi yo'qolganligi aniqlangan. Lekin ozon qatlami faqatgina qutb mintaqasida kamayadi deb bo'lmaydi. So'nggi 30 yil ichida qish oylarida sayyoramizning shimoliy yarim shari ustida ozon kontsentratsiyasi 3-5 foizga pasaymoqda. Yerning janubiy yarimsharida ozon qatlamining siyraklashishi ekvator zonasida ham qayd etilgan.

Ozon yemiruvchi moddalar (OEM). OEM tarkibida xlor, ftor, brom, uglerod va vodorod kabi ozonni yemiruvchi moddalar bo'lgan uglevodorodlar sinfiga taalluqli kimyoviy birikmalar kiradi. Bu terminologiyaning ma'nosini tushunib olish lozim. Bromli metil (metilbromid) tarkibida brom bor bo'lgan metan hosilasidir. U qishloq xo'jaligida tuproqda va qishloq xo'jaligi mahsulotlarida (yorma, sabzavot, meva) uchraydigan zarali hashoratlarini qiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Galonlar tarkibida uglerod va galogenlar (ftor, brom, ba'zilarda xlor majud) bo'lgan kimyoviy birikmalardir. Ular o't o'chirish vositalarida ishlatiladi. Tetraxloruglerodlar (TXU) suyuq moddalar bo'lib, ular laboratoriya va sanoat ishlab chiqarishida erituvchi sifatida ishlatiladi. XFU xladagent sifatida hamda aerozollar, dezodorantlar, insektitsidlar va boshqa mahsulotlarda ishlatildigan, tarkibida xlor-ftor-uglerod mavjud bo'lgan birikmalardir. XFU shuningdek global istisnoga tushadigan laboratoriya va tahliliy maqsadlarda va tamaki bargiga sanoat maqsadida ishlov berish uchun ham qo'llaniladi. Ushbu moddalar ichida gallonlar ozon qatlamiga eng katta zarar yetkazadi. U katta miqdorda o'nlab, yuzlab yillar davomida atmosferada saqlanib qolishi va ozonni yemirib borishi mumkin.

Sovutgichlar ozon qatlamiga xavf tug'diradi. O'tgan asrning 30 yillarida sovutgich uskunalarida notoksiq, alangalanmaydigan, arzon gazsimon kimyoviy

birikmalar sinfiga kiruvchi xlorförlerodlar yoki freonlar sovuqlik tushuvchilari sifatida va maishiy sovutgichlar, savdo sovutish uskunalarini transport vositalari uchun (refrejeratorlar) termoushlagich sifatida, havoni sovutish uchun muqim va ko'chma uskunalar, issiqlik nasoslari bilan suvni uskunalarini tayyorlashda foyydalanilgan. Ular nafaqat yong'in uchun xavfsiz balki, inert ya'ni, boshqa xil moddalar bilan reaktsiyaga kirishmaydigan bo'lib chiqdi. XFU qaynaydi ya'ni, xona haroratida suyuq holatdan gazsimon holatga o'tadi hajmining ortishi hisobiga harorati pasayadi va sovutish sanoatida foydalanadigan ajoyib sovutgichni keltirib chiqaradi, shuningdek, turli sovutish uskunalarini uchun issiqlik izolyatsiyalarini tayyorlashda foydalaniladi. Lekin qulay deb hisoblangan freonlarning bitta katta kamchiligi aniqlandi: ular stratosferaga yetib borib, ozon bilan reaktsiyaga kirishadi va uni yemiradi, natijada ozon qatlami siyraklashadi. Montreal Protokoli qabul qilingandan keyin qatnashuvchi-mamlakatlar sovutgichlar ishlab chiqarishda ozonga zararli freonlardan voz kechish yo'lini tanladilar. Masalan, rivojlangan mamlakatlar elektr energiyani tejaydigan sovutgichlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Bu sovutgichlarda qo'llanilayotgan tabiiy xladagentning ozon yemiruvchi kuchi va global isish potentsialining nol darajasini saqlashga kafolat beradi

Aerozollar guruhi. Suyuqlikning mayda tomchilarini muallaq holatda o'z ichiga olgan gazsimon moddalar aerozollar deb ataladi. Aerozollar anchadan beri hayotimizda turli vazifalarni bajarib keladilar. Ular dezodorant, soch laki, hasharotlarni haydaydigan kabi gigienik va kosmetik vositalar, propellantlar sifatida ishlab chiqarishda ishlatildi. Ularning tarkibida ham OEMlar mavjud, shu sababli ular ozon qatlami uchun zararli hisoblanadi. Aerozolli qadoqlangan OEM ya'ni, aynan XFU mahsulotlarini ishlab chiqarilishida, propollentlar (purkagich), erituvchilar, faol komponent ko'pirtiruvchilari, qo'shimchalar, faol komponentlarning yonuvchanligini pasaytiruvchi qo'shimcha sifatida, tadbiq etishni joriy etishadi. Propollentning asosiy sifati uning tez bug'lanish va faol komponenlarni samarali tarqatish mohiyati hisoblanadi. Siqilgan gaz propollent singari foydalanishning chegarasiga ega, ya'ni aerozolli qadoqlangan konteynerda gaz bosimi foydalanish tufayli pasayadi. Ushbu muammo suyultirilgan gazlar

uchun xos emas va sanoatda XFU kengroq foydalanadigan propollentlardir. XFU shuning uchun ishlatilganki, ya’ni, ular alangalanmaydigan, portlamaydigan va notoksik hamda yaxshigina erituvchi hisoblangan. Aerazol idishlarda lak, dezodorant, soqol oladigan krem, atir, insektitsid, oyna tozalagich, bo’yoq, farmatsevtik va veterinar vositalar, yog’lash uchun ishlatiladigan moylar va hokazo ishlab chiqarilgan. Ko’ksov va yurak faoliyatidagi yetishmovchilik davolash uchun dozalangan ingalyatorda ham XFU ishlatilmoqda, chunki buning muqobili hozircha yo’q. XFU ba’zi aerozollarda faol komponet sifatida ishlatilgan. Ular o’z holicha, masalan, anestizatsiyalovchi modda sifatida ko’pincha sportda foydalanilgan. XFUNing muzlatuvchi sifatlariga ko’ra ular ta’mirga muhtoj quvurlarni muzlatishda va elektron texnika tuzatishda qo’llanilgan. Tez va izsiz parlanishi tufayli fotosurat, disk, kinoplyonkalardagi changni yo’qotish uchun XFUDan foydalanildi. Nihoyat signal uskunalarda XFUNing mayda teshiklar orqali faol drosellashtirish xususiyati tovush chiqaruvchi sifatida qo’llanildi. Insektitsidlar, rodentitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar galogenlangan (xlorli va boshqa galogenlar) uglevodorodlar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hisoblanadi. Ular aerozolli qadoqlarda ishlab chiqarilib, tarkibida propellant sifatida OEMdan foydalangan. Ko’p hollarda qo’llanayotgan vositalarni boshqa vositalar bilan almashtirish mumkin, masalan, suyuq (sharikli) va qattiq, shuningdek, kukunsimon dezodorantlardan foydalanish mumkin.

Ozon qatlaming himoya qiluvchi xususiyatlari. Ozon qatlami quyosh spektrining turli sohalarida elektromagnit to’lqinlarini tanlab yutish xususiyatiga ega. Quyosh spektri infraqizil (issiqlik ko’zga ko’rinadigan va ultrabinafsha nurlari) qismlardan iborat. Issiqliq tarqalishi tirik organizmlarning hayot jarayonlari uchun zarurdir. Lekin sayyoramizda yashovchi tirik organizmlarning biologik vazifalarini bajarishi uchun harorat xam mavjud. Ozon qatlami infraqizil nurlarning bir qismini yutib ma’lum darajada qulay haroratni saqlab turadi.

Quyosh spektrining yorug’lik nurlanishi sayyoramizda yashovchilar uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, o’simliklarning yashil barglarida kechayotgan fotosintez jarayonlarini olaylik. Ular bo’lmasa, sayyoramiz erkin molekulyar

kisloroddan mahrum bo'lar, aerob organizmlar esa yo'qolar edi, ya'ni sayyoramiz huvillab, faqat mikroblar qolar edi. Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi bilan bog'liq yorug'likning sutkalik va mavsumiy maromlari sayyoramizda yashaydigan organizmlarning fiziologik, fe'l-atvor va biologik maromlarini tartibga solib turadi. Ozon qatlami ko'zga ko'rindigan hamma nur to'lqinlarini o'tkazadi va turli hayotiy shaklda mavjud bo'lgan tirik organizmlar ulardan o'z faoliyatida foydalanadi. Ultrabinafsha nurlar bir xil emas. Uning har bir qismi turli xususiyatlarga ega. Ultrabinafsha to'lqinlarining 400 dan 320 nmgacha masofada joylashgan qismi UB-A deb nomlanadi. UB-A odamga, ayniqsa o'sish paytida, zarur, chunki u immunitetni oshiradi, «D» vitamini hosil bo'lishida yordam beradi va shu bilan birga raxit kasalligining oldini oladi. UB-A-nurlarining bu qismi ozon qatlamidan o'tib, yer yuzasigacha yetib keladi. Tirik organizmlar ularga moslashganlar va uni hayot omili sifatida qabul qilganlar. UB-V - bu tirik organizmlarni yo'q qiluvchi nurlanish hisoblanadi. O'tkir ultrabinafsha deb nomlangan nurlanishning to'lqin uzunligi 200-300 nmni tashkil etadi va u ozon qatlamida butunlay yutiladi. Eng yuksak energetik xususiyatga ega bo'lgan UB-S ning to'lqin uzunligi 200 nmdan kam, lekin bu nurlar ozon va kislorod qatlamidan umuman o'tmaydi. Agar UB-V i UB-S nurlarini o'tkazadigan «ozon tuyuklari» ko'p miqdorda paydo bo'lsa, odam organizmida noxush holatlarni keltirib chiqaradi.

Atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilishning chora-tadbirlari. Atmosfera havosini toza saqlashda sanoat ob'ektlarini geografik sharoitiga qarab joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda sanoat ob'ektlari va yirik communal korxonalari alohida sanoat zonasida uy-joy massivlaridan tashqarida bo'lishi kerak. SHuningdek, shamolning yo'nalishi uy-joy zonasidan sanoat zonasini tomon esadigan bo'lishiga rioya qilish lozim. Aks holda sanoatdan chiqqan chang, qurum va gazlar uy-joy zonasini tomon shamol orqali kelib, havoni ifloslaydi. Uy-joy zonasini bilan sanoat zonasini orasida kengligi 100 m dan bir necha kilometr keladigan yashil o'simliklardan iborat sanitariya-himoya zonasini bo'lishi yaxshi natija beradi.

Atmosfera havosini toza saqlashda transport chiqindi gazlarini, dudlarini kamaytirish juda muhimdir. Havoni ifloslantirishda transport turlari ichida benzin bilan ishlaydigan avtomobillar (AQSHda 75%ni tashkil etadi), keyin havo transporti (5%), dizel dvigatelli avtomashinalar (4%), traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari (4%), temir yo'l va suv transporti (2%) turadi. O'zbekistonda havoni ifloslantirishda avtomobillar alohida o'rinni tutadi, ular zaharli moddalarning 60%ni tashkil etib, Toshkent, Andijon, Buxoro, Guliston, Samarcand kabi yirik shaharlarda bu ko'rsatkich 80%ga ko'tariladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda avtotransportdan havoga iflos moddalarni qo'shilishi ancha kamaydi. Shaharlar havosini toza saqlashda avtomobil yoqilg'ilarini sifatini yaxshilash, xususan, atmosferaga kam gaz chiqaradigan, quyuqlashtirilgan gazlardan foydalanishga o'tish yaxshi natija beradi. Bunda gazning to'liq yonishi tufayli atmosferaga zaharli moddalar kam chiqadi va bu jarayonni amalga oshirish juda arzon tushadi. Masalan, Toshkent shahridagi ba'zi avtomashinalar 1978 yildan beri benzin o'rniga yoppasiga quyuqlashtirilgan propan-butan yoqilg'isi bilan ishlashga o'tgan, quyuqlashtirilgan gaz benzinga nisbatan 2-3 marta arzonga tushishidan tashkari atmosferaga juda kam zaharli moddalar chiqaradi. Avtomobilarning gaz asosida ishlashi (benzinda ishslashiga nisbatan) natijasida tsilindr gilzalari, porshenlar, porshen xalqalari, vallarning yeyilishi 50-70%ga kamaydi. Dvigatellarning remontlararo ish qobiliyatini esa 60%ga oshiradi. Ba'zi davlatlarda avtomobillar benzin emas, balki spirit bilan yurmoqda. Natijada atrof-muhitga zaharli gazlar juda kam chiqarilmoqda va arzonga tushmoqda.

Avtomobildan chiqadigan zaharli gaz miqdorini kamaytirish uchun yana ularning texnik holati va dvigatelga yoqilg'inining bir me'yorda borishiga qat'iy rioya qilish kerak. Avtomobildan chiqadigan gazning atmosferadagi miqdori shuningdek yo'lning kengligiga, ko'cha havosining almashinib turishiga, avtomobil oqimining shahar transport arteriyalari bo'ylab to'xtovsiz harakat qilishiga ham bog'liq. Agar chorrahalarda avtomobillar to'planib qolsa, o'sha joyda zararli gazlar ko'proq to'planib qoladi. Shuning uchun serqatnov ko'chalarda avtomobil tunellari, ko'priklari va yo'lovchilar uchun yer osti o'tish joylari qurish

avtomobilarning to'xtovsiz harakatini ta'minlaydi. Tajribalardan ma'lumki, avtomobil tunellari va ko'priklari qurilgandan so'ng mazkur maydonlarda tunnel va ko'prik ishga tushguncha bo'lgan davrga nisbatan ugrerod oksidining kontsentratsiyasi 4 marta kamaygan.

Shaharlar havosini toza saqlashda tranzit transportlarni shahar ko'chalariga qo'ymaslik, ularni shahar atrofidagi aylanma yo'l xalqasini tashkil etib o'tkazib yuborish yaxshi natija beradi. Shuningdek, avtotransport serqatnov ko'chalar atrofida o'simlik zonalari tashkil etish kerak. Chunki, bu o'simlik to'siqlari avtomobillardan chiqqan zaharli gazlarni yutib turishdan tashqari shovqin-suronni keskin kamaytiradi. Nihoyat, shaharlar havosini toza saqlash uchun jamoat transportining elektrenergiya asosida ishlab, atmosferani ifloslanmaydigan turlaridan - metro, trolleybus, tramvaydan foydalanishga o'tish zarur. Shaharlarda atmosfera havosini toza saqlashda elektrlashtirilgan transport (yer osti va yer yuzasi) ni ahamiyati katta. Elektrlashtirilgan transport aholini iflos gazlardan va shovqindan saqlaydi. Tramvay va tralleybuslarni shahar transportida mavqeini ko'tarish kerak, chunki bu transport turlari hozirgi zamон qulay va foydali transport. Tramvay tezligini 16-20 km/soat o'rнига 30-32 km/soatga ko'tarish kerak. 1 km tramvay yo'lini qurilishi, 1 km metro yo'li qurilishiga qaraganda 8-12 marotaba arzon tushadi. Hozirgi kunda yirik shaharlarda atmosfera havosini toza saqlash maqsadida, neft va benzinni tanqisligini hisobga olinib, alternativ yoqilg'ilar izlanmoqda. Bu sohada elektromobilarni kelajagi porloq. Elektromobillar - oddiy avtomobillar bilan bir vaqtida kashf etilgan bo'lib, akkumulyativ batareyalar kuchsiz va benzinli motordan zaif bo'lganligi sababli hayotda o'z o'rnnini tezlikda topa olmadi. Lekin keyingi vaqtarda ba'zi davlatlarda elektromobillar xalq xo'jaligida keng foydalanilmoqda. Masalan, Angliyada 45 ming tashuvchi, 100 mingdan ortiq elektromobillar zavod, shaxta, kasalxonalar va bog'larda mashinalar energiyani akkumulyativ batareyaladan olib ishlamoqda (ularning tezligi soatiga 32 km dan oshmaydi). "Klorid" kompaniyasi yaratgan avtobuslar elektrobatareyalar kuchida harakatga kelib, ularning tezligi soatiga 64 km ga yetib, 64 km gacha yo'lni batareyani qayta zaryadlamasdan yurishi mumkin.

Shaharlar havosini toza saqlashda shaharlar va sanoat markazlarida havoning tozaligini muntazam nazorat qilib turish katta ahamiyatga ega. Shu sababli ko'pchilik shaharlarda havoning holati muntazam ravishda kuzatib turiladi. Katta shaharlar havosining holatini sutkada 3-4 marta kuzatib, o'lchab turuvchi bir necha punktlar bor. Masalan, Sankt-Peterburg territoriyasida 40 ta, Moskvada 30 dan ortiq, Toshkent shahrida 10 ga yaqin kuzatish punktlari bo'lib, ulardan havodan namuna olib, uning tarkibida gaz va bug'larning miqdori, zaharli moddalarning kontsentratsiyasi tekshirib turiladi. Toshkent shahri havosining tozaligini 1966 yildan boshlab nazorat qilish amalga oshirilgan. Bir yilda Toshkentda havo tarkibi 45 ming martagacha, bir kunda esa 124 martadan ortiq analiz qilinadi, agar havo tarkibi ifloslanib me'yordan oshib ketsa, darhol uning oldini olish choralar ko'rildi. Shahardagi havoning holatini kuzatish punktlaridan olingen ma'lumotlar umumlashtirilib, shahar ijroiya qo'mitasi qoshidagi shtabga berib turiladi. Shaharlar havosini tozaligini muntazam tekshirish bilan birga, maxsus jihozlangan va avtomat-kontrol-o'lchov sistemasi bilan qurollangan avtomashinalar yordamida ham (avtomashinalar shahar ko'chalarini, sanoat korxonalarining atroflarini) o'lchaniladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning 26 shahrida atmosfera havosini ifloslanishi 65 statsionar postlarda kuzatish ishlari olib boradi. O'zbekiston havosini ifloslanishini kuzatishga O'zbekiston Gidrometerologiya boshqarmasi raxbarlik qiladi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit ifloslanishini kuzatish markazi, Farg'ona va Navoiy shaharlaridagi ikki kompleks laboratoriya, atmosfera havosini ifloslanishini kuzatuvchi 7 laboratoriya (Olmaliq, Andijon, Samarqand, Angren, Bekobod shaharlari), havo ifloslanishini kuzatuvchi 4 guruh (Buxoro, Guliston, Nukus va Namangan shaharlarida), atrof-muhitni ifloslanishini kuzatuvchi Sariosiyo idoralraro laboratoriysi va ikki monitoring (Chotqol qo'riqxonasi, Abramov muzligi) stantsiyalari kiradi. Yirik shaharlarimizdan Qarshi, Termiz, Kogon, Sirg'ali, Do'stlik shaharlarida va boshqa hududlarda maxsus dasturlar bo'yicha ishlaydigan ekspeditsion havoni ifloslanishini kuzatish ishlari olib boriladi. Umumman atmosferani ifloslanishdan

saqlashda shahar va qishloqlar havosining sog'lomlashtirishda eng ishonchli usul yashil o'simliklar maydonini kengaytirishdir.



Savol va topshiriqlar

1. Atmosfera havosi asosan qanday gazlardan iborat?
2. O'zbekistonda qanday korxonalar havoni ko'proq ifloslaydi?
3. Havoni muhofaza qilishda qanday tadbirlarni bilasiz?
4. O'zbekiston havosini ifloslanishini kuzatish ishlarini qanday tashkilot olib boradi?
5. O'zbekistonda havoni toza bo'lishi uchun Siz qanday hissa qo'shamoqdasiz?



8-§. Kimyoviy ishlab chiqarish va atrof-muhit

Mavzu rejasi

1. *Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'siri.*
2. *Kimyoviy mineral o'g'itlar va atrof-muhit.*
3. *Tabiiy muhit va pestitsidlar.*
4. *Kimyoviy ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish yo'llari.*
5. *O'simliklarni biologik himoya qilishning chora-tadbirlari.*

Kimyoviy ishlab chiqarish korxonalari atrof-muhitni turli xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishida katta rol o'ynab kelmoqda. Kimyoviy korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini 3 toifaga ajratish mumkin.

- Korxona statsionar rejimda ishlaganda tabiatga ko'rsatiladigan ta'sir (yoqilg'i yoqish mahsuloti, suvni ifloslanishi, korxonada qo'llanadigan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan atrof-muhitni ifloslanishi).
- Korxonada biror sababga ko'ra katta miqdordagi halokatli chiqindilarni atrof-muhitga tashlanish natijasida.
- Kimyoviy korxona mahsulotlarini qo'llash natijasida atrof-muhitga zarar keltirish.

Zamon va inson tafakkuri doimo rivojlanishda shuning uchun 1990 yillarga kelib tabiatni ifloslovchi yirik korxonalar jamoatchilik fikriga asosan ishlayotganlari to'xtatilmoqda, ekologik nuqtai nazardan yondoshilmay qurishga muljallangan ishlab chiqarish loyihalari bekor qilinmoqda.

Masalan, Rossiyada 1990-95 yillarda 1,2 mln mineral o'g'it ishlab chiqaradigan, 1,2 mln tonna N_2SO_4 va 1 mln tonna NN_3 ishlab chiqarish korxonalari to'xtatildi. Jumladan, shu yillari ekologik holat keskinlashganligi tufayli Namangan shahridagi 4-paxta tozalash zavodi Toshbuloqqa ko'chirildi.

Agar kimyoviy sanoat korxonalarida biror avariya sababiga ko'ra halokatli chiqindilarni tabiatga keltirgan zarariga misol keltirsak, 1986 yilda Olmaliq tog'-kon kombinati to'satdan N_2SO_4 tashlashi natijasida Piskent rayonida 140 hektar paxta maydoni, Yangi Qo'qon kimyo zavodining halokatli chiqindi tashlashi natijasida 20 km radiusdagi paxtazor, 1987 yil Samarqand kimyo zavodi halokatli chiqindilari natijasida ko'plab mevazor bog'lar nobud bo'lди. Xo'sh, bunday falokatlarni bo'lmasligi uchun nima qilish kerak? Texnologik jarayolarning xavfsizligi kimyoviy ishlab chiqarish yuqori ishonch bilan va xavfsiz faoliyat ko'rsatishi, har tomonlama chuqur asoslangan to'g'ri loyiha yechimlariga, yangi texnologik jarayonlarni xavfsiz amalga oshirish usullariga bog'liq. Shuningdek, qo'shimcha ximiyaviy reaktsiyalar va boshqa jarayonlar avariya holatlari ro'y berishiga sabab bo'ladi, ular quyidagilar:

- texnologik reglamentga rioya qilmaslik ;
- jihozlar montaji va ekspluatatsiya texnik darajasining sifati va boshqa tadbirlarni bajarmasligi;

Kimyoviy texnologiyada ba'zi bir jarayonlar ruruhini ajratish mumkinki, bu texnologik reglament buzilgan paytda avariya holatiga o'tadi. Bunday jarayonlar potentsial xavfli jarayonlar deyiladi. Bular 4 xil bo'ladi:

- toksik moddalarni olish va qayta ishlash;



- portlovchi moddalarni olish va qayta ishlash;
- katta tezlik bilan boradigan jarayonlar;
- aralash jarayonlar;

Shuning uchun texnologik jarayonlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablarini bilish kerak bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Ishlayotganlarni zaharli moddalar bilan kontaktda bo'lmasliklarini ta'minlash.
2. Xavfli va zararli texnologik operatsiyalarni xavfsizrog'iga almashgirish.
3. Texnologik jarayonlarni mexanizatsiya, avtomatizatsiya va distantsion boshqarishga o'tkazish kerak.

Kimyoviy mineral o'g'itlar va atrof-muhit. O'tgan asrning o'rtalarida NaNO_3 selitrasining birinchi Yevropaga olib kelindi. Ammo hech kim yukni tushirishga shoshilmadi. Uni sinab ta'siri amalda sinalgandan keyingina, selitra uchun kurash boshlandi. 1900 yilga kelib Chili selitrasiga talab azotga nisbatan 300 000 tonna ko'p bo'ldi. Selitra olishning arzon yo'llari qidira boshlandi. Chunki jahon tajribasida mineral o'g'itlarni qo'llash, yerga ishlov berishning yaxshilanishining asosiy omili qishloq xo'jaligi yeridan samarali foydalanishning sharti va o'sishini va hosilni saqlanishiga kafolat beruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi.

Amerika tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, kimyoviy vositalarni ishlatish hisobiga Yevropada o'simliklardan olinadigan hosil oxirgi 30 yil ichida deyarli 50 foizdan oshdi. Dunyo bo'yicha ishlatilgan 1 kilogramm o'g'it 7,3 gramm bug'doy berishi kerak, bizda esa 3,5-4 grammga to'g'ri keladi, yani ishlatiladigan o'g'itlar beradigan foydasini o'rniga, ko'plab ekologik muammoni keltirib chiqarmoqda. Tahminiy hisoblarga ko'ra, yiliga zavoddan dalaga yetib borgunga qadar 4 mln tonna mineral o'g'it, 10-12 ming tonna pestitsid (MDH bo'yicha) yo'lida qoladi. Bundan kelgan zarar 400 mln so'mni tashkil etadi. 1987 yilda Samarqand Kimyo zavodida birinchi yangi shaklda polifosfat chiqara boshlandi. Donacha tarkibida azot va fosfor bo'lib, ularning miqdori avvalgi amofosga nisbatan yuqori bo'lib, o'simlik tomonidan yaxshi o'zlashadi hamda

uzoq muddat ta'sir ko'rsatadi. O'g'itlarni ishlatishning kengayishi qo'shimcha yangi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, eng havflisi azotli o'g'itlar bo'lib, NO_3 azotning harakatchanligi tufayli suv havzalari va yer osti suvlari ifloslanmoqda. Ya'ni suv havzasiga tushayotgan azotning yarmi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Suvda azot singari oziq moddalarning ko'payib ketishi, suv o'tlarini haddan tashqari o'sib ketishiga va uning umri tugagandan so'ng esa anaerob bakterial parchalanishga uchrashi sababli baliq va suvdagi jonzotlarni kislorod defitsiti tufayli qirilishiga olib keldi. Hozirgi kunda respublikamizda bunday hodisalar ko'plab kuzatilmoqda.

Nitritlar me'yordan ko'p miqdorda faqat suv emas, o'simliklarda ham ko'p yig'ilmoqda. Nitritlarning inson va hayvonotga ta'siri unchalik bo'lmasada, ammolardan hosil bo'lgan mahsulot kuchli zaharli modda hisoblanadi. Bunday mahsulotni inson tomonidan iste'mol qilinishi natijasida, ayniqsa bolalar o'rtasida kacalliklar kelib chiqmoqda. Undan tashqari nitratlardan nitrozaminlar hosil bo'lish mumkin. Ular ***kanserogen*** moddalar hisoblanadi.

Endi ***fosforli o'g'itlar*** haqida to'xtalsak. Ular ancha xavfsiz. Kam harakatchan, tuproqqa qattiq o'rashadi. Ammo shunga qaramay suv havzalari tuproq eroziyasi hisobiga fosfatlar bilan ifloslanadi. Ammo suv havzalarini ifloslovchi eng asosiy manbalar bu sanoat va maishiy chiqindi suvlaridir (ayniqsa, fosfatni yuvuvchi vosita).

Fosforli o'g'itlarni ishlatishni o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni ko'p ishlatish natijasida tuproqda strontsiy, ftor, tabiiy radioaktiv uran, radiy va toriy kabi elementlar yig'lishi mumkin.

Uchinchi ozuqa elementi ***kaliy*** bo'lib, u atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, ammo u bilan doim birga bo'ladigan xlor yer osti, suvlarini ifloslashi mumkin. Hozirgi kunda atrof-muhitni o'g'itlar bilan ifloslanishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi. Bunday nazoratni agoroximlaboratoriylar amalga oshiradi. Ayniqsa, oziq-ovqat-sabzavot tarkibidagi NO_3 miqdorini aniqlash katta ahamiyatga ega. Butun jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti(VOZ)ning bergen ma'lumotiga ko'ra inson uchun bir kunlik iste'mol qilish mumkin bo'lgan nitrit 325 mg.

Pestitsidlar va atrof muhit. O'simliklarni kasalliklar, zararkunandalar va begona o'tlardan asrash uchun ishlataladigan kimyoviy moddalarning umumiyligi atamasi pestitsid (lotincha «pestis» — yuqum, «caedo» — o'ldirmoq, yo'q qilmoq degan so'zlardan olingan) lar bo'lib, ular kimyoviy tarkibi, qaysi maqsadlar uchun qo'llanilishiga qarab, shuningdek zararkunandalar organizmiga o'tish usuli hamda qanday ta'sir qilishiga qarab guruhlarga bo'linadi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra pestitsidlarning uchta asosiy guruhi qayd qilinadi:

1. Anorganik birikmalar (margimush, mis, rux, ftor, bariy, simob, oltingugurt birikmalari, shuningdek xloridlar va boratlar).

2. O'simliklar, bakteriyalar va zamburug'lardan olinadigan pestitsidlar (peretrinlar, anabazin, nikotin, bakterial preparatlar, antibiotiklar va boshqalar).

3. Organik birikmalar. Mazkur guruhgaga taalluqli pestitsidlar fiziologik ta'sir jihatidan juda faol bo'lgan juda ko'p moddalarni tashkil qiladi. Bu guruh moddalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) xloroorganik birikmalar (geksaxlorotsiklogeksan, polixloripinen, polixlorkamfen, geptaxlor, keltan, zfir sulfonat, DDT, azotoks, ditoks, geklatoks va boshqalar);

b) fosforoorganik birikmalar (metafos, trixlormetafos — 3, metilnitrofos, karbofos, DDVF, tsidial, fazalon, ftalafos, kilval, antio, metilmerkaptafos, sayfos, metation, bazudin va boshqalar);

v) karbonat kislota, tio — va ditiokarbomikat kislota hosilalari (sevin, karbation, eptam, IFK, xlor IFQ, tsineb, tsiram, TMTD va boshqalar);

g) fenollarning nitro hosilalari (DNOK, dinitroortokrezol, nitrofon, pentoxlorfenol, pentoxlorbenzol, pentoxlornitrobenzol va boshqalar);

d) ftalamidlar (kaptan, ftalon va boshqalar);

ye) mineral moylar va yana boshqa turdag'i kimyoviy ta'sirchan moddalar.

Pestitsidlar aniq bir maqsad uchun qo'llanishga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. O'simlik zararkunandalariga qarshi qo'llaniladigan ta'sirchan vositalar:

zararli hasharotlarga qarshi (insektitsilar) va kanalarning tuxumlarini quritish, yo'q qilishda ishlatiladigan akaritsidlar (asagius- kana); lichinkalarni yo'q qiladigan larvitsidlar (Iagva-lichinka); dumaloq cho'valchanglarni qirish uchun ishlatiladigan moddalar-nematotsidlar (nematodos); shilliq qurtlar va buzoqboshilarni nobud qiladigan limatsidlar - (Lima-shilliq qurt); kemiruvchi hayvonlarni o'ldirish uchun ishlatiladigan pestitsidlar bo'l mish zootsidlar kabi ta'sirchan moddalar turi qayd qilinadi.

2.O'simliklarning zamburug'lar va bakteriyalardan paydo bo'ladigan kasallanishiga qarshi ishlatiladigan moddalar — fungitsidlar (Fungus—zamburug') va bakteriotsidlardir. Mazkur turkum moddalardan urug'liklarni, ekinlarni va tuproqni dorilashda keng ko'lamda foydalilanadi.

3. Begona, yovvoyi o'tlarga qarshi ishlatiladigan ta'sirchan kimyoviy moddalar turi gerbitsidlar (negae — o't) nomi bilan yuritiladi.

4. Paxta hosilini mexanizatsiya vositasida yig'ib-terib olishda, g'o'zalarni tayyorlash maqsadida o'simlik barglarni sun'iy yo'l bilan to'kish, ya'ni defoliatsiya qilish uchun ishlatiladigan defoliantlar (Foilum — barg).

5.O'simliklarning ildizini quritishda ishlatiladigan kimyoviy moddalar desekantlar (Siccum— quruq degan so'zdan olingan) dan ham atroficha foydalilanadi.

6. Xalaqit beradigan, kerak bo'lmaydigan dov-daraxtlarni quritish uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar — arbotsidlar.

7. Virusotsidlar- viruslarga qarshi

8. Algitsidlar- suv o'tlarga qarshi

Rossiya FAning muxbir a'zosi A.Yablokovning ma'lumotlariga ko'ra, 1986 yil MDHda kimyoviy himoya vositalarining miqdori har bir kishiga 1,4 kilogrammdan to'g'ri kelgan. 1989 yilda gettariga 3 kilogramm ishlatilgan. Boltiq bo'yida bu ko'rsatkich-200 gramm, Ashgabadda 64-200 grammni tashkil etadi. Akademik A.Fokinning fikriga ko'ra, butun MDHda pestitsidlar ishlatilishi bo'yicha juda ko'p xatolarga yo'l qo'yilgan. Ayniqsa, xlororganik birikmalar haddan ziyod ko'p ishlatilgan. Masalan, DDT bir vaqtda eng ko'p ishlatilgan va

uni yaratuvchi shvetsariyalik ximik P.Myuller Nobel mukofotining sovrindori bo'lgan (1948). Avval go'yo malyariya, sariq, bezgak, tif kasalliklaridan qutulishga imkon berdi. Ammo keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, DDTdan foydalanish juda xavfli ekan. Shuning uchun undan foydalanish 1971 yildan boshlab to'xtatildi. Ma'lum bo'lishicha, pestitsidlar odam va hayvon to'qimasida yig'ilishga ega. Surunkali organizmga kirib turishi natijasida asab va yurak-tomir sistemasiga ta'sir ko'rsatadi. DDT (dixlordifeniltixloretan) va shu tipdag'i moddalar onaning suti orqali bolaga o'tadi. Bu xilma-xil tug'ma patologiya va embrionning o'lishiga sabab bo'ladi. DDT hatto antarktidadagi pingvining ham jigaridan topilgan.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha yiliga 500 ming aholi zaharlanadi. Ularning 10%i o'lim bilan tugaydi. Atrof-muhitni surunkali ravishda pestitsidlar bilan ifloslanishi tufayli insoniyat doimo katta xavf ostida yuradi. Masalan, AQSHda ishlatiladigan alderin va dildrin deb nomlangan pestitsidlar 23% sut mahsulotida, 88% mevalarda, 96% go'sht va baliq mahsulotlarida uchrashi aniqlangan. Tirik organizmlar organlarida, to'qimalarida, hujayralarida pestitsidlar miqdori atrof-muhitdagiga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. Bu hodisa yig'ilish koeffitsienti bilan hisoblanadi. Suvda yashaydigan hayvonlar uchun bu koeffitsient juda yuqori. Masalan, 10-15, molyuska uchun 25-50. Pestitsidlarning salbiy ta'sir mexanizmi quyidagi zanjir mexanizmi orqali amalga oshadi:

dengiz suvi → plankton → baliq → qush → odam

Hozirgi kunda o'simlik kasalliklari va zararkunandalaridan qutulishning eng samarali yo'li almashib ekishdir. Chunki maydondagi ekin turi almashganda unda zararkunandalarning yig'ilishiga barham beriladi. Ammo ekin maydonlarida monokultura hukmron bo'lsa pestitsidlar ishlatish agrotexnikasining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p zarakunandalar antropogen mikroblar qo'llanilayotgan pestitsidlarga o'rghanish xususiyatiga ega. Bu fan va texnika oldiga katta muammoni qo'ydi, ya'ni pestitsidlarni almashtirib turish kerak.

Hozirgi kunda hashorotlarning 130 xil qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalari va hayvon kasalliklarini tashuvchilar turi bo'lib, ularning ba'zilari xlororganik va fosfororganik birikmalarga chidamli hisoblanadi. Bu yerda ikki muammo kelib chiqadi, ya'ni uzoq muddat biror pestitsidni ishlatib kelinsa, o'sha tuproqda ayni preparatni parchalaydigan mikflora yig'iladi. Endi zararkunandalarni yo'qotamiz deb preparat almashtirilganda bu kimyoviy birikmalarga o'rganmagan mikflora ularni parchalashga qiynaladi. Pestitsidlarning ishlatilishi natijasida bo'ladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirishning quyidagi yo'naliishlari mavjud:

1.Chegaralangan miqdorda qo'llash.

2.Barqaror, tez parchalanadigan biotsidlarni sintez qilish hamda tor spektrda ta'sir etuvchi moddalarni qo'llash.

Bulardan tashqari, o'simliklarni himoya qilishda kimyoviy usullarning agrotexnik, seleksion, tashkiliy-xo'jalik, biologik va boshqa usullar bilan uyg'unlashtirib olib borilishi kerak. Respublikada pestitsidlarni qo'llash va ularning qoldiqlarini nazorat qilish (suvda, tuproqda, havoda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarida) amalga oshirib kelinmoqda. Davlat ASK qo'mitasi qoshida boshqarmalararo organ Davlat komissiyasi mavjud bo'lib, u har yili ishlatiladigan qishloq xo'jaligi pestitsidlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

Cheklangan chiqindi kontsentratsiyasi (PDK). Zararli moddaning cheklangan chiqindi konsentratsiyasi deb-uning havodagi shunday miqdoriga aytildiki, har kuni uzoq muddatda ta'sir ko'rsatganda odamda patalogik o'zgarishlar yoki kasallik paydo bo'lmasin. Aholi mintaqasi uchun havodagi cheklangan chiqindi konsentratsiyasining maksimal bir metrlik va sutkalik o'rtacha qiymatlari aniqlanadi. Ishlab chiqarish binolaridagi havo uchun CH.CH.K.lari ishlatiladi. Ammo, kimyo sanoatining tez rivojlanishi natijasida barcha moddalar uchun cheklangan chiqindi kontsentratsiyasi aniqlanishga ulgurilmaydi. 1977 yildan boshlab sog'likni saqlash Vazirligining taklifiga asosan yangi qo'llaniladigan moddalar uchun Taxminiy Xavfsiz Ta'sir Darajasi (O.B.U.V.-orientir bezopasnosti uroven vozdeystvii) aniqlanadi. Bularning ro'yxatini sog'liqni saqlash Vazirligi davriy ravishda joylarga yetkazib kelgan. Ularning amal qilish

muddati 2 yil.

M: diyatilamin-3 mg / m³-OBUV

Palibutillitilakrilat-10 mg / m³-OBUV

Dixlormetilbuten-2 mg / m³-OBUV

Hozirgi kunda 1000 ziyod moddalar uchun cheklangan chiqindilar konsentratsiyasi aniqlangan. Inson organizmiga ta'sir darajasi jihatidan zararli moddalar 4 sinfga bo'linadi.

-favqulodda xavfli moddalar.

-yuqori xavfli

-o'rtacha xavfli

-kam xavfli.

Odatda kimyoviy ishlab chiqarishning zonasidagi havo tarkibida turli tuman zararli ingredirentlar bo'ladi. Agar havodagi ingridirentlar bir-biri bilan qo'shilib ta'sir darajasini oshirib yuborsa-sinergizm, agar kamaytirib yuborsa antagonizm (antisinergizm) ta'sir deyiladi. Sinergizmga misol: [SO₂ Sl₂] [CO NO]

Cheklangan chiqindilar me'yori (PDV). Yangi loyihalashtirilayotgan yoki ishlayotgan korxonalarini rekonstruktsiya qilishda yer usti atmosfera havosi qatlamining tozaligini ta'minlash uchun cheklangan chiqindilar me'yorini aniqlash katta ahamiyatga ega. Cheklangan chiqindilar me'yori-bu chiqindining ilmiytexnikaviy me'yori (normativi) bo'lib, ko'rيلayotgan chiqindi tashlash manbai yoki shahardagi barcha manbalardan tashlangan yer usti qatlamiagi havo tarkibidagi zararli moddalar konsentratsiyasi aholi, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun hisoblangan havo sifat me'yordan (P.D.K.) oshib ketmaslik shartiga asosan aniqlanadi. Cheklangan chiqindilar me'yori quyidagilarga asosan kiritilgan.

1. Mavjud ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish metodlariga asosan butunlay atmosferaga chiqindi tashlashni to'xtatishga erishib bo'lmaydi.
2. Tashlanayotgan chiqindilarni me'yorlash imkonini beradi.
3. Chiqindilar miqdorini (aniqlangan) ma'lum cheklangan chegaragacha kamaytirish mumkin. Fazoda turli nuqtalarga tegishli bo'lgan cheklangan chiqindilar me'yori va cheklangan chiqindilar konsentratsiyasi o'rtasidagi

bog'lanishni aniqlash maqsadida chiqindi tashlash manbalaridan chiqayotgan va havoda turbulent diffuziya natijasida ta'sir doirasigacha tarqalishi yoyilishi qonunlari o'rgatiladi.

Barcha korxonalar uchun cheklangan chiqindilar me'yorini aniqlash mavjud davlat standartlari asosida olib boriladi. Agar korxona joylashgan shahar yoki aholi punkitlarida havo tarkibiidagi zararli moddalar konsentratsiyasi-cheklangan chiqindilar konsentratsiyasi >1 bo'lsa va cheklangan chiqindilar me'yori ob'ektiv sabablarga ko'ra erishib bo'lmasa, chiqindilarni bosqichma-bosqich (cheklangan chiqindilar konsentratsiyasiga yetgunga qadar) kamaytirib boriladi. Cheklangan chiqindilar me'yoriga erishgunga kadar har bosqichda vaqtinchalik kelishilgan chiqindilar(V.K.Ch.) miqdori aniqlanadi. V.K.Ch. korxona eng yaxshi texnologiya bilan ishlaganda aniqlanadi. Cheklangan chiqindi me'yori tarkibida shahar va sanoat tugunlari atmosfera havosini sog'lomlashtirish uchun chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rsatiladi. Korxonalarda chiqindi manbalari va cheklangan chiqindilar me'yoriga rioya qilinishi nazorat qilib turiladi. Umumiy nazoratni tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi amalga oshirib boradi. Cheklangan chiqindilar me'yori atmosferadi ingridientlarning haroratiga qarab, manbaning turiga qarab cheklangan chiqindilar me'yori turli formulalar bo'yicha aniqlanadi. M: yaqin joylashgan truba tashlaydigan chiqindilar uchun cheklangan chiqindilar me'yori quyidagicha aniqlanadi.

$$ChChM = \frac{(ChChM - C_\phi) \cdot N^2}{A \cdot F \cdot m \cdot n \cdot r} \cdot \sqrt[3]{\frac{V\Delta T}{N}}$$

Bu yerda:

C_f -foniy konsentratsiya

N -trubalar soni

V -tutun gazlarning hajmi- m^3/s

ΔT -chiqindi va atrof muhit o'rtasidagi haroratlar farqi.

Ar -Noqulay ob-havo sharoitini va rel'ef ta'sirini harakterlovchi koeffitsienti

F -Ingridientlarni cho'kish (tinishini) aniqlovchi koeffitsient (gazlar uchun

F q 1)

n,m -Yordamchi parametrlar.

C_f -Kuzatuvchi natijasida yoki hisoblash bilan aniqlanadi.

Atrof muhit ifloslanishining monitoring monitoring-atrof muhit holatini kuzatish, nazorat qilish tizimi bo'lib, 3 bosqichdan iborat: 1.Kuzatish, 2-holatini baholash; 3-bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarini prognoz qilish.

Monitoring-antropogen o'zgarishlar hamda tabiiy, kam o'zgargan tabiatni (antropogen o'zgarishlarini baholashda ob'ekt bo'lishi uchun) kuzatishni amalga oshiradi. Monitoring tizimda 3 ta daraja bor: ***sanitar-taksik, ekologik va biosfera monitoringi***.

Sanitar-taksik monitoring-atrof muhit sifat holatini asosan tabiiy resurslarni zararli ingridientlar bilan ifloslanish darajasini kuzatadi. Bu jarayonlarni odam, hayvonot va o'simlik dunyosiga ta'sirini hamda shovqin, allergen, chang, patogen, mikroorganizmlar, noxush hidlar qurimini aniqlaydi. Havo tarkibidagi SO_2 , NO_2 CO_2 og'ir metal har xil neft va organik birikmalar bilan ifloslanishi darajasini nazorati bilan shug'ullanadi.

Ekologik monitoring - ekologik tizimlarda (biogeotsenozlarda) tabiiy komplekslarda o'zgarishlarni aniqlash, foydali qazilma zahiralari suv, tuproq va o'simliklardan iborat. Tabiiy komplekslarning, biogeotsenozlarning buzilish darajasi, buzilmagan ekosistemalarning belgi va xarakteriskalarini solishtirishga asosan hisobga olish mumkin. M: (tuproq unumdarligini pasayishi, botqoqliklarni paydo bo'lishi).

Biosfera monitoring - tabiatdagi global foniylar o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. (m: radiatsiya darajasini, atmosferadagi CO_2, O_3) issiqlik, changlanish darajasi, okean va yerning havo qobig'i orasidagi cho'llar tsirkulyatsiyasi, qushlar, sut emizuvchilar, baliqlar, hashorotlarni atrof muhit ta'sirlariga nisbatan moslashish jihatlari kuzatiladi. Atrof muhit holati nazoratining xalqaro monitoringi-tabiatda antropogen faktorlar kuchayganligi sababli butun dunyo bo'yicha sistematik kuzatuvarlar zarurligi 60-yillarga kelib aniq bo'lib qoldi. Chunki havoga, suvgaga tashlangan chiqindilar chegara nima ekanligini bilmaydi.

Ular bir davlatdan boshqasiga o'tishi mumkin. Shuning uchun atrof muhit muhofazasi masalasi tor masala bo'lmay, global masala bo'lib qoldi.



Savol va topshiriqlar

1. Kimyoviy ishlab-chiqarishni atrof-muhitga qanday ta'siri mavjud?
2. Sanitar himoya zonalari deganda nimani tushunasiz?
3. Kimyoviy mineral o'g'itlarning qanday guruhlari mavjud?
4. Kimyoviy ishlab-chiqarish va atrof-muhit muammolarini mohiyatini tushuntiring?
5. Azotli o'g'itlarni atrof-muhitga ta'siri hozirgi vaqtda qanday ko'rinishda?
6. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning atrof-muhitga ta'sirini tushuntiring?
7. O'simliklarni biologik himoya qilish chora-tadbirlarini izohlang?




9-§. Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish

Mavzu rejasi

1. *Suvni tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati;*
2. *Chuchuk suv muammosi;*
3. *Suvni ifloslanish manbalari va uni muhofazasi;*
4. *Suvni tozalash usullari va inshoatlari;*
5. *O'zbekiston suv havzalarining ekologik holati.*


Biosferadagi jarayonlar va insoniyat jamiyatida suv katta ahamiyatga ega. Suv - vodorod bilan kislorodning birikishidan hosil bo'lgan suyuq, rangsiz modda. Suv vazniga ko'ra 11,11% vodorod va 88,89% kislorod mavjud. Bu murakkab mineral tabiatda turli (gaz, suyuq va qattiq) hollarda mavjud bo'lib, modda va energiya aylanma harakatida katta rol o'ynaydi. Suvning uch xil agregat holatida bo'lishi Yer sharining turli hududlarida ob-havo va iqlim sharoitlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Suv resurslariga daryo, ko'l, suv omborlari,

kanallar, botqoqlik, dengiz va okean, yer ostidagi suvlar, tuproq namligi, qutb va tog'lardagi muzliklar, hattoki atmosferadagi bulutlar va namliklar ham kiradi.



Yer kurrasidagi suvlardan iborat bo'lgan qobiq gidrosfera deb ataladi. Unga sayyoramizdagi barcha suvlari—okean, dengiz, ko'l, daryo, muz, botqoqlik va 5 km gacha chuqurlikda bo'lgan yer osti suvlari kiradi. Yer yuzasidagi suv miqdorini 100% deb olsak, shuning 93,96% ini, sho'r okean va dengiz suvlari, 4,12% ini yer osti suvlari, 1,65% ini muzliklardagi suvlari, 0,026% ni ko'l suvlari va chuchuk suv miqdori 84 million 827,2 ming km³ ni tashkil etadi yoki butun gidrosferadagi umumiy suv miqdorining 6% i demakdir. Gidrosferadagi suv doimo harakatda bo'lib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib aylanib turadi. Suv — Yer sharidagi barcha organizmlarning hayoti uchun zarur bo'lgan muhim mineraldir. Suv kundalik hayotimizda foydalaniib kelinayotgan boshqa tabiiy resurslardan farqlanib turadi. Chunki kishilik jamiyatida suvning o'rnini bosadigan boshqa hech qanaqa resurs yo'qdir. Bu esa suvning bebaho ekanligidan darak beradi

Suv resurslarini qit'alar bo'yicha taqsimlanishi (ming, km³)



Biz bu o'rinda suvning haqiqatan ham bebaho ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz va ko'pgina kishilar uning bu xususiyatini ko'pincha tasavvur qilib ko'rmasalar ham kerak. Aks holda suvni ortiqcha sarflab uvol qilmagan bo'lar edilar yoki bo'lmasa suvning ifloslanishiga yo'l qo'yagan bo'lar edilar.

Suvsiz hayot yo'q. Chunki o'simlik tanalarining 80-85 foizi, hayvon organizmlarining 60-75 foizi, meduza tanasining 99,7 foizi suvdan iborat. Yangi tug'ilgan chaqaloq tanasining 70 foizini, katta yoshdagi kishi organizmining 65 foizini suv tashkil etadi. 70 kilogramm og'irlikdagi o'rta yoshdagi kishining 45 kg.i suvdan iborat. Suv inson tanasining hamma a'zosida uchraydi, xatto suyakning 25 foizini ham suv tashkil etadi. Inson iste'mol qiladigan sabzavot tarkibida 78-90 foiz, sutda 89 foiz, go'shtda 50 foiz suv bor. Suv - yer yuzasidagi turli iqlimni vujudga keltirishda asosiy omillardan biri, suv bug'lari esa alohida ahamiyatga egadir. Atmosfera suvlarisiz joyning ob-havosini tasavvur etib bo'lmaydi. Havoda suv bug'larining miqdori yer yuzasi va yil fasllariga bog'liq: ekvator havosida suv bug'lari eng ko'p bo'lsa, qutbiy o'lkalarda eng kam bo'ladi. Yer yuzasidan yiliga 525100 ming km³ suv bug'lanib, atmosfera havosi namligining asosiy manbai hisoblanadi. Atmosferadagi namlik bulutlarni vujudga keltiradi. Ba'zi bulutlarda yuzlab tonna suv bo'ladi. Bu ulkan suv massalaridan iborat bo'lgan nam havo oqimlari Yer yuzasida bir yerdan ikkinchisiga ko'chib joylarga namgarchilik keltiradi, joyning havo xaroratiga ta'sir ko'rsatadi. Okean va dengizlar yuzasidan bug'langan namlik kondensatsiya jarayonida suv tomchilariga aylanadi va bevosita okean va dengizlarga tushib, suvning kichik aylanma harakatini hosil kiladi.

Atmosferaning xilma-xil yog'inlari quruqlik yuzasiga tushib tuproq namligiga, oqimga, ko'l va botqoqlikka, muzlikka aylanadi. Namlik yana bug'lanib, ba'zi yerga singan va singmagan qismlari suv oqimini vujudga keltirib, dengiz va okeanlarga qayta tushib, Yer sharida suvning katta aylanma harakatini hosil etadi. Suvning aylanma harakati jarayonida okean suvining to'la almashinishi 3000 yil davom etadi (7-jadval).

7-jadval

Gidrosferadagi suvning hajmi va uning tiklanishi faolligi

№	Suv resurslari manbalari	Suv hajmi, km³	Suv balansi elementi, km³/yil	Suv zahirasining davri, yil
1.	Dunyo okeani	1370000000	452000	3000
2.	Yer osti suvlari	60000000	12000	5000
3.	Qutb muzliklari	24000000	3000	8000
4.	Quruqlikdagi yer usti suvlari	280000	40000	7
5.	Daryolar	1200	40000	0,030
6.	Tuproqdagagi namlik	80000	80000	1
7.	Atmosfera bug'lari	14000	525000	0,027
	Gidrosfera	1454000000	525000	2800

Yog'in quruqlik va okeanlar yuzasiga turli miqdorda tushadi va bug'lanadi. Masalan, okean yuzasiga tushadigan yog'inning o'rtacha miqdori 107-114 sm, bug'lanish esa 116-124 sm, quruqlikka esa o'rtacha 71 sm yog'in yog'ib, 47 sm suv qayta bug'lanadi, qolgan 24 sm suv quruqlikdan daryolar orqali dengiz va okeanlarga quyiladi.

Atmosfera namligi suv va energiya almashinuvida faol ishtirok etishi bilan bir qatorda, turli og'irlikdagi modda zarrachalarini o'zi bilan birga olib yuradi. Havoga ko'tarilgan tuproq zarralari shamol ta'sirida uzoq masofalarga olib yuradi. Havoga ko'tarilgan tuproq zarralari, dengiz to'lqini ko'pigidan chiqqan tuz zarralari shamol ta'sirida uzoq masofalarga olib ketiladi. Hisoblarga qaraganda, birgina Orolbo'yi hududiga chang-tuz zarrachalari 1993 yilda har gettar maydonga 520 kg, Orol dengizi qirg'oq bo'ylariga 260-800 kg, dengiz suvidan holi bo'lган, ya'ni qurib qolgan yerlarga gettariga 1000 kg.gacha tushadi. Suv qudratli kuchga ega. Yerning hozirgi orografik xususiyati va rel'efi suvning uzluksiz faoliyat natijasida shakllandı va yana murakkablashdi. Suv qattiq jinslardan tuzilgan tog' tizimlarini yemiradi. Toshlar orasiga kirib qolgan suvlar muzlaganda yoriqlarni kengaytirib, mustahkam granit va bazaltlarni ham yorib yuboradi. Suv kuchli erituvchan bo'lib, u tabiatda kimyoviy jihatdan toza holda uchramaydi. Suv qattiq


tog' jinslarni hosil qilgan minerallarni yemirib, eritib vodiylarga yotqizadi. Masalan, Amudaryoning birgina irmog'i Vaxsh har 1 km² suv yig'ilish maydoni yuzasidan yiliga 2680 tonna loyqa ozuqalar va jinslarni yuvib ketadi. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda bundan ko'proq yuviladigan joy bo'lmasa kerak. Organik dunyo va insoniyat jamiyatini suvsiz tasavvur qilish qiyin. Suv organizmlardagi biofizik va biokimyoviy jarayonlarda hamda ularni yashash muhit sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Inson o'z tanasidagi namlikni bir xil bo'lishiga harakat qiladi, chunki kishi tanasidan 12 foiz namlik yo'qolsa, odam halok bo'ladi. Inson suvsiz bir necha kungina yashashi mumkin, uning suvga bo'lgan bir kunlik fiziologik talabi 2,5 litrga teng. Bu raqam ish sharoitiga, tashqi muhit va havo haroratiga qarab farq qilishi mumkin. O'simliklarda ham suvga talab katta. Suv o'simliklarni issiqlidan, jazirama kunlarda qurib qolishidan saqlaydi. Urug'dan ko'kargan vaqtdan boshlab o'simlikning suvga bo'lgan talabi orta boradi. Masalan, birgina kungaboqarni voyaga yetkazish uchun 40 litrcha, 1 gramm quruq beda tayyorlash uchun 500 gramm suv kerak bo'ladi. Olinadigan hosilning har tonnasi uchun bug'doyga 1500 t, sholiga 4000 t, paxtaga esa 10000 t suv sarflanadi. Sutkasiga bir bosh karam bir kilogramm suvni o'zidan o'tkazadi. O'simliklarni suv bilan ta'minlab turishda tuproq xususiyati alohida ahamiyatga ega. Chunki o'simlik namni tuproqdan oladi. O'simliklar namni tanasiga, so'ngra bargiga etkazib beradi va bug'latib yuboradi. Tuproqdagi namlik miqdori tuproqning mexanik tarkibiga, joylashish hududiga va rel'efga bog'liqdir. Masalan, 100 kg qumoq yerda 25 kg, 100 kg loyda 70 kg namlik bo'ladi. Tuproqdagi namlik bir yilda yangilanib turadi, daryodagi suvlar 12 sutkada (yiliga 30 marta), atmosferadagi bug' - 9 sutkada (yiliga 40 marta) butunlay almashinib turadi. Hozirgi vaqtda toza suvga bo'lgan ehtiyoj juda tezlik bilan ortib bormoqda, chunki insonning xo'jalik faoliyatini toza suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat suvni borgan sari o'z ehtiyoji uchun ko'p sarflamoqda (aholini suv bilan ta'minlashda, sanoatda, elektroenergiya olishda, sug'orish va o'zlashtirishda, transport, baliqchilik va boshqalar). Suvdan foydalanmasdan rivojlanadigan xo'jalikning biror sohasi yo'q.

Chuchuk suv muammosi. Keyingi vaqtarda Yer yuzi aholisining chuchuk suv bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki, aholi tez sur'atlar bilan o'sishi, sanoat va qishloq xo'jaligini shiddat bilan taraqqiy etishi suvga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Sanoat tarmoqlarida qora metallurgiya, rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo, tsellyuloza - qog'oz sanoati ayniqsa suvni ko'p ishlatadi. Yer sharida chuchuk suvga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda, gidrosferaning faqat 2 foizini tashkil etuvchi chuchuk suv daryo, ko'l, aktiv suv almashinish zonasidagi yer osti suvlari, muzliklarda mujassamlashgan. Chuchuk suv resurslarining $24,0 \text{ mln.km}^3$ hozircha insoniyat juda kam foydalanyotgan muzliklarga to'g'ri keladi. Chuchuk suvga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shaharlarda 1 kishi sutkasiga 400-600 litr, qishloqlarda esa 100-200 litr suv sarf qiladi (vodoprovod yo'q yerlarda 30-50 litrga to'g'ri keladi). Toshkent shahrida jon boshiga sutkada maishiy xo'jaliklar uchun 300 kub litrgacha suv sarflansa, bir yilda 0,2 kub km dan ortiq suv kerak bo'ladi. Bu Chirchiq daryosining yillik suv miqdorining fakatgina 3 foizini tashkil etadi (Chirchiq daryosining yillik suv miqdori 6,9 kub. km).

Chuchuk suv zaxirasi boyicha dunyoning eng yirik mamlakatlari (ming m^3)

■ Braziliya ■ Rossiya ■ Kanada ■ Xitoy ■ Indoneziya



O'rta Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari asosiy suv manbalari hisoblanib, ular ekinlarni sug'oradi va aholining ehtiyoji uchun sarflanadi. O'zbekistonda Amudaryo va Sirdaryodan tashqari yana Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron kabi daryo suvlaridan foydalilanadi (Amudaryoning tog'lik hududi suv yig'ish havzasi - $227,0 \text{ ming km}^2$, suv sig'imi

78 km³, uzunligi 1440; Sirdaryoning suv yig'ish havzasi 150 km², suv sig'imi 36 km³, uzunligi 2140 km).

O'zbekiston hududida 95 ta yer osti suvlari koni mavjud. Umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha chuchuk yer osti suvlarining eng ko'p miqdori Toshkent (7375,19 ming m³/sut), Samarqand (357-47,58 ming m³/sut), Surxandaryo (3373, 75 ming m³/sut), Namangan (3312,58 ming m³/sut), Andijon (3184,7 ming m³/sut) viloyatlarida mujassam. Buxoro (64,8 ming m³/sut), va Navoiy (72,58 ming m³/sut) viloyatlari chuchuk yer osti suvlari bilan ta'minlangan. Suvdan xo'jaliklarda foydalanish ikki guruhga bo'linadi:

1) tabiiy manbalardan suv olib foydalanish yoki suv iste'mol qilish. Bunga aholini, maishiy-kommunal xo'jaligini, sanoatni va qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash kiradi; 2) tabiiy manbalardan suv olmasdan foydalanish yoki oqimdan foydalanish. Bunga kema qatnovi, gidroenergiya olish, baliqchilikda foydalanish va yog'och oqizish kiradi.

Hozir O'zbekistonda turli sohalar uchun yiliga 75 km³ suv sarflanmoqda. Shuning yarmidan ko'pi sug'orishga, qolgan qismi sanoat, kommunal xo'jalikda va boshqa sohalarda ishlataladi. Sug'orishga olingan suvning faqat 12 km³ qaytarma suvga aylanadi, qolgan qismi butunlay sarflanib ketadi. O'zbekiston Respublikasida olingan chuchuk suvning 92 foizi qishloq xo'jaligida, 6 foizi sanoatda, 0,5 foizi kommunal xo'jaligida, 1,5 foizi bug'lanib ketadi. Turkmanistonda esa olingan chuchuk suvning 72 foizi qishloq xo'jaligida, 2 foizi sanoatda, 0,5 foizi kommunal xo'jaligida sarflansa, 25,5 foizi bug'lanib ketadi.

Chuchuk suvning yetishmaslik sabablari:

1. Xo'jalik tarmoqlari va aholini tez o'sishi tufayli suv resurslari ko'p sarf bo'ladi;
2. Daryoning suv yig'adigan havzalarida o'simliklarni qirqish, yerlarni haydash, botqoqliklarni quritish va boshqalar sababli suv to'planishining qisqarishi;
3. Chuchuk suv resurslarini sanoat, maishiy-kommunal, qishloq xo'jaligi va boshqa chiqindi, oqava suvlar bilan ifloslanishi.

Suv resurslarini ifloslantiruvchi asosiy manbalar. Suv resurslarini ifloslanishi deganda biz har xil organik, noorganik, mexanik, bakteriologik va boshqa moddalar to'planib qolib, uning fizik xossalari (rangi, tiniqligi, hidi, mazasi) va kimyoviy tarkibining (reaktsiyasi o'zgaradi, organik va mineral qo'shimchalar ortib, zaharli birikmalar paydo bo'lishi) o'zgarishini, suvning yuzasida har xil moddalar suzib, tagiga cho'kaverishi, suvning tarkibida kislorodning kamayib ketishi, bakteriyalar ko'payishi, yuqumli kasalliklar bakteriyalarini paydo bo'lishini tushunamiz. Suvning ifloslovchi manbalar orasida eng muhim o'rinni sanoat ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan va maishiy kommunal xo'jalikdan chiqqan oqova suvlar egallaydi.

Sanoat va maishiy-kommunal xo'jalik korxonalaridan, davolash-sog'lomlashtirish va boshqa tashkilotlardan chiqadigan iflos oqava suvlar; yuvuvchi sintetik moddalar; rudali va rudasiz qazilma boyliklarining qazib olinishidagi chiqindilar; shaxtalarda, konlarda, neft korxonalarida ishlatilgan va ulardan chiqqan iflos suvlar; yog'och tayyorlash, uni qayta ishlash va suvda oqizishda, tashishda hosil bo'lgan chiqindilar; chorvachilik fermerlari va majmualaridan oqib chiqadigan iflos suvlar; zig'ir va boshqa texnik ekinlarni birlamchi ishlov berishdan chiqqan chiqindilar; ekinlarni sug'orish natijasida vujudga kelgan oqava - tashlandiq va zovur suvlar; har xil mineral va organik o'g'itlar hamda ekinlar zararkunandalariga sepilgan zaharli ximikatlar ishlatilgan dalalaridan oqib chiqadigan suvlar; shahar, ishchi shaharchalari va qishloq hududidan oqib chiqadigan (yog'in suvleri) suvlar; elektr stantsiyasidan chiqqan issiq suvlar; radioaktiv ifloslanish va boshqalar. Sanoat chiqindi suvlarida tirik organizmlar uchun xavfli bo'lgan har xil kislotalar, fenollar, vodorod sulfati, ammiyak, mis, rux, simob, tsionid, mishyak, xrom va boshqa zaharli moddalar, yog', neft mahsulotlari, har xil biogen moddalar mavjud bo'lib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqava suvlar bilan birga daryo, ko'l va suv omborlariga borib qo'shiladi.

O'zbekiston suvleri va suv havzalari antropogen ifloslanishiga qarab 6 tipga bo'linadi: 1. Toza suv oqimlari va suv havzalari. Ular asosan tog'lik

hududlarda joylashgan bo'lib, suvda mineral zarralari kam, biogen elementlar va organik qo'shilmalar kam uchraydi. Suv havzalariga xos bo'lgan og'ir metallar va pestitsidlarga o'xshash zararli moddalar me'yordan oshmagan (PDK). Pskom, Oqbuloq, Qizilsoy, Toshkeskan, Tepekli, Oqsu.

2. Tog' oldidagi sust ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Rekreatsion ob'ektlar va kichik aholi punktlari ta'sirida ifloslangan. Oqtoshsoy, Ugom, Ohangaron (Angrendan yuqori), G'ovasoy, Qashqadaryo, Omonqo'ton, Sazagan, Chorvoq va Hisor suv omborlari.

3. O'rtacha ifloslangan tog' oldi va tekislikdagi suv oqimlari va suv havzalari. Ular ko'pgina aholi zich joylashgan yerlarda mavjud. Biogen, mineral, organik moddalar me'yordan 2-3 barobar ortiq. Og'ir metallar va neft mahsulotlari me'yordan ortiq. Chirchiq, Ohangaron (o'rta oqim), Salarni yuqori qismi, Qorasuv kanali, Qo'qonsoy, Norin, Qoradaryo, Isfaramsoy, Marg'ilonsoy, Zarafshon (Samarqanddan yuqori), Tuyabo'g'iz, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Qayroqqum, Tuyamo'yin suv omborlari, Sirdaryo (Farg'ona vodiysi), Amudaryoni (Termiz-Nukus) o'rta va quyi oqimlari.

4. O'rtacha ifloslangan va ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar qishloq xo'jaligida foydalanayotgan qadimgi sug'oriladigan yerlarda uchraydi. Sanoat oqiziqlari, suvda azot minerali, organik modda uchraydi. Me'yordan 3-4 barobar og'ir metall, neft qoldiqlari va pestitsidlar uchraydi. Chirchiq (Chirchiq sanoat kompleksidan quyi), Qo'qonsoy (Qo'qonning quyi qismi), Shimoliy Bog'dod, Siab kollektorlari va boshqalar.

5. Iflos suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan sho'r tuproqli qishloq xo'jalik yerlarida, yuqori minerallashgan suvli yerlarda joylashgan. Yirik aholi punktlarini quyi qismida joylashgan. Bu toifaga kiruvchi suvlar, Amudaryoni - Orolbo'yi zonasasi, Buxoro vohasi, Mirzacho'l massivi va Farg'ona vohasi.

Biologik mineral, organik moddalar og'ir metallar va neft qoldiqlari me'yordan 3-5 barobar ko'p. Keyingi vaqtarda og'ir metal ionlari (mis, xrom va boshqalar) ko'plab uchramoqda. Ular Toshkent shahrini quyi qismida Qorasuv (o'ng qirg'oq), Ohangaron, Chirchiq daryolari.

Suv orqali o'tadigan kasalliklar

Ifloslovchi bioagent	Kasalliklar	Kasallik belgilari
Bakteriyalar	Vabo	Ichburug', kungil aynishi
	Tif	Ichburug', kungil aynishi, taloq kattalishi, ichak yallig'lanishi (davolash o'z vaqtida bo'lmasa o'lim bilan tugaydi)
	Bakterial dizenteriya	Ichburug'
Viruslar	Ichak yallig'lanishi	Qorin sohasida o'tkir og'riq, kungil aynishi
	Infektsion gepatit	Harorat ko'tarilishi, bosh va qorin sohasida og'riq, sariqlik, ishtahaning yo'qolishi, jigarning kattalashishi
Sodda hayvonlar	Poliomelit	Harorat ko'tarilishi, bosh, tomoq, muskullarda sohalarida og'riq
	Dizenteriya	Ichburug', bosh va qorin sohasida og'riq (davolash o'z vaqtida bo'lmasa o'lim bilan tugaydi)
Parazitlar	Shistosomiaz (shistosomatoz)	Qorin sohasida og'riq, kamqonlik, teri va ichki organlarni shikastlanishi, sog'likning surunkali pasayishi

6. Iflos, juda iflos suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar yirik aholi punktlariga, shaharlariga to'g'ri keladi. Uning suvlarida ko'p miqdorda turli zaharli moddalar uchraydi. Og'ir metal me'yordan 40-50 barobar ortiq. Bundaylarga qolgan Chirchiq (Salardan keyin), Salar (Toshkent va Yangiyo'ldan so'ng).

Suv kishi salomatligida va uning xo'jalik faoliyatida katta ahamiyatga ega. Aks holda iflos suv turli negativ oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kasalliklarni paydo qiladi, tarqatadi; sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi, mahsulot sifatini pasaytiradi, qimmatbaho asbob-uskunalarini ishdan chiqaradi, gidrotexnik, temir-beton inshootlarini, suv quvurlarini yemiradi va juda katta iqtisodiy va ma'naviy zarar yetkazadi.

Suv havzalarining antropogen, ifloslanish manbalaridan quyidagilarni sanab

o'tish mumkin. Bularga sanoat va maishiy xo'jalik korxonalaridan, davolash-sog'lomlashtirish va boshqa tashkilotlardan chiqadigan iflos oqava suvlar, yuvuvchi sintetik moddalar, ruda, shaxta, neft konlarida yuvilish natijasida oqiziladigan iflos suvlar, avtomobil va temir yo'l transportidan chiqqan suvlar, yog'och tayyorlash, uni qayta ishslash va tashishda hosil bo'ladigan chiqindilar, chorvachilik fermalari va majmuilaridan oqib chiqadigan iflos suvlar, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish natijasida vujudga kelgan oqava tashlandiq va zovur suvlar, zaharli kimyoviy moddalar ishlatilgan dalalardan oqib chiqadigan suvlar, shahar va qishloq, ishchilar shaharchalari hududidan oqib chiqadigan suv manbalarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu o'rinda respublikamiz hayotiga doir ba'zi bir raqamlarni ko'rsatib o'tish o'rinnlidir. Masalan, daryo va ariqlardagi suv tarkibida kaliy, kaltsiy, fosfor organik moddalar, azot birikmalarining miqdori yildan yilga ko'payib bormoqda. Salor arig'i, Chirchiq, Zarafshon daryolari va boshqa bir qancha suv manbalarida salomatlik uchun xavfli moddalar ko'p miqdorda uchraydi. Suv manbalarini ifoslantirmaslikka da'vat qiladigan targ'ibot ishlar ko'lami va samarasи juda ham past darajada. Vaholanki, ifoslangan suvlarni tozalash choralarini qo'llash natijasida bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish mumkin, albatta. Bunday tozalash usullaridan mexanik, kimyoviy va biologik tozalash usullari mayjuddir. Demak, biz shu usullardan unumli foydalanib ish ko'rishga juda katta e'tibor berishni unutmasligimiz kerak. Afsuski, hozirgi kunda bunday usullardan to'la foydalanib samarali ishlar qilayotirmiz deb bo'lmaydi. Kelgusida toza suv tanqisligi sezilib qolgudek bo'lsa, insoniyat bir qancha qo'shimcha choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Bunday choralar qatoriga yer osti suvlaridan foydalanish, muzlik suvlardan foydalanish, dengiz va okean suvlarini chuchuqlashtirib foydalanish va nihoyat yomg'ir suvlaridan foydalanish kabi vazifalar kiradi.

Respublikamizdagi eng katta suv omborlaridan bo'lgan Qayroqqum, Chorvoq, Andijon, Kattaqo'rg'on, Janubiy Surxon va boshqalarda chuchuk suvlarning bir qismini saqlash muhim ahamiyatga ega. Hozir bunday suv omborlarida 20 km^3 ga yaqin chuchuk suv to'plangan. Lekin kelajakda suv

havzalaridan tejamkorlik bilan foydalanilmasa, Sirdaryo va Amudaryo suvlarining ko'p qismi uvol qilib yuborilsa, Orol dengizining sathi yanada pasayib borishi mumkin. Natijada ekologik vaziyat buzilib, Orolbo'yidagi aholi boshiga yanada ko'proq falokatlar yog'ilishi mumkin. Shu sababli ham hozirgi kunda Orol muammosini ijobiy hal etish uchun respublika prezidenti va hukumati juda jiddiy tadbirlar ko'rmoqda. Bu sohada respublikamizning jahon jamoatchiligi, olimlari va hukumatlari bilan hamkorlikda ish olib borishga harakat qilayotganligini yuqori baholash kerak.

O'zbekiston suv havzalarining ekologik holati.

Suv ekosistemasining umumiyligi yoki yomonligini integral ko'rinishi suv biotsenozining holati hisoblanadi va turlar tarkibi va uning strukturasi gidrogeologik va gidroximik rejimlari, umuman atrof-muhit holati bilan to'liq bog'langan. Afsuski, suv biotsenozining kam o'rganilganligini yoki daryo qayirlarini katta qismi bo'yicha, ko'rib chiqilayotgan regiondagи kollektor va havzalarning qayir oldida, ayniqsa ularni o'zgarishi va degradatsiyasini regional genofondi bilan qiyosiy aspekti bo'yicha informatsiyaning yo'qligini aytib o'tish lozim. Ular biologik faol komponentlar va shuning bilan bir vaqtida ekologik holatning indikatori hisoblanadi Daryolar gidrologik-gidroximik rejimini va shular bilan aloqador yer osti suvlari rejimini o'zgarishi qirg'oq bo'yi va suvoldi ekosistemasi holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Suvlarning yig'ilishiga xo'jalik faoliyati yer usti qatlami tabiiy holatini o'zgartirib, gidrometeorologik va gidroximik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi, asta-sekin kuchayib borishga olib keladi. Gidrologik tsikl xususiyati kuchi tufayli o'zgarish daryo oqimini pastki qismida asta-sekin to'planadi va kuchayadi, bu daryolarning quyilish joylari va deltalarining, oxirgi havzalarning ko'plab degradatsiyasiga olib keladi.

Mayjud informatsiyalar tahlilini ko'rsatishicha O'zbekiston suvlarining ko'pchiliginini ifloslanish indeksi suv sifatini III sinfiga to'g'ri keladi (mo'tadil ifloslangan). Ko'pchilik tog'larning suv oqimlari II sinfiga taalluqli (toza). Bularga Chotqol, Ugom, Oqtoshsoy, Qizilcha va boshqa daryolar kiradi. SHuni aytish kerakki, Chigansoyning suvini sifati har xil yillari II sinfdan (toza) III sinfigacha

(mo'tadil ifloslangan) o'zgarib turadi, bu Chimganning tabiiy joylaridagi antropogen omillar kuchini ta'siri hisobidan yuz beradi. Tekislik hududlarida, qabul qilingan klassifikatsiyaga muvofiq, respublikaning ko'pchilik suvlarining oqimi o'rta me'yorda ifloslangan yoki ifloslangan hisoblanadi. Kuchli ifloslanganlarga Qorqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona vodiysi kollektor-zovur suvlari kiradi. Juda kuchli ifloslanganlarga Toshkent viloyatining sanoat zonalaridagi ayrim suv oqimlari, masalan Chirchiq daryosi va Salar kanallarini kiritish mumkin. Respublikaning bosh suv arteriyalari ichimlik suvlar bilan ta'minlash uchun amaliy jahatdan yoroqsiz bo'lib qoldi, chunki sistemali ravishda behudaga chuchuk suvlarni kelib tushmasligi va yuqori minerallashgan sug'oriladigan yerlarni yuvilishidan hosil bo'lgan suvlarni, pestitsidlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslangan daryoga tashlanishi, sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston daryolari oqimini shakllanish zonasini, asosan uning yuqorgi qismida daryo gidrologik-gidroximik rejimi va suv va suvoldi ekosistemasining ekologik holati ko'proq bir me'yordagi hududlarga kiradi, regionda bo'lgan iqlim o'zgarishlarini bo'lishiga qaramasdan, tabiiy muhit komponentlari munosabatlarini o'zgarishiga olib keldi.

O'zbekistonda ham, regiondagi tog'li hududlarning katta qismidagi kabi muzliklarni qisqarishi bo'lgan va bo'lmoqda. Ko'p hollarda bu muzliklar oldidagi zonalarda kichik ko'llarni hosil bo'lishiga olib keladi, ularni rejimi esa barqaror emas. Bu jarayonlarni rivojlanishi maxsus monitoring sistemasini tashkil etishni talab qiladi, chunki, birinchidan, daryolar gidrologik rejimi va suv kelishi tipi komponentlarini asosiy boshqarishdan iborat, ikkinchidan, ayrim yangi hosil bo'lgan ko'llarni ushlab turadigan qatlamlarini o'pirilishi oqibatida sellar va katastrof ko'chishlarni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablar bo'lishi mumkin.

Vertikal zonallarga, geologik va tuproq sharoitlarga, namgarchilik va tog' yon bag'irlariga muvofiq daryo suvlarini mineralashuvi $100\text{-}300 \text{ mg/dts}^3$ atrofida o'zgarib turadi, biogen kontsentratlar va ifoslantiruvchi moddalar fon berish darajasida bo'ladi. Daryo va suv havzalarini shakllanishi zonalari suv oqimi uchun suvda erigan kislородни yuqori bo'lishligi xarakterlidir, bu suv biotsenozini

rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi. Daryo vodiysi kengaygan va daryo nishablarini qisqargan joylarida, daryo yo'li bo'yicha odatda o'zan o'rmonlari o'sadi. O'rmonlar gidrologik rejim va ekosistema barqarorligini boshqarishning muhim omili bo'lib qoladi. Havza yon bag'ridagi archazorlar – tog' o'rmonlarining asosiysi, ular suv to'planuvchi 1400-3000 m atrofidagi balandliklarda o'sadi. Tog'dagi yaproqli o'rmonlar 1000 dan 2500-2800 m gacha balandliklarda katta maydonni egallagan. Tog' yaproq o'rmonlarining yirik massivlari G'arbiy Tyan SHan tog'larida joylashgan. Relikt o'rmonlar grek yong'og'i, chinorlar va oddiy xurmolar formatsiyalari ko'rinishida.

Suv oqimi shakllanadigan zonalarda o'tkazilgan hidrologik va hidrobiologik kuzatishlarni ko'rsatishicha, ko'pchilik daryolarni suv oqimi shakllanadigan zonalarida, asosan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning suvini sifati toza suvlarni I va II sinfiga kiradi, ifloslanish indeksi bo'yicha hisoblaganda. Biotsenozning tur tarkibi va strukturasi tabiiy holatda bo'ladi va chuchuk suvlar ekosistemasini tabiiy holatini ko'rsatadi. Ammo rekratsion zonalarda va xo'jalik faoliyati rivojlangan hududlarda daryo va soylarning suvlarini mo'tadil ifloslangan sinfga xos bo'ladi, ayniqsa kam suvli davrlarda.

Tog' ekosistemalarining hozirgi holati murakkab tabiiy komplekslari va sotsial-ekonomik muammolari bilan xarakterlanadi, shularni orasidan quyidagilarni ajratish mumkin:

- Antropogen ta'sirlarga munosabati bo'yicha nisbatan barqarorligi kuchsiz ekosistemalar;
- Siyrak o'rmonli tog' (15% past) va yuqori degradatsiyaga uchragan yaylovlari;
- Suv yig'iladigan hududlar qismini, shunga uxshash suv resurslarini sanoat ishlab chiqarish chiqindilari va rekratsiyadan ifloslanishi.
- Negativ ekzogen jarayonlarga uchragan hududlar (20% ko'proq hududlar tuproqning eroziyasiga, ko'chish, siljish, sellar o'tadigan hududlarda mujassamlangan).

Tog' ekosistemalari holatiga ta'sir etuvchi hidrometeorologik omillar

orasidan landshaftlar zonasini joyini balandlik chegarasini, iqlim o'zgarishidan kelib chiqib, jumladan havo haroratini ko'tarilishini, tog' muzliklarini kamayishini, muz oldi zonalarda katta bo'limgan ko'llarni vujudga kelishini, tog'larda yaratilgan suv omborlarini ekspluatatsiya qilish natijasida daryolar gidrologik rejimini o'zgarishini ajratish kerak.

Tranzit suv oqimi zonasida ekosistemaning holati. Sug'oriladigan dehqonchilikni ekstensiv rivojlantirish yo'li ilgari qabul qilganidek, zaharli ximikatlarni haddan ziyod qo'llanishi, sho'rланishi, botqoqlanishi, tuproq eroziyasi, suvning ifloslanishi, daryo suvlarining boshqarilishi, yaylovlardan unumsiz foydalanishi, o'rmonlarni va to'qay o'simliklarini yo'q qilinishi va boshqalar turlar arealini, yashash joylarini va sonini qisqarishiga olib keldi. Katta o'zgarishlar tekisliklar, suv va suvoldi ekosistemalarida yuz berdi.

Daryolar gidrologik rejimini o'zgarishi natijasida chuchuk suvlar va daryo suvoldi ekosistemalarining maydoni kamaydi. Ularni maqomi ham o'zgarmoqda. Daryolarning quyi oqimi va deltalari ma'yuslik holatga kelib qoldi, kam suvlilik davrlarda butunlay qurib qoladi. O'zbekistonning tekisliklardagi ko'llarning ustki qismining umumiyligi maydoni, Orol dengizining degradatsiyasini hisobga olganda 20 martadan ko'proqga qisqardi. Bundan tashqari, daryo suvlarining minerallashuvini va uning sifatini buzilishi suv resurslarini biologik potentsial foydali koeffsentini kamayishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston ko'l havzalarining umumiyligi fondi sho'r suvli ko'llar hisobiga o'sdi. Serovodorodli ifloslangan suv havzalarining soni va maydoni ko'paydi.

Tog' oldi zonasida va tekislikga chiqqan katta bo'limgan va o'rtacha daryolar, hamda tranzit oqib o'tadigan suvlarning katta qismi mo'tadil ifloslanganligi bilan xarakterlanadi. Ular uchun tarkibida biogen va ifoslantiruvchi moddalar foniga nisbatan 2-3 marta ko'payganligi xarakterli. Suvning minerallanishi $0,5 - 0,8 \text{ g/dts}^3$ gacha o'sadi, tarkibida og'ir mettallar, neft mahsulotlari va pestitsidlar ko'tariladi. Yirik daryolar jadal suratlar bilan xo'jalik oborotiga kiritiladi va ko'proq hollarda suv xo'jaligi sistemasining asosiy qismi bo'lib qoladi. Daryolarning hidrologik rejimi to'liq o'zgaradi va xo'jalik faoliyatini

aniqlanadi. Ximiya va yer osti boyliklarini qazib olish sanoati rivojlangan vohalardagi daryolarda ahvol keskinlashadi. O'zbekistonning yirik daryolari suvlarini tranzit oqib o'tadigan zonasasi – bu Amudaryo va Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va Surxandaryo quyi oqimi vodiysining tekislik bo'limlari. Bu daryolarning suv va suvoldi ekosistemasining tranzit bo'limlari dominant tipi to'qaylar, qamishli chakalakzorlar, daryo suvlari va ochiq sayozliklar. Daryolarning tranzit oqib o'tish bo'limida ko'p yilliklar suv sarflanishining qisqarishi sayozlanishga, o'tkazib yuborish imkoniyatini kamayishiga, balchiqlanishga olib keladi. Hozirgi vaqtida to'qay massivlari tor mintaqada yoki orol ko'rinishida Amudaryo vodiysida va deltasida saqlangan, Sirdaryo va boshqa katta daryolar vodiysida uchraydi. Daryolar va ochiq sayozliklar noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlarning yashash joylari hisoblanadi.

Chirchiq daryosi vohasi. Chirchiq daryosi Sirdaryoning o'rta oqimidagi yirik o'ng irmog'i. Chorvoq suv omborining pastidan boshlanib to'liq O'zbekiston hududi bo'yicha oqib o'tadi. Daryoning suv resurslari Chirchiq-Angen irragatsion rayonida sug'orish, sanoat va shahar suv ta'minotida foydalaniladi. Chirchiq-Angen irragatsion rayoni hududida yirik shaharlar (Toshkent, Chirchiq, Angren), tog' yer osti boyliklarini qazib oluvchi, qayta ishlovchi va kimiyaviy korhonalar joylashgan. Daryolar rejimini qayta boshqarilishi natijasida o'rta va quyi oqimida minimal sarflanishi yoz davriga to'g'ri keladi. Bu davrda suv oqimi va suv alashuvini kamayishi birlamchi mahsulotlarni rivojlanishiga va qizib ketishga olib keladi. Organik moddalar produtsenlarni tabiiy qirilib ketishidan chiriydi, suvlarni ikkilamchi ifloslanishi yuz beradi. Suvning sifati bu davrda ifloslangan sinfga kiradi. Chirchiq daryosining quyi oqimida ifloslangan va evtoroflashgan suvlarda yashaydiganlarga xos suv giatsinti, ryaskalarning rivojlanish bu jarayonlarning indikatori bo'lib xizmat qiladi. Daryo suvi sathining yuqori darajadagi farqi namlik sevar qirg'oq bo'yi o'simliklari holatini so'nishiga sabab bo'ladi. Suv havzalarida baliq resurslarini kambag'allashishiga olib keldi.

Sirdaryo havzasi. Tranzit oqib o'tish zonasida daryoning mineralizatsiyalanishi vaqt va uning uzunligi bo'yicha oshib boradi. Norin daryosi

suvining mineralashganligiga nisbatan Sirdaryoning o'rtacha yillik mineralashuvining o'lchami Kal qishlog'i darvozasidayoq ikki martaga oshadi. Nadejdinskiy posyolkasiga kelib suvning mineralashuvi yana 20% ga o'sadi. Suv oqimi bo'yicha pastda Chirchiq daryosidan kam mineralashgan suvni kelib tushishi natijasida mineralashishning o'sishi bir muncha kamayadi. Yilning katta qismida Sirdaryoning o'rta oqimidagi suv mo'tadil ifloslanganlikga kiradi.

Keyingi yillarda gidrologo-gidroximik holatni o'zgarishi davom etmoqda. Qator suv omborlarini ekspluatatsiya qilishning energetik rejimiga o'tishi Sirdaryoning o'rta oqimida gidrometriologik sharoit o'zgardi. Yo'nalihsining almashishi natijasida to'lган holdagi suv omborlarni ekspluatatsiya qilish davri ko'tarildi. Qish davrida suv omborlaridan suvni qo'yib yuborish o'sdi.

Sirdaryoning o'rta oqimida maksimal suvning sarflanishi vegetatsiya davrida emas, balki qishki-bahorgi fasllarda shakllanmoqda, bu daryoning tabiiy rejimi uchun xarakterli bo'lgan. Keyingi yillarda qishki maksimum yozgiga nisbatan ko'paydi, faqat suv ko'p bo'lgan yillar ularning kattaliklarini taqqoslash mumkin.

Suv omborlarini vaqtli to'lishi va qish oylarida suvlarni ko'p oqib kelishi, hamda Sirdaryo qayirini suv o'tkazib yuborish imkoniyatini etishmasligi, uni quyi oqimida Arnasoyga suv tashlashni qaytadan tiklanishiga sabab bo'ldi.

Gidrologik rejimni va suv sifatini o'zgarishi baliqlarning urug' tashlashi, baliq resurslari turlari tarkibini kamayishiga va kambag'allashishiga olib keldi. Kollektor suvlari kelib quyiladigan rayonlarda Sirdaryo suvning sifati mo'tadil ifloslanishdan ifloslangan mezoniga o'tib qolish holalari kuzatildi.

Suv resurslarini muhofaza qilish chora-tadbirlari. Insoniyat jamiyat taraqqiyoti jarayonida tabiiy suv tarkibini o'zgartirdi va o'zgartirib bormoqda. Shuning uchun, iflos suvlarni tozalashdagi injenerlik uslublarini yanada takomillashtirish lozim. Iflos suvlarni tozalashda asosan uch usuldan: mexanik, kimyoviy va biologik usullardan foydalilanadi. Iflos suvlarni mexanik usul bilan tozalaganda maxsus qurilmalar suvgaga qo'shilgan og'ir zarrachalar, suv yuzasidagi moy, yog', neft va boshqa aralashgan moddalarni ushlab qoladi. Iflos suvlarni kimyoviy usul bilan tozalash uchun turli reagentlardan foydalilanadi. Reagentlar

ba'zi birikmalar bilan reaktsiyaga kirishsa, boshqalarni esa zararsizlantiradi. Iflos suvlarni biologik usul bilan tozalaganda biokimyoviy va mikrobiologik jarayon katta rol o'ynaydi. Suvni biologik tozalash usuli tabiiy va sun'iy sharoitda ro'y berishi mumkin.

Tabiatda suvni mexanik usul bilan tozalashda daryo terrasalari va tekis (alohida ajratilgan) maydonlardan foydalaniladi. Chunki, iflos suvlar tuproq orqali o'tganda (filtratsiya) zararli moddalar tuproq qatlamida qoladi (suv filtratsiyasi uchun 80 sm qalinlikdagi tuproq qoplami yetarli). Suv tuproqdan bir necha marta o'tgandan so'ng zararsizlanadi. Ba'zi vaqtarda suvni tozalashda kichik omborlardan ham foydalaniladi. Bu holda bir necha suv havzalari bir-biri bilan tutashgan va nishab bo'lishi kerak. Chunki, tingan iflos suv bir havzadan ikkinchi bir havzaga o'tganda tozalanib boradi. Iflos suvni biologik usulda sun'iy sharoitda tozalash uchun maydonchalarga maxsus qurilmalar quriladi. Yirik va o'rta kattalikdagi materiallar ustiga turli qalinlikda aerob mikroorganizmli biologik pylonka qoplanadi va iflos suv shu materiallardan o'tkaziladi. Natijada, biofiltr suvdagi turli zararli moddalarni olib qoladi va suvni toza holda chiqaradi. Suvni iflos chiqindilardan holi etish va yana inson xizmatiga bo'ysundirish uchun yana o'nlab usullar ishlab chiqildi.

Yer kurrasidagi okean va dengizlarning sho'r suvlaridan foydalanish muammosi ham dolzarbdir. Yer yuzasida milliondan ortiq aholi suv tanqisligidan qiynaladi. Quruqlikning 60% qismida suv yo'q yoki yetishmaydi. Qadimdan inson sho'r suvni chuchuklashtirib, uni o'z ehtiyoji uchun foydalanib kelgan. Chuchuk suv olish jarayoni oddiy: sho'r suv issiqlikda bug'latiladi, bug'lar sovitilib chuchuk suv olinadi. Hozirgi vaqtda ba'zi davlatlarda sho'r suvdan chuchuk suv olish uchun turli majmualar qurilgan. Ulardan har biri sutkasiga 100 tonnadan ortiq chuchuk suv beradi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda suvdan, umuman tabiiy komponentlardan foydalanishdagi barcha qiyinchiliklarga ob'ektiv baho berish va jamiyatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olgan holda tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanishning asosiy yo'lini belgilab olish muhim vazifalardan biridir.



Savol va topshiriqlar

1. Tabiat va jamiyatda suvning ahamiyatiga misollar keltiring.
2. O'zbekistonda chuchuk suv qanday foydalaniladi?
3. Chuchuk suvni yetishmasligiga sabab nimada?
4. Suvni ifloslovchi manbalarga nimalar kiradi?
5. Iflos suvlar qanday usullar bilan tozalanadi?
6. Sho'r suvlarni qanday chuchuklashtiriladi?



10-§. Orol va orol bo'yи muammolari

Mavzu rejasi

1. *Orol dengizi suv rejimining o'zgarishi;*
2. *Orol dengizi muammosining tabiiy va ekologik jarayonlarga ta'siri;*
3. *Orol muammosining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari;*
4. *Orol ekologik muammosini hal etish chora-tadbirlari;*
5. *Cho'llanish.*

Orol dengizi suv rejimining o'zgarishi

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

Bu haqda quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli "o'lik" dengizga aylandi. Qurib



qolgan tubi maydoni 4,2 mln. getktarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtida, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish sur'atlari o'sib bormoqda.

Orol va Orolbo'yni muammosini yechishdagi uchta asosiy yo'nalishlar ya'ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e'tibor qaratildi. Sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko'tarish zarurligi uqtirildi; ikkinchidan, dengizning qurigan janubiy qirgoqlarida sun'iy damba qurib, delta eksosistemasini doimiy suvlashtirish yo'li bilan "Yashil kamar" hosil qilish; uchinchidan, dengizni o'zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko'p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko'chishi, chang ko'tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlandi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lган farzandlik burchidir.

Orol muammosining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Orol dengizi havzasi tabiiy muhitining hozirgi holatini va rivojlanish jarayonining tahlili ekologik vaziyatning yanada keskinlashib borgan sari murakkablashayotganini ko'rsatmoqda. Mintaqaning ahvoli va rivojlanishida tobora yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Bugungi kunda Orol dengizi bevosita o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan hudud 3 mustaqil davlatni qamrab oladi.

Yaqin-yaqin vaqtlargacha Orol dengizi Markaziy Osiyo iqtisodiyotini rivojlantirish, oziq-ovqat ishlab chiqarish, aholi bandligini ta'minlash va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishda muhim o'rinni tutar edi. Orolbo'yni suv

havzalarida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlanar, Amudaryo va Sirdaryo deltalaridagi unumdar yerlar, yuqori samarali yaylov va suv havzalari millionlab odamlarning chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va qishloq xo'jaligi sohalarida ish bilan bandligini ta'minlar edi.

Biroq mintaqadagi yirik daryolarda o'yamasdan ulkan gidrotexnik inshootlar qurilgani, transchegaraviy daryolar hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning tabiiy oqimi noto'g'ri boshqarilishi eng yangi tarixda Yer yuzidagi g'oyat og'ir ekologik halokatlardan birini yuzaga keltirdi. Bir paytlar dunyodagi eng noyob, go'zal va yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizi bir avlod ko'z o'ngida batamom yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi. Bu esa mintaqada misli ko'rilmagan ofatga aylanib, Orolbo'yida yashayotgan aholi hayotiga, bu yerdagi ekotizim va bioxilma-xillikka o'nglab bo'lmaydigan darajada zarar yetkazmoqda.



Amudaryo va Sirdaryoning Orolga umumiyligi quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi 14 barobardan ko'proq kamaydi, uning sho'rланish darajasi esa deyarli 25-marta ortdi. Bu Orol dengizida ilgari bo'lgan baliq va boshqa dengiz mavjudotlarining deyarli butkul yo'qolishiga olib keldi.

Yaqin-yaqinlargacha o'zining ulkan bioxilma-xilligi bilan mashhur bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida o'simliklar va yovvoyi hayvonlar turi keskin kamayib bormoqda, jumladan, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simliklarning 11 turi butkul yo'q bo'lish xavfi ostida turibdi. Orolning qurigan qismi o'rnida hosil bo'lgan 5,5 million gettardan ortiq maydondagi yangi Orolqum sahrosi tobora butun Orolbo'yi mintaqasiga yoyilmoqda. Bu yerdan har yili atmosferaga qariyb 100 million tonna chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, qum bo'ronlari va

kuchli shamollar bilan mazkur hududdan ancha olis bo'lgan mintaqalarga ham tarqalmoqda.

Ammo Orolbo'yida ro'y berayotgan fojea ko'lmini, bu yerda yashayotgan millionlab odamlarning dardi va orzu-armonlarini quruq raqamlar bilan ifoda etib bo'lmaydi. O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning Orol fojeasining kuchli ta'siri ostida qolgan mintaqalari aholisi har kuni suv resurslari yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim o'zgarishi, aholi, birinchi navbatda, bolalarning turli kasalliklarga chalinishi ko'payib borayotgani bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarni boshdan kechirmoqda.

Orol dengizining qurishi butun Markaziy Osiyoda keskin iqlim o'zgarishiga olib keldi, suv resurslari taqchilligi, mavsumiy qurg'oqchilikning kuchayishi, qahraton qishning uzoq davom etishi, Pomir va Tyan-Shan tog'lari muzliklari erishining tezlashishi va mintaqqa mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanish sharoitlarining yomonlashishiga sabab bo'ldi.

Ming afsuski, bugungi kunda Orol dengizini to'liq qayta tiklash imkoniy yo'qligi tobora ayon bo'lib bormoqda.

Orol inqirozining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatli ta'sirini, xusan, puxta o'ylangan, aniq manzilli va tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan loyihalarni amalga oshirish orqali kamaytirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

Endilikda Orolni sog'lomlashtirish muammosi jahon xalqlari diqqat markazida bo'lib, Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazilib ularda istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmoqda. 1995 yil sentyabr oyida Nukus shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bo'lib o'tgan "Orolbo'yi mamlakatlarining barqaror taraqqiyoti" mavzusidagi xalqaro anjuman ham aynan yuqorida ta'kidlangan muammolarga bag'ishlangan edi. Bu anjumanda Markaziy Osiyodagi besh davlat prezidentlari, hukumatlar rahbarlari bilan birga o'nlab xalqaro tashkilotlar va 35 davlatning vakillari ishtirok etib, o'lkada yuzaga kelgan xavfli ekologik halokatni bartaraf

etish masalalarini o'rganib chiqdilar. Anjuman ishida 300 dan ortiq mutaxassislar, diplomatlar, vazirlar va davlat rahbarlari qatnashib, ular Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lган ushbu asosiy masalalarni muhokama qildilar. Unda Nukus deklaratasiyasiga imzo chekildi va istiqbolda olib boriladigan siyosiy va amaliy ishlar borasida aniq majburiyatlar olindi, boshlangich mablag'lar belgilandi.

2019 yil 24 avgust kuni Turkmanboshi shahrida bo'lib, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Orol inqirozi zamonamizning eng yirik ekologik halokatidir. Dengiz tubidan ko'tarilayotgan chang yiliga 80 million tonnaga yaqin tuz va zararli kimyoviy moddalarni Sharqiy Yevropadan Himolay tog'larigacha bo'lган ulkan hududga yoyayotgani muammoning global tus olganidan dalolat beradi. SHu nuqtai nazardan ushbu sammit yetakchi moliya muassasalari, xalqaro tashkilotlar, chet el donorlik kompaniyalari, shuningdek, biznes hamjamiyati e'tiborini Orolbo'yidagi ekologik vaziyatga jalg etishda muhim ahamiyatga ega.

O'tgan davrda jamg'arma doirasida mintaqadagi murakkab suv-energetika masalalarini hal etish, suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va muhofaza qilishda hamkorlik bo'yicha qator hujjatlar imzolandi.

Xususan, O'zbekiston Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha keng miqyosli loyihalarni amalga oshirdi. 350 ming hektar maydonga saksovul va sho'rga chidamlı o'simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko'pi milliy loyihalardir.

Orol muammosi xalqaro muammoga aylandi. Orolni sog'lomlashtirish, uni suv bilan ta'minlash, dengiz atrofidagi ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan ibratli ishlar boshlandi. Orol dengizi atrofida yashovchi aholiga, ayniqsa bemorlar va bolalarga turli xayriya yordamlar kuchaytirildi, respublikamizdan va xatto chet el mamlakatlaridan zarur dori darmonlar muntazam yuborib turilibdi.

Orol ekologik muammosini hal etish yo'llari. Orol dengizi havzasi tabiiy muhitining hozirgi holati va uning rivojlanish jarayonini tahlil etish ekologik vaziyatni yanada keskinlashishini ko'rsatmoqda. Chunki Orol muammosi o'ziga xos ko'p qirrali va ko'p funktsiyali muammo, u yirik hududiy miqyosda mavjud bo'lganligi tufayli uning yechimi Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi yer-suv masalalarini to'ligicha ijobiy xal qilish bilan bog'liq. Orol muammosining tabiiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nihoyatda ulkan; avvalgi qulay sharoitni qayta tiklash umuman mumkin emas.

Orol muammosi ikki qismidan iborat: 1) dengiz sathini ma'lum darajada saqlab qolish va 2) Orolbo'yida ekologik holatni optimallashtirish. Orol sathini ma'lum balandlikda saqlab qolish uchun hozirgi suv tanqis bo'lib turgan sharoitda eng minimal miqdorga asoslanish maqsadga muvofiq. Hisob-kitoblarga qaraganda, dengizga muntazam ravishda yiliga kamida 20 kub km dan suv quyilib tursa, uning sathini 33 m mutloq balandlikda saqlab qolish mumkin bo'ladi. Agarda daryolar orqali keladigan suv shu miqdordan 10 kub km gacha kamaysa, uning yuzasi 27,3 m mutloq balandlikgacha tushadi. Bu holda Katta dengiz ikki qismga bo'linib ketadi, uning sharqiy qismi unchalik chuqur bo'limgan sho'rxokli qumlikka aylanadi, g'arbiy qismi esa ancha chuqur bo'lgani uchun (tubi -16 m da joylashgan) chuqurroq ko'lga aylanadi. Binobarin, Orolni dengiz sifatida saqlab qolish uchun unga kamida 20 kub km suv quyilib turishi kerak. Orolbo'yi, xususan Amudaryo va Sirdaryo deltalarida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish uchun eng avvalo aholini toza ichimlik suv bilan to'la ta'minlash, qurib qolgan o'zanlar, ko'llarga muntazam ravishda suv yuborish va ular orqali yaylovlar hamda pichanzorlar, to'qayzorlarga suv chiqarishni amalga oshirish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to'sish uchun qumlarni fitomelioratsiya yo'li bilan mustahkamlash, sug'oriladigan zonada suvni ko'p iste'mol qiluvchi ekinzorlar maydonini kamaytirish va boshqa donli, poliz va mevali ekinlar maydonini kengaytirish, yem-hashak ekinlari ekiladigan dalalarni ko'paytirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash va boshqa tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Orolbo'yida, xususan Qoraqalpog'iston, Xorazm, Doshxovuz vohalarida

Tuyamo'yin suv omboridan (Kaparas bo'limi) yozda jamg'arilgan, sho'rligi nisbatan kamroq bo'lган suvi quvurlar orqali barcha tuman markazlari, yirik qishloqlarga hozirda yetkazib berilmoqda. Ba'zi aholi punktlarida chet eldan keltirilgan suvni chuchuklashtirib beruvchi qurilmalar ishlab turibdi. Bu borada tegishli dasturlar amalga oshirilmoqda. Aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, kasallarga sog'lomlashtirish markazlarida yordam berilmoqda.

Orolbo'yida cho'llashishga qarshi kurashish uchun muxandislik loyixalarini amalga oshirilishi lozim. O'nlab yillardan beri ko'ndalang turgan asosiy muammoni xal etish uchun ko'pdan-ko'p loyihalar taklif qilindi. Ammo hozircha ularning birortasi ham hayotga joriy etilmadi. Bu loyihalarning hammasini ikki guruhga birlashtirish mumkin:

1. Orol dengizi havzasida ekologiya vaziyatni ichki suv resurslarini burib yuborish hisobiga yaxshilashni taklif etayotgan (intraregional) loyihalar.

2. Zarur miqdordagi suvni chetdan, ya'ni havza tashqarisidan keltirishni taklif etayotgan (ekstraregional) loyihalar.

Orol dengizi sathini maxalliy resurslar hisobiga barqarorlashtirishni ko'zda tutuvchi loyihalar quyidagi manbalar suvini dengizga oqizishini taklif etadilar:

1. Kollektor-drenaj tizimlari suvlarini.

2. Sariqamish, Dengizko'l, Sultontog', Maxanko'l, Arnasoy, Aydar va Sudoche tashlama ko'llari suvlarini dengizga burib yuborish.

3. Gidromelioratsiya tizimining samaradorligini oshirish, sug'orish texnalogiyasini yaxshilash, suv resurslarini hududiy qayta taqsimlash va boshqa tadbirlar hisobiga istiqbolda tejab qolinadigan suvlar.

Mazkur loyihalar hamda takliflarning barchasi Orol dengizi hamda Orolbo'yi ekologik holatini barqarorlashtirishga, mintaqada aholi salomatligini yaxshilashga, uning turmush darajasini ko'tarishga yo'naltirilgan amaliy tavsifdagi ishlanmalar asosida bildirilgan. Shu boisdan ham ularni tezda amaliyatga tadbiq etish beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 fevraldag'i «Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda «yashil qoplamlalar» - himoya o'rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu hududlarda cho'1 o'simliklaridan himoya o'rmonzorlari barpo qilishni samarali tashkil etish hamda global iqlim o'zgarishlari, Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi va aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida 2019 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun 100 milliard so'm ajratildi.

Ushbu qarorda belgilanishicha, bahor mavsumida 200 ming hektar, kuzda esa 300 ming hektar "yashil qoplama" lar tashkil qilinadi. Umuman, ushbu himoya o'rmonzorlarining 50 ming hektari ko'chatdan, 450 ming hektari urug'dan barpo qilinadi.

Darhaqiqat, ushbu ekologik ofatdan eng ko'p Mo'ynoq xalqi aziyat chekib kelmoqda. Ayniqsa, iyul-avgust oylarida nihoyatda katta chang-to'zon havoga ko'tariladi. Himoya o'rmonlari barpo qilinsa, ushbu muammolar barham topadi.



Savol va topshiriqlar

1. Orol dengizi suv rejimining o'zgarishiga nimalar sabab bo'lган?
2. Orol dengizi muammosining tabiiy va ekologik jarayonlarga ta'siri haqida nimalarni ayta olasiz?
3. Orol muammosining xalq xo'jaligiga ta'siri haqida gapiring!
4. Cho'llanish nima? U qanday yuzaga kelmoqda.





11-§. Tuproq va uning muhofazasi

Mavzu rejasi

- 1. O'zbekiston tuproqlari holati;**
- 2. Tuproqni moddalar aylanishidagi roli;**
- 3. Tuproqni ifloslanish manbalari;**
- 4. Tuproq eroziyasi turlari;**
- 5. Tuproq erroziyasi va unga qarshi kurashish yo'llari;**
- 6. Sho'rланish, cho'llanish sabablari, oldini olish chora-tadbirlari.**

O'zbekistonning umumiy yer fondi 1997 ma'lumoti bo'yicha 44,45 mln. hektar, shundan salkam 32 mln. hektari qishloq xo'jaligiga qarashli yerlar. Respublikaning yer fondi foydalanish bo'yicha xilma-xil. Mamlakat umumiy yer fondining 5-6 mln. hektari dehqonchilikda foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi yerlari ichida katta salmoq (83,5%) ni o'tloqlar va yaylovlar egallaydi. Undan keyin haydalgan yerlar (14,9%), ko'p yillik ekinlar - bog'lar va tokzorlar (1,4%), qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan va boshqa turdag'i yerlarni ulushi Respublika jami yer fondining 37,3% ga teng.



Sug'oriladigan yerlar sal kam 4,3 mln. hektardan iborat, shundan 1,6 mln.ga dengiz sathidan 400-500 metrgacha bo'lgan balandlikdagi cho'l zonasida, qolgan qismi sur qo'ng'ir tuproq mintaqadir. Sug'oriladigan yerlar Farg'ona vodiysi,

Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron, Qashqadaryo, Surxon, Sherobod vodiylarida. Amudaryoning quyi qismlarida katta maydonlarni egallaydi. Jami sug'oriladigan maydonning qariyb 3 mln. hektari ekinzor. Lalmikor yerlar maydoni 767 ming. ga dan ziyod. Ekin ekish uchun yetarli darajada namlik to'planadigan yerdardan foydalaniladi. Lalmikor yerlar Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Jizzax viloyatlarida joylashgan. Cho'l yaylovlari O'zbekistonda eng katta maydon 22,8

mln. ga ni tashkil etadi, shundan 10 mln. ga sur qo'ng'ir tuproqli, qariyb 13 mln. ga qumli yerlar va qumli tuproqlar qolgan qismi o'tloq-taqir tuproqlar va taqir hamda sho'rhoklardan iborat. Cho'l-yaylov joylardagi sug'orishga yaroqli yalpi maydon qariyb 12 mln. ga. qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlarning katta maydonlari Ustyurt platosi, Qizilqum cho'llari, Boysuntog', Bobotog', Turkiston va Janubiy-g'arbiy Tyanshan tog'lari joylashgan hududlarga to'g'ri keladi. Shuning 66,6%i yoki 11103 mln. hektar yer faqat Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi. Shunday qilib Respublika qishloq xo'jaligi egallagan 15% yer maydon, 95% dan ortiq o'simlik mahsulotini beradi. Hozirgi vaqtda yer resurslarini holati faqat iqtisodga ta'sir etmasdan, u ekologik sharoitga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yer resursi tabiatni asosiy boyligi - birligining bo'lib qolmasdan, u davlatning iqtisodiy o'sishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Keyingi 35-40 yillar ichida sug'oriladigan yer maydoni 1,5 barobarga kengaytirildi. Ayniqsa, 1970-1985 yillarda sug'oriladigan yerlar 2,8 dan to 4,0 mln. hektarga yoki 43% ga ortdi. Yangi sug'oriladigan yerlar asosan Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand-Jizzax, Qoraqalpog'iston-Xorazm regionlariga to'g'ri keladi. Professorlar E.Nabiev va A.Qayumovlarning hisobicha (2000 yil) Respublikada haydaladigan va sug'oriladigan yerlarning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari yildan-yilga kamaymoqda. 1987-1997 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yerlarning hajmi 16,5%ga, sug'oriladigan yerlarning hajmi esa 9,0%ga qisqardi. Yerning chirindi tarkibi yildan-yilga yomonlashmoqda (chirindi salmog'i 30-50%ga kamaydi). Bugungi kunda chirindi bilan ta'minlanganlik darajasi past bo'lgan tuproqlar sug'oriladigan yerlarning salkam 40%ini egallaydi. Yangi yerlarni ochilishi va o'zlashtirilishi u yerlarning sifatiga va meliorativ holatiga ta'sir ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerlarning eng manfiy tomoni bu - sho'rلانishdir.

Insonning ta'siri ayniqsa sug'oriladigan yerlarga kuchli bo'lib hisoblanadi. Inson dehqonchilik faoliyatida yerga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lsa, tuproqning holati va biologik xususiyati yaxshilanadi, hosildorlik ortadi. Aks holda buning teskarisi yuz beradi. Ko'pincha biz insonning tuproqqa nisbatan ijobjiy

ta'siri emas, balki salbiy ta'sirining guvohi bo'lamiz. Natijada tuproq holati buziladi, ya'ni u sho'rlanadi, eroziyaga uchraydi, tuproq tuzilishi, sifati buziladi, o't bosadi va boshqa salbiy hollar yuz beradi. Masalan, O'zbekistonning tog' va tog' oldi rayonlaridagi tuproqlarning 50% i eroziyaga uchragan; sug'oriladigan zonada esa 600 ming hektar yer suv va shamol eroziyasiga uchragan, 1,3 mln. hektar yer sho'rlangandir, ya'ni bu respublikadagi sug'oriladigan yerlarning deyarli 50% i yaroqsiz holga kelgan demakdir. Shunday ekan, tuproqni muhofaza qilish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu sohada birinchi navbatdagi vazifa tuproq eroziyasining oldini olish va tuproqning sho'rini yuvishdan iboratdir. Buning uchun qator tadbirlar, chunonchi, tashkiliy xo'jalik tadbirlarini, agrotexnik tadbirlarni, gidrotexnik, irrigatsiya, o'rmon meliorativ tadbirlarni, tuproqning ifloslanishini oldini olish va boshqalarni amalga oshirish zarur. Masalan, shamol eroziyasiga qarshi kurashda ihotazorlar tashkil etish va daraxtlar ekish, almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yish, tuproqni agrotexnika talablari darajasida chuqu haydash, tuproqqa tabiiy o'g'itlar berish, ko'chma qumlarni mustahkamlash, tuproqning qayta sho'rlanishiga yo'l qo'ymaslik (zovur, drenajlar tashkil etish orqali) sho'rangan yerlarni muntazam ravishda yuvib turish, sug'orish me'yoriga amal qilish, sug'orish madaniyatini ko'tarish va boshqa qator ilg'or usullarni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish zarur.

Tuproq tabiatning eng muhim boyligi bo'lib, Yer po'stining eng ustki g'ovak, unumdar qismidir. Tuproq orqali moddalarning litosfera bilan atmosfera orasidagi o'zaro aloqasi sodir bo'ladi. Shamol natijasida tuproq ustidan ko'tarilgan chang to'zonlar atmosferaga yetib havo tiniqligini buzadi, Yer yuzasiga quyoshdan kelayotgan yorug'lik energiyasi ta'sirini kamaytiradi, yog'inlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Atmosferadan esa tuproq ustiga har xil zarrachalar tushib, tuproq, o'simlik va hayvonot olamiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tuproq eng avvalo o'simlik, hayvon va mikroblar bilan birga murakkab ekologik sistema (biogeotsenozi) ni vujudga keltiradi. Tuproqning kishilik jamiyati uchun ahamiyati shundaki, u o'z-o'zini tozalash xususiyatiga ega bo'lib, tabiatdagi iflos narsalarni (moddalarni) biologik yo'l bilan tozalaydi va neytrallashtiradi. Demak, tuproq

xalqning bebaho tabiiy boyligi va insonning yashashi uchun zarur bo'lgan hayot manbaidir. Inson o'zining yashashi uchun kerak bo'lgan oziq-ovqat energiyasining 88% ini tuproqdan, 10% ini o'rmon va o'tloqlardan, 2% ini okeandan olmoqda. Quruqlikning 13% i (1,9 mld. ga) haydab ekin ekiladigan yerlardir. Dunyo bo'yicha ekin ekiladigan maydonning 14% ini esa sug'oriladigan yerlar tashkil etadi.

Tabiat komponentlari ichida yer resursining o'rni o'ziga xosdir. Yer boshqa barcha komponentlarning tabiiy asosi, zamini hisoblanadi. Yer qishloq xo'jaligida ikki funksiyani bajaradi: yer bir vaqtida mehnat predmeti va vositasidir. Uilyam Petti aytganidek, "boylikni otasi mehnat bo'lsa, yer - onasidir". Yer tabiatning mahsuli bo'lib, unga qilingan har qanday ta'sir uning unumdarligini oshiradi yoki aksincha. Insoniyat tarixi - tabiat bilan insonni o'zaro munosabatlarining mahsulidir. Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi yerni dastlab qabilalar, so'ngra esa oilalar o'rtasida taqsimlanishga olib keldi.

Konstitutsiyada alohida shaxslarga shaxsiy turar joy qurish, jamoa bo'lib bog'dorchilik, sabzavotchilik bilan shug'ullanish uchun yerdan foydalanishga doimiy va vaqtinchalik ruxsat berilishi mumkin. Yerdan foydalanuvchilarga yerdan unumli foydalanish majburiyati yuklatiladi. Yerdan mehnat qilmay daromad olish, yerni sotib olish yoki sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yish, o'z holicha boshqa shaxslarga berish ta'qiqlanadi. Yer davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lib qolganda davlat tomonidan olinishi mumkin.

Yer sharining 149 mln. km² quruqlik maydoni turli yer turkumlariga bo'linadi (10-jadval).

Yer "tabiat va jamiyat" majmuasida suv va havo kabi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Yer sharida quruqlikning inson foydalanadigan qismi 82 mln.km² (65%). Shu jumladan: faol foydalanadigan quruqlikda qurilgan joylar, shudgor va yo'llar 22,3 mln. km² (15%)ga teng keladi. quruqlikda kam harajat bilan o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlar zahirasi 9 mln.km² (6%)ni tashkil etsa, o'zlashtirish qiyin

va ko'p mablag' sarflanadigan yerlar (cho'llar, botqoq, baland tik-tog' cho'llari) 35,7 mln.km² (24%)ni egallaydi.

10-jadval

Jahonning yer fondi

Nº	Yer turkumlari	Maydoni mln.km ²	Ulushi %
1.	Muzliklar	16.3	11.0
2.	Qutbiy va baland tog' subnival cho'llar	5.0	3.3
3.	Tundra va o'rmon-tundralar	7.0	4.7
4.	Botqoqlar (tundradan tashqari)	4.0	2.7
5.	Ko'llar, botqoqlar, daryolar, suv omborlari	3.2	2.1
6.	Quruq cho'llarning o'zlashtirilmagan yerlari, toshlik qoyalar va qirg'oq qumliklari	18.2	12.2
7.	O'rmonlar (ekilganlari bilan)	40.3	27.0
8.	O't-butali yaylovlar va tabiiy o'tloqlar	28.5	19.0
9.	Ishlov beriladigan yerlar-haydaladigan, bog'lar, va h.k.	19.0	13.0
10.	Sanoat, shahar tasarrufidagi yerlar (tog'-kon ishlab chiqarishi va yuza kommunikatsiyalar bilan)	3.0	2.0
11.	Antropogen bedlend yerlar (eroziyaga uchragan, sho'rangan, botqoqlashgan va boshqa yerlar)	4.5	3.0
	Quriqlik jami	149	100

Hozirgi kunda inson ta'sirida ishdan chiqqan yerlar (tuproq yemirilishi, sho'r bosish, botqoqlashish) maydoni 4,5 mln.km² (3%)dan ortib ketdi. Inson bir butun tabiatga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, barcha xo'jalik-maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan suv - 3,8 mln.km³ ni tashkil etsa, shu jumladan sug'orish uchun 3 mln.km³ ni, sanoat-maishiy oqavalar bilan ifloslangan suv hajmi 6,5 ming km³ dan ortib ketdi. Yer yuzasida Osiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerikalar katta yer fondiga ega.

Yer fondi nima? Davlat chegaralariga qadar bo'lgan hamma yerlar. Davlat yer fondi qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun jamoa xo'jaligi va boshqa xo'jaliklarga berib qo'yilgan qishloq xo'jalik yerlaridan, aholi yashaydigan punktlar (shaharlar, kichik shaharchalar va qishloq aholi joylarining yerlaridan),

sanoat, transport, kurort, qo'riqxonalarning yerlaridan va boshqa har xil yerlardan (davlat o'rmon fondlari yerlaridan, davlat suv fondlari yerlaridan) iborat.

Tuproqning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Yer resurslarining eng qimmatli qismi hosildorlik xossasiga ega bo'lgan tuproq qoplamicidir. Tuproq boshqa tabiiy boylik bilan almashtirib bo'lmaydigan noyob tabiiy resursdir. Inson qadimdan hozirgacha fan-texnika erishgan ulkan muvaffaqiyatlarga qaramay, o'zining yashashi uchun zarur bo'lgan qariyb hamma narsani tuproqdan oladi. Hozirgi kungacha tabiiy tuproq o'rnini bosadigan sof sun'iy tuproq yaratish mumkinligi isbotlangan emas. O'simliklarni tuproqsiz (gidropnika, plastoponica) o'stirish har qancha mukammallashmasin, baribir xech qachon tuproq o'mini bosa olmaydi. So'nggi yillarda sayyoramiz tuproq qoplami tabiiy holatining o'zgarishiga qishloq xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar ta'sir etmoqda. Chunonchi, o'rmonli yerlarda daraxtlarni kesib, haydab ekin ekish; almashlab ekish; yerlarni haydab kultivatsiya qilish; tuproqqa ko'plab organik moddalar (torf, go'ng va boshqalar) va mineral ug'itlar (ohak, lyoss, mineral o'g'itlar) solish, tuproqni sug'orish va sho'rini yuvish; zah va botqoq yerlarni quritib o'zlashtirish; yerlarni meliorativ holatini yaxshilash; ko'plab mevali va dekorativ daraxtlar o'tqazish; ko'plab mol boqish va boshqalar. Qayd qilingan bu ishlarning ta'siri sug'orib ekin ekiladigai yerlarda ayniqsa kuchli bo'lib, bir tomonidan, tuproqning tabiiy holati tez o'zgarsa, ikkinchi tomonidan, uning unumdorligi ortib boradi va tuproqning holati yaxshilanadi.

Yer sharida, shu jumladan O'zbekistonda sanoatni rivojlanishi, ko'plab yangi qazilma konlarining qidirib topilishi yangi shaxta va karerlarini qurishni talab etadi. Bular o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tasarrufidagi yerlar maydonining qisqarib, tuproq holatining yomonlashib borishiga sabab bo'lmoqda. Inson o'zining xo'jalik faoliyatida landshaft "oynasi" hisoblangan tuproq qoplamiga salbiy ta'sir etib, uning unumdorligini kamaytirib, turli hududlarda hosildor



yerlarni kamayib ketishiga sababchi bo'ldi. Insoniyat tarixi davomida 2 mln. hektardan ortiq unumdar tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirildi. Har yili sayyoramizda sho'r bosish, cho'lga aylanish, yemirilish oqibatida 5-7 mln. hektar yer maydoni kamaymoqda.

Inson tuproq qoplamiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inson o'zi foydalanadigan tuproqning hosildorligini oshirishi, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash mumkin. Inson yana yangi shaharlar va sanoat tarmoqlarini qurib, atrof-muhitni ifloslashishi, agrotexnikadan noto'g'ri foydalanib va dehqonchilikni noto'g'ri yuritishi, oson yuviladigan va yemiriladigan yerlarni shudgor qilish, yonbag'irlarni noto'g'ri haydash, sug'oruv me'yorlariga amal qilmaslik, bir joyda bir xil ekinni muttasil ekish, joylarda chorva mollarini xaddan tashqari ko'p boqish va boshqalar natijasida tuproqni ishdan chikarishi mumkin. Hozirgi fan-texnika rivojlangan davrda unumli tuproqlar maydonining kamayishi uning tiklanishidan minglab marta tezroq amalga oshmoqda.

Hozir Yer sharida eroziyaga uchragan, qayta sho'rangan va botqoqlashgan, qum bosgan, sanoat va karerlardan chiqarib tashlangan chiqindilar bilan qoplangan va boshqa yerlar maydoni 4,5-5 mln.kv.km. yerni ishg'ol qiladi. Shaharlarning ayniqsa tez o'sishi bilan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar maydoni qisqarib bormoqda. Hozir Yer sharida sutkasiga jon boshiga 27 t. ortiq mineral xom ashyo qazib olinadi va undan umumiylajmining 2 foizi miqdorida ruda ajratib olinadi, qolgan qismi (98%) chiqindi tariqasida atrofidagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlarga tashlanadi. Ochiq karer usulida ko'mir va boshqa qazilmalar qazib olish natijasida katta maydondagi yerlar buziladi. Karer-chiqindilar hisobiga qishloq xo'jaligi oborotidagi yerlarni qisqarishi O'zbekistonda, ayniqsa Angren va Olmaliq tog'-kon sanoati rayonlarida ham sodir bo'lmoqda. X.Vahobovning ma'lumoti bo'yicha (2000 yil): tog'-kon sanoati foydali qazilmalarni olishda yiliga 60-70 mln. tonna chiqindini 10000 hektar yerga yotqizadi va natijada hududlarda o'ziga xos texnogen landshaftlar hosil bo'ladi. Shu sababli o'sha karerlar ishg'ol qilgan yerlarni tezlik bilan rekultivatsiya qilish, ya'ni qayta o'zlashtirish lozim. Buning uchun o'simliklar ekib qishloq xo'jaligi oborotiga kiritish mumkin. SHunday qilib,

karer yerlar chorvachilikda, o'rmonchilikda, ekin ekishda, park xo'jaligida foydalanish maqsadida qayta o'zlashtiriladi.

Tuproq eroziyasi va unga qarshi chora-tadbirlar. Yer yuzasidagi tog' jinslari va tuproqlarni oqar suvlar yuvib, oqizib va shamol uchirib ketishi eroziya deyiladi. "Eroziya" lotincha-erosio-erosio so'zidan olingan bo'lib, "yemirish", "parchalash", "yeyilish" degan ma'noni bildiradi. Eroziya natijasida yerning unumdar qismi-tuproq qoplami buziladi, yemiriladi va yaroqsiz bo'lib qoladi. Suv va shamol eroziyasi natijasida AQSH, Xitoy, Kavkaz, O'rta Osiyo va boshqa regionlarda millionlab hektar yerlar ishdan chiqdi hamda unumsiz yerkarga aylandi. Frantsuz olimi Gerrening ma'lumotiga qaraganda, so'nggi yuz yil ichida 2 mlrd. hektar unumdar tuproqli yerlar o'rnida jarlar, yalong'och qoyalar, chirindisiz geologik yotqiziqlar qoldi (quruqlik yuzasining 15%ni tashkil etadi).

Suv eroziyasi suv oqimining miqdori, tezligiga ko'ra, yuza eroziya, yonlama eroziya va chuqurlatma eroziyaga bo'linishi mumkin. Yuza eroziyada tuproqni yuza qatlamini yoppasiga yuvib ketadi. Bu jarayonda Yer yuzasining qiyaligi juda kam bo'ladi. Yonlanma eroziyada - eroziya natijasida hosil bo'lgan kichik o'zan, jarlarnnng yon-qirg'oqlari yemiriladi, jar kengayadi va taraqqiy etadi. Taglama-chuqurlatma eroziyada jar, soy, irmoqlarni tag qismi yemiriladi va jar, soy, irmoqlar yanada chuqurlashadi. Yangi hosil bo'lgan jarlar ekinzorlarni parchalab, bo'lib tashlaydi, dehqonchilik ishlarini qiyinlashtirib, mehnat unumdarligiga putur yetkazadi. Tog'larda hosil bo'lgan sellar ham vayronagarchiliklarga sabab bo'lib, tuproq eroziyasini yanada tezlashtiradi. O'zbekistonda suv eroziyasining hamma turlari uchraydi. Ammo, irrigatsiya eroziyasi alohida ajralib turadi. Chunki, agrotexnikaga rioya qilmaslik, yerkarni noto'g'ri sug'orish, dalalarga suvni ko'p miqdorda berish antropogen omildir. Suv eroziyasi ko'proq tog' oldi va tog'li hududlarida ro'y bersa, shamol eroziyasi tekisliklarda, cho'llarda kuzatiladi.

Shamol eroziyasi suv eroziyadan tubdan farq qiladi. Shamol eroziyasi natijasida tuproq qoplami va uning ona jinsidagi mayda zarrachalarini turli masofalarga shamol uchirib ketadi. Shamol eroziyasi ikkiga bo'linadi: deflyatsiya (puflayman) va korroziya (tekislayman). Deflyatsiya natijasida tuproq qoplamining

ustki qismi, haydalgan yerkarni katta qismi uchirilib ketiladi va boshqa yerkarni yotqiziladi. Ba'zan deflyatsiya jarayoni oqibatida o'simlik ildizlari ochilib qoladi. Korroziya - qum zarrachalari turi tog' jinslariga urilib, uni charxlaydi, tekislaydi va silliqlaydi. Korroziya natijasida turli rel'ef shakllarga ega bo'lган qoya, jar, toshlarni ko'rishimiz mumkin. Bunday jarayonlarni suv ostida ham uchratish mumkin. Shamol eroziyasi oqibatida qumlar ko'chib, yangi qum rel'ef shakllari vujudga keladi va qo'shni hududlarga surilib, bostirib borishi mumkin. Bunday jarayonlarni Markaziy Xitoy, AQSH, Shimoliy Afrika, Avstraliya va O'rta Osiyoda kuzatishimiz mumkin. Ko'chma qumlarning o'zlashtirilgan qadimgi vohalarga bostirib kirganligi tariximizdan ma'lum. Quyi Zarafshon, Qarshi cho'li, quyi Amudaryolarning qadimgi sug'orilgan yerkarni hozirgi vaqtida ham qum ostida. Erozion jarayonlarni oldini olish; sug'oriladigan, lalmi va yaylov yerkarda eroziyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar majmuasi hozirgi kunda ham qo'llanib kelinmoqda. Shunday qilib, erozion jarayonlarni rivojlanishining asosiy sabablari faqatgina joyning tabiiy sharoiti relefi, iqlimi, o'simligi va tuproqning xususiyati bo'lib qolmasdan, insonni tog'lik va tekislik hududlaridan noto'g'ri foydalanish oqibatidir (yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, o'rmonlardan rejasiz foydalanish, o'rmon yong'inlari, kasalliklar va boshqalar, tog' yonbag'irlarida va tekisliklarda suv va shamol eroziyasiga uchragan yerkarni noto'g'ri ishslash).

Eroziyaga qarshi kurashish tadbirlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: ***agrotexnik, o'rmon melioratsiyasi, gidrotexnik.***

Agrotexnik chora-tadbirlarda almashlab ekishni to'g'ri amalga oshirish, ko'proq o'tli o'simliklarni ekish, o'z vaqtida o'g'it solish va o'simliklar zichligini oshirish kerak. ***O'rmon melioratsiyasi*** natijasida o'simiksiz qolgan tog' yonbag'irlarini, tekislik-qumli yaylovlarni turli buta, daraxtlar bilan qoplash kiradi.

Gidrotexnik chora-tadbir majmuasiga tog' yonbag'irlarni yuvish va uyilishdan saqlash uchun gidrotexnik qurilmalar qurish (to'g'onlar, terrasalar). Tog'li hududlarda yana oqimni to'suvchi va to'xtatuvchi devorlar, tosh-shag'al-tuproq-yog'ochlardan foydalangan holda qurilmalar qurish kerak. Shamol eroziyasiga qarshi kurash o'ziga xos chora-tadbirlarni qamrab oladi. Qumli, qumoq

tuproqli yerdarda va ko'chma qumliklarda asosan mexanik to'siqdan foydalaniladi. Eroziya natijasida tuproqning tarkibi buziladi va uning unumidorligi pasayib ketadi. Ammo, ifloslanish tufayli tuproqning kimyoviy va biologik xususiyatlari o'zgaradi.

Tuproqning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi xo'jaligimizga katta zarar yetkazmoqda. Turli zararli moddalar havodan, suvdan kelib tuproq hosildorligini kamaytiradi, ba'zan tuproqni butunlay ishdan chiqaradi. Olimlarning guvohlik berishicha kimyoviy zararli moddalarning xavfi AESlarning radioaktiv chiqindilari xavfidan 9 barobar xavfliroq ekan. Hozirgi vaqtida jahon bo'yicha ekinlarni himoya qilish uchun turli kimyoviy moddalardan gektariga 300 gramm, g'arbiy Yevropa va AQSHda 2-3 kilogramm, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 200 gramm solinayotgan bir vaqtida paxta dalalarimizda ishlatilayotgan kimyoviy moddalarning yillik miqdori gektariga 57,7 kilogrammni

11-jadval

Tuproqni ifloslanganligini ko'rsatuvchi belgilar

Tuproqning ta'rifi	xoli-titr	1 kg tuproq tarkibidagi gijja tuxumlarining soni	0,25 m² maydonda aniqlangan pashsha tuxumidan chiqqan qurtlar
Toza	1,0 va yuqori	0	0
Ifloslangan	0,0-0,01	10 dan ortiq	1-2 nusxalari
Juda ifloslangan	0,01 dan kam	10 dan ortiq	5 va undan yuqori

tashkil etgan bo'lsa, undan foydalanish 1.5 barobar qisqargan. Zaharli moddalar tuproq qoplamida yildan-yilga yig'ilib, to'planib boradi. U nafaqat tuproq qoplagini zaharlaydi, hatto insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishga sababchi bo'ladi (sariq, oshqozon, ichak va rak kasalliklari). Chunki, tuproqqa qo'shilgan chiqindilar ichida simob, qo'rg'oshin, ftor kabi o'ta zaharli birikmalar to'plangan bo'ladi. Sug'oriladigan yerdarsi baholash ball bilan olib boriladi. Ballar tuproqni tadqiqot qilish orqali ya'ni tuproq boniteti orqali baholanadi. "Uzgiprozem" ma'lumoti bo'yicha sug'oriladigan yerlarini sifati (bonitet)

O'zbekiston bo'yicha o'rtacha 59 ball olinadi. Ballar 41 ball - Qoraqalpog'iston Respublikasining, eng yuqorisi esa Surxondaryo va Xorazm viloyatlariga to'g'ri keladi 63 ball. Shunday qilib, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar xalq boyligi ekanligini unutmasligimiz kerak.

12-jadval

Patogei mikroblarining tuproqda yashay olish vaqtি

Kasallik qo'zg'atuvchi infektsiyalar	Axlatlar	Yashash vaqtি kun hisobida
Vabo vibrioni	Hojatxona chiqindisidagi chiqindi suvlarda	7-12
Qorin tifi tayoqchasi	Hojatxona chiqindisida	30-50
	chiqindi suvlarda	6
	oshxona chiqindilarida	4
	Uy supurindisida	42
Paratif tayoqchasi	Oshxona chiqindilarida	24
	Uy supurindisida	107
Ichburug' tayoqchasi	Oshxona chiqindilarida	5
	Uy supurindisida	24
Tuberkulyoz mikrobi	Balg'ama	120-200
Kuydirgi tayoqchasi.	Uy supurindisida	80

Yerdan to'g'ri foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni o'tkazishda yer kadastrini o'rni boshqa. Yer kadastro yerni baholashda qo'l keladi, ya'ni yerning tabiiy, xo'jalik, huquqiy holati va iqtisodiy bahosi aniq va zaruriy ma'lumotlar bilan belgilab beradi. Yer kadastro asosan yerdan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilishga bog'liq bo'lgan barcha tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tuproqning gigienik ahamiyati. Tuproq, darhaqiqat, juda katta laboratoriya. U laboratoriyada doimo to'xtonsiz murakkab kimyoviy biologik, fotokimyoviy jarayonlar sodir bo'ladi. Tuproqda bu jarayonlar «oqibatida turli

organik va noorganik moddalar, hosil bo'ladi. Tuproqda patogen mikroorganizmlar viruslar, oddiy bir hujayrali jonivorlar, gjija tuxumlari va boshqa jonivorlar mavjud. Tuproq chiqindi, iflos suvlarni, axlatlarni, chirindi va boshqalarni zararsiz holatga keltiradi. Yerning rel'efi — joyning iqlimiga, o'simlik dunyosiga, turar-joylarni loyihalashga, obodonchilikka undan foydalanishga katta ta'sir ko'rsatadi.

13-jadval

Tuproqning iflosligini ko'rsatuvchi kimyoviy va bakteriologik ko'rsatkichlar

Tuproqning ta'rifi	Anaeroblar titri ko'rsatkichi	Sanitariya soni
Toza	0,98—1,0	0,1 va yukori
Oz ifloslangan	0,85—0,98	0,1—0,001
Ifloslangan	0,70—0,85	0,001—0,001
Kuchli ifloslangan	0,70 dan kam	0,0001 va past

Ammo tuproqqa hamma narsalar, jumladan, pestitsidlar, mineral o'g'itlar, o'simlik o'stiruvchi stimulyatorlar, yuza aktiv moddalar, politsiklik aromatik karbonsuvarlar, sanoat korxona chiqindilari, xo'jalik chiqindi suvlari, transport tashlandiqlari va boshqalar tashlanadi. Shu tufayli, tuproqning sanitariya holati o'zgaradi. Tuproq orqali epidemik va endemik kasalliklar tarqalishi mumkin. Bunday tuproq odamlarning sog'lig'iga putur yetkazishi aniq. Chunki ifloslangan tuproqlardan zararli kimyoviy moddalar, biologik iflosliklar ochiq va yer osti suvlarini, atmosfera havosini, o'simliklarni, qolaversa kishi organizmini zararlanishi mumkin. Umuman, axlat va chiqindilar odamlarda turli infektsion va gjija kasalliklarini keltirib chiqarishga asos bo'ladi.

Tuproqning ifloslanishi. Keyingi yillar davomida korxona har yili 40000 tonnaga yaqin ifloslantiruvchi moddalarni havoga chiqarilganligi, shu jumladan, 300-400 tonna ftorli vodorod bilan ifloslantirganligi aniqlandi. Chiqindilar tarkibida ko'p miqdorda oltingugurt va azot dioksidlari, kaltsiy birikalari, sulfationlari bor.

TojAZ chiqindilaridan zararlangan hududning tuprog'i va o'simliklari, ularning tarkibida suvda eriydigan ftor birikmalari miqdoriga qarab, 4 hududga ajratiladi:

1-hudud - Sariosiyo tumani (TojAZdan 40 kilometr uzoqlikda). Bu hududda tuproqda suvda eriydigan ftor miqdori 1,5 STCHKni tashkil etadi. Ifloslangan tuproq qatlami 60 sm chuqurlikka yetadi, bundan tashqari tuproqda ftoridlar jadal to'planishi kuzatildi.

2-hudud - TojAZdan 40-60 kilometr uzoqlikda. Bu hududda tuproq ftor bilan STCHK darajasida ifloslangan, lekin tuproqning haydaladigan qatlamida ftoridlar jadal to'planishi kuzatilgan.

3-hudud - TojAZdan 60-90 kilometr uzoqlikda. Suvda eriydigan ftorning yerni haydash chuqurligida STCHK dan past. Tuproqning yuqori qismida suvda eriydigan ftorning to'planishi jadalligi ko'rsatkichi past dararjada.

4-hudud - TojAZdan 100 kilometr va undan ortiq uzoqlikda. Tuproqda ftorning zaharli shakllari miqdoriga zavod chiqindilarining ta'siri kuzatilmaydi.



Qishloq xo'jaligi o'simliklari-ning ahvoli. O'simliklardagi, ayniqsa, zararli tashlamalar bilan atmosfera ifloslanishi sharoitlarida alohida fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlar kam o'rganilganligi e'tiborga olinib, g'o'za urug'larida, oqsillar tarkibi

o'zgarishining dinamikasi tadqiq etildi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, g'o'zaning ommaviy gullashi davrida meva elementlarining ko'p tushishi kuzatildi, natijada hosildorlik 10-15 foizga kamayganligi ta'kidlandi.

TALKO DUK ta'siri zonasidagi boshqa o'simliklar holatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'rik, uzum, chinor, tut, xurmo, olma, ba'zida anorda morfologik belgilar o'zgaradi va barglar plastinkasi, ayniqsa, uzumda zararlanadi, barglar notabiiy qizil rangga kiradi, so'ngra qurib qoladi. Xurmo, ipak, olma va olxo'ri barglarida barglar plastinkasining pigmentatsiyasi o'zgaradi. Tomatda barglar nafas olishi sur'atining o'zgarishi kuzatildi. Kuchli ifloslanish zonalarida o'simliklarda 200 mg/kg dan ortiq ftorli vodorod to'planadi, vaholanki, barglardagi

ftoridlarning salbiy ta'sir chegarasidagi darajasi quruq massaga nisbatan 15-20 mg/kgdir. Sariosiyo tumanining deyarli barcha xo'jaliklarida o'simliklar barglaridagi ftor tarkibi, ayniqsa, kuzda me'yordan 2-10 baravar oshadi. Fanlar Akademiyasining «Botanika» IICHM va F.N.Rusanov nomli botanika bog'i Sariosiyo tumanidagi mahalliy o'simliklarni tadqiq qilganda, bu yerda ikki turdag'i: «Tarthina» va «Strekeria» zamburug'lar uchrashini aniqlashdi. Bu zamburug'lar xaltalilar oilasiga kirib, barglar qurib qolishi kasalliklari tarqalishining manbai hisoblanadi. Jami aniqlanishicha, Sariosiyo tumanida 26 turdan ortiq fitopatogen zamburug'lari, 24 turdag'i tuproq mikromitsetlari uchraydi. Bu zamburug'lar tarqalishi natijasida o'simliklar holati yomonlashadi, ya'ni barglarda to'q jigarrang dog'lar, kuyishlar namoyon bo'ladi, o'simliklar hosildorligi pasayadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'zbekiston qishlok xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi ma'lumotlariga qaraganda, Sariosiyo tumanidagi «Dashnobod» xo'jaligida o'simliklardagi ozuqaviy mineral elementlar 0,11 ni, nazoratdagi Jarqo'rg'on tumanidagi o'simliklarda 0,55 ni tashkil qiladi. Nazoratdagi Jarqo'rg'on tumaniga nisbatan Sariosiyo tumanidagi o'simliklar tarkibida shakar mikdori 50 foizga kam.

1. Ekologik toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish asosida tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanishni ta'minlash, ko'rib chiqilayotgan hudud atrof tabiiy muhitining ifloslanish darajasini sanitark va ekologik me'yorlargacha pasaytirish; turli darajadagi davlat organlari va tabiatdan foydalanuvchilar munosabatlarini boshqarishning oddiy mexanizmini takomillashtirish va joriy qilish, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashga ekologik talablarni kiritish.

2. Atrof-muhit holatini bashorat qilish va bahlashga kompleks tizimli yondashish maqsadida monitoring, bashoratlash va axborot tizimini tashkil qilish.

3. Davlat dasturlari, fundamental va qo'shimcha tadqiqotlar, shuningdek innovatsion dasturlarda alohida yo'naliш sifatida umumdavlat ekologik muammolarni nazarda tutish.

4. Ikki tomonlama davlatlararo ishchi guruhini tashkil qilish, ya'ni:

a) xalqaro tashkilotlar moliyaviy mablag'larini jalg etish maqsadida, ko'maklashish uchun xalqaro forum tashkil qilish;

b) «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasining salbiy ta'sir zonasida ekologik holatni yaxshilashda hamkorlik qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati o'rtaqidagi Bitim»ning yangi loyihasini tayyorlash;

v) mintaqada ekologik-gigienik holatni tuzatish choralarini ishlab chiqish maqsadida, Tojikiston va O'zbekiston hududlari atrof-muhiti va aholisi salomtligiga ta'siri jarayonini chuqur o'rganish maxsus davlatlararo dasturni ishlab chiqishi zarur

5.Jamiyatning ekologik madaniyatini va malakali kadrlar tayyorlash maqsadida, ekologik ta'lif tizimini rivojlantirish va takomillashtirish zarur.



Savol va topshiriqlar

1. Yerdan foydalanuvchilarga qanday majburiyat yuklanadi?
2. Yer sharida quruqlikning inson foydalanadigan qismi qancha? Yer fondi nima?
3. O'zbekistonda yer fondining qancha gektari dehqonchilikda qanday foydalaniladi?
4. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning necha foizi sho'rangan?
5. Insonni tuproq qoplamiga ijobiyligi va salbiy ta'siriga misollar keltiring. Suv eroziyasi necha xil bo'ladi? O'zbekistonda ko'chma qumlar qayerlarda uchraydi?



12-§. O'simlik, hayvonot dunyosi va ularni muhofaza qilish

Mavzu rejasi

- 1. O'simliklarning xilma-xilligi;**
- 2. Tabiatda modda aylanishida o'simliklarning roli;**
- 3. Yer shari o'simliklarining hozirgi holati;**
- 4. O'rmon resurslari va dorivor o'simliklar;**
- 5. O'simlik dunyosini muhofaza qilish masalalari;**
- 6. Hayvonlarning xilma-xilligi;**
- 7. Tabiatda modda aylanishida hayvonlarning roli;**
- 8. O'zbekiston va yer sharida xayvonot olamining hozirgi holati;**
- 9. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlari.**

O'simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga **380 mlrd. tonna** organik modda hosil qiladi, buning **325 mlrd. tonnasi** dengiz va okean o'simliklariga, **38 mlrd. tonnasi** o'rmonlarga, **6 mlrd. tonnasi** o'tloqlarga to'g'ri keladi.

O'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda katta: atmosferada kislorod balansini tartibga solib turadi, davolovchi va sanitariya - gigienik xususiyatlarga ega. O'rmonlar havodan is gazini

ist'emol qilib tirik organizm uchun naqadar zarur bo'lgan kislorodni fotosintez yo'li bilan yetkazib beradi. Aniqlanishicha, 1 ga maydondagi yaxshi holdagi daraxtzor bir yilda 4,6-6,5 t is gazini yutib 3,5-5,0 t kislorod ishlab chiqaradi. Shuningdek, quruqlikdagi fitomassa is gazini ko'l, dengiz va okeanlardagi fitoplanktonga nisbatan ikki marta ko'p iste'mol qilar ekan. Sayyoraviy miqyosda kislorod balansini barqarorlashtirishda shimoliy yarim shardagi igna bargli va tropik hamda subtropiklarning abadiy yam-yashil bargli o'rmonlari eng ko'p ahamiyatga ega.

O'simlik qoplami yog'in-sochinning asosiy qismini o'z tanalarida tutib qolganligi tufayli yuzaki eroziyaning oldini oladi, daraxtzorlar zinch o'sgan daryo va soy vodiylarida surilma, sel va chuqurlama eroziya kabi hodisalarning sodir bo'lishi kamdan-kam bo'ladi. O'simlik olami, ayniqsa, tog' yon bag'rlarida qor

qoplaming erishini sekin-asta kechishiga ta'sir etadi. Tekisliklarda o'rmon va ihotazorlar shamol eroziyasining oldini oladi, yozning jazirama kunlarida soya-salqinli o'ziga xos mikroiqlim vujudga keltiradi.



Bundan tashqari o'simliklar tabiatda eng muhim jarayonni — fotosintezni amalga oshirib, barcha tirik organizmlarning nafas olishi uchun zarur bo'lgan kislorodni yetkazib beradi. Fotosintez natijasida Yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda,

karbonat angidrid (SO_2) 7 yilda bir marta yangilanib turadi. Insonning kundalik hayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta. SHuningdek, o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida Yer yuzidagi suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlanishida, atmosferaning pastki qismidagi havo oqimiga, shamolning kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga katta ta'sir etadi.

O'simliklar shahar va qishloqlarning mikroiqlimiga ham ta'sir etib, havoni tozalab turadi va havoda kislorod miqdorining doimo yetarli darajada mavjud bo'lib turishini ta'minlaydi. O'simliklar jamiyat uchun behisob oziq-ovqat, xom ashyo, dori-darmon, qurilish materiali va boshqa sohalarning asosiy manbaidir. O'simliklar har xil kiyim bosh, ichimliklar tayyorash uchun, shuningdek chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lib ham hisoblanadi, insonlarga zavq-shavq beradigan estetik lazzat sifatida ham ahamiyatlidir. Yer sharida mavjud bo'lgan 500 ming o'simlik turining 6000 turidan inson kundalik hayotida foydalanadi. Shundan 1500 turi dorivor o'simlik sifatida ahamiyatga ega.

Respublika tabiiy sharoitlarining turli-tumanligi, uning biologik boyliklarining ham har xil bo'lishiga ta'sir etadi. Hozirda o'simliklarning 4168 turi mavjud bo'lib, ularning 577 turi dorivor hisoblanadi.

O'zbekistonning o'rmon fondi 10 mln ga, shundan qariyb 2 mln ga maydon o'rmon bilan qoplangan. O'rmonli yerlar tekislikda, qumli hududda 3 mln ga, tog'

yonbag'irlarida 0,5 mln ga dan ziyod, qayirlardagi o'rmonlar maydoni 31 ming ga, tog' vodiylaridagi to'qay o'rmonlar maydoni 23 ming ga. Respublikamiz o'rmonlarga ancha kambag'al, mamlakat hududining 5% ini tashkil qiladi. Avvallari, xattoki XIX asrning o'rtalariga qadar tog' yonbag'irlarining 700-800 m balandligigacha keng bargli va mayda bargli o'rmonlar tushub kelgan. Adirlar va past tog'lar pista va bodomzorlar bilan qoplangan edi, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zomin, Sox, Sanzar va boshqa daryolar orqali kesilgan bog'langan holda (sol qilib) o'rmon yog'ochlari oqizilgan. "Turkistanskie vedomosti" gazetasida bosilgan (V.Lim, 1996) xabariga qaraganda XIX asr oxirlarida Samarqandga har yili Panjikent va Qoratepadan keng bargli o'rmon yog'ochlarini yoqish natijasida tayyorlangan 13440 pud (1pud-16kg), archalarni kesib tayyorlagan 21120 pud ko'mir keltirilgan, ya'ni yiliga 16800 keng bargli va 17 ming dona archa daraxtlari kesilgan. Tog'lardagi archazorlar, bodomzorlar, olmazorlar, olchazorlar tekislik va tog' etaklaridagi shaharlarda yashovchi aholi tomonidan qurilish materiali, "pista" ko'mir tayyorlash uchun to'xtovsiz qirqilib turgan, tog'lardagi daryo va soy vodiylarida topilgan mis, temir rudalaridan metal olishda ko'plab daraxtlar kesib yoqilgan, shuning uchun ham tog' yonbag'irlari va daryolar bo'ylaridagi to'qayzorlar o'rmonlarga juda ham kambag'al. Archazorlar siyrak, ba'zan katta maydonlarda archa uchramaydi, ularni asosan 1800-2000 m balandlikdan boshlab o'sishi kuzatiladi.

Tekisliklarda ham qora va oq saksovul, cherkez, qandim, shuvoq, to'qayzorlardagi turang'il, jiyda, tol asosan yoqilg'i sifatida qirqilib turganligi tufayli ular endilikda siyrak uchraydi. Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Surxondaryo, Chirchiqning to'qayzorlari XX asrga qadar asosan qirqib bo'lingan edi, faqat onda-sonda kichik maydonlarda dov-daraxtlar saqlanib qolgan. To'qayzorlar keyingi yillarda bearmon yo'q qilindi. Binobarin, insонning xo'jalik faoliyati o'rta asrlar, xususan XVIII-XIX asrlarda o'simlik qoplamenti ancha siyraklashuviga jiddiy ta'sir etgan, XX asrda dov-daraxtlarni qirqish, yangi yerlar ochish maqsadida to'qayzorlarni yo'q qilish davom etdi.

O'zbekistonda o'rmonlarni geografik joylashuviga muvofiq uch toifaga bo'linadi: 1) tog', 2) cho'l va 3) to'qay o'rmonlari. Tog'li hudud mamlakatda 6634 ming ga ga teng. O'zbekiston Respublikasi O'rmon qo'mitasi (1995) ma'lumotiga ko'ra shu maydonning 601,1 ming ga qismida o'rmon o'sishi mumkin, hozirgi kunda esa atiga 105 ming ga dan ziyodroq hudud o'rmon bilan band. Tog' yonbag'irlarining o'rmon bilan qoplanganlik darajasi 2,5 %. Tog' o'rmonlariga uning siyrakligi, yakka holda o'suvchi daraxtlarning ko'pligi, daraxtzorlar orasida yalang bo'sh joylarning bisyorligi xos. Tog' o'rmonlarini asosini archazorlar, pistazorlar va yong'oq, mevali daraxtzorlar tashkil qiladi.

Archa o'rmonzorlari uch turdag'i, ya'ni yarimsharsimon, Zarafshon va Turkiston archa turlaridan iborat. Zarafshon archasi (qora archa) keng tarqalgan va 1500-2300 m balandlikda uchraydi. Yarimsharsimon (sovur) archa 2000-2700 m balandlikda tarqalgan. Turkiston archasi asosan Turkiston tizima tog'larida 2200-3100 balandlikda uchraydi.

Tog' o'rmonlari orasida pistazorlar maydon jihatidan ikkinchi o'rinni egallaydi. Pista-qurg'oqchilikka chidamli va qimmatli mevali daraxt. Pistazorlar sof holda qurg'oqchil tog' etaklari va past tog'lar yonbag'irlarida tarqalgan. Pistazorlarning asosiy qismi Bobotog' tizimasida (Surxondaryo, maydoni 50 ming ga), qisman Samarqand atrofida va boshqa tog'li hududlarda uchraydi. Archazorlar bilan pistazorlar oralig'ida bodomzor, yong'oq, tog' olcha, olma, o'rik, do'lana, na'matak, qora qand va boshqa daraxtli va butali o'rmonzorlar joylashgan. Ular ko'plab meva berishi bilan birga, yonbag'irlarni surilma va eroziyadan muhofaza qiladi.



Tog' o'rmonlarining ahamiyati beqiyos katta, lekin aholi yoqilg'i bilan to'la ta'minlanmaganligi va qurilish materiallari bilan ham barcha joylarda yetarli ta'minlanmaganligi tufayli o'rmonlarni qirqish hollari uchrab turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa qurilish materiallarining qimmatligi aholini

yonbag'irlardagi daraxtlarni qirqishga undaydi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida har bir oila bir yilda yoqilg'i sifatida o'rtacha $15-20\text{ m}^3$ o'tin to'playdi. Qurigan daraxt va butalar bilan birga o'sib turgan daraxtlar ham qirqiladi. Umuman Ugom, Chotqol mintaqasida har yili kamida 21 ming m^3 daraxt va butalar qirqiladi. Agarda bu miqdorni boshqa tog'li viloyatlarni ham qo'shib hisoblasak katta hajmda o'tin tayyorlanishi ayon bo'ladi.

Cho'l mintaqasida o'rmonlarning ahamiyati nihoyatda ulug'vor. Qumli cho'lida qumlarning ko'chib yurishini to'xtatsa, sug'orma yerlarda tuproqni uchib ketishiga tug'onoq bo'ladi, yaylovlarda buta va daraxtlarni mavjud bo'lishi qorako'l qo'yłari iste'mol qiladigan turli xil o't-o'lanlarning o'sishiga imkon beradi. Oq va qorasaksovul, cherkez, chog'on, qandim o'rmon hosil qiluvchi daraxt va butalar hisoblanadi. Ular zinch o'sgan joylarda yaylovlar mahsuldorligi gektariga 2 sentnerdan kam bo'lmaydi, ba'zan 4-5 ts gacha ko'tariladi.

Ammo Respublikaning cho'l qismida geologik-qidiruv ishlarining faollashuvi, avtotransport harakatining kuchayishi, turli ma'danlarni qazib olishni keng miqyosda amalga oshirilayotganligi, shaharchalar qurilayotganligi yaylovlar maydonini qisqarishga ta'sir qilmoqda, mavjud o'rmonlar qirqilmoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda 1 km masofada magistral quvurlar yotqizilishi kamida 4 ga maydondagi yaylovlarni buzilishiga ta'sir etadi.

Cho'l mintaqasida hozirga kelib 1 mln ga maydonda harakatdagi qumlar vujudga kelgan, ularda hech qanday o'simlik o'smaydi va yaylov sifatida foydalanimaydi. Shuningdek, 5 mln ga maydonda mahsuldorligi juda ham kam bo'lgan (gektariga 0,5 ts) yaylov vujudga kelgan, bu hududda harakatchan qum massivlari ustuvorlikka ega. Ular mavjud yaylovlardan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida tarkib topgan. Vohalar (Buxoro, Qarshi, Qorako'l, Qoraqalpog'iston, xususan To'rtko'l, Ellikqal'a) bilan qumli cho'llarni bir-birlari bilan tutashgan mintaqalarida 200 ming ga maydonda harakatdagi (barxanli) qum shakllari mavjud. Bu hol yoqilg'i sifatida saksovullar, cherkez, chog'oni qirqish natijasida vujudga kelgan.

To'qayzorlar yildan yilga kamayib bormoqda. 1978 yilda ularning maydoni 78 ming ga, 1983 yilda-34 ming ga, 1992 yilda-31 ming ga cha kamaydi. Amudaryo deltasida daraxtli-butali to'qaylarning maydoni cho'llashish munosabati bilan, ayniqsa tez muddatlarda keskin qisqarmoqda. 60-yillarga qadar hududda to'qayzorlar maydoni 270 ming ga bo'lgan holda ularning maydoni hozirda 10-15 marta kamaydi. 70-80-yillarda paxta maydonlarini kengaytirish bahonasida daryolar o'zanlariga qadar yangi yerlar ochildi, shuning uchun ham ko'p to'qayzorlar ayni shu davrda butunlay yo'qoldi.

O'simliklarning tuproqni eroziya va deflyatsiyaga qarshi barqarorligini oshirishda bosh omil deb baho berilsa mubolag'a bo'lmasa kerak. CHunki o'simlik mavjud bo'lgan joyda suv yoki shamol o'z kuchini ko'rsata olmaydi. O'simlik qoplami tuproqqa chuqur kirib borgan sari uni yuvilish, surilish va o'yish jarayonlaridan saqlaydi. Barglari, novdalari va poyalari, xullas barcha tanasi bilan yog'in-sochining asosiy qismini qabul qiladi va tuproqqa nam kam tushadi, shamol vaqtida esa uning yo'nalishiga ro'para bo'lib, uning kuchini ancha qirqadi. Agar o'simlik siyrak yoki butunlay mavjud bo'lмаган sharoitda eroziya, deflyatsiya, surilma, sel, garmsel kabi nohush hodisalar tabiiy komplekslarga jiddiy zarar yetkazadi. Eng dahshatлиsi tuproq usti yuvilishi va u qulay sharoitlarda jar eroziyasiga o'tib ketishi tabiatda ko'p kuzatiladi. Qiya tog' yonbag'irlarida lyossimon yotqiziqlar yoki lyoss qoplami yog'in-sochin vaqtida namga bo'kishi natijasida og'irlik massasi bir necha barobar ortib ketadi va mazkur yotqiziqlar ostida suv o'tkazmaydigan, qumtosh yoki namga chidamli boshqa jinslar ustida qiyalik ustida bir necha 10 yoki 100 m ga surilib tushadi. Bu hodisa katta hududlarda sekin-asta, ba'zan bir zumda ro'y berishi mumkin. Surilgan hududda yoki uning oldida qishloq, chorva fermasi, avtomobil yo'li, biror korxona va boshqa xo'jalik ob'ektlari joylashgan bo'lishi mumkin. Buning oqibatida surilgan grunt massivi chuqur va keng yoriqlarga ajralib ketadi va o'z yo'lida uchragan barcha inshootlarni yakson qiladi. To'satdan bo'lgan bunday nohush hodisalarning iqtisodiy zarari va oqibatlari bir necha yuz minglab so'm bilan hisoblanadi.

O'rmonning amaliy ahamiyati g'oyatda ulug'vorligi va respublikada ularning maydoni nihoyatda kamligini hisobga olib yangi o'rmonzorlar bunyod etish ishlari muttasil olib borilmoqda. Cho'llarda qum rel'ef shakllarining harakatlarining oldini olish uchun ixotazorlar vujudga keltirilgan, tog' yonbag'irlarida eroziya, surilma va sel hodisalarini rivojlanishini to'xtatib qolish borasida joylarda tog' o'rmonzorlari yaratildi. Sug'oriladigan yerlardagi ixotazorlar tuproqni eroziya va deflyatsiyadan saqlashda xizmatlari benihoya yuqori. Lekin shunga qaramasdan mamlakatda o'rmonlar maydonini keskin ravishda kengaytirish ishlarini ko'ngildagidek deb bo'lmaydi.

Bizningcha, yangi o'rmonlarni kamida yiliga 100-120 ming ga maydonda bunyod etish ko'zlangan maqsadga erishishga imkon beradi. Bu borada vohalar bilan qumli cho'lni tutashgan mintaqasida oraliq ixotazorlar vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Chunki bir necha maxsus qatorlarda (oraliq masofa 100-200 m) ihotazorlar cho'ldan esadigan issiq va quruq changli shamollarni tutib qoladi, harakatdagi qumlarning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Cho'l sharoitida avtomobil yo'llarining ikki chekkasida yo'l ihotazorlari (cherkez, qandim, oqsakovul va b.) vujudga keltirilishi avvalo yo'lni qum bosishdan saqlasa, boshqa tomondan, yo'lovchilar estetik zavq oladilar, yo'l chekkalarida o'ziga hos mikroiqlim vujudga keladi. Qumli cho'llarda bir tomondan, yaylovlarning mahsuldarligining kamligi, ikkinchi tomondan, harakatdagi qumlarning mavjudligini hisobga olgan holda ihotazorlarni vujudga keltirish loyihalaniladi. Bunda aholi punktlari (quduqlar, shaharchalar), turli inshootlar, suv, neft, gaz quvurlari chekkalari ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Tog' yonbag'irlarda o'rmonlarni bunyod etishda bir qator omillarni e'tiborga olish darkor. Eng avvalo surilma va eroziyaga moyil yonbag'irlarni, sel kelishi xavfi bo'lgan soy yonbag'irlari va o'zanlar chekkalari, qor ko'chkilari rivojlanishi mumkin bo'lgan hududlar o'rmon bilan qoplanishiga erishish zarur. Qishloqlar va turli xo'jalik inshootlari, binolar, avtomobil va temir yo'llar, rekreatsiya ob'ektlari atroflari va ularning hududlari zich daraxtzorlar bilan qoplanishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan tabiiy ofat keltiruvchi hodisalarни vujudga kelishiga imkon bermaydi.

Yangitdan vujudga kelayotgan jarliklar, surilishi ehtimol qilinayotgan yonbag'irlar, ayniqsa, tez muddatlarda daraxtzorlar bilan mustahkamlanishi yaxshi samara beradi. Bunday joylarda mol boqishni taqiqlash ma'qul.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 fevralda tasdiqlagan qarorida 1994-2016 yillar mobaynida har yili kamida 10 ming ga maydonda terak va boshqa tez o'suvchi imoratbop daraxtlar ekish ta'kidlangan. Rossiyadan keltirilayotgan yog'och va taxta respublikaga juda ham qimmatga tushmoqda. Terak va boshqa tez o'suvchi daraxtlar ekish bilan 8-10 yil mobaynida ko'p miqdorda imoratbop yog'och tayyorlash mumkin. Prof. A.Xonazarovning hisob-kitobiga ko'ra 1 ga terakzordan 10 yilda kamida 500m^3 , 10 ming ga maydondagi terakzordan esa 5mln m^3 yog'och olinishi mumkin. Kaliforniya teragi esa tez 5-6 yilda voyaga yetadi, biroq u mo'rtroq va tez sinadi. Bu jihatdan ko'k terak bilan mirzaterak yog'ochi ancha qattiq va zichligi bilan ajralib turadi.

Teraklarni barcha sug'orish tarmoqlarining chekkasida, shaharlar, aholi punktlari, vohalarning ekin ekilmaydigan va notekis joylarida o'stirish imkonini bor, undan ixota o'rmoni sifatida foydalanish mumkin. Terakdan nafaqat yog'och, taxta, shunigdek, undan a'lo sifatli qog'oz tayyorlanadi. Teraklarni respublikada mavjud bo'lgan qariyb 200 ming km masofaga cho'zilgan sug'orish shahobchalarining chekkalarida vujudga keltirish mumkin, chunki ularning atigi 7 ming km dagi qismida daraxtzorlar mavjud xolos. Terak va mevali daraxtlarning temir-betonli novlar bo'ylab ekilsa, avvalo suv bo'yida o'ziga xos mikroiqlim tarkib topar edi, keyin esa turli mevalar yetishtirilgan bo'lardi. Bu borada ayrim tumanlarda (Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Xorazm) namunali ishlar qilinmoqda. Suv omborlari va selxonalar atroflari daraxtzorlarni vujudga keltirish ob'ekti bo'lishi lozim, respublikadagi deyarli barcha suv havzalari chekkalari o'rmonzorlar bilan band emas.

Yirik sanoat tugunlari va korxonalari hududlarida va atroflarida maxsus ixotazor bunyod etish har jihatdan ham zarur, chunki daraxtlar zararli moddalarni, ayniqsa changlarni yutib, havoni tozalaydi, havo namligi va haroratni rostlab turadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 31 dekabrdagi

qaroriga muvofiq Qoravulbozor neft sanoati korxonalari atrofida 18 ming ga maydonda o'rmonzorlar vujudga keltirish ishlari qizg'in olib borilmoqda. Xuddi shunday xayrli ishni Muborak, Sho'rtang gaz-kimyo sanoati, Navoiy kimyo ("Azot" birlashmasi) korxonalari va boshqa sanoat ob'ektlari atroflarida vujudga keltirish ayni muddao.

Ushbu tadrijiy tabiiy sharoitda zaminni mustahkamlash g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada eng ishonchli, arzon, tez muddatlarda samara beradigan tadbir ma'lum loyihalar asosida ixotazorlar vujudga keltirish hammadan ham qulay va iqtisodiy jihatdan arzon hamda zaruriy chora hisoblanadi. Fitomelioratsiya (o'simliklarni ekish va o'stirish bilan melioratsiya qilish) yo'li bilan tuproqni eroziya va deflyatsiyadan saqlab qolish Amudaryo deltasi va Orolning qurigan qismida 80-yillarning 2-yarmida boshlangan. Orolni qumli hududlarida (O'zbekiston qismida) 1989 yildan e'tiboran har yili kamida 10 ming ga maydonda qora saksovul, cherkez, qandim, chog'on va boshqa quruq sevar va sho'rni xush ko'ruvchi o'simliklarning urug'i va qalamchasini ekish bilan fitomelioratsiya amalga oshirilmoqda. Keyingi vaqtarda (90-yillardan boshlab) ish maydoni ortib bormoqda. 1998 yilning boshlarida jami fitomelioratsiya qilingan maydon jami 150 ming ga dan ortdi. Albatta bu raqam unchalik ko'p emas agar barcha qurigan qism 3,8 mln ga deb hisoblansa, uning qariyb 2 mln ga qismi respublikamizga tegishli. Hozirga kelib o'simlik ekish mumkin bo'lgan maydon taxminan 400-500 ming ga ni tashkil qiladi. Binobarin, endigina uning uchdan bir qisminigina o'simlik bilan mustahkamlashga erishildi, xolos. Bizningcha fitomelioratsiya ishlari suratini va qamrab olinayotgan maydon hajmi kamida 2 marta oshirilishi ayni muddao. Chunki dengiz chekingan sari uning qurigan qismida fitomelioratsiya qilinadigan maydon miqyosi ham ortib bormoqda, demak, shamolni o'yuvchanlik va harakat maydoni tobora ortib bormoqda.

Amudaryo deltasida ham ixotazorlar vujudga keltirish borasida ancha ishlar qilinmoqda. Chimboy, Mo'ynoq, Bo'zatov, Qo'ng'iroq, Qorao'zak tumanlari o'rmon xo'jaliklari o'zanlar bo'yalarida to'qayzorlarni qaytatdan tiklash, qumli hududlarda fitomelioratsiya ishlarini amalga oshirmoqdalar. Eng qizig'i shundaki,

deltaning botiqlar oralig’idagi balandroq qismlarida o’tloq-taqir tuproqlarning taqirsimon tuproqlarga rivojlanib o’tishlari tufayli joylarda (Qo’ng’irot-Mo’ynoq avtomobil yo’lining ikki chekkasi va uning ichkari hududlari) tabiiy yo’l bilan qora saksovul keng tarqalmoqda. Gap ana shu tabiiy yo’l bilan kengayib borayotgan qora saksovulning aholi tomonidan kesib ketilmasligida. Agarda ularni vegetatsiyasi uchun inson tomonidan to’sqinlik qilinmasa, u tabiiy yo’l bilan zaminni mustahkamlab boradi.

Hayvonot dunyosi. Hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo’lib, tabiatda moddalar va energiya almashinuvida ular muhim rol o’ynaydi. D.N.Kashkarovnnng dastlabki ishlari O’rta Osiyoning kemiruvchilarini o’rganishga qaratilgan edi. Olim ularning biologiyasi, sistematikasi va zarariga e’tibor berish bilan birga hayvonlar ekologiyasi bo’yicha ham ish olib bordi. 1928 yilda D.N.Kashkarov AQSH ga bordi, chunki bu vaqtda AQSHda ekologiya fani birmuncha rivojlangan edi. U 7 oy mobaynida yirik ekologlarning ishlari bilan tanishib chiqdi, jumladan, Adams, Shelvord, Chepman, Grinell, Elli, Teylor, Forxis va boshqalarning ishlarini o’rgandi. U 12 ta universitet, muzey, qo’riqxonalar bilan tanishadi. D.N.Kashkarovning Leningrad universitetiga ketishi munosabati bilan O’zbekistonda ekologik yo’nalish uning davomchilari V.A. Selevin, T.3.Zohidov, I.I.Kolesnikov ishlarida rivojlandi. Keyingi yillardagi zoologiya tadqiqotlari O’zbekiston FAning Zoologiya va parazitologiya instituti faoliyatini bog’liqdir. Institut 1950 yilda biologiya fanlari bo’limi tarkibida tashkil etilgan. Uning asosiy tadqiqot yo’nalishlari O’zbekiston hayvonot olamining umumiy qonuniyatlarini o’rganishga qaratilgan. 1950 yildan boshlab institutda hayvonlar ekologiyasida ro’y beradigan ayrim jarayonlar va qonuniyatlar o’rganila boshlandi. Ayniqsa, insoniyat ta’sirida hayvonlarning tarqalishi hamda tarkibiy o’zgarishlari, shuningdek parazit bo’g’imoyoqlilar, gelmint va oddiy organizmlar hayat davri va invaziya yo’llarini o’rganishda batafsil tadqiqotlar o’tkazildi. Institutning muhim amaliy tadqiqotlariga hayvonot olamini qo’riqlash va undan oqilona foidalanish tadbirlari asoslarini tayyorlash, qishloq xo’jalik hayvonlari invazion kasalliklarining oldini olish, qimmatli hayvon turlarining kadastri va nazorat ishlari

olib borishlar kiradi.

O'zbekiston FA ning akademiklari T.Z.Zohidov, A.M.Muhammadiev, muxbir a'zolaridan V.V.Yaxontov, M.A.Sultonov, R.O.Olimjonov kabilar O'zbekistonda zoologiya tadqiqotlarining rivojlanishida o'z hissalarini qo'shganlar. Ular o'zlari hamda shogirdlari bilan birgalikda yirik monografiyalar yaratdilar. Jumladan, M. A. Sultonovning «O'zbekiston qushlarining gelmentlari» (1963), V. V. Yaxontovning «Hasharotlar ekologiyasi» (1963), T.3.Zohidovning «Qizilqum cho'lining biotsenozlari» (1971) kabi asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Keyingi yillarda institut olimlari «Hayvonot olamini qo'riqlash va undan ratsional foydalanish» ilmiy asoslarini ishlash dasturiga oid tadqiqotlarga kirishdilar. Bundan maqsad kuzatuv tadqiqotlari (monitoring) axborot yig'indisini tahlil qilish va tartibga solish, genofondni saqlash hamda imkoniyatlarni o'rganish, hayvonot olamini qo'riqlashdan iboratdir. Asosiy yo'nalish jumhuriyatda ekologik kuzatishlar nazariyasini tizimlashtirishda keng miqyosda kompyuter texnikasidan foydalanishdan iborat, bu esa o'z navbatida yuqori darajada nazariy va amaliy natijalarga erishishni hamda tabiatni qo'riqlash samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Shu maqsadda institut tarkibida ekologik kuzatish (monitoring) laboratoriysi tashkil etilib, bunda yuqorida ko'rsatilgan muammoga oid muhim tadqiqotlar o'tkaziladi, parazitologiya va gelmintologiya sohasida chuqr izlanishlar davom ettiriladi, ular taksonomik tekshiruvlarni ta'minlaydi. Biologik takrorlanishlar, ekologik xususiyatlar hamda hayvonlar ekto va endo-parazitlariga qarshi integral kurash choralari o'rganiladi.

Institutdagagi ilmiy ishlar asosan undagi bir qancha yo'nalishdagagi laboratoriyalarda olib borildi. Hasharotlar yoki entomologiya laboratoriysi 1950 yilda tashkil etilgan. Unga taniqli olimlardan A.N.Lujetskiy (1950—1953 yillar), O'zFA muxbir a'zolari R.O.Olimjonov (1954—1957 yillar), V.V.Yaxontov (1958—1970 yillar), biologiya fanlari nomzodi O.G.Davletshina (1971-1983 yillar) va N.E.Ergashev (1981-1985 yillar)lar rahbarlik qilganlar.

Ternologiya bo'limi laboratoriyasida X.S.Solihboev, G.I.Ishuninlar Turkiston tog'larining ov hayvonlarini o'rgandilar. 60-yillardan boshlab


X.S.Solihboev rahbarligida ilmiy ijodxona oldiga issiq iqlimda yashovchi hayvonlarning hayotini o'rganish tavsiya etiladi. Natijada «O'zbekiston janubidagi umurtqali hayvonlarning ekologiyasi va xo'jalik ahamiyati» degan asar yaratildi. Bunda sутемизувчи hayvonlar ekologiyasiga va xo'jalikda ahamiyatga ega bo'lgan turlariga alohida e'tibor berildi. Qarshi cho'lini o'rganish natijasida D.Kashkarov, A.Zokirov, A.Petrovalar birgalikda «Qarshi cho'lining umurtqali hayvonlari ekologiyasi»ni yaratdilar. Bu asarda sut emizuvchi hayvonlarning tarkibi, tarqalishi, ekologiyasi va ulardan foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan.

Nurota tog'ining hayvonot dunyosini o'rganishda H.S.Solihboev, O.P. Bogdanov, T.A.Palenko, S.T.Gubaydulina, G.I.Ishunin, D.Yu.Kashkarov, N.Zokirovlar ilmiy ishlari natijasida «Nurota tog'i umurtqali hayvonlari ekologiyasi» nomli asar yaratildi. T.Zohidov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari nomzodi G.S.Sultonovlar tashabbusi bilan sut emizuvchilarni o'rganish ilmiy ijodxonasi tashkil qilindi.

Hayvonlar o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'lib turadi. O'simliklarning Quyoshdan olayotgan energiyasini 100% desak, shuning 50% ini o'zlashtirib organik moddalar hosil qiladi. Ana shu organik moddalar o'txo'r va bir-biri bilan ovqatlanadigan etxo'r hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadi. Natijada hayvonlar faoliyati normal o'tadi. Hayvonlar insonlar hayotida avvalo oziq-ovqat resurslari sifatida katta ahamiyatga ega; qolaversa mo'yna tayyorlashda va ko'pgina boshqa sohalarda muhim rol o'ynaydi. Inson o'zining xo'jalik faoliyatida hayvonlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ba'zan salbiy, ba'zan esa ijobiy bo'lishi mumkin. Salbiy ta'sir etganda hayvonlarning soni kamayib ketishi, ularning holati yomonlashishi mumkin. Insonlarning salbiy ta'siri natijasida respublikamizda mavjud bo'lgan sутемизувчи yovvoyi hayvonlarning 99 turidan 32 tasi, parrandalarning 410 turidan 31 tasi, baliqlarning 79 turidan 5 tasi «Qizil kitob»ga kiritilganligi bizga ma'lum. Yangi Qizil kitobga (2006) sut emizuvchilarning 23 turi (kenja turlar bilan 24), qushlarning 48 turi (kenja turlar bilan 58), sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi (kenja turlar bilan 18), xalqasimon chuvalchanglarning 3 turi, malyuskalarlarning 14 turi (kenja turlar

bilan 15) va bo'g'imoyoqlarning 61 turi (kenja turlar bilan 62) kiritildi. Jumladan, katta shomshapalak, shalpangquloq, ko'rshapalak, oq suvur, qo'ng'ir ayiq, sirtlon, qoplon, xongul, irbis, jayron, Ustyurt qo'yi, Qizilqum yovvoyi qo'yi, arxar, lochin, itolg'i, ov turna, tuvaloq, bizg'aldoq, qum chumchug'i, echkemar, Osiyo kobrasi, baxri baliq, mo'ylov baliq, Sirdaryo kurakburuni va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Hayvonlarni muhofaza qilish, ularning tabiatdagi muvozanatini saqlab qolish, kamayib ketgan hayvonlar sonini qayta tiklash uchun asosan ovchilik va baliq ovlashni tartibga solish, qo'riqxona va buyurtma (zakaznik)larni tashkil etish lozim. Hayvonlar yashaydigan joylarning ekologik holati yaxshilanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yerlardan foydalanganda hayvonlar uchun o'tlaydigan maydonlar qoldiriladi, ularni iqlimlashtirishga e'tibor beriladi, zaharli preparatlar ta'siridan himoya qilinadi va shunga o'xshash tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda hayvonot dunyosining 600 ga yaqin turi yashaydi, sut emizuvchilarning 97 turi, qushlarning 379 turi, sudralib yuruvchilarning 58 turi mavjud. Respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda ov qilinadigan va baliq tutiladigan joylarinng maydoni 38 mln ga dan iborat, shundan 0,5 mln ga suv havzalariga to'g'ri keladi. Har yili o'rtacha 60 ming tacha suvda suzuvchi qushlar, tahminan 2 ming tustovuq, 13 ming kaklik, 500 bosh yovvoyi to'ng'iz, bir necha mingta sayg'oq, 50 mingdan 100 mingtagacha toshbaqa, 10000-100000 tagacha qurbaqa va boshqa hayvonlar ov qilinadi. Albatta, bular rasmiy ma'lumotlar, aslida ov qilinadigan hayvonlar, ayniqsa, qushlar soni bundan ko'p, brokonerlar tutgan va otgan hayvonlar miqdorini hech kim hisob-kitob qilmaydi. Shuning uchun ham respublikada nazorat o'rnatilishiga qaramasdan ov qilinadigan hayvonlarinng soni borgan sari kamayib bormoqda.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonnig o'simlik boyliklari va ulardan foydalanish qanday ahvolda?
2. O'simlik resurslardan foydalanishda qanday ekologik muammolar mavjud?

3. O'simlik resurslardan oqilona foydalanish uchun qanday tadbirlarni qo'llash lozim?
4. O'simlik resurslarni muhofaza qilishning ekologik-ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati to'g'risida gapiring.
5. O'zbekistondagi hayvonlar to'g'risida nimalar bilasiz?
6. Hayvonot dunyosi saqlash uchun qanday tadbirlarni qo'llash lozim?
7. Hayvonot dunyosini muhofaza qilishning ekologik- ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati to'g'risida gapiring.
8. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishda "Qizil kitob"ning o'rni qanday?



13-§. Muhofazaga olingan hududlar

Mavzu rejasi

1. *Qo'riqxonalar;*
2. *Buyurtmaxonalar;*
3. *Milliy bog'lar;*
4. *Tabiiy yodgorliklar;*
5. *"Jayron" ekomarkazi;*
6. *O'zbekiston "Qizil kitobi".*

Fan va texnika taraqqiyoti sharoitida inson xo'jalik faoliyati natijasida keskin o'zgarayotgan tabiiy boyliklarga ongli munosabatda bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday uchastkalar qo'riqxonalar, rezervatlar, tabiiy bog'lar, tabiat yodgorliklari va buyurtmachilar deyiladi. Hozirgi kunda Yer kurrasi bo'yicha muhofaza qilinadigan hududlar soni 20 mingdan ko'p.

Qo'riqxona quruqlik va suv havzasining xarakterli tabiiy landshaftlari bo'lgan ma'lum bir maydon bo'lib, tabiatni muhofaza qilishning eng samarali shakllaridan biridir.

Qo'riqxonalarning asosiy vazifasi - tabiatning diqqatga sazovor, qimmatli landshaftlarini jamiyat manfaatlari uchun saqlashdan iborat.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar orasida qo'riqxonalar muhim rol o'ynaydi. Qo'riqxona hududlaridan xo'jalikda foydalanish, hatto, pichan tayyorlash ov qilish, baliq tutish, zamburug' terish

umuman taqiqlanadi.

Qo'riqxonalarning hududlaridagi majmualar tabiiy holda saqlanadi. Ular inson tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtirilayotgan qo'shni hududlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Qo'riqxonalarning vazifasi tabiatni bir butun holda o'rganishdir. Ular landshaft tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlarni bilib olib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun zarur. Inson tomonidan o'zlashtirilgan landshaftlarga moslasha olmagan hayvonlarni faqat qo'riqxonalarda saqlash mumkin bo'lmoqda. Bular zubr, qulon, moral, begemot, yo'lbars, arslon, qoplon, ilvirs, suv kalamushi, turach, qizil g'oz, gagra va boshqalardir. Shuningdek, bir qancha o'simlik turlari faqat qo'riqxonalarda saqlanmoqda. Qo'riqxonalar ovlanadigan hayvonlarni saqlash va ularni ko'paytirishda ham katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, qo'riqxona hududlari turli xil hayvon va o'simlik turlarini, ovlanadigan hayvonlarning miqdori va genetik fondini saqlash uchun xizmat qiladi. Mamlakatimizda hamma qo'riqxonalar ilmiy muassasalar hisoblanadi. Qo'riqxonalarda minglab xodimlar tabiiy majmualarni va ularning ayrim tarkibiy qismlarini tekshiradilar.

Barqaror taraqqiyoti uchun tabiatni muhofaza qilish va biologik xilma-xillik resurslarini saqlab qolish katta ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli O'zbekiston Respublikasi 1995 yilda Xalqaro biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsiyaga (CBD, Rio-de-Janeyro) qo'shildi. 1998 yilda hukumat tomonidan O'zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasining tasdiqlanishi bioxilma-xillikni saqlab qolish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi. Bu strategiyaning asosiy vazifalaridan biri mamlakat umumiyligi maydonining 10%gacha qismini qamrab oluvchi muhofaza etiladigan tabiiy xududlar barqaror tizimini tashkil qilish hisoblanadi. O'zbekistan Respublikasida bioxilma-xillikni muhofaza qilish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to'laqonli amalga oshirilmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy xududlarni tashkil qilish, muhofaza etish va foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi hukumat, joylardagi davlat hokimiyati

organlari, shuningdek maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro darajada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining taraqqiyoti Umumjahon tabiatni muhofaza etish uyushmasi, xususan, Umumjahon muhofaza etiladigan tabiiy hududlar komissiyasi (WCPA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Biroq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar butligi va samarali menejmentini davlat miqyosida ta'minlash muhofaza etiladigan tabiiy xududlarni boshqarishning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Muhofaza etiladigan hudud - bu biologik xilma-xillikni hamda tabiiy resurslar va ular bilan bog'liq madaniyat elementlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan, bunday maqsadga xos bo'lgan qonuniy va ma'muriy boshqaruv tartibiga bo'ysungan quruqlik va dengiz qismi (IUCN1994). O'zbekistan Respublikasi tomonidan Bonn Konvensiyasi (CMS, Bonn, 1998), Ramsar Konvensiyasi (Ramsar, Convention on Wetland), Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi Konvensiya (CITES, Vashington, 1997), yaqin va uzoq xorij davlatlar bilan tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar imzolangan. 1972 yilda YUNESKO tomonidan «Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilindi, unda birinchi marta jahon xalqlarining «Umumjahon merosi»ni tashkil qiladigan universal qadriyatga ega bo'lgan ba'zi tabiiy za madaniy boyliklarni himoya qilish va saqlash mas'uliyati belgilab berildi. 1975 yilda ushbu konvensiyani 21 davlat ratifikatsiya qildi, hozirgi paytda konvensiya tomonlariga aylangan davlatlar umumiy soni 180 ga yetdi. O'zbekiston Respublikasi bu konvensiyaga 13.01.93 yilda qo'shildi. «Umumjahon merosi» ro'yxatiga taqdim etilgan ob'ekt madaniyat yoki tabiat boyligi merosi, madaniy landshaft bo'lishi mumkin. Tabiat boyliklari - bu yuksak estetik yoki ilmiy qadriyatga ega bo'lgan tabiiy (jismoniy yoki biologik) tuzilmadir. O'zbekiston bo'yicha «Umumjahon merosi» ro'yxatiga 4 ta (madaniy, tarixiy) ob'ekt kiritilgan: bular Xivadagi Ichon kal'a (1990), Buxoro (1993) va SHaxrisabzning tarixiy markazlari (2000), Samarqand - madaniyatlar

chorrahasi (2001). Hozirgi paytda Davlat biologik nazorati (Dav-bionazorat) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya ishtirokida O'zbekiston Respublikasining tabiat boyliklari merosi dastlabki ro'yxati tayyorlandi hamda «Umumjahon merosi» qo'mitasiga taqdim etildi. «Umumjahon merosi» ro'yxatiga 6 ta (tabiiy) ob'ekt: Tog'li Hisor, CHotqol biosfera qo'riqxonasi, Zomin tog'lari (Zomin qo'riqxonasi va Zomin milliy bog'i), SHohimardon. Boysun tumani (qo'shma sayt) va Sarmishsoy (qo'shma sayt) kiritildi. Ob'ektning mazkur ro'yxatga rasman kiritilishi uning xalqaro nufuzini oshirib, keyinchalik uni saqlab qolish bo'yicha dolzarb masalalarni hal qilish uchun mablag' olish imkonini beradi. Ob'ekt rasmiy sertifikat oladi va o'z nomi, chegara va axborot nashrlari va hokazolarda mazkur rasmiy nishonni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risidagi KonVENTsiya (Ramsar konVENTsiyasi) 1971 yilda Ramsar (Eron) shahrida imzolandi Uning asosiy maqsadi suv-botqoq joylari (ko'llar, daryo vodiylari, botqoqlashgan xududlar, dengiz qo'lqiqlari) va suvda suzuvchi qushlarni aniqlash va saqlab qolishdan iborat. O'zbekistan Respublikasi 2001 yilda Ramsar konVENTsiyasiga qo'shildi. O'zbekiston hududida suvda suzuvchi va suv atrofida yashaydigan qushlar to'planadigan joylar sifatida juda muhim, suv organizmlari katta zahirasiga ega, muhofaza qilinishi va to'gri barqaror foydalanimishini talab qiladigan taxminan 10 ta suv havzasi (asosiyлари - Dengizko'l, Sudoche, Arnasoy, To'dako'l, Qoraqir) mavjud. Ro'yxatga xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari, masalan, Dengizko'l kiritilgan. Hozirgi paytda ro'yxatga kiritilgan qisman o'zini-o'zi moliyaviy mablag' bilan ta'minlash ko'zda tutilgan, bu ekologik turizm, rekreatsiya tashkil etish, tabiat resurslaridan foydalanimishga ruxsatnomaga berishdan tushgan foyda hisobiga amalga oshiriladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, birinchi bor xususiy buyurtmaxonalar va parvarishxonalar yaratish mumkinligi qonuniy ta'minlandi. Bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni

O'zbekiston Respublikasida hozirda **muhofaza etiladigan tabiiy hududlar** tizimiga umumiy maydoni 2164 km^2 bo'lgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, maydoni 6061 km^2 bo'lgan 2 ta milliy bog', maydoni $12186,5 \text{ km}^2$ bo'lgan 9 ta davlat buyurtmaxonasi va 1 ta noyob hayvon turlarini ko'paytirish bo'yicha respublika markazi (Jayron ekomarkazi) kiradi.

xususiy lashtirishni anglatmaydi. Yer maydonlari va boshqa tabiat ob'ektlari yuridik va jismoniy shaxslarga faqat foydalanishga beriladi. Bu nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini jalb etishga imkon beradi, shu jumladan tabiat ob'ektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash, qayta tiklash va qayta ishlab chiqarishni ta'minlash uchun turli milliy va chet ellik tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarini jalb etishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida hozir ikkita xususiy pitomnik tashkil etildi: Buxoro viloyatida (Peshku tumani) yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Birds Breeding» MCHJ pitomnigi (2007 y.); Navoiy viloyatida (Karmana) yo'rg'a tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Centre for Conservation of Houbara» MCHJ pitomnigi (2008 y.). «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilingandan keyin ko'p sonli ob'ektlarga - o'rmon xo'jalik korxonalari va ovchilik xo'jaliklariga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomi berilmoqda. Bu bioxilma-xillikni muhofaza qilishning xududiy jihatdan qamrab olingan maydonlarni ancha ko'paytirish imkonini beradi.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar umumiy maydoni 20520 km^2 ni yoki respublika umumiy hududining 5,2 foizini tashkil qiladi. Quyida ularga alohida to'xtalib o'tamiz.



xususiy lashtirishni anglatmaydi. Yer maydonlari va boshqa tabiat ob'ektlari yuridik va jismoniy shaxslarga faqat foydalanishga beriladi. Bu nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini jalb etishga imkon beradi, shu jumladan tabiat ob'ektlari va

1. Zomin tog' archazorlari davlat qo'riqxonasi. U Turkiston tizmasi g'arbiy qismining shimoliy yonbag'rida, Zomin tog'ida 1900—3500 metr balandlikda joylashgan. 1928 yilda tashkil etilgan. Maydoni- 2648 ga. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv

xo'jaligi tasarrufida. Bu yerda tog', dasht, o'rmon va subalp o'simlik mintaqalari mavjud. Qo'riqxona hududida hayvonlarning 152 turi uchraydi, shundan 16 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 700 turi, shundan 13 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan. Qo'riqxona hududining katta qismi archazordan iborat. Bu yerda archaning uch turi uchraydi. O'rmonzorning pastki qismida Zarafshon archasi, o'rta qismida, saur archa, yuqori qismida Turkiston archasi o'sadi. Qo'riqxonada sudralib yuruvchi hayvonlarning 6 turi, qushlarning 63 va sutevizuvchilarning 18 turi mavjud. Sutemizuvchilardan - oq tirnoqli ayiq, to'ng'iz, silovsin, bo'ri, tog' echkisi, arxar, jayra, quyon, qushlardan - kaklik, qirg'iy, burgut, boltayutar, Himolay kurkasi, tog' qarg'asi, sudralib yuruvchilardan - qalqontumshuq ilon, chipor ilonlar yashaydi. Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasida archazorlarning tabiiy holati va archa o'rmon mintaqasiga xos tipik tabiiy geografik majmualarni saqlash ularni har tomonlama tadqiq etish, tabiiy resurslar sifatini yaxshilash, ularni ko'paytirish shuningdek, archa biologiyasini o'rganish, archazorlarni kengaytirish, hayvonot dunyosini saqlash va tiklash bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Qo'riqxona har yili o'rmon xo'jaligiga 1,5 tonnadan ko'proq qimmatli archa urug'ini yetkazib bermoqda.


2. Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi. Mazkur qo'riqxona Toshkent viloyati hududidagi Chotqol tizmasining janubiy-g'arbiy qismida dengiz sathidan 1000—3200 metr balandlikda joylashgan. 1947 yilda tashkil etilgan. Toshkent viloyati hokimiyyati tasarrufida. Qo'riqxona hududida hayvonlarning 152 turi uchraydi, shundan 16 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 700 turi, shundan 13 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Maydoni -35724 ga shundan, o'rmonlar 6586 ga, dalalar 7047 ga, hovuzlar 81 ga ni tashkil kiladi. Qo'riqxona Toshkent viloyati hududida Chotqol tizmasining g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxonaning maqsadi G'arbiy Tyan-Shyanning tog'li ekotizimlarini saqlash va atrof-muhit holatining ekologik monitoringidan iborat. Chotqol qo'riqxonasi florasi 1168 turga ega bo'lib, mintaqqa uchun xosdir. Bu yerda Qo'riqxona uchun endem bo'lган 6 tur

o'sadi. Qo'riqxona o'simliklarining 28 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Bu yerda 44 turdag'i sut emizuvchi, 230 dan ortiq turdag'i qush, 16 turdag'i sudralib yuruvchi va 2 turdag'i suvda va quruqlikda yashovchi, 3 mingdan ortiq turdag'i umurtqasizlar yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga bir turdag'i ilon, 10 turdag'i qush va uch turdag'i sut emizuvchi kirgan. TMXRM Qizil kitobiga yo'qolib ketish xavfi ostida ilvirs (*Uncia uncia*), ko'k sug'ur (*Marmota menzbiri*), o'rmon sonyasi (*Dryomys nitedula*), ko'rshapalaklar - kichik va katta takaburunlar (*Rhinolophus ferrumequinum*, *Rh. hipposideros*) va uch rangli tun-shapalak (*Myotis emarginatus*); qushlardan: tasqara (*Aegypius manachus*), quyqa (*Falco naumani*), qora kaptar (*Columba eversmanni*), oqqanot qizilishton (*Dendrocopos leucopterus*) kiritilgan.Qo'riqxona hududiy ma'muriy organ - Toshkent viloyati hokimligiga bo'ysunadi. YUNESKO MAB Dasturi Xalqaro Muvofiqlashtiruv kengashining 9-qurultoyida unga biosfera maqomi berildi. 1993 yilda belgilangan tartibda xalqaro biosfera rezervatlari tarmog'iga kiritilgan, lekin uning talablariga javob bermaydi. Maqomini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 53 yil davomida ko'riqxona muhofaza etiladigan hudud maqomida tabiiy muhitning bir qismi, keng tarqagan yoki noyob landshaft shakllari yoki o'simlik va hayvonlar genetik resurslarini saqlash joylari sifatida tabiatni muhofaza qilish, ilm-fan va ekologik ta'llim uchun katta ahamiyatga ega bo'lган tabiiy komplekslar (yer, yer osti boyliklari, suv, flora va fauna)ni muhofaza qilishga xizmat qilib kelmoqda.Qo'riqxona hududida quruq dashtdan tashqari mevali o'rmonlar, archazorlar, alp o'tloqlari kabi landshaft mintaqalari mavjud. Bu yerda 600 dan ortiq o't, 40 ga yaqin daraxt va buta o'simlik turlari uchraydi. Qo'riqxonaning deyarli yarmi archazorlardan iborat. Bundan tashqari pista, Kavkaz shamshodi, zirk, irg'ay va boshqa o'simlik turlari o'sadi.. Toshli va qoyali joylarda kiyik yashaydi. Chotqol qo'riqxonasining eng qimmatli hayvonlaridan biri



— menzbir sug'uridir.

3. Surxon davlat qo'riqxonasi. Surxondaryo viloyati SHerobod tumanining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ikkita mustaqil xudud:



Orol-Payg'ambar va Qo'hitontog' tizmasi sharqi yonbag'ridan tashkil topgan. Umumi maydoni 3092 ga bo'lgan Orol-Payg'ambar hududi Halqaro Qizil kitob va O'zbekistan Qizil kitobiga kirgan Buxoro bug'usi (xongul) va yaylov-to'qay

ekotizimlarini saqlab qolish masadida 1971 yildayoq qo'riqxonona sifatida tashkil topgandi. 1987 yilda Qo'hiton davlat qo'riqxonasi Orol-Payg'ambar qo'riqxonasi bilan birlashtirildi va umumi maydoni 24554 ra bo'lgan Surxon davlat qo'riqxonasiga qayta tashkil qilindi. Qo'riqxonaning Qo'hiton hududi tog'-o'rmon ekotizim sifatida tavsiflanadi. Uning hududi Pomir-Oloy tog tizimi Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida dengiz sathidan 1500 dan 3157 m gacha balandlikda joylashgan. Qo'riqxonaning Qo'hiton hududi ko'p sonli mayda soylardan tarkib topgan yaxshi rivojlangan gidrografik tizimni ta'minlaydigan doimiy va muvaqqat oqadigan ko'plab suv oqimlariga ega. Hozirgi paytda Qo'hitonda 269 tur va 55 oilaga mansub 578 tomirli o'simliklar ro'yxatga olingan, shundan 23 turdag'i tomirli o'simlik turi O'zbekistan Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Yer usti (o'rmon, dala, adir) o'simliklari bilan band maydon 16620 ga (67,7%), toshli yonbag'ir, to'kilma, qiyaliklar bilan band maydon 7839 ga (31,9%). O'rmonlar 9288 ga yoki hududning 37,8%ini tashkil qiladi. Asosiy o'rmon hosil qiladigan o'simlik Zarafshon archasi hisoblanadi. Qo'riqxonada umurtqasizlar ko'p miqdorda va xilma xil turlarda taqdim qilingan, lekin mutaxassislar yo'qligi tufayli haligacha o'rganilmagan. Hozirgi paytda Qo'hitonda 1 turdag'i baliq, 2 turdag'i amfibiya, 26 turdag'i reptiliya, 74 turdag'i qush va 23 turdag'i sutemizuvchi aniqlangan. Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi, hamda

Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lар va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Qo'riqxonaning 100 dan ortiq turi uchraydi, shundan bir necha turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 600 turi, shundan 22 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

4. Qizilqum davlat qo'riqxonasi. Bu qo'riqxona Xorazm va Buxoro viloyatlari hududida joylashgan. 1971 yilda tashkil etilgan. Maydoni – 1011 ga. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi tasarrufida. Qo'riqxona hududida hayvonlarning 250 turi uchraydi, shundan 10 ortiq turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 160 turi, shundan 2 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Qo'riqxona hududidagi to'qayzorni ko'proq daraxt-butazor egallaydi. Bundan tashqari, bu yerda har xil o'tlar, qamish, qo'g'alar, ro'vak, ajriq va boshqalar o'sadi. Qumli joylarga qora va oq saksovul, cherkez, qandim va quyonsuyak xarakterlidir. Qo'riqxonaning tabiiy sharoiti turli xil hayvonlarning yashashiga imkon beradi. Sudralib yuruvchilardan cho'l toshbaqasi, qizil qulqoq kaltakesak, yumaloq bosh kaltakesak va Severtsov gekkoni, suv ilon, zaharli charxilon va boshqalar uchraydi. Qo'riqxonada suvda suzuvchi qushlar ko'p bo'lib, ularning 82 turi ma'lum. Shundan 29 turi yilning to'rt faslida uchratiladi. Yirtqich qushlardan burgut, qora qirg'iy, kuykanak, jig'altoy va boshqalar uchraydi. Qo'riqxonaning eng chiroylı qushi Amudaryo qirg'ovulidir. Sutemizuvchilardan ingichka barmoqli yumronqoziq, malla yumronqoziq, qum sichqoni, qo'shoyoq yirtqichlardan chiyabo'ri, tulki, to'qay mushugi va qum mushugi, bo'ri uchraydi. Shuningdek, bu yerda 200 ga yaqin yovvoyi cho'chqa va buxor bug'usi yashaydi. Buxor bug'usi alohida muhofaza qilinadi. Qo'riqxonaning asosiy vazifasi inson qo'li tegmagan landshaftlar, Amudaryo, to'qaylari va tutashib turgan cho'l landshaftlarini o'rGANISH va saqlash, shuningdek, buxoro bug'usi, jayron va Amudaryo qirg'ovuli ekologiyasini o'rGANISH va muhofaza qilish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

5. Bodayto'qay qo'riqxonasi. Qoraqalpog'iston hududida joylashgan. 1971 yilda tashkil topgan. Maydoni -6642 ga. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv

xo'jaligi tasarrufida. Qo'riqxonada hududida – hayvonlarning 135 turi, shundan 11 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; o'simliklarning 160 turi, shundan 2 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan. Bu yerda turang'i, yulg'un va qiyozorlar mavjud. Hayvonlardan yovvoyi cho'chqa, bo'rsiq, quyon, Xiva qirg'ovuli, olachipor qizilishton va boshqalar yashaydi. Qo'riqxonada xalqaro dasturdagi ishlar olib boriladi. Uning asosiy vazifasi Amudaryo qayiridagi tabiiy majmualarni o'rganishdir. «Baday to'qay» davlat qo'riqxonasi TMXI Qizil kitobi, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, SITES II Ilovasiga kiritilgan Buxoro bug'usini (xongulni) iqlimlashtirish bilan shug'ullanadi.

6. Nurota tog'- yong'oqzor davlat qo'riqxonasi. Jizzax viloyati Nurota tog' tizmasi yonbag'irlarida joylashagan. 1975 yilda tashkil etilgan. Maydoni-17752 ga. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi tasarrufida. Qo'riqxonada hududida – hayvonlarning 183 turi, shundan 13 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 814 turi, shundan 29 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Qo'riqxonada «Qizil kitob»ga kirgan arxarlar bilan tog' qo'yilishi shuningdek, yovvoyi cho'chqa, suvsar va «Qizil kitob»ga kirishi mumkin bo'lgan mitti shunqor va boshqa hayvonlar muhofaza qilinadi. Nurota qo'riqxonasining asosiy vazifasi tog'-dasht mintaqalarini, ayniqsa, Severtsov qo'yilishi o'rganish va muhofaza qilish uslublarini ishlab chiqishdan iborat.



7. Zarafshon davlat qo'riqxonasi. Bu qo'riqxona Samarqand shahrining Zarafshon daryosi qayirida joylashgan. 1975 yilda tashkil etilan. Maydoni 2352 ga. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi tasarrufida. Qo'riqxonada – hayvonlarning qariyib 170 turi uchraydi, shundan 2 turi O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 300 turi mavjud. Qo'riqxonani

tashkil qilishdan maqsad yo'qolib borayotgan chiroyli Zarafshon qirg'ovulini va qimmatli dorivor butasi - chakanda (oblepixa) muhofaza qilish, to'qay changalzorini tiklash va yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat. Qo'riqxonaning nisbatan kichik hududida kariyb 3 turdag'i o'simlik o'sadi. Qo'riqxonada 59 turdag'i dorivor va 23 turdag'i texnik o'simlik aniqlangan. Qo'riqxonaning faunasi 359 tur bo'lib, shundan amfibiyalar - 2, sudralib yuruvchilar - 8, qushlar - 206, sutevizuvchilar - 24 turni tashkil qiladi. 1995 yildan beri Zarafshon davlat qo'riqxonasida xongulni ko'paytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 1996 yilda Zarafshon davlat qo'riqxonasiga «Baday to'qay» qo'riqxonasidan 6 bosh Buxoro bug'usi keltirilgan. Hozirgi paytda qo'riqxona hududida 27 bosh xongul yashaydi. Zarafshon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi, hamda Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

8. Hisor davlat qo'riqxonasi. Qashqadaryo viloyatida Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida dengiz sathidan 1750 m dan 4349 m gacha balandlikda joylashgan. 1983 yilda ikki davlat qo'riqxonasi-Qizilsuv va Miroqi qo'riqxonalarining birlashishi natijasida tashkil qilingan. Hozirgi paytda bu O'zbekistondagi eng katta qo'riqxonadir. Umumiyligi maydoni 80986 ga ni tashkil qiladi. Qo'riqxonada o'rmon, dala ekotizimlari ajralgan; o'rmon bilan qoplangan maydoni 56678,1 ga; yaylovlari mavjud; daryo va ko'llarga 171 ga to'g'ri keladi; botqoqliklar 511 ga; qiyaliklar va tog' yonbag'ridagi to'kilmalar 31819 ga ni tashkil qiladi; yo'llar, shudgor va qamishzor dalalar mavjud. Qo'riqxonaning asosiy o'rmon hosil qiluvchi o'simliklari zarafshon va yarim shar shaklidagi archalar hisoblanadi. Umuman olganda muhofaza etiladigan hududdagi o'simliklar O'rta Osiyo tog'lari uchun odatiy bo'lib, uning katta qismi tor endem o'simliklaridir. Ba'zi hisoblarga qaraganda tomirli o'simlik turlarining umumiyligi miqdori 800-900 dan kam emas. Murakkabguldoshlar (Compositae), dukkaklilar (Leguminosae), butguldoshlar (Craciferae), donlilar (Gramineae), soyabonlilar (Umbelliferae), labguldoshlar (Labiatae) turlari ko'plab uchraydi. O'zbekiston

Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob turlardan qo'riqxonaning hududida 32 turdan kam bo'limgan tomirli o'simlik turi o'sadi. Qo'riqxonaning hayvonot olami boy, turli-tuman va tog'li o'rmonlarga xos bo'lgan deyarli barcha turlarni qamrab oladi. Qo'riqxonada 2 turdag'i baliq, 19 turdag'i amfibiya va reptiliya, 103 turdag'i uyali qushlar, 28 turdag'i sut emizuvchi yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga oqtirnoq ayiq, ilvirs, Turkiston silovsini, Eron qunduzi, qushlardan: burgut, boltayutar, itolg'i, qumoy, kichik burgut kiritilgan. Qizilsuv uchastkasidagi Osmontalash cho'qqisi eng yuqori nuqta — dengiz sathidan 4000 m dan baland, aynan shu yerda Sibir qo'zisi, ilvirs, ular va qizil sug'ur yashaydi. Sudralib yuruvchilardan suvilon, chiporilon, ko'lvor ilon, turkiston agamasi, Osiyo ilonquyrug'i va boshqalar uchraydi. Tojikiston bilan chegarada qo'riqxonaning eng yirik daryolaridan biri Oqsuv havzasida eng yuqori cho'qqili Gilon uchastkasi joylashgan. Uning balandligi dengiz satqidan 2500 dan 4300 m gacha oraliqda. Bu uchastkada O'zbekistondagi eng yirik Severtsov muzligi mavjud. Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimiga kiradi va *Davbionazorat* tomonidan boshqariladi. ,

9. Kitob davlat geologik qo'riqxonasi. Qashqadaryo viloyati Kitob shahridan 52 km sharqda joylashgan bo'lib, u O'zbekistonda yagona geologik qo'riqxonadir. 1979 yilda tashkil etilgan. Maydoni-3938 ga. O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida. Qo'riqxonaning hududida – hayvonlarning 168 turi, shundan 10 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan; - o'simliklarning 800 turi, shundan 22 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Bu qo'riqxonada qoyali tog'lar muhofaza qilinadi. Tog' jinslari kesmasidagi Yerning 400—500 million yillar oldingi geologik davri tarixi boshqa qatlamlarda bunchalik aniq ko'rinxaydi. Qo'riqxonada marjonlar, mollyuskalar, dengiz liliyalari, qadimgi umurtqalilar—grantolitlar, kosali baliqlarning izlari topilgan. Ana shularga qarab bundan 400—500 million yillar, avval tabiat qanday bo'lganini bilish mumkin. Kelajakda O'zbekistonda tabiatni muhofaza qiladigan qo'riqxonalar soni oshib boraveradi.

Davlat buyurtmaxonalari.

«Muhofaza etiladigan tabiiy xududlar to'grisida»gi Qonunga muvofiq davlat buyurtmaxonalari (TMXR 4-toifasi) va tabiat yodgorliklari (TMXR 5-toifasi) muhofaza etiladigan tabiiy xududlar sirasiga kiritilgan. 1988 yilda O'zbekistonda 6 ta buyurtmaxona faoliyat yuritardi: Arnasoy - Jizzax viloyati; Dengizko'l - Buxoro viloyati; Qo'hiton - Surxondaryo viloyati; Sangardak - Surxondaryo viloyati; «Efa» - Surxondaryo viloyati; Gurlan - Xorazm viloyati. Bugungi kunda O'zbekistan hududida 10 ta faoliyat yuritayotgan buyurtmaxona mavjud.

1.«Dengizko'l» davlat ornitologik buyurtmaxonasi O'zbekiston Respublikasining 1973 yildagi 530-sonli qarori bilan tashkil qilingan, faoliyati muddati Buxoro viloyati ijroqo'mining 26.06.90 yildagi 157-11-sonli qarori bilan (muddatsizga) uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad - uchib o'tadigan suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish va qayta tiklash, qishlash yerlarini, yashash muhitini saqlab qolishdir. Buyurtmaxonani muhofaza qilish davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiysi tomonidan amalga oshiriladi. Muhofaza doimiy emas, operativ reydlar orqali yuritiladi.

2. «Qoraqir» davlat buyurtmaxonasi. Buxoro viloyati ijroqo'mining 25.01.92 y.dagi 15-1-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxonaning muddati cheklanmagan. Maydoni 30 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad - uchib o'tadigan qushlar va boshqa hayvonlarni, ular yashash va ko'payish yerlarini muhofaza qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ixtiyorida. Buyurtmaxona xududini muhofaza qilish davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiysi tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtmaxona o'z soqchilariga ega emas.

3.«Arnasoy» ornitologik buyurtmaxonasi. Jizzax viloyati Forish tumanidagi Tuzkon ko'lida O'zbekiston Vazirlar Kengashining 9.09.83 y.dagi 521-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxona maydoni 63,3 ming ga. Buyurtmaxona muddati cheklanmagan. Tashkil qilishdan maqsad - uchib

o'tadigan va uya quradigan qushlarni muhofaza qilishdir. Buyurtmaxonani O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi - Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Davbionazoratning Arnasoy inspeksiyalari muhofaza qiladi.

4. «Saygachi» davlat buyurtmaxonasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91 y.dagi 311/42-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001 y.dagi 33/1-sonli qarori bilan buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010 yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 1 mln. ga. Buyurtmaxona sayg'oqlar-(Saiga tatarica) CITES II va ular yashash joylari - migratsiya yo'llari, qishlash va ko'payish yerlari, shuningdek, boshqa, birinchi navbatda, Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar - tuvaloq (Otis Tarda) UzRDB RL, yo'rg'a-tuvaloq (Chlamydotis undulata) UzRDB RL kabilarni muhofaza qilish maqsadida tashkil qilingan, Qoraqalpogiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga bo'ysunadi.

5. «Sudoche» davlat ornitologik buyurtmaxonasi Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91 yildagi Z11/42-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Muynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001 yildagi 33/1 -sonli qaroriga muvofiq buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010 yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Ornitoligik buyurtmaxonasini tashkil qilishdan maqsad - Amudaryo sohil bo'yidagi suvbotqoqlik joylari biologik kompleksini saqlab qolish, uchib o'tadigan qushlarni, ular ko'payishi va dam olishi joylarini muhofaza qilishdan iborat. Har yili ko'lda yuz minglab suvda suzuvchi va suv yaqinida yashaydigan qushlar dam oladi va ko'payadi. Qoraqalpogiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga bo'ysunadi.

6.«Muborak» davlat buyurtmaxonasi Qashqadaryo viloyati xokimiyatining 5.12.98 y.dagi X-344/12-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni o'zgartirilgan - 219534 ga.

Tashkil qilishdan maqsad - yo'rg'atuvaloq (Chlamydota undulata), uning yashash joylari va boshqa yovvoyi hayvonlar yashash joylarini saqlab qolishdan iborat. Qashqadaryo viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

7.«Oqtog'» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.97 y.dagi K-113-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Oqtog' tizmasida joylashgan. Buyurtmaxona maydoni 15420 ga. Tashkil qilishdan maqsad - «Oqtog'» tog'li mavzesi tabiiy kompleksini saqlab qolish. Navoiy viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

8.«Qarnabcho'l» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimligining 9.07.98 yildagi F-90-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 25 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad - birinchi navbatda, yo'rga-tuvaloq (Chlamydota undulata) va uning yashash joylari, shuningdek butun Qarnabcho'l biologik kompleksini saqlab qolish. Buyurtmaxona yo'rg'a tuvaloq ko'plab uchib o'tadigan yo'lida joylashgan. Navoiy viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

9.«Qo'shrabod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo'mining 8.07.92 y.dagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 16 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad - Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar - yirtqich qushlar, Nurota qo'riqxonasidan buyurtmaxona hududiga kiradigan Severtsov qo'yini (Ovis amrnon severtzovi) muhofaza qilishdir. Samarqand viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

10. «Nurobod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo'mining 8.07.92 y.dagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 40 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad - yovvoyi hayvonlar, jumladan, yo'rg'a-tuvaloq (Chlamydota undulata) va uning yashash joylari, butun tabiiy cho'l kompleksini muhofaza qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni uuhofaza qilish davlat qo'mitasi - Samarqand viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

Milliy bog’lar

1. Zomin milliy bog’i. Jizzax viloyati hududida joylashgan. 1976 yilda tashkil etilgan. Maydoni-24110 ga. O’zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo’jaligi tasarrufida.

2. Ugam – chotqol davlat-tabiat milliy bog’i. 1990 yilda Toshkent viloyatida G’arbiy Tyan-Shanning togli tarmoqlarida 574,6 ming ga. maydonda tashkil etilgan. Bog’ tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan. Bogning ulkan maydoni dengiz sathidan 900 dan 4000 m gacha oraliqdagi balandlikda joylashgan, turli yer toifalarini o’z ichiga oladi. Bu yerga Chotqol biosfera qo’riqxonasining 2 uchastkasi kiradi, bu yerda to’liq osoyishtalik hukmron. Ohangaron va Burchmulla o’rmon ho’jaliklari yerlarida o’rmonni tiklash faoliyati olib borilmoqda, chorva mollarini boqish cheklangan, yoz faslining uch oyidagina katta balandlikdagi yaylovlarda boqiladi. Bog’ o’simlik olamiga boy, olimlar minglab turdagiligi o’simliklarni aniqlashgan, ulardan o’nlab turlari Qizil kitobga kiritilgan, bir necha turi esa shunchalik kichik arealga egaki, bog’dan boshqa dunyoning hech bir yerida uchramaydi. Bog’ning hududida o’sadigan qator o’simlik turlari dorivorlar sirasiga kiradi. Hayvonot olami ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Qizil kitobga kirganlaridan ayiq, ilvirs, ko’k sug’ur uchraydi. Bu yerda 200 turdagiligi qushni uchratish mumkin. Bog’ hududiy ma’muriy organ - Toshkent viloyati hokimligiga bo’ysunadi.

3. “Jayron” ekomarkazi. Buxoro viloyati hududida joylashagan. 1976 yilda tashkil etilgan. Maydoni - 7122 ga. O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi tasarrufida. Ekomarkaz hududida quyidagilar hisobga olinadi: - hayvonlarning 8 turi, shundan 4 turi O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. “**Jayron**” ekomarkazi noyob va yo’qolib ketish havfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko’paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o’ziga xos bo’lgan ob’ekt hisoblanadi. 1977 yilda tashkil etilganida ekomarkaz «Buxoro jayronlarni ko’paytirishga ixtisoslashgan pitomnik» deb nomlanardi va unda 42 ta jayron, 4 ta qulon va sayg’oqlar boqilardi. Keyinchalik unda xalqaro va milliy Qizil kitoblarga kiritilgan xongul (buxoro bug’usi), gepard, yo’rg’a-tuvaloq

ham boqildi. Pitomnikning oldiga jayronlarni ko'paytirish, ular biologiyasini o'rghanish va populyatsiyasi resurslaridan oqilona foydalanish vazifasi qo'yildi. Keyinchalik ijobiy natijalar olinganidan keyin pitomnik boshqa noyob turlar — kulon, Prjevalskiy oti, yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bilan shug'ullandi, bu yerda sayg'oqlar podasi ham bor edi. Faoliyatini kengaytirish va hayvonlarni ko'paytirish sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli 26.12.98 yilda Vazirlar Kengashining farmoyishi bilan pitomnik «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi. Ekomarkaz maydoni 7153 ga bo'lib, shundan 5145 ga brakonerlar va yirtqichlardan himoyalanish uchun metall to'siq bilan to'silgan. Pitomnikda tutqunlik sharoitida hayvonlarni o'rghanish va zarurat tug'ilganida hayvonlar bolalarini qo'lda ovqatlantirish imkonini beradigan volerlar tizimi qurilgan. Hozirgi paytda 2007 yildagi hisobga ko'ra jayronlar miqdori 549 bosh, Prjevalskiy otlari 35 boshgacha, O'zbekiston tabiatida yo'qolib ketgan qulonlar 55 boshgacha yetgan. Jayronni volerda ko'paytirish sohasidagi ishlar eng muvaffaqiyatli ketmoqda. Ekomarkaz faoliyat yuritgan vaqt davomida tutqunlikda ko'paytirilgan hayvonlarning 30 ta avlodini olishga muvaffaq bo'lindi. Bunda hayvonot bog'lari va xususiy kollektivlarga 200 dan ortiq jayron, 5 ta Prjevalskiy oti sotilgan, 822 bosh jayron tarqatilgan, ovchilik mahsuloti (jayron) 128 boshni tashkil qildi. Ekomarkazda bajarilayotgan tadqiqotlar natijalari ilmiy va davriy matbuotda, shuningdek ko'p sonli respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan, majlis va kongresslarda ma'ruza tariqasida taqdim qilingan. Ekomarkaz bo'yicha ilmiy bibliografiya maqolalari 200 taga yetib qoldi. Ekomarkaz xodimlari bilan birga Rossiya, Frantsiya, AQSH va boshqa mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan noyob ilmiy ishlar o'tkazildi. Ekomarkazning ilmiy hisobotlari Fanlar Akademiyasida taqrizdan o'tadi va Davbionazoratda saqlanadi. Har yili Prjevalskiy oti populyatsiyasining holati haqidagi axborot Xalqaro otlar nasli kitobini yuritish uchun Xalqaro Prjevalskiy oti fondiga jo'natiladi. Buxorodagi Prjevalskiy oti populyatsiyasi soni va ko'paytirish salohiyati bo'yicha jahondagi beshlikka kiradi. Ekomarkazda hayvonlar bosh suyaklarining noyob to'plami mavjud. 2007 yilda unda 937 nusxa, shundan jayronlar bosh suyagi 918 nusxa

mavjud edi. Kollektsiya materialining qadrliligi shubhasiz, to'plam O'zbekiston ilmiy va madaniy fondlar ro'yhatiga kiritilgan. Hozirgi paytda Ekomarkaz jayron, qulon, Prjevalskiy oti, Buxoro tog'li qo'yini ko'paytirish bilan shug'ullanmoqda. 2007 yilda keltirilgan bir juft Buxoro qo'yidan 2 ta qo'zichoq tug'ildi. So'ngra yana 2 ta Buxoro qo'y'i ko'zichog'i va 1 ta morxo'r uloqchasi keltirildi. Joriy paytdagi umumiy soni 6 bosh Buxoro qo'y'i va 1 ta morxo'rdan iborat. Maqomi bo'yicha "Jayron" ekomarkazi ilmiy-ishlab chiqarish tashkiloti hisoblanadi. Shtati 33 kishi, 12 kishidan iborat ilmiy bo'limi bor. Ilmiy bo'lim kuchi bilan jayron, qulon, Prjevalskiy oti bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari alohida mavzular bo'yicha qo'shma ishlanmalar, boshqa tashkilotlarning yakka tartibdagi tadqiqotlari ham mavjud.

Umumiy xarakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari geologik-geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga bo'linadi. Geologik-geomorfologik yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, valunlar, g'orlar, karst voronkalar, vulqon kraterlari, geyzerlar, qadimiy okean, dengiz, ko'l va daryo qirg'oqlari, muzlik izlari, «qo'y-peshonalari», morenalar, tog' jinslarining nuragan shakllari, relief shakllari va qoyalar kiradi.

Davlat tabiiy yodgorliklari.

O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy xududlar tugrisida»gi Qonuni 26-moddasiga muvofiq Davlat tabiiy yodgorliklari SH toifadagi METHga kiradi):

1. **«Vardanzi» Navoiy viloyati** hokimligining 21.04.97 y.dagi K-113-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan (Sobiq qo'riqxona maqomiga ega bo'lgan hudud), maydoni 320 ga ni tashkil qiladi.
2. **«Mingbuloq» tabiat yodgorligi** Namangan viloyati xokimligining 28.12.91 yildagi 164/14-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.
3. **«Chust» tabiat yodgorligi** O'rta Osiyo o'simlik va himoyalash ITI tashabbusi bilan Namangan viloyati hokimligining 19.08.90 yildagi 65/5-sonli qaroriga, (shuningdek, Namangan viloyati CHust tumani Halk deputatlari

kengashining 1990 y. 30 avgustdagи P-5/12-sonli qaroriga) muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

4. «**Yozyovon**» tabiat yodgorligi Fargona viloyati hokimligining 23.05.94 yildagi 164-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1842 ga ni tashkil qiladi.

5. «**Markaziy Farg'ona**» tabiat yodgorligi Farg'ona viloyati Xalq deputatlari kengashi Oxunboboev tumani ijroiya qo'mitasining 1986 yil 2 avgustdagи qaroriga muvofiq «Solijonobod» xo'jaligi yerlarida tuzilgan, maydoni 142,5 ga ni tashkil qiladi.

6. «**Yangibozor**» tabiat yodgorligi Xorazm viloyati Yangibozor tumani hokimligining (17-04.2004 yildagi 1155-sonli) qarorlariga muvofiq tuzilgan. Maydoni o'zgarib turgan va tegishli ravishda 136 ga, 113,2 ga, 120 ga, 121 ga ni tashkil qilgan, hozirgi paytda 490,3 ga.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» bo'limi tomonidan «O'simlik olamini muhofaza qilish» bo'limi bilan birgalikda 100 yosh va undan katta daraxtlarni hisobga olish va ularga «Davlat tabiat yodgorligi» maqomini berish uchun viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitalaridan kelgan axborotni jamlash va umumlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa hovuzlar, daryolar va magistral kanallar, shuningdek iste'mol va maishiy suv ta'minoti, dorivor va madaniy-sog'lomlashtirish suv manbalari haqidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.04.92 y.dagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari bilan «Chirchiq, Oxangaron, Surxondaryo, Chimyon-Ovval yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar makomini berish to'g'risida»gi, «Zarafshon daryosi zamонавиy vodiysi, Osh-Aravon, Norin, Kitob-Shahrisabz yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga aloxida muhofaza etiladigan tabiiy xududlar maqomini berish to'grisida»gi, shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo; Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi Chirchiq; Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo; Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatidagi Zarafshon; Andijon va Namangan viloyatidagi Qoradaryo; Surxondaryo, Xorazm

viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Amudaryo; Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va Fargona viloyatlaridagi Sirdaryo daryolari suvni muhofaza qilish zonalari va sohil bo'yli polosasini belgilash haqidagi nizomlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi".

1979 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Ilmiy Kengashi O'zbekiston «Qizil kitobi»ni ta'sis etdi. 1983 yili nashr qilingan «Qizil kitob»ning birinchi jildiga 22 turdag'i sutemizuvchilar, 33 tur qushlar, 5 tur sudralib yuruvchilar, 5 tur baliqlar kiritilgan edi. Yangi Qizil kitobga (2006) sut emizuvchilarning 23 turi (kenja turlar bilan 24), qushlarning 48 turi (kenja turlar bilan 58), sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi (kenja turlar bilan 18), xalqasimon chuvalchanglarning 3 turi, malyuskalarning 14 turi (kenja turlar bilan 15) va bo'g'imoyoqlarning 61 turi (kenja turlar bilan 62) kiritildi. Jumladan, katta shomshapalak, shalpangquloq, ko'rshapalak, oq suvir, qo'ng'ir ayiq, sirtlon, qoplon, xongul, irbis, jayron, Ustyurt qo'yi, Qizilqum yovvoyi qo'yi, arxar, lochin, itolg'i, ov turna, tuvaloq, bizg'aldoq, qum chumchug'i, echkemar, Osiyo kobrasi, baxri baliq, mo'ylov baliq, Sirdaryo kurakburuni va boshqalarini ko'rsatish mumkin.

«Qizil kitob»da hayvonlar soni va uning o'zgarish sabablariga, ayrim turlarning ahvoli va ularning ko'payishiga, muhofaza qilish bo'yicha belgilangan hamda mo'ljallangan tadbirlarga alohida e'tibor berilgan. SHuningdek, biotexnik tadbirlar, qo'riqlanadigan zonalar va qo'riqxonalar barpo etish, brakonerlarga qarshi kurash, kishilarning ekologik bilimini oshirish taklif etilgan. Respublikamiz «Qizil kitobi»ni har 5 yilda yangilab turish ko'zda tutilgan. «Qizil kitob»ning hayvonot dunyosini o'rganish O'zbekiston Fanlar akademiyasining Zoologiya va Parazitologiya instituti zimmasiga yuklatilgan. Hozirgi kunda «Qizil kitob»ga kiritilgan ayrim turdag'i sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar alohida nazorat ostidadir. O'zbekiston hayvonot dunyosini chuqurroq o'rganish natijasida «Qizil kitob»ning keyingi nashriga olimlar qoshiqburun va qorabosh qulog'ichni kiritishni tavsiya etishmoqda. O'zbekiston «Qizil kitobi»da faqat umurtqali hayvonlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qayta chop etiladigan «Qizil

kitob»da umurtqasiz jonivorlar vakillarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

1. Yo'qolib ketgan yoki yo'qolish arafasidagn turlar.
2. Yo'qolib borayotgan turlar.
3. Noyob turlar (ma'lum kichik maydonlarda o'zigaxos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar).
4. Kamayib borayotgan turlar.

«Qizil kitob»ning yangi nashrida muhofazaga olingan o'simlik turlari soni 400 ga boradi. Unda o'simlik har bir turining nomi, qaysi oilaga mansubligi va qisqacha ta'rifi, tarqalishi haqida ma'lumotlar keltirilgan, sxematik xaritada ularning o'sish joyi ifodalangan. Shuningdek, ilmiy ma'lumotlar asosida tabiatdagi miqdori va ushbu tur arealining o'zgarish sabablari, tabiiy sharoitda ko'payish yo'llari, muhofaza qilish chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shunday qilib, «Qizil kitob»ning mohiyati shundaki, u nabotot va hayvonot olamining noyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir. Uning vazifasi jamoatchilik va davlat ijroiya muassasalarini tabiat muhofazasi muammosiga jalg etishda va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat. «Qizil kitob» lar Vatanimizda o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasidagi eng muhim xayrli ishlardan biri bo'lib hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston hududida nechta qo'riqxonalar faoliyat ko'rsatmoqda?
2. Quriqxonalarning asosiy vazifasi nima?
3. Buyurtmaxonalar va Milliy bog'lar soni qancha?
4. Jayronekomarkazi qayerda joylashgan?
5. Jayron ekomarkazini asosiy vazifasi nimadan iborat?



14-§. Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy, taʼlim va tarbiyaviy xususiyatlari

Mavzu rejasi

- 1. Ekologik taʼlim va tarbiyaning asoslari**
- 2. Fanning oʼziga xos atama va ilmiy tushunchalari;**
- 3. Tabiatdan foydalanishda fanlararo aloqalar;**
- 4. Tabiatni muhofaza qilish ilmiy-texnik asoslari;**
- 5. Atrof-muhit muhofazasining quyidagi asosiy jihatlari**

Ekologik taʼlim va tarbiya toʼgʼrisidagi dastlabki oddiy tushunchalar oʼrta maktabda boshlanadi. Maktabda oʼtiladigan nazariy ekologiya biologiya fanlari asosida oʼqilib, oʼquvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tashqi muhitni ehtiyyotkorlik bilan muhofaza qiluvchilar etib tarbiyalash ishiga yordam berishi kerak. Oliy maktablarda ekologiya taʼlimi tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslarini chuqur va har tomonlama oʼrganishga, inson faoliyati natijasida biosferada roʼy berayotgan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish (maqsadlariga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, u talabalarni maktablarda ekologiya asoslari va tabiat muhofazasi taʼlimini oʼqitishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Ekologik taʼlim va tarbiya quyidagi asosli boʼlimlarni oʼz ichiga oladi:

1. Talaba va oʼquvchilarni tabiat goʼzalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatları, tabiat bilan jamiyat oʼrtasidagi murakkab oʼzaro munosabatlar, shuningdek, inson xoʼjalik faoliyatining tabiatga taʼsiri oqibatlari haqida bilim berish.

- ✓ Talaba va oʼquvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan toʼgʼri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi boʼlib, kishilarda tabiat oldida masʼuliyatni anglash malakasini hosil qiladi.
- ✓ Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin,

o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini oshiradi.

Ekologik tarbiya quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- a) kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish;
- b) ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash;
- v) ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;
- g) kishilarni tabiat «in'omlari»dan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.

Tabiatning normal holati uchun fuqarolik mas'uliyatini to'la anglash - ekologik ta'lim va tarbiyaning ifodasiidir. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarkibiy qismidir. Kishilarda tabiat qonunlariga to'la rioxha etish to'g'risida va bu sohada Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va mas'uliyat hissi hosil etilmasa, ularda to'la ekologik ong va tafakkur hosil bo'lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega bo'lgan har bir kishi o'z mehnat faoliyatida tabiatga ta'sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik, ekologiya bilimlaridan bexabarlik go'yo tabiatda «o'z-o'zidan boradigan» ekologik muvozanatning mavjudligi, qandaydir «yopiq ekologik sistema» ning borligi, tabiatning qaytadan tiklanishiga aralashmaslik to'g'risidagi tamoman zararli fikrlar» ning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ekologik tarbiya —axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini



va mas’uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur.

Har bir sohaning o’ziga xos atama va ilmiy tushunchalari mavjud. Shuning uchun ham har bir mutaxassis o’ziga yoqqan yoki o’zicha to’g’ri deb hisoblagan atama va tushunchalardan foydalana bilishga ma’suliyat bilan qarashi kerak. Har bir atama va tushuncha ilmiy asoslangan bo’lishi bilan bir qatorda sodda, tushunarli bo’lishi zarur.

Quyida amaliyotda qo’llanilayotgan ba’zi ekologik, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish sohalariga oid atama, tushunchalarga izoh beriladi.



Tabiat insoniyatning yashashi uchun, uni o’rab turib bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadigan tabiiy sharoit. Tabiat – cho’l, adir, tog’, yaylov, o’rmon, dala, tevarak-atrof va shu kabilarning tabiiy sharoiti, manzarasi. Tabiat–tabiiyot fanlarining (fizika, astronomiya, mexanika, kimyo,

biologiya, geografiya, geologiya va boshqalar) o’rganadigan ob’ekti. Tabiat – biror narsaning xususiyatlari va o’ziga xos belgilari. Tabiat insonni fe’li, xulq-atvori, kayfiyati, ruhiy holati, didi va farosati, hatto yaratuvchi, ilohiy kuch hisoblanadi.

Insonni o’rab turuvchi borliq insoniyat mavjudligining zaruriy asosidir. Tabiat barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda insonlar faoliyatining moddiy asosi bo’lib kelgan. Inson va tabiat bir-biridan ajralmas va o’zaro uzviy bog’liqdir. Chunki tabiat har bir odam va butun jamiyat uchun zaruriy hayot muhiti va moddiy resurslarniig yakkayu-yagona manbaidir. Tabiat va tabiiy resurslar kishilik jamiyatni vujudga keladigan va rivojlanadigan asos, kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiradigan bиринчи manbadir. Tabiat va jamiyat, bir-biri bilan bog’liq holda bir butunlikni tashkil etadi. Shu sababli, kishilik jamiyatining o’zi ham, ma’lum ma’noda tabiatning bir qismi bo’lib, atrofini o’rab turuvchi tabiiy muhit bilan modda almashinishida muhim rol o’ynaydi. Odam, ayni vaqtda, ham biologik, ham ijtimoiy hodisadir. Tabiat insonga boshqa tirik organizmlar qatori

ta'sir o'tkazadi. Biroq, insonning tabiatga bo'lgan ta'siri esa, ongli ta'sir bo'lib, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Shunday qilib, inson mehnati tufayli, hayvonlardan farq qilib, tabiiy muhitning biologik nazorati ostidan chiqdi va o'zining elementar fiziologik funktsiyalari ehtiyojini katta doirada qondirish imkoniyatini oldi. Mehnat, aqlidrok va ijtimoiy faoliyat insonni evolyutsiyaning eng yuqori darajasiga ko'tardi va uning tabiatga ko'rsatadigan ta'sirining oqilona bo'lishini belgilab berdi.

Tabiat jamiyatga xom ashyo, energiya va hatto estetik boyliklar beradi, uni o'zining tashkil topishi, tuzilishi, rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan quollantiradi, ishlab chiqarishga va ijtimoiy jarayonlarning borishiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Tabiatda unsurlarni o'zaro nisbati o'zgarsa, joy tabiatni va landshafti o'zgarishi mumkin. Masalan: suvga tanqis, cho'lli hududda ba'zi sabablar bilan suv ko'payib ketsa, yangi botqoqliklar, sho'r yerlar vujudga keladi va joyning mikroiqlimi, tuproq-o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi, ya'ni tabiatni o'zgaradi. Shuning uchun tabiat unsurlariga ta'sir ko'rsatishdan oldin oqibatda paydo bo'ladigan natijalarni oldindan ko'ra olish va bashorat qila bilish kerak.

Tabiatdan foydalanish – tabiat va tabiiy resurslar imkoniyatini hisobga olgan holda, ulardan to'g'ri foydalanishining turli shakllari, jamiyatning moddiy va madaniy talablarini qondirish uchun tabiatdan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlarini hisobga olgan holda kishilik jamiyatni manfaatlarini ko'zlab, tabiatni o'zgartirish, kishilik jamiyatini Yerning geografik qobig'iga ta'siri majmuasi va tabiat, tabiiy resurslaridan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilish to'g'risidagi fandir.

Tabiatdan foydalanishdagi omillar – tabiat boyliklaridan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillar (abiotik, biotik va antropogen) hamdir. Omillar quyidagi uch guruhga bo'linadi: tabiat boyliklariga ta'sir ko'rsatadigan, ishlab chiqarishga ta'sir (muhit ifloslanishi) ko'rsatadigan, tabiatdan foydalanuvchi insonga ta'sir ko'rsatadigan.

Ekologik omil – tirik organizmlarni turli joylarda moslashishi amalga

oshuvchi muhitning jami tabiiy va sun'iy sharoitlaridir. Ekologik omillar kelib chiqishi (genezis) bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: koinot, abiotik, biotik, antropogen, biologik va boshqalar.

Tabiat omili – turli tabiiy hodisa va jarayonlarning harakatdagi kuchining ta'siri. Ular ta'siri oqibatida tabiiy landshaftlar o'zgarishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish – davlat, xalqaro, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar tomonidan tabiatni ilmiy asosda insoniyat manfaatlarini ko'zlab saqlashga, tabiatdan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanishga, ongli ravishda o'zgartirishga, uning mahsuldorligini saqlab qolishga va atrof-muhitni iloji boricha tabiiy hamda toza saqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Tabiatni muhofaza qilish asosan quyidagicha olib boriladi:

1) alohida ajratilgan hududlarda tabiat tabiiy holda saqlanadi va ko'paytiriladi;

2) tabiatga ta'sir etib, undan to'g'ri foydalanib madaniy landshaftlar hosil qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilishning dastlabki bosqichida yo'qolib borayotgan alohida o'simlik va hayvon turlarining muhofazasi amalga oshirilgan. Insoniyatning ehtiyojlari o'sib, tabiiy resurslardan foydalanish kuchayganidan keyin, tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarni muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish bosqichi vujudga kelgan. XIX asrning o'rtalaridan boshlab tabiiy resurslar bilan bir qatorda, tabiiy hududiy komplekslar – alohida noyob hududlarni muhofaza qilish bosqichi ajratildi.

Atrof-muhitni hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy masshtabga yetgan XX asr o'rtalaridan boshlangan. Bu bosqichning asosiy vazifasi ekologik sistemalarni muhofaza qilish, ularning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini ta'minlash va biosferadagi muvozanatni saqlashdir. Bunda tabiatdan oqilona foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyati va tabiat bir butundir. Jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'siri ortib boradi. Tabiiy omillar bilan antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib tabiiy landshaftlarning o'rniqa antropogen landshaftlar vujudga

keladi. O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmasa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi.

Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga qator misollar keltirish mumkin.

Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Chunki, tabiat unsurlari (iqlim, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar) tabiatning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Tabiiy resurslarning har biri kompleks foydalanishni talab etadi. Masalan: daryodan elektr energiyasi manbai, turli baliq, suv qushlari va boshqa hayvonlarning makoni, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish manbai, transport vositasi, chuchuk suv – manbai, rekreatsiya – turizm ob'ekti va boshqa sohalarda foydalanish mumkin.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda har xil katta kichik hududlar, hatto kichik joyning mahalliy sharoiti, tabiiy boyligining holati hisobga olinadi va bu bilan regionallikka amal qilinadi.

Tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, geologiya, fizika, astronomiya, matematika, kimyo va boshqalar) ekologiya, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bevosita bog'liqdir. Bunga qator misollar keltirish mumkin. Masalan: tabiiy muhit – qator tabiiy fanlarning ilmiy-tadqiqot predmeti hisoblanadi. Barcha ilmiy va ilmiy-texnologik ishlab chiqarishlar tabiiy fanlarning ilmiy, amaliy xulosalariga tayanish kerak.

Tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilish faqatgina tabiiy fanlari o'rGANADIGAN ob'ekt bo'libgina qolmasdan, ijtimoiy fanlarni ham o'rGANADIGAN asosiy ob'ektlaridan hisoblanadi. Uning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, tabobat, yuridik, madaniy, tarbiyaviy va boshqa qirralari bir butun majmua jarayon bo'lib, aniq ifodalangan fanlararo xarakterga ega.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda juda ko'p, xilma-xil jihatlar mavjud: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy, sog'lomlashtirish-gigiena, yuridik, estetik, ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy va boshqalar. Yuqoridaq jihatlarini o'nlab fanlar

va ularning tarmoqlari o'rganadi.

Hozirgi vaqtida tabiiy boyliklarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli, har bir yoshda ijtimoiy ongni shakllantirish va taraqqiy ettirish kerak. Ijtimoiy ong shakllari xilma-xilligi, ob'ektiv olamning – tabiat va jamiyatning boyligi, serqirraligi va turli-tumanligidan kelib chiqadi.

Insonva tabiat munosabatlarining geografik asoslari ishlab chiqarishning geografik joylashishi, uning turli davlatlar va hududlarda rivojlanish sharoiti va xususiyatlarini o'rganadigan ijtimoiy-iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan joyning tabiiy boyliklariga xo'jalik nuqtai nazaridan baho berish ham kiradi. Chunki, tabiiy sharoit xo'jalikka, mehnat unumdoorligiga, aholi va aholi joylarining tarqalish xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, soha tadqiqotlarida hududning tabiiy boyliklarini iqtisodiy baholash katta ahamiyatga ega.

“Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” kursi “Iqtisodiy nazariya”, “Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish”, “Milliy iqtisodiyot”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Statistika” va boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Masalan: ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda jumladan, ayrim davlat yoki hududlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, transportning taqsimlanishida tabiiy sharoit va resurslarning aholining soni, tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, o'z navbatida, tabiiy boyliklardan foydalanishga, ijtimoiy mehnat unumdoorligiga, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti mehnat vositalarining takomillashishiga va o'z navbatida muhitga ishlab chiqarish ta'sirining kuchayishiga va uning ifloslanishiga olib kelmoqda. "Demografik portlash", ya'ni yer yuzi aholisi sonining keskin oshishi ham tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Antropogen ta'sir global ekologik sistema biosferaning faoliyatiga ham jiddiy ta'sir yetkazib, umumsayyoraviy ekologik halokat xavfini keltirib chiqarmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy, iqtisodiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy, estetik maqsadlari adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan.

Insoniyatning tabiatga, turli bosqichdagi tabiiy majmualarga turlicha ta'siri yuqori darajaga ko'tarilgan vaqtida, ekologik muvozanat buzilishining oldini olish muammosi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ekologik vaziyatni o'rganish, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ekologik vaziyatni o'rganish tabiiy muhit holatini kuzatish va to'g'ri boshqarish, ya'ni monitoringni tashkil qilishga bog'liq. Monitoring ba'zi ob'ekt yoki hodisalarни kuzatishni, ya'ni tabiiy muhitdagi antropogen o'zgarishlarni kuzatishni, baholashni hamda bashorat qilishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli jabhalarida, tuman, shahar, viloyatlarning tabiiy muhitga ta'sirini nazorat qilish uchun ekologik pasportlashtirish amalga oshirilmoqda. Ekologik pasport barcha chiqindilar manbalari to'g'risida va ularning ta'sir darajasi haqida ma'lumot beradi.

Tabiatdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish printsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Davlat tashkilotlarining bu sohadagi faoliyati ham Konstitutsiyada belgilandi. Har bir davlatda tabiat muhofazasi bo'yicha alohida qonun qabul qilinadi. Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarni buzgan shaxslar ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ekologiya va madaniyat tushunchalari uzviy bog'langan. Aholining madaniyat saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha joyda ekologik sharoit shunchalik qulay, yashash muhiti sof bo'ladi. Har bir mutaxassis, qaysi jabhada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar aholining umumiyligi ekologik madaniyati saviyasini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shishi kerak. Milliy madaniy qadriyatlar, urf-odatlarni tiklash ham muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhit muhofazasi inson tomonidan qadimdan amalga oshirilib kelinadi hamda uzlucksiz rivojlanish va takomillashishda. Avvallari tabiat muhofazasining asosiy tarkibiy qismlari moddiy xotirjamlik to'g'risida qayg'urish bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida atrof-muhit muhofazasi maqsadlari juda keng va turli-tumandir. Atrof-muhit muhofazasining quyidagi asosiy jihatlarini ajratish

mumkin: ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy-gigienik, texnik-texnologik, tarbiyaviy, nafosat, ilmiy-tajribaviy va boshqalar.

Ijtimoiy-siyosiy jihatni. Butun insoniyat miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari yechimi turli ijtimoiy tizimlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Global masshtabda tabiiy resurslarning tugashi va tabiiy muhitning ifloslanishi bo'yicha **birinchidan**, biosferaning bo'linmasligi bilan bog'ilq tabiiy muhit ifloslanishini, uni sodir bo'lgan mamlakat hududiy chegarasida to'xtatib qolish mumkin emas; **ikkinchidan**, alohida mamlakat qanchalik kuchli iqtisodiy va ilmiy texnik salohiyatga ega bo'lmasin, u shunday murakkab va ko'p qirrali muammoni to'liq yecha olmaydi. Zarur tadbirlar nafaqat milliy, balki xalqaro darajada qabul qilinishi talab etiladi.



Huquqiy jihatni. Atrof-muhit muhofazasining huquqiy asoslarini qonunlar tizimi tadbirlari asosida shakllantirish, ular atrof-muhit muhofazasi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, bu boyliklarni tiklash va ko'paytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarish qonunning bunday tizim tadbirlarini belgilash natijasi – tabiat muhofazasi huquqiy aloqadorlik yig'indisining vujudga kelishidir.

Ekologik-iqtisodiy jihatni – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bu tadbirlarning nafaqat o'tmishda, balki hozirgi vaqtda ham muhim tarkibiy qismidir. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi ishlab chiqarishning jadal o'sishi va ilmiy-texnikaviy inqilob bilan bog'liqdir. Ushbu jihatning muhimligi iqtisodiyotda tabiiy resurslarning o'rni benazirligidan dalolatdir. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil tabiiy resurslarning xo'jalik ishlab chiqarishiga jalb etilishi, ko'plarining zahirasi kamayish yo'nalishiga o'tgan bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitida atrof tabiiy muhit muhofazasi ekologik-iqtisodiy jihatining ahamiyati yanada ortmoqda. Shuni unutmaslik lozimki, «Iqtisodiyot – muhit» tizimida atrof-muhit oldida iqtisodiyotni, iqtisodiyot oldida esa atrof-muhitni afzal ko'rishga

intilib bo'lmaydi. Ishlab chiqarishni keng ko'lamda rivojlantirish, iqtisodiy o'sish va xalqning faravonligini orttirishdagi shunday aloqadorlikni ta'minlash lozimki, unda atrof-muhitni saqlash va uzuksiz yaxshilash o'zaro bog'liq holda amalga oshirilish talab etiladi.

Ijtimoiy-gigiyenik jihatni. Bizning mamlakatimizda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy-gigiyenik jihatni salomatlikni muhofaza qilish va aholining eng qulay gigiyenik hayot sharoitini saqlashdagi harakatlarda namoyon bo'ladi. Sanoatlashgan shaharlar mintaqasida tabiatdagi keskin salbiy o'zgarishlar: suv, havo, tuproqning sanoat korxonalari chiqindilari bilan ifloslanishi, kimyoviy va radiatsiya manbalari aholi salomatligiga va hatto uning nasliga ham xavf tug'diradi. Shundan kelib chiqqan holda atrof-muhitni sog'lomlashtirish uning sifat holati to'g'risida miqdoriy sanitar-gigiyenik ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Organizm bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganish sohasidagi muhim tamoyil organizmlarning adaptatsiya imkoniyatlari biologik me'yorlarini hisobga olishdir. Ko'rيلayotgan jihatning eng muhim tomoni aholi salomatligini muhofaza qilish uchun atrof-muhit o'zgarishidagi kelajak holatni ijtimoiy-gigiyenik bashorat qilishdir.

Texnik-texnologik jihatni. Atrof-muhitni muhofaza qilishning bu jihatni ishlab chiqarishni tashkil etishda chiqindisiz tamoyiliga qaratilgandir. Yangi texnologik jarayonlarni yaratish, ular asosida chiqindisiz ishlab chiqarishning vujudga kelishi, nafaqat yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki tabiiy resurslardan majmuali foydalanishni ta'minlaydi. Texnologiyalarni ekologiyalashtirishning haqiqiy yo'li – bu, ishlab chiqarishda asta-sekin kam chiqitli, keyin esa chiqindisiz berk tsiklga o'tishki, qaysiki, tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatlarini orttiradi.

Tarbiyaviy jihatni. Tabiatning tarbiyaviy ahamiyatini baholash qiyin. Tabiat bilan aloqa kishini yuvvoshlikka, ezgulikka va axloqlilikka undaydi, yaxshi sifatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, bolalar tarbiyasida tabiatning o'rni beqiyosdir. Tabiatga muhabbat, uni avaylash ko'nikmalari tirik mavjudotlarga qayg'urish, mehr-oqibatlilik, vatanparvarlik kabi eng yaxshi fazilatlarni shakllantiradi. Shuning

uchun ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihatni katta ahamiyatga molikdir.

Nafosat jihatni. Inson doimo tabiat go'zalligiga mahliyo bo'lib kelgan. U betakror tog' manzaralari, ajoyib sharsharalar, maftunkor yer osti g'orlari, moviy dengiz, sho'x daryolar, ajoyib hayvonot olami, chiroyli daraxt, buta, gulu maysalarni ko'rib, lol qolgan va ularni sevgan. Tabiat qadimdan kishilarga ilhom baxsh etgan. Inson go'zallikka chanqoq. Tabiatdagi o'sha go'zallik insonda turli tuyg'ular uyg'onishiga turtki, ijobiy ilhomlanish ajoyib musiqa asarlari va she'rlar yozilishiga, genial suratlar chizilishiga asos bo'lган.

Ilmiy-tajribaviy jihatni. Keyingi davrda atrof-muhitni muhofaza qilishning fan uchun ahamiyati tobora ortmoqda. SHu sabab tabiiy majmualar va ulardagi barcha organizmlarning hamma turini saqlab qolish zarurati muhimdir. Tabiat qanchalik butun-yaxlitligicha va uning tabiiy xilma-xilligi saqlansa, inson tomonidan qilinadigan o'zgartirishlar qonuniyatlarini aniqlab olish va prognozlar qilish hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqish shuncha yengillashadi.



Savol va topshiriqlar

1. Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy jihatlari haqida gapiring?
2. Tabiatni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy jihatni nimalardan iborat?
3. Ekologiyaning ijtimoiy-gigiyenik jihatlari nimalarda aks etadi?
4. Ekologiyaning tarbiyaviy jihatni haqida gapiring?
5. Ekologiya va atrof muhit muhofazasining ilmiy-tajribaviy jihatni.



GLOSSARY

Abiotik muhit—biotsenotik muhitning asosi hisoblanib, unga «o’lik» tabiat, Quyosh yorug’ligi, harorat, tuproq, namlik va boshqa iqlim unsurlari kiradi.

Abissal — dengiz va okeanlarning tubsiz chuqurligi.

Avtotrof —organizmlarning fotosintez yoki xemosintez yo’li bilan havo va tuproqdagi noorganik moddalardan foydalanib oziqlanishi.

Agrofitotsenoz - inson tomonidan sun’iy ravishda hosil qilingan va boshqariladigan beqaror jamoa yashaydigan ekin maydoni.

Agroekosistema - agrofitotsenzlardagi o’simlik turlari bilan tashqi muhit o’rtasidagi murakkab aloqalar sistemasi.

Anemoxoriya- shamol yordamida o’simlik bo’laklari (zarrachalari) ning tarqalishi.

Antibioz - biror turdagи organizmning tashqi muhitga chiqargan zaharli moddasi hisobiga boshqa turning yashay olmaslshgi.

Antropogen ta’sir - inson xo’jalik faoliyati natijasida tabiat va uning resurslariga ko’rsatiladigan ta’siri

Autekologiya - ekologianing ayrim turlarning tashqi muhit sharoitlariga moslanishini o’rganaligan bo’limi.

Atsedofit - tuproqning kislotali muhitida normal o’suvchi o’simlik turlari.

Aeroplankton - Havo qatlamida tarqalgan tirik organizmlar.

Bazofil - tuproqning ishqoriy sharoitida normal o’suvchi o’simlik turlari.

Batial - dengizning sublitoral va abissal zonalari orasidagi 2000—3000 m gacha chuqurlikni o’z ichrga oluvchi qatlam.

Bental - suv havzalarining bentos organizmlar tarqalgan zonasi; bunga suv havzasining tubi kiradi.

Bentos - hayotining butunlay yoki ko’p qismini okean va suv havzalari tubida o’tkazishga moslashgan barcha tirik organizmlar yig’indisi.

Biogeotsenozlar - muayyan tuproq sharoitida o’simliklar, hayvon zamburug’lar hamda ayrim sodda hayvolardan tashkil topgan mikroorganizmlarning birgalikda yashashi.

Biologik spektr - muayyan hududda yashovchi o’simliklar hayot shakllarining foiz hisobidagi tarkibi.

Bioluminentsentsiya - organizmlarning hayot faoliyati natijasida nur ajratib chiqarish hodisasi.

Biomassa - tirik organizmning ma’lum maydon birligiga to’g’ri keluvchi og’irlilik yoki energiya birliklaridagi ifodalangan umumiyl vazni.

Biomarom - tirik organizmlarning tashqi muhitning o’zgarishlariga moslanish imkonini beradigan biologik jarayonlar va hodisalarning kun, mavsum va yil davomida o’zgarib turishi.

Biosfera - hozirgi davrda yashab, faollik ko'rsatib turgan organizmlar tarqalgan qobiilyati.

Biotsenozi - quruqlikdagi yoki suv havzalaridagi muayyan maydonlarda tarqalgan o'simlik, hayvon, zamburug' va mikroorganizmlarning o'zaro birgalikdagi yig'indisi.

Galofitlar - sho'rланган tuproqlarda o'suvchi o'simlik turlari.

Geliofitlar - Quyosh yorug'ligi yaxshi tushib turadigan joylarda o'suvchi o'simlik.

Geterotrem - tana harorati o'zgaruvchan gomoyoterm, ya'ni faol holatda doimiy uyquga ketganda esa o'zgaruvchan hamda ma'lum sharoitda tashqi muhit haroratiga nisbatan bir oz yuqori doimiy haroratni ushlab turadigan poykiloterm hayvonlar.

Geterotrof - tayyor organik moddalar hisobiga hayot kechiruvchi organizmlar. Ularga barcha hayvonlar, tekinxo'r o'simlik turlari, zamburug'lar hamda ko'pchilik mikroorganizmlar kiradi.

Gigrofit - ortiqcha namlik sharoitida yashashga moslashgan o'simliklar.

Gidatofit - ko'pchilik qismi yoki butunlay suv qatlamida yashovchi suv o'simliklari.

Gidrobiologiya - biologyaning okean va chuchuk suv havzalaridagi xayotni o'rganadigan bo'limi.

Gidrofitlar - faqat ostki qismi suvda bo'lган suv o'simliklar

Gomoyoterm - tashqi muhit haroratiga bog'liq bo'lмаган holda tana harorati doimiy bo'lган (issiq qonli) hayvonlar.

Gomeostaz - murakkab moslanish reaksiyalari yordamida tabiiy tizimlarning dinamik harakatdagi muvozanatini tuzilishi: modda va energiya tarkibiy ichki xususiyatlari hamda barcha bo'g'inlarni o'zidan boshqarish, doimo yangilanib turish xususiyati.

Dominant - jamoadagi miqdor jihatdan ko'p bo'lган hukmron tur.

Zootsenoz - ma'lum biotsenozdagi o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lган hayvonlar yig'indisi.

Indikator - ekosistemadagi tashqi muhit xususiyatlarini bildiruvchi tur.

Yirtqichlik - tirik holdagi hayvonlar bilan oziqlanishga moslashgan hayvon, yirtqich hayvon.

Kaltsefob - karbonatli yoki ohakli tuproqlarni yoqtirmaydigan o'simliklar.

Kaltsefil - karbonatli tuproqlarda yashashni yoqtiruvchi o'simlik.

Kommensalizm - organizmlarning vaqtinchalik yoki doimo birgalikda yashash shakli. Bunda bir tur organizm ikkinchisiga zarar keltirmagan holda undan foydalananadi.

Konsortsiya - biotsenozning markaziy a'zosidan tashkil topgan tuzilish birligi. Konsortsiya guruhlari funktsional jihatdan bir-birlari bilan bog'langan.

Konsumentlar - fotosintez yoki xemosintez yo'li bilan to'plangan tayyor organik moddalarni iste'mol qiluvchi organizmlar yig'indisi.

Litoral - quruqlik bilan dengiz o'rtasidagi chegara maydon. Ushbu maydonda doimo suv bosish va qaytish hodisalari bo'lib turadi.

Litosfera - Yer qobig'inining yuqori qatlamlari.

Mezofit - o'rtacha tuproq namligi sharoitida o'suvchi o'simlik. Mezofitlar kserofitlar bilan gigrofitlar o'rtasidagi ekologik guruh.

Migratsiya - suvda yashovchi hayvonlarning ko'payishi yoki quruqlikdagi hayvonlarning mavsumiy ko'chnb yurishi.

Mirkobiotsenoz uncha katta bo'lмаган biotsenoz.

Mutualizm - simbioz hayot kechirishning bir ko'rinishi. Bunda har ikki organizm ham bir-biridan foyda ko'radi.

Odam ekologiyasi - ekologiyaning inson atrofini o'rab olgan tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirini o'rganuvchi bo'limi.

Paleobiosfera - qadimgi geologik davrdagi biosfera.

Paleoekologiya - ekologiyaning geologik davrlarda yashagan qazilma holidagi organizmlarning hayot sharoitlarini o'rganadigan bo'limi.

Panimistik - populyatsiyalar orasida erkin chatishadigan turli jinsdagi organizmlar.

Pelagial - dunyo okeanlarining suv qatlami. U epipelagial, batipelagial va abissapelagial deb atalgan tikka zonalarga bo'linadi.

Pestitsidlar - o'simliklar, qishloq xo'jalik mahsulotlari, yog'ochdan, jundan, paxtadan va teridan tayyorlangan materiallarni himoya qilish hamda xavfli kasalliklarni qo'zg'atuvchi tashqi tekinxo'rلarga qarshi kurashda foydalilaniladigan kimyoviy moddalar.

Petrobiontlar - tosh-shag'alli joylarda va qoyalarda yashovchn organizmlar.

Plankton - suvning' oqimiga faol qarshilik ko'rsata olmaydigan suv qatlamida yashovchi organizmlar.

Produtsentlar - noorganik moddalardan organik moddalar to'plovchi avtotrof organizmlar.

Poykiloterm - tana haroratini idora qila olmaydigan organizmlar. Ularning tana harorati tashqi muhitga bog'liq bo'ladi.

Psammofitlar - ko'chib yuruvchi qumlarda yashashga moslashgan o'simliklar

Populyatsiya - bir turga mansub bo'lган individlar yig'indisi hisoblanib, umumiy genofondga muayyan sharoitda va maydonda tarqalgan bo'ladi.

Psixrofil - nisbatan past haroratlarda yaxshi o'sib, rivojlanuvchi sovuqsevar organizmlar.

Raqobat - jamoada turlar o'rtasidagi har qanday qarama-qarshi munosabatlar. Turlar o'rtasida ozuqa, boshpana, yorug'lik va boshqalar uchun raqobat bo'ladi.

Yashash uchun kurash ham raqobatning bir ko'rnishidir.

Redutsentlar - hayot faoliyati davomida (bakteriyalar va zamburug'lar) organik qoldiqlarni noorganik moddalarga parchalovchi organizmlar.

Simbioz - organizmlarning aloqa shakllaridan biri. Bu yerda har ikki organizm birqalikda yashab, o'zaro foyda ko'radi.

Sinekologiya - ekologiyaning jamoalar tuzilishi, energetikasi, dinamikasi, shakllanishi, tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi kabilarni o'rganadigan bo'limi.

Stratosfera - troposferadan yuqori, 8—16 km dan 45—55 km balandlikkacha bo'lgan atmosfera qatlami.

Stenobiont - tor doirada tashqi muhitga moslashgan organizm.

Subdominant - ikkinchi darajadagi qavatlarda hukmronlik qiluvchi o'simlik yoki hayvon turi.

Suktsessiya - Yer sharining muayyan maydonlaridagi ekosistemalarning ketma-ket almashinishi.

Stsiofit - soyasevar o'simliklar; o'rmondag'i daraxtlar tagida o'suvchi o'simliklar.

Tabiiy resurslar - jamiyatning moddiy, ilmiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishda foydalanilayotgan yoki foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy ob'ektlar, jarayonlar.

Termoregulyatsiya - issiq qonli hayvonlarning tana harorati doimiyligini ta'minlovchi fiziologik - biokimiyoviy jarayonlar yig'indisi.

Fitotsenozi - Yer yuzining bir xil maydonida yashayotgan o'simliklarning har qanday yig'indisi bo'lib, ular o'zaro hamda tashqi muhit bilan aloqada bo'ladi: natijada maxsus fitomuhitni hosil qiladi..

Fotoperiodizm - kun va tunning almashinishi, organizmlar hayot jarayonlari jadalligining o'zgarishlarlari.

Senopopulyatsiya - jamoadagi ayrim tur individlarning yig'indisi.

Evribiont – tashqi muhitning keng doiradagi o'zgarishlariga moslashgan organizm.

Edafik omil - tirik organizmlar hayotiga tuproq va grunt sharoitlarining ta'siri.

Edifikator - ekosistemalarning tuzilishi va faollik ko'rsatishida muhim rol o'ynovchi o'simlik yoki hayvon turi.

Ekologik valentlik - organizmlarning tashqi muhit omillari ta'siriga bardosh berish chegarasi.

Ekonisha - biotsenoza organizmning tutgan o'rni; uning boshqa turlar bilan aloqasi va biotopga bo'lgan talabi.

Ekologik piramida - ekosistemadagi produtsentlar, konsumentlar va redutsentlarning massa, son yoki energiya birliklarida grafik tarzda ifodalangan o'zaro nisbatlari.

Ekologik omil - tirik organizm moslanish xarakteriga javob beradigan tashqi

muhitning har qanday unsuri.

Uning abiotik, biotik va antropogen turlari ajratiladi.

Etologiya - zoologiyaning hayvonlarning tabiiy sharoitdagi xulqiy (xattiharakatlari) tomonlarini o'rganadigan bo'limi. .

BMT tomonidan belgilangan atrof-muhitni muhofazasiga doir kunlar:

- ✓ 22 mart Butun dunyo suv kuni
- ✓ 23 mart Butun dunyo meteorologlar kuni
- ✓ 7 aprel Butun dunyo sog'liqni saqlash kuni
- ✓ 22 aprel Yer sayyorasi kuni
- ✓ 22 may Xalqaro biologik xilma-xillik kuni
- ✓ 31 may Butun dunyo chekishni tashlash kuni
- ✓ 5 iyun Butun dunyo atrof-muhitni muhofaza qilish kuni
- ✓ 17 iyun Butun dunyo cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni
- ✓ 26 iyun Xalqaro narkotik moddalarni qabul qilishga qarshi kurash kuni
- ✓ 11 iyul Butun dunyo aholi kuni
- ✓ 16 sentyabr Xalqaro ozon qobig'ining himoya qilish kuni
- ✓ 10 oktyabr O'rta Osiyo tabiatini kuni
- ✓ Sentyabrning oxirgi haftasi Butun dunyo dengiz kuni
- ✓ 1 dekabr Butun dunyo SPIDGA qarshi kurash kuni

ILOVALAR

O'ZBEKISTON «QIZIL KITOBI»GA KIRITILGAN NOYOB (YO'QOLISH XAVFI BO'LGAN) O'SIMLIK VA HAYVON TURLARINING RUYXATI

O'simliklar

Abolin astragali
Ajoyib ilonbosh
Azim shirach
Ayyor shirach
Albert shirachi
Angren kopeechnigi
Archasimon kovoak
Aflatun piyozi
Bex, yetmak
Bobrov astragali
Butkov lolasi
Boysun shirachi
Buze lolasi
Buxoro astragali
Buxoro spirostegiyasi
Buxoro tuyatovoni
Vvedenskiy andraxnesi
Villis astragali
Gulxayrigulli qoraqat
Greyga lolasi
Guli salim
Dolon astragali
Yovvonitok
Ii shir&chl
Ilonbarg piyoz
Ingichkabargli shirach
Isirg'i, Eduard petiliumi
Iirtilgan astragal
Qilsimon lola
Knoring isfaragi
Korolkov marmaragi
Kosachasiz sug'uro't
Korolkov shirachi
Kudryashov sutmamasi
Kumushsimon astragal
Martirus qilicho'ti
Mingdevona
Oddiy jilonjiyda
Olijanob ostoovskaya

Po'fanak, Boysun va Buxoro
po'fanagi
Javg'aza, Farg'ona lolasi
Jizzax karragi (kuziniyasi)
Jovqosin, Leman lolasi
Zarafshon soxtaklausiyasi
Za'far, Olatog' za'fari
Sertuk changchili lola
Sirttan, qoramevali sirttan
Soxta quyuq sutlama
Sumbul, mushuk, kovrak
So'g'd lolasi
Sug'ur o't, tillarang sug'ur o't
Tilla rang astragal
Tukli lola
Tukli shirach
To'rsimon moyqaragan
Toshyorar neuroloması
Tyanshan.marvaragi
Turkiston eulofiyasi
Ulug'bek skabiozasi
Fedchenko lepidolofasi
Fedchenko ostrolodochnigi
Popov aulokospermumi
Oq gulli shirach
Pufaksimon shirach
Sertuk skutellariya
Severtsov mogoltaviyasi
Hisor bodomi
Hisor dioniyasi
Chimyon tulkiquyug'i
Chimyon lolasi
Chinor, Sharq chinori
Chinnigul, O'zbekiston chinniguli
Shakaptar lamiropapusi .
Echison shirachi
Nurota shirachi
Qalin tukli eremostaxis
Qattiq bokalsimon sutlama

Oloy puzirnitsasi
Oltoy trolliusi
Omonqora, Viktoromonqorasi
Oq lola, Turkiston lolasi

Qizil-yashil astragal
Qoraygan shirach
Qubba boshli kuziniya
Qurama neurolomasi

Sutemizuvchilar

Gepard, qoplon
Xongul
SHalrangquloq ko'rshapalak
Qoraquyruq, jayron
Qdzilqum yovvoyi qo'yi
Qoraquloq
Qo'ng'ir ayiq
Qoplon
Hindasalxo'ri
Qrta Osryo qunduzi
Malin
Mapxo'r
Mitti qo'shoyoq
Olako'zan
Silovsin
Sirtlon
Tojik yoki Buxoro qo'yi
Tyanshan qo'yi, arxar

Sudralib yuruvchilar

Kapchabosh ilon
Xentog qurbaqasi
Shtraux qurbaqasi
Chipor
Echkemar

Baliqlar

Bakra baliq
Kichik kurakburun balig'i
Mo'ylov baliq,
So'g'yon
Qoziq shim
Sirdaryo kurakburun balig'i

Hayvonlar

Qushlar

Boltayutar
Bizg'aldoq
Birqozon
Cho'l burgutya
Burgut
Qizil g'oz
Jingilador, birqozon
Itolg'i
Qironqora
Io'rg'a tuvaloq
Kichik burgut
Qirg'iy burgut
Qum chumchug'i
Qulon — baur
Kichik oqqush
Kumoy
Laylak
Lochin
Mallabosh lochin
Marmar o'rdak
Osiyo loyxo'ragi
Oqbosh o'rdak
Oq dumli suv burgut
Oq laylak
Oq turna
Oqqush — oqqul
Suv qiyg'ir
Torg'oq
Tuvaloq

**Farg'ona vodiysining O'zbekiston
Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlari
O'simliklar**

1. Normushk

Eonimus koopmanini
Normushkdoshlar oilasi.

2. Qizil Astragal

Astragal rubellus
Burchoqdoshlar (Dukakdoshlar) oilasi.

3. Rakodes Astragali

Astragal rakodes
Burchoqdoshlar (Dukakdoshlar) oilasi.

4. Zarhallangan Kiyikpanja

Astragalus auratus.
Burchoqdoshlar (Dukakdoshlar) oilasi.

5. Angren Mumsigi

Hedizarum angrenicum
Burchoqdoshlar (Dukakdoshlar) oilasi.

6. Anor

Punica granatum
Anordoshlar oilasi.

7. Ajoyib SHilvi (Uchqat)

Lonitsera paradoksa
SHilvidoshlar (uchqatlar) oilasi

8. Bolquray, Mayda mevali dorema

Dorema mikrokarpum
SHilvidoshlar oilasi

9. Severtsev Mug'ultoviyasi

Mogoltovia Severtsovii
SHilvidoshlar oilasi.

10. Ko'pgulli Ferganiya

Ferganiya polianta
SHilvidoshlar oilasi.

11. Toshyorar Neuroloma

Neuroloma saksifraga
Karamdoshlar (Butguldoshlar) oilasi.

12. Qurama Neurolmasi

Neuroloma kuramenze
SHilvidoshlar (uchqatlar) oilasi

13. Aflatun piyozi

Allium aflatunense
Piyozdoshlar oilasi.

14. Anzur Pijozi

Allium suvorovi
Piyozdoshlar oilasi.

15. Eduard Xolmoni

Petilium eduarde
Piyozdoshlar oilasi.

16. Javg'a - Farg'ona lolasi

Tulipa ferganika
Piyozdoshlar oilasi.

17. Pushti SHirach

Eremurs robustus
Piyozdoshlar oilasi.

18. Turkiston fumariolasi

Fumariola Turkestanika
Ko'knordoshlar oilasi.

19. Oloy Nataliellasi

Nataliella alaika
Sigirquyruqdoshlar oilasi.

20. Oloy Xiyoli

Fizoxlaina alaika
Ituzumdoshlar oilasi

21. Olga Sorbariyasi

Sorbaria olgae
Ra'noguldoshlar oilasi.

22. SHokaptar Lamiropappusi

Lamiropappus shakaptaricus
Murakkabguldoshlar oilasi.

H A Y V O N L A R

1. Qo'ng'ir ayiq

Ursus arktos isabellinus
Yirtqichlar turkumi
Ayiqlar oilasi.

2. Ola Qo'zan

Vormella peregunsa
Yirtqichlar turkumi

7. Itolg'i

Falko xerrug
Lochinsimonlar turkumi
Lochinlar oilasi.

8. SHtraux Qurbaqaboshi

Frinotsefalus shtrauxi
Kaltakesaksimonlar kenja turkumi

Suvsarlar oilasi.
3. Silovsin
 Felis Links Isabellina
 Yirtqichlar turkumi
 Mushuksimonlar oilasi
4. Oq Laylak
 TSikonia aziatika
 Laylaksimolar turkumi
 Laylaklar oilasi.
5. Oqbosh Qrdak
 Oksiura leuktsefala
 Plastinkatumshuqlar turkumi
 O'rdaksimonlar oilasi.
6. Boltayutar
 Gipaetos barbatus
 Burgutsimonlar turkumi
 Qirg'iylar oilasi.

Agamalar oilasi.
9. Echkemar
 Varanus gritseus
 Kaltakesaksimonlar kenja turkumi
 Echkemarlar oilasi.
10. CHipor kaltakesak
 Eremias skripta ferganensis
 Kaltakesaklar kenja turkumi
 Haqiqiy kaltakesaklar oilasi.
11. Sirdaryo kurakburun balig'i
 Pseudoskapirunxus fedchenkovi
 Bakra (Osetrsimonlar) baliqlar turkumi
 Bakralar (osetrilar) oilasi.

TABIIY MUHIT SIFATINI BELGILOVCHI STANDARTLAR

Ekologik standartlarda, tabiiy muhit komponentlari (suv, havo, tog' jinslari) va iste'mol buyumlardagi zararli moddalar miqdorining beziyon yuqori chegarasi, ya'ni kontsentratsiyasi - me'yori (PDK) ko'rsatilgan. Havodagi moddalarning yuqori kontsentratsiya chegarasi (PDK) insonning zararlangan muhitda bo'lish davomiyligiga ham bog'liq.

**Havodagi zararli moddalar me'yoriy kontsentratsiyasining yuqori chegarasi,
mg/m³**

Nº	Moddalar	PDK ish	PDK =	PDK s
1	Ammiak	20	0,2	0,04
2	Benzol	5	1,5	0,1
3	Azot (II)-oksiidi	5	0,085	0,04
4	Oltингurgut (II)- oksidi	10	0,5	0,05
5	Uglerod oksidi	20	5	3
6	Vodorod xlorid	5	0,2	0,2

Bu yerda PDK ish- ish joyidagi, PDKQ - shahar va qishloqlardagi mumkinlik darajasi yuqori chegarasining qisqa muddatliligi, PDK s- o'rtacha sutkalik me'yoriy miqdori.

Inson iste'mol qilishi, ovqat tayyorlashi, yuvinishi kabi turli maqsadlarda beziyon foydalanishi mumkin bo'lgan suv havzalaridagi zararli moddalarning (PDK) me'yoriy miqdori.

№	Moddalar	PDK, mg/l	Moddalar	PDK, mg/l
	A. Sanitar – toksiologik ko'rsatgichi asosida		V. Organik zararligi ko'rsatgichi asosida	
1	Anilin	0,1	Benzin	0,1
2	Benzol	0,5	Geksoxloran	0,02
3	Berilliyl	0,0002	Dinitrobenzol	0,5
4	Geksogen	-	Dixlorbenzol	0,5
5	Geksametilindiamin	0,01	Dixlorfenol	0,002
6	Geksoxlorbenzol	0,05	Dixloretan	2
7	Margumush	0,03	DDT	0,1
8	Nitrit, nitratlar (azot byuyicha)	10	Kerosin	0,1
9	Nitroxlorbenzol	0,05	Neft:	
10	Simob	0,0005	Oltингurgut кыллари	0,1
11	qurg'oshin	0,03	Boshqa turlari	0,3
12	Formaldegid	0,01	Uglerod sulfid	1
	B. Umusanitar zaraliligi asosida		Skipiadr	0,2
1	Ammiak (azot bo'yicha)	2	Prolpilen	0,5
2	Demitilformamid	10		
3	Kadmiy	0,001		
4	Kaprolaktam	1		
5	Kobalt	0,1		
6	Nikel	0,1		
7	Mis	1		
8	Temir	0,5		
9	Trinitrotoluol	0,5		
10	Toluol	0,5		
11	Xlorbenzol	0,02		
12	Xlorofos	0,05		
13	Aktiv xlor	0		
14	Rux	1		
15	Xrom:			
16	Uch valentli	0,5		
17	Olti valentli	0,1		
18	To'rt valentli	0,3		
19	Fenol (karbon kislota)	0,001		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2000. 14-15 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish tug'risida»gi Qonuni. 1992 yil 9 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1994. 203-204 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil 6 may. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1994. 100-105 b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Alovida muhofaza qilinayotgan hududlar to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, iyun, 1993. 113-116 b.
5. O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. 1997 yil 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1998. 73-76 b.
6. O'zbekiston Respublikasining «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. 1997 yil 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari-T.: Adolat, 1999. 60-65 b.
7. O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limdi rivojlantirish kontseptsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sod qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 24 yanvar
9. Ergashev A., Ergashev T. Agroekologiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
10. Axmadaliyev Yu. va boshq. Yerdan foydalanishni o'rganishda tarixiy geografik yondashuv // O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy geografik siyosati: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. -Namangan, 2001. 112-113 b.
11. Алиханов Б.Б, Григоруанц А.А., Доценко Н.П. и др. Популярная экологическая энциклопедия Республики Узбекистана 1-2-3-4 том.-Т.: Chinor ENK, 2008
12. Alixanov B.B i dr. Qo'riqxonalar va milliy bog'lar. -T.: Chinor ENK, 2005.
13. Alixanov B.B., Dotsenko N.P. i dr. Ozon qatlami. Toshkent, 2007.
14. Baratov A. Tabiatni muhofaza qilish. –T.; O'qituvchi, 1991.
15. Бекназов Р.У., Новиков Ю.В. Охрана природы. –Т.; Ўқитувчи, 1995.
16. Банников А.Г., Вакулин А.А, Рустамов Л.К.. Основы экологии и охрана окружающей среды. –М.: Колос, 1999.
17. Boymirzayev K.M., Jumahanov Sh.Z. Ekoliya va tabiatdan foydalanish. Namangan, 2004.
18. Ergashev A., Ergashev T. Ekoliya, Biosfera va tabiatni muhofaza qilish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.

- 19.Ososkova T.A., Spекторман Т.Ю., СНуб В.Е. Изменение климата. Toshkent, 2005.
- 20.Зайнутдинова Д. И др. Экологическая безопасность и гражданская инициатива №10. -Toshkent, Chasma Print”, “ 2009.
- 21.Nigmatov.A.N va boshqa. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlari. T.: Universitet, 2006.
- 22.Nigmatov A.N., Rasulov R.,va boshq. Adirlarda jarlanish va ularga qarshi kurash choralari.- T.: Universitet,2000. –110 b.
- 23.Otaboyev SH. T., Nabiev M. N. Inson va biosfera. Toshkent,«O’qituvchi» nashriyoti, 1995.
- 24.Rafiqov.A.A. Geoekologik muammolar. –T.; 1997.
- 25.Rafiqov A.A.. Orol taqdiri. –T.; Fan, 1990.
- 26.To’xtayev T, Hamidov A.. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.. –T.: O’qituvchi, 1994.
- 27.Tursunov X.T., Rahimova T. Ekologiya. –T.: Universitet, 2000
- 28.O’zbekistonda atrof muhit holatini ekologik ko’rsatkichlar asosida baholash Atlasi. Toshkent, O’zgeokadastr qo’mitasi, 2008.
- 29.O’zbekiston Respublikasi atrof-muhitni holati va tabiiy resurslardan foydalanish to’g’risida MILLIY MA’RUZA. Toshkent, 2008.
- 30.O’zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi. Tom 1. O’simliklar. Chinor ENK, 1998.
- 31.O’zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi. Tom 2. Hayvonot dunyosi. Chinor ENK, 1998.
- 32.O’zbekistonda atrof-muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish. Faktlar va raqamlar 2000-2004. Statistik to’plam. Toshkent, O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi,2006.
- 33.Xolmo’minov J. Ekologiya va qonun. –T.: Adolat, 2000.
- 34.Ergashev A. Umumiy ekologiya. T.: O’zbekiston-2003.
- 35.Shodimetov Yu.Sh. Ijtimoiy ekoliyaga kirish. -T.: O’qituvchi, 1994. -140 b.
- 36.Qayumov. A va boshqalar. Ekologiya asoslari va tabiatdan foydalanish (ma’ruzalar matni). –T.: 2000.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.....	5
 1-modul. Umumiy ekologiya	
1-§ Kirish. Ekologiya kursi, vazifasi, maqsadi, tuzilmasi va tarixi, fanni o'rganish usullari.....	6
2-§ Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar.....	11
3-§ Tabaitni muhofaza qilishning ilmiy nazariy asoslari.....	29
4-§ Populyatsiyalar va ekotizmlar ekologiyasi.....	60
5-§ Biosfera.....	78
 2-modul. Tabiatni muhofaza qilish	
6-§ Tabiiy resurslar, ulardan oqilona foydalanish va atmosfera muhofazasi.....	86
7-§ Atmosfera muhofazasi.....	98
8-§ Kimyoviy ishlab chiqarish va atrof-muhit.....	120
9-§ Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.....	131
10-§ Orol va orol bo'yi muammolari.....	149
11-§ Tuproq va uning muhofazasi.....	157
12-§ O'simlik, hayvonot dunyosi va ularni muhofaza qilish.....	172
13-§ Muhofazaga olingan hududlar.....	185
14-§ Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy, ta'lrim va tarbiyaviy xususiyatlari.....	206
 Glossariy.....	217
 Ilovalar.....	221
 Adabiyotlar ro'yxati.....	227

NAZAROV ABDUG'AFFOR ABDUJABBOROVICH
EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
(pedagogika ta'lif yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma)

MA'SUL MUHARRIR:

Soliyev E.A.– geografiya fanlari nomzodi, dotsent

TAQRIZCHILAR:

Tog'ayev I- biologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Jumaxanov Sh. - geografiya fanlari nomzodi,dotsent.

Texnik muharir:
Alimjanov N.

Musahhih:
Akbarov Z.

Bosishga ruxsat berildi: ___.2020 y. Bichimi 84x108 ofset qogozi.
Shartli bosma tobog'i –14,4. Nashr tobog'i-13. Adadi 200. Bahosi shartnoma asosida.

